



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№23
25 декабрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
10 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
23-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ- 10**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
23-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART- 10**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 23-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 189 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Haqberdiyeva Dilorom Mamatqulovna BOSHLANG'ICH SINFLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	11
2. Маматова Нигора ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ.....	12
3. Abdiraxmatov Habib Ziyodullayevich GLOBALLASHUV DAVRI TA'LIM TARBIYASINING MUHIM JIHLTLARI	14
4. Abduraxmanova Gulchexra Abdujalilovna BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	16
5. Arzimatova Feruza Nosirovna, G'aniyeva Barno Dadajonovna RUS TILI DARSLARIDA MAQOLLARDAN FOYDALANISH	18
6. Attayarova Gulnora Narzullayevna 9 YOSHLI BOLALARGA MATEMATIKANI O'RGATISH USULLARI	20
7. Boymuhamedova Gulchexra Hikmatullayevna ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA TA'LIMiy VOSITALARDAN FOYDALANISH.....	21
8. Boysariyeva Furuza Ishmurodovna UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH AHAMIYATI.....	23
9. Choriyeva Shohida Og'amurodovna BOSHLANG'ICH SINFLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING TA'LIMiy VA TARBIYAVIY AHAMIYATI.....	24
10. Erkaboyeva Go'zalxon Abdusamadovnaning BOSHLANG'ICH SINFLAR UCHUN MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH.	26
11. Yuldasheva Gubara Esanbayevna FARZANLARDA IJOBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI	27
12. Ishonxodjayeva Muqaddas O'ZBEK MILLIY XALQ HUNARMANDCHILIGI NAMUNALARINING RIVOJLANISHI TARIXI	29
13. Kazakova Salomat To'rayevna, Jumanazarova Nilufar Bahrom qizi O'QUVCHILARDA MILLIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOiy TA'LIM- TARBIYANING AHAMIYATI	31
14. Kenjayeva Iqbol Ramazonovna O'QISH DARSLARI O'QUVCHILARNING BILIMINI OSHIRISH VA MILLIY MADANIYAT QADRYATLARINI SHAKLLANTIRISH.....	33
15. Mahmudova Umida Abdurazzoqovna, Ibodullayeva Iroda Mamaraimovna O'QUVCHILAR YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH	34
16. Matchanova Munajat Shonazarovna, Azatova Shohsanam Mahmudovna BOSHLANG'ICH SINFLARIDA HAMKORLIKDA O'QITISH TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI	36
17. Mengqobilova Sojida Axmetovna YEVROPADA MARKAZIY OSIYO XARITASI	38
18. Mukhammedova Farida Kamilovna IMPROVING KNOWLEDGE WITH SUGGESTOPEDIA METHOD	39

19. Narmuxammatova Sayyora Ja'farovna BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	40
20. Oblokulova Mahliyo SYSTEM OF VISUALIZATION TOOLS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING	42
21. Ortiqova Jong'il Xoliyorovna GULLI O'SIMLIKLAR DUNYONI QANDAY O'ZGARTIRDI	44
22. Ortiqova Nilufar Xoliyorovna O'SIMLIK TURLARI KUTILGANIDAN TEZROQ YO'QOLIB KETMOQDA	45
23. Qo'ysinova Gavhar Xaydaraliyevna ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA HAMOHANGLIK	46
24. Raxmonova Shohista Payg'amovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIK TO'GARAKLARNING O'RNI	48
25. Ризаева Дилдора Хакимовна БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА АКТ ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	50
26. Saidjonova Ikbol Abdullayevna, Xolimova Farog'at Qadamboyevna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITASIDA ESTETIK TARBIYALASH IMKONIYATLARI	52
27. Savriyeva Firuza ADBIYOT TA'LIMIDA MUAMMOLI O'QITISHNING O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	54
28. Sobirova Shahnoza Hazratovna LEKSEMANING IFODA JIHATI	55
29. Soyibova Umriyo Yusupovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARINING SAMARALI OLIB BORISH USULLARI	57
30. Sultonova Manzura Tolmasovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIKADAN O'QUV MATERIALLARINI O'ZLASHTIRISH DARAJASINI O'RGANISH	59
31. Toshpo'latova Gulbahor Azizovna, Tursunova Madina Vahobjonovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRISHI PAST BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH	61
32. Uzoqova Salovatxon Baxronovna ODDIY KASRLAR, SODDA O'NLI KASRLAR	63
33. Xoliyorova Shoirra Salmonovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FANLARGA QIZIQISHINI TASHKIL ETISH TIZIMI	65
34. Xudoyberganova Xurshida Mo'minovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQIY TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	67
35. Yunusova mayramxon polvonovna YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING SAMARALI USUL VA VOSITALARI	69
36. Байзакова Шохида ФУНКЦИИ И ЭТАПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ШКОЛЫ	70
37. Abdirahmanova Maxliyo Erkinbayevna MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARINING MAQSAD VA VAZIFALARI	72
38. Abdullayeva Barnoxon Nuraliyevna, Qozixonova Asalxon Umaraliyevna PEDAGOGIK TEKNOLOGIYANING ASOSIY ELEMENTLARI	74
39. Adizova Nasiba Anvarovna DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA PSIXOLOGIK BOSHQARUVNING O'RNI	76
40. Andayeva Shohsanam Bahodirovna SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA AXBOROT KOMMUKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	78

41. Avulova Dilnoza Ma'rufjonovna "VOCABULARY GAMES AND ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH "	80
42. Baltabayeva E'zoxon Xashimovna TEKNOLOGIYA FANIDA STEM TA'LIMI.....	82
43. Barotova Dilbar Naimovna O'QUVCHILARDA LINGVISTIK TAHLIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH - NUTQ MADANIYATINI EGALLASHNING BOSH OMILI.....	84
44. Barotova Malika Komilovna INTEGRATION OF MODERN PEDAGOGICAL METHODS IN LESSONS OF A FOREIGN LANGUAGE IN A MODERN SCHOOL	86
45. Berdiyeva Nilufar To'xtayevna MEDIYA TA'LIM-DARS SAMARADORLIGINI OSHIRADI	88
46. Boltaboyeva Saida Anvarovna BOSHLANG'ICH SINFLARGA KONSTITUTSIYA SABOQLARINI O'RGATISH-HUQUQIY MADANIYATNI OSHIRISHNING ENG YAXSHI USULI.....	89
47. Boltayeva Roza Ikramovna O'QISH DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLAR	91
48. Djumaniyazova Dinara Kalandarovna, Nurmetova Salomatjon Saparbayevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA OG'ZAKI HISOBLASHNI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI.....	92
49. Ergasheva Mahbuba Sunnatovna TUSHUNCHALARNI UMUMLASHTIRISH METODI ASOSIDA MATEMATIK DARSLARINI O'TISH SAMARADORLIGI	94
50. Ergasheva Nodira Komilovna, Ataxanova Zilola Muxtorjanovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMPYUTER VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARS O'TISHNING ASOSIY VAZIFALARI	96
51. Erkabayev Inomjon Shavkatovich, Sherjanova Nodira Alisherovna XOTIRANI QANDAY RIVOJLANTIRISH MUMKIN?	97
52. Ernazarova Marxabo Isoqvoyevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA MASALALAR USTIDA ISHLASH.....	99
53. G'afurova Ma'rifat Raximjonovna ONA TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN DIDAKTIK O'YINLAR VA ULARNING TASNIFI	100
54. Hasanova Shohida Hakimovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQA MADANIYATINING O'QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH.....	102
55. Hudoyberdiyeva Odina Gofurjon qizi BOSHLANG'ICH TALIMDA ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUV.....	103
56. Husaynova Nargiza Jo'raqulovna BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI	105
57. Ibroximova Gulnoza Erkin qizi CHIZMACHILIK FANI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI. CHIZMANING INSON AMALIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI	107
58. Ismoilova Mukaram Mirpayziyevna TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA UNDAYDIGAN INTERFAOL METODLAR	109
59. Jumaniyazova Go'zal Abdirimovna, Poliyozova Shoxida Axmedovna SMART TA'LIM VA UNING IMKONIYATLARI	111
60. Karimova Dilnoza Mansurovna INSON NIYAT BILAN NASIBA O'RTASIDA YASHAYDI.....	113
61. Kenjayeva Marhabo Boynazarovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI	115

62. Mamarahimova Sayyora Abdugʻaniyevna, Maxkamova Gulnoza Mirzajanovna BOSHLANGʻICH SINFLARDA OʻQUVCHILARINI MAʼNAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA INNAVATSION TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH USULLARI	116
63. Meliboyeva Barnoxon Normatovna BOSHLANGʻICH TAʼLIM VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA.....	117
64. Murodova Dilobar Farhodovna, Haydarova Dilfuza Savriddin qizi BOSHLANGʻICH SINFLARDA OʻQUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASH ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA ONA TILINI OʻRGANISHNING OʻRNI	119
65. Murolimova Muhayyo Bohodirovna BOSHLANGʻICH SINFLARDA OT SOʻZ TURKUMINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI	121
66. Normatova Zebo Xayrullayevna BOSHLANGʻICH SINFLARDA OʻQISH DARSLARIDA DIDAKTIK OʻYIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....	123
67. Qosimxoʻjayeva Muborakxon Raxmatillayevna, Rayimova Qimmatxon Xomitjonovna DARSLARDA DIDAKTIK OʻYINLARDAN FOYDALANISH	125
68. Quboniyazova Muxabbat Ahmedovna, Yusupova Maqsuda Baxtiyorovna XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI TAʼLIM TIZIMIGA JORIY ETISH MEXANIZMLARI	126
69. Roʻziboyeva Karima Hayitboyevna BAHOUDIN NAQSHBAND MEROSINING SHAXSNI MAʼNAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI	128
70. Saʼdullayeva Barno Rajabovna BOSHLANGʻICH SINFLARDA OT SOʻZ TURKUMINI OʻRGATISH.....	130
71. Sapparova Raushan Baxiyevna BOSHLANGʻICH SINFLARDA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI	131
72. Sapayeva Feruza Quryazovna SIFATLI TAʼLIM FAQAT OʻQITUVCHIGA BOGʻLIQ EMAS	133
73. Saydaxmedova Iqboloy Soliyevna INTERFAOL TAʼLIM VA UNING IMKONIYATLARI	135
74. Шарипова Мадина Исмаиловна ТАʼЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ: МУАММО, ЕЧИМ ВА ИСТИКБОЛ.....	136
75. Shosaidova Dilnoza Abduqahhorovna INGLIZ TILI DARSLARIDA QOʻLLANILADIGAN YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI.....	138
76. Shukurova Nargiza Buriyevna MASOFAVIY TAʼLIM – BILIM OLISHNING ENG OSON VA QULAY USULIDIR	140
77. Tosheva Moxira Farmonovna TEXNOLOGIYA FANIDAN TOʻGARAKLARNI TASHKIL QILISH	142
78. Xamidova Nilufar Anvarovna BOSHLANGʻICH SINFLARDA NUTQ KOʻNIKIMLARINI OʻSTIRISH	143
79. Xolmuxamedova Nilufar Abduraximjonovna MILLIY TARBIYANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA AJDODLAR MEROSINING OʻRNI	145
80. Xudoyberdiyeva Malika Raximovna XALQ OGʻZAKI IJODINING BOSHLANGʻICH SINFLARDA OʻQUVCHILARINI MAʼNAVIY TARBIYASIDA TUTGAN OʻRNI VA ROLI	147
81. Xujayeva Muxarram Idrisovna BOSHLANGʻICH SINFLARDA OʻQUVCHILARINI DIDAKTIK OʻYINLAR ORQALI MANTIQUIY FIKRLASHGA OʻRGATISHNING AHAMIYATI	149
82. Xujayeva Muxarram Idrisovna TUPROQ TARKIBI	151
83. Абдулхаков Шербой Абдурахимович СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ И КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ.....	155

84. Баходирова Малохат Усмоналиевна EVRISTIK TA'LIM METODI.....	157
85. Бозорова Дилфуза Махмудовна МАТЕМАТИКА DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM	158
86. Буранова Фарид АЛГОРИТМПОСТРОЕНИЯ УЧЕБНОГО ЗАНЯТИЯ В СИСТЕМЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	159
87. Киргизова Муяссархон Махаммаджоновна FIZIKANI FANLAR BILAN BOG'LAB O'QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	161
88. Курбанбоева Санамжон SINF DAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR: TAVSIFI, XILLARI, AHAMIYATI, TASHKIL ETISH	163
89. Маматова Севара Абдумалик кизи FIZIKANI BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LAB O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	164
90. Мирзакобулова Мукаддас Низамовна ONA TILIDAN O'QUV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH SHAKLLARI.....	165
91. Нафиса Раджабова ҚИШ ФАСЛИДА БОЛАЛАР САЛОМАТЛИГИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ПАРВАРИШИ	167
92. Ниязметова Дилдора Базарбоевна МАТНИИ ЎҚИШ ВА УНИ ТУШУНИШ ДАРАЖАСИНИ АНИҚЛАШ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ (PIRLS).....	169
93. Хамроева Шахноза Латифовна ТЕКСТ КАК ДИДАКТИЧЕСКИЙ МАТЕРИАЛ ПРИ ОБУЧЕНИИ МЕЖКУЛЬТУРНОМУ ДИАЛОГУ	171
94. Эркабаев Иномжон Шавкатович РОЛЬ ОБЩЕНИЯ В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....	173
95. Юсупова Мурибатхон Собиржоновна BIOLOGIYA FANINI O'QITISH SHAKLLARINING UMUMIY TAVSIFI.....	175
96. Якубова Гуллола Низамиддиновна ФОРМЫ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ.....	177
97. Дильфуза Камалова НОВЕЛЛАДА БАДИИЙ ПСИХОЛОГИЗМ	179
98. Odilova Nilufar Salimovna BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'SHISH, AYIRISH VA BO'LISH AMALI MA'NOSINI IJODIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	181
99. Мусаева Яхшигул Норкуловна ТУГАРАКЛАРДА УККВЧИЛАРНИНГ МУСТАКИЛ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ КИЛИШ.	182
100. Қодирова Халимахон Нурмухаммад кизи ДИАГНОСТИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛИ	185
101. Қодирова Халимахон Нурмухаммад кизи ДИАГНОСТИК БИЛИМЛАРГА ДОИР ҚАРАШЛАР.....	187



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Xaqberdiyeva Dilorom Mamatqulovna
Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani
12-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Bolalarni muntazam ravishda qoidalar asosida o'qitish ularni darslardan bezib qolishiga olib kelishi mumkin. Darslar didaktik o'yinlardan foydalangan holda tashkil etilsa, bu o'quvchi uchun ayni muddao. Aynan didaktik o'yinlar bolaning o'qishga qiziqishini orttirishi, fikrlash qobiliyatini oshirishi va zehni yanada o'tkir qilishi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda didaktik o'yinlarning ahamiyati beqiyos.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yinlar, doiracha o'yini, kim topqir o'yini, eng yaxshi hisobchi o'yini.

Bolalarga dars berish jarayonida didaktik o'yinlarning ahamiyati katta. O'qituvchi darslarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida dars mavzusidan kelib chiqqan holda didaktik o'yinlardan foydalansa, mavzuni yoritishda va o'quvchilarga mavzuni tushuntirishda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi.

Darslarda o'yinni o'rgatishdan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yin o'tkazilish shakllari va usullari ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi. Didaktik o'yin usullari cheksiz, takrorlash va o'zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor. Masalan, Doiraviy misollar o'yinida hamma bolalar masala yechadi. Kim topqir o'yini ham juda yaxshi didaktik o'yinlardan biri bo'lib, bu o'yin bolani zehni oshiradi va yanada a topqir qiladi. Ushbu o'yinda barcha o'quvchilar ishtirok etishi mumkin. Bu o'yin 5 xil ko'rgazmali qurollar vositasida amalga oshiriladi va ishtirokchilar ko'rgazmalar orasidagi farqlarni topa olishi kerak bo'ladi. Bu usul bolalardan yanada diqqatliroq va chaqqonroq bo'lishni talab etadi. Bu o'yin o'quvchilarga o'zgacha shijoat va maroq baxsh etadi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsadi va vazifalarni yaxshiroq tushinib olishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligi, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birga harakat qilish imkoni tug'iladi. Bu esa, o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish hususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida o'zgacha qiziqish va maroq bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unga unda o'qishga ijodiy munosabat, qiziqish hislatini qaror toptiradi. Bolalar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar. ularning ko'z oldida beixtiyor ertangi quvnoq dars mashg'ulotlari gavdalanadi. Aksariyat didaktik o'yinlarda o'quvchilar guruh bo'lib yoki butun sinf bo'lib ishtirok etadilar. Eng yaxshi hisobchi o'yinida bolajonlar guruhlariga bo'lingan holda ishtirok etdilar. O'quvchilar berilgan masala va misollarni doskada bajaradilar va ikkinchi guruh o'quvchilari ularni kuzatib, vazifani ular ham barmoqlar yordamida bajaradilar. Bu o'yin bolajonlardan aniqlik va tezkorlikni talab etadi o'yin oxirida o'qituvchi birinchi va ikkinchi guruhni bajargan ishlarini tekshirib, eng yaxshi hisobchini aniqlaydi. Xulosa qilib aytganda yosh avlodni ma'nan va jismonana yetuk inson sifatida tarbiyalashda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva H.A, Bikbayeva N.U va boshqalar. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. Boshlang'ich ta'lim. 1998 6-son, 12-24-betlar.
2. Yunusova Sh. Interfaol usullardan foydalanish. Boshlang'ich ta'lim. 2004, 5-son, 15-bet.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

*Маматова Нигора,
учитель русского языка,
№ 24 Паярикского района,
Самаркандская область*

Аннотация: В статье рассматривается эффективное использование и особенности программных средств в учебном процессе, даны советы по их внедрению.

Ключевые слова: Тестовые программы, информация, технология.

В нынешнюю эпоху стремительного внедрения новых технических средств, компьютеров и других информационных технологий в образовательный процесс использование современных технологий для обеспечения междисциплинарной интеграции является одной из самых актуальных проблем. В принятых в стране постановлениях и указах подчеркивается необходимость развития современных технологий и их применения в различных отраслях экономики, в том числе повсеместное внедрение современных компьютерных и информационных технологий в образовательный процесс.

Использование технологий в образовании очень важно. Эти инструменты можно использовать для удовлетворения современных требований и привлечения внимания учащихся. Учебные пособия, такие как компьютеры, электронные учебники, Интернет и другие, представляют собой технические устройства, которые предоставляют учащимся информацию, необходимую им для изучения. Коммуникационное оборудование включает в себя различные электромеханические устройства, демонстрационные осциллографы и их измерительные приборы для отображения визуальных изображений в классе, а также телевизоры, видеопроекторы, мобильные устройства для смартфонов, аудио-мультимедийные технологии и другие устройства.

Педагогическое программное обеспечение - дидактический инструмент, предназначенный для частичной или полной автоматизации учебного процесса с использованием компьютерных технологий.

Педагогическое программное обеспечение можно разделить на:

1. Учебный план - ориентирован на получение новых знаний с учетом уровня знаний и интересов учащихся. Эти программы включают видеоуроки, электронные уроки, мультимедийные уроки.

2. Тестовые программы - используются для проверки или оценки приобретенных знаний, навыков и умений. Примеры включают контроль и самопроверку.

3. Программы упражнений - служат для повторения и закрепления ранее изученного материала. Включает лабораторные и практические программы.

4. Программы, создающие виртуальную среду обучения с участием учителя - виртуальное существо ассоциируется с понятиями иммерсивности и интерактивности. Бессмертие - это предположение, что человек принимает себя в виртуальном существе.

Интерактивность позволяет пользователю взаимодействовать и взаимодействовать с виртуальными объектами в реальном времени.

Под системой виртуального бытия мы подразумеваем имитацию программного и аппаратного обеспечения. Для обеспечения интерактивности виртуальная система должна выполнять управляющие действия. Эти действия должны быть мульти модальными, то есть визуальными и слуховыми.

Для выполнения этих операций на практике в современных системах используются различные аудио- и видеотехнологии. Например, в сочетании с беспроводным интерфейсом используются крупногабаритные аудио- и видеосистемы, а также шлемы и защитные очки, закрепленные на голове человека, «нюхающие» мыши, контрольные перчатки, кибернетические сигналы. Эта система хорошо работает в образовательных процессах, в основном связанных с химией и медициной. Обучение учеников тому, как выполнять сложные операции на человеческом теле с помощью экранов очков, 3D-инструментов, эффективно помогает ученикам понимать сложные процессы.



Для выполнения этих операций на практике в современных системах используются различные аудио- и видеотехнологии. Например, в сочетании с беспроводным интерфейсом используются крупногабаритные аудио- и видеосистемы, а также шлемы и защитные очки, закрепленные на голове человека, «нюхающие» мышцы, контрольные перчатки, кибернетические сигналы. Эта система хорошо работает в образовательных процессах, в основном связанных с химией и медициной. Обучение учеников тому, как выполнять сложные операции на человеческом теле с помощью экранов очков, 3D-инструментов, эффективно помогает ученикам понимать сложные процессы.

Содержание текста создается с помощью мультимедиа на экране осмысленным и высококачественным образом. Когда учителя и специалисты с передовым опытом преподавания с использованием технических средств расшифровывают процесс включения содержания урока на видеокассеты или диски, эти инструменты могут быть отредактированы учащимися и способствуют более глубокому пониманию темы, вызывающий привыкание

Дидактические цели и задачи обучения при выборе и внедрении методов и средств обучения в учебный процесс, необходимые условия, возможности и количество учеников, продолжительность обучения, обучение навыкам учителя опираясь на мастерские способности получателей, внедренная система образования может быть эффективной и давать ожидаемый результат, когда методы и инструменты обучения дополняют друг друга.

Литература:

1. Конституция Республики Узбекистан. - Т.: Узбекистан, 1998.
2. Гармонично развитое поколение - основа развития Узбекистана // Законы Республики Узбекистан «Об образовании» и «О национальной программе обучения». - Т.: Шарк, 1998. - 64 с.



GLOBALLASHUV DAVRI TA'LIM TARBIYASINING MUHIM JIHATLARI

*Abdiraxmatov Habib Ziyodullayevich
Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani
85-maktabning tarbiya fani o'qituvchisi
Telefon: +998916445046*

Annotatsiya. Maqolada muallif yosh avlodni tarbiyalash va tarbiya jarayonidagi muhim omillarga to'xtalib o'tgan. Bola tarbiyasiga ta'sir qiluvchi g'oyalar misolida o'z fikrlarini yoritgan.

Kalit so'zlar. Mafkura, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, fuqarolik pozitsiyasi, immunitet, mediamadaniyat, globallashuv, umumbashariy qadriyatlar, sodiqlik tushunchalari, globallashuv jarayonlari, ma'naviy-mafkuraviy tahdid.

O'zbekistonning mustaqillikka erishgandan keyin dunyo mamlakatlari bilan teng huquqli xalqaro aloqalar olib borish imkoniyatiga ega bo'lganligiga, bu mamlakatimizning taraqqiyotida katta ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Xuddi shunday jarayon O'zbekiston singari dunyoning boshqa davlatlarida ham globallashuv ko'rinishida yuz bermoqda. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin.

Hozirgi globalashuv davrida o'quvchi-yoshlarga faqatgina bilim berishning o'zi kamlik qilishini anglash qiyin emas. Chunki bugungi avlod bolasi kechagi avlod kishisining yoshligini takrorlamaydi. Yana bir bor ta'kidlashga to'g'ri keladi. Mazkur davr o'ta tezkor, shiddatli, kerak bo'lsa taxlikali mafkuralar kurashi ketayotgan globallashgan davrdir.

O'qituvchi-pedagog faoliyatida o'zini faqat o'quvchilarga ta'lim tarbiya beruvchi sifatidagina emas, balki o'zi ham ta'lim oluvchi ekanligini anglamog'i, shunga monand tarzda doimo izlanishda bo'lishi, o'z ustida muntazam ishlashi, yangi pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari ilmini mukammal egallashi va qo'llay bilishi haamda davr bilan xamnafas bo'la olishi kerak.

Binobarin, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi yoshlarimiz tarbiyachisi bo'lgan o'qituvchi-murabbiysi ayni vaqtda pedagog, psixolog va jamiyatning o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan faol a'zosi, ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lishi kerakligini unutmasligi lozim. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov haqli ta'kidlaganidek, "...o'z aql zakovat, ilmiy-texnikaviy salohiyatimizni rivojlantirishimiz mamlakatimizni taraqqiy ettirish omilidir".

Biz kattalar, o'qituvchilar ko'pincha farzandlarimizga, o'quvchilarimizga nazorat qilinishi, ta'sir o'tkazilishi kerak bo'lgan ob'ekt sifatida qaraymiz. Natijada, bolalar asosiy diqqat-e'tibori va harakatini o'z-o'zini rivojlantirishga emas, balki tashqi ta'sirlardan, himoya qilishga qaratadi.

O'quvchi -yoshlarda immunitet va mediamadaniyatni shakllantirish ayni hozirgi zamon pedagogi oldiga quyidagi vazifalarni zaruriy sifatida qo'yimoqda:

-yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularda daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish, loqaydlik va befarqlikka yo'l qo'ymaslik;

-globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan bir vaqtda o'quvchi-yoshlarda mediasavodxonlik, mediamadaniyatni rivojlantirish orqali turli axborot xurujlari, buzg'unchi yod g'oyalardan asrash, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;

-globallashuv sharoitida har jihatdan barkamol, komil insonni voyaga yetkazishda internetdan tarqalib kelayotgan turli xil milliy g'oyamiz va ma'nayatimizg yot bo'lgan hurujlardan asrash, o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, faol fuorolik pozitsiyasiga ega, ilm-fan, zamonaviy texnologiya yutuqlarini puxta egallagan har tomonlama yetuk va barkamol etib voyaga yetkazish;

-yoshlar qalbida vatanga muhabbat va sadoqat, ibsonparlik fazilatlarini shakllantirish;

- milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo'naltirilgan davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etish;

-milliy g'oya targ'ibotini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligida tashkil etish;

-Islom dini va falsafasini o'rganishda milliy g'oya tamoyillari asosida amalga oshirish;

-yoshlarni kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlik tushunchalarini shakllantirish va boshqalar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi globallashuv davrida jahon arenasida o'zimizga mos bo'lgan o'rinni egallashimiz uchun bizdan yuksak darajada bilim egasi bo'lish, shu bilan birga, mafkuraviy hurujlarga qarshi doimo hushyorlik bilan turish, milliy manfaat va ma'naviyatimizga



rahna soluvchi har qanday tashqi g'oyalarga qarshi kurasha olish talab qilinadi.

Globalashuv jarayonlarida ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar kuchayishi sababli doimiy ravishda goyaviy tarbiya, mafkuraviy profilaktika ishlari olib borishni, fuqorolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishni talab etadi. Yuqoridagilarning barchasi globalashuv jarayonlarida ma'naviy-mafkuraviy ta'lim- tarbiyaning dolzarbligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tarbiya kitobi. A.Tilovov. Toshkent-2017.
2. Globalashuv va yoshlar ma'naviyati. D.Karimova., L.Muhammadiyeva. Qarshi. 2014.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING AHAMYATI

Abduraxmanova Gulchexra Abdujalilovna
Angren shahar 34-sonli umumiy
o‘rta ta‘lim maktabining
I-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.
Tel; +998931140578

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich ta‘lim tizimini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiya vositalari orqali ta‘lim oluvchilarga ta‘lim berishda qo‘llanilayotgan usul va vositalar haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiya, zamonaviy ta‘lim, multimedia vositalari.

Ta‘lim tizimini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash masalasi davlatimizning ta‘limda hal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda ta‘lim tizimida umumta‘lim maktablaridan boshlab ta‘lim sohasini rivojlantirishda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ta‘lim tizimining ta‘lim oluvchilarga ko‘rsatayotgan ta‘siri nihoyatda muhimligini bildirmoqda. Har bir mamlakat o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va kelajagini belgilab borishida intellektual salohiyatga ega bo‘lgan kadrlar salmog‘i yuqori o‘rinda turadi.

Boshlang‘ich ta‘lim tizimini rivojlantirishdagi asosiy tamoyillardan biri ta‘lim tuzilishini va mazmunini isloh qilishdir. Buning uchun yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ta‘lim bo‘yicha kadrlarning faoliyatini uyg‘unlashtirish, ta‘lim innovatsiyalari, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga joriy etish asosiy vazifamizdir. Boshlang‘ich ta‘limda dastlab o‘qituvchi faoliyatini o‘zgartirmay turib, ta‘limda bir qadam ham oldinga siljib bo‘lmaydi. Chunki o‘quvchiga birinchi bo‘lib boshlang‘ich bilimlar birinchi o‘qituvchisi tomonidan beriladi. O‘qituvchi qachonki, mas‘uliyatli, ijodkor va faolligini oshirmas ekan, u ta‘lim berayotgan kelajak avlod intellektual salohiyatga ega bo‘la olmaydi. Shuning uchun boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirishda mutaxassislar faoliyati va yangilikka intilish motivatsiyasini, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirib, belgilangan maqsadga yo‘naltirishimiz lozim.

Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion jarayonlarni amalga oshirish, bu tizimga yangiliklar kiritish, o‘quv jarayonlarining tuzilishini yangilash, avvaldan mavjud bo‘lgan holatdan o‘zgargan, farq qiluvchi ta‘limni takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, yaxshi natija beradigan mexanizmlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish kerak. Boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish, zaruriy darajadagi natijani olish uchun ta‘lim tizimini takomillashtirish, bajarayotgan funksiyasini ijobiy tomonga yo‘naltirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish kerak.

Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion texnologiyalardan foydalanilganda o‘qituvchining mahorati va ta‘lim oluvchining mustaqil ishlash ko‘nikmasi shakllanib boradi. Innovatsion texnologiyalardan boshlang‘ich ta‘limda eng ko‘p qo‘llanilayotganlari multimedia va videodarslar hisoblanadi. Ta‘lim tizimida multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta‘lim oluvchilarda shaxsiy individual xususiyatlari, o‘quv jarayonlarida faolligi, har bir mavzuga ijodiy yondashuvi va axborot bilan ishlash kompetensiyalarining rivojlanishiga olib keladi. Ta‘lim jarayonida multimedia vositalarini ishlatish haqida ma‘lumotga ega bo‘lmagan o‘qituvchi ta‘lim sifatining pasayishiga sababchi bo‘lib qoladi.

Multimedia texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi insonning qabul qilish tizimiga bog‘liq. Interfaol multimedia tizimlari bir vaqtning o‘zida quyidagilarni uzatishi mumkin: ovoz, video, animatsiya, grafiklar, matnlar.

Boshlang‘ich ta‘limda multimedia texnologiyalari, videodarslar o‘quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradi. Zamonaviy ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchi-ning fanlarga bo‘lgan qiziqishini ortishiga, o‘qitishning samaradorligini oshishiga, hajmi katta bo‘lgan o‘quv materiallarini o‘rganishga ketadigan vaqtni ancha qisqartirilishiga xizmat qiladi.



O'quvchilarimizni bilimli, intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish uchun bugun biz pedagoglar doimo oldinga qarab intilishimiz, boshlang'ich ta'limni rivojlantirish yo'lida yaratilayotgan innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishimiz va har tomonlama o'z kasbimizga sadoqat bilan xizmat qilishimiz kerak.

Foydalanilagan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.N.Azizxo'jaeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Yozuvchi nashriyoti, 2006.
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2006-2007 yillar



RUS TILI DARSLARIDA MAQOLLARDAN FOYDALANISH

Arzimatova Feruza Nosirovna
Namangan viloyati Norin tumani
11-maktabning rus tili va adabiyoti
fani o'qituvchisi
telefon: +99891 292 11 24
umiddadajonov47@gmail.com
G'aniyeva Barno Dadajonovna
Namangan viloyati Norin tumani
31--maktabning rus tili va adabiyoti
fani o'qituvchisi
telefon: +998932558755

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradigan, nutqni o'stiradigan, ularning hayot haqidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradigan vositalar orasida maqollar alohida ahamiyatga ega ekanligi va 5-sinf rus tili darsligida har bir mavzuga doir qisqa, lo'nda, soda va tushunarli, aksariyati esda qoladigan shery shaklda ifodalangan maqollar berilganligi va shubhasiz darslar samaradorligini oshirishga yordam berishi haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, ta'lim-tarbiya, maqollar, ma'naviyat, ilg'or pedagogik texnologiyalar, nutqni o'stiradigan, ularning hayot haqidagi bilim va ko'nikmalar.

O'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri, har bir o'quvchiga rejalashtirilgan o'quv materillarini yetkazib berish va uni o'zlashtirish darajasini oshirishga erishishdan iboratdir.

O'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradigan, nutqni o'stiradigan, ularning hayot haqidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradigan vositalar orasida maqollar alohida ahamiyatga molikdir.

Maqollar qisqa, lo'nda, soda va tushunarli, aksariyati esda qoladigan shery shaklda ifodalanadi. Ular hamma sohaga dahldor: ta'lim – tarbiya, ilm fan, insof – adolat, vafo va boshqa ijobiy his tuyg'ular ukug'langan go'zal naqllardir.

Bolalarni xalq og'zaki ijodining ana shu tengsiz hazinalaridan bahramand etish, shubhasiz darslar samaradorligini oshiradi.

Rus tili darslarida so'z turkumlarining ayrimlarini o'rganishda maqollardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bordir. Masalan :

Имя существительное (ot) so'z turkumini o'rganishga oid maqollar :

Друзья познаются в беде. Дерево живёт корнями, а человек друзьями. Без корня и трава не растёт. Золото добывают из земли, а знания из книг. Угощение от души слаще мёда. Гость в дом – хозяину радость.

Имя прилагательное (sifat) suz turkumiga oid maqollar:

Крепкую дружбу и топором не разрубишь. Кто малое не познал, великое не познает. Нет милее дружка, чем родная матушка. Коротка речь и ясна – оттого и прекрасна. Старый друг лучше новых двух.

Глагол (f'el) so'z turkumiga oid :

Совершить хорошее дело никогда не поздно. Видит око далеко, а ум ещё дальше. Научиться хорошему мало и тысячи дней, научиться дурному – достаточно и часа. Без знаний будешь делать дело – не жди плодов. Умел ошибиться, умей и поправиться. Чего себе не хочешь, того и другому не желай. От умного научишься, от глупого разучишься.

Maqollarni lingvistik tahlil qilib so'z turkumlarini va boshqa mavzularni o'tishda foydalanish, nafaqat fan nuqtai nazaridan ta'limiy xarakterga ega bo'lib qolmasdan, balki ular o'quvchilar ma'naviyati, ta'lim – tarbiyaga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda ham muhimdir. Obrazli ifodalar jozibali va esda qolarli bo'lishi bilan ta'lim – tarbiya jarayonini chuqurlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Masalan, vatanparvarlik ruhidagi maqollar:

Одна весна на Родине лучше чем сто вёсен на чужбине. Кто Родине изменяет, того народ презирает. Кто за Родину горой, тот настоящий герой.

Kattalarga hurmat va ehtirom mavzusidagi:



Если в семье есть старец, значит в семье есть драгоценность. Есть дети – будут и радости. Нет друга лучше, чем родная матушка.

Mehnatsevarlik haqida:

К пирогам идут, а от работы бегут. Лень хуже болезни. Откладывай безделье, да не откладывай безделье. Совершить хорошее дело, никогда не поздно. Дело веди, безделье гони. Не сиди сложа руки, так и не будет скуки.

Hozirgi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish o'qituvshilardan avvalo darsga puxta tayyorgarlik ko'rishni, turli xil ta'limiy materiallarni tayorlab, o'quvchilarni darsga qiziqitira topshiriqlar berishga undaydi, bu esa o'zaro munosabatni yaqinlashtiradi.

Rus tili fani darslarida maqollarni quruq yodlatibgina qolmay, 3-5 daqiqa vaqtni ajratib aqliy hujum usulidagi «Эхо» (Aks sado) o'yinini tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bunda o'qituvchi tez va aniq biron bir maqolni o'quvchilarga diaproyektorda namoyish qiladi, yoki o'zi o'qib beradi. O'quvchilar navbatdan turib shu maqolni aks sado kabi takrorlaydilar. Xatoga yol qo'ygan o'quvchi o'yindan chiqadi. Bunday jarayon 3-4 marta takrorlanadi. O'yinda qolganlar esa rag'bat kartochkasini oladilar.

Bu usul o'quvchilarda tinglab, eslab qolish qobiliyatini shakllantiradi, hamda to'g'ri talaffuz intonatsiyasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Методическое пособие для учителей. 5 класс с узбекским языком обучения. Ташкент 2015
2. Ю.Ю.Мусурманова. Русский язык. Учебник для 5-го класса школ общего среднего образования с узбекским и другими языками обучения. Ташкент 2020.
3. <https://ped-kopilka>
4. <http://www.classcom.uz/>



9 YOSHLI BOLALARGA МАТЕМАТИКАНИ О‘RGATISH USULLARI

*Attayarova Gulnora Narzullayevna
Surxondaryo viloyati Oltinsoy tuman 64-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 9 yoshli bolalarga matematikani o‘rgatishni osonlashtiradigan usullar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: 9 yosh, matematika, ko‘nikma, qobiliyat, mashg‘ulot To‘qqiz yosh - bu yosh o‘quvchilar uchun matematikada muhim yil. To‘qqiz yoshga kelib matematikaning asosiy ko‘nikmalarini yaratish bo‘yicha ish o‘z samarasini berishi va matematikada mustahkam poydevor shakllanishi kerak. Men 9 yoshli bolalar uchun matematikadan ustuvor bo‘lgan 10 ta qobiliyatini tanladim. 1) Ko‘paytma jadvallari. Bolalar o‘z vaqt jadvallarini bilishlari va ularni yaxshi eshlashlari kerak.

$$7 \times 8 = \qquad 7 \times 12 =$$

2) Bo‘linish faktlari. Ko‘paytirish jadvallari barcha e‘tiborni tortadi, lekin chambarchas bog‘liq bo‘lgan bo‘linish faktlari ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladi.

$$72 \div 8 = \qquad 54 \div 9 =$$

3) 10 -sonni qo‘shish va olib tashlash. Bu o‘quvchilar qo‘shimcha mashg‘ulotlardan foyda olishlari.

$$16 - 9 = \qquad 7 + 6 =$$

4) Kasrlar: ekvivalent kasrlarni taniydi va yozadi. Ikki kasrning bir xilligini bilish, kasr tushunchasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligining kuchli belgisidir. Yo‘qolgan raqamlarni to‘ldiring:

$$\frac{4}{6} = \frac{\square}{\square}$$

$$\frac{8}{20} = \frac{\square}{\square}$$

$$\frac{25}{35} = \frac{\square}{\square}$$

5) 10 va 100 ko‘paytmalari yordamida qo‘shish va ayirish:

$$1569 - 400 = \qquad 638 - 50 \qquad 254 + 70 =$$

6) Raqam har qanday raqamni millionga yozish va har bir raqamning qiymatini bilishga qodir: “Ikki ming yetti yuz o‘ttiz ikki raqamni yozing”.

7) O‘nlik sonlar - oddiy kasrlarning o‘nlik ekvivalentlarini bilish va o‘nlik sonlarni kattaligi bo‘yicha tartiblash.

$$\frac{3}{4} \qquad 0.72 \quad 0.09 \quad 0.5 \quad \frac{3}{5}$$

8) O‘nlik raqamlar - 10, 100, 1000 ga ko‘paytirish va bo‘ling:

$$0,12 \times 100 = \qquad 1,64 \div 100 = \qquad 0,45 \times 1000 =$$

9) Qisqa ko‘paytirish: 257×8

10) Qisqa bo‘lish: $569 \div 3$

Farzandingiz haqiqatan ham mahoratni egallaganligining yaxshi ko‘rsatkichi, ular to‘g‘ri va tezkor javob bera olishidir. Ikkilanib turish mahoratning mavjud emasligidan dalolat beradi. Ota-onalar va o‘quvchilar uchun yaxshi yangilik shundaki, bolalar yoshligida matematikadagi muammolarni hal qilishi oson. Ko‘pgina hollarda, faqat muntazam, maqsadli amaliyot kerak. Muhimi matematikaning boshlang‘ich ko‘nikmalarini oshirishning qiziqarli va samarali usulini topa olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumayev M.E, Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. “Ilm Ziyo” 2005.

2. A.A.Ismoilov. N.A.Karimov. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning matematik savodxonligini baholash. Toshkent, 2019-yil. – 112 bet.



ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ДАРSLARIDA TA'LIMIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Boymuhamedova Gulchehra Hikmatullayevna
Mirzo Ulug'bek tumani FFIDUM
ona tili adabiyot o'qituvchisi
+998 93 579 17 12

Annotatsiya: Maqolada ona tili va adabiyot darslarida foydalaniladigan ta'limiy vositalar, ya'ni dars samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan grafik organayzerlar haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu chizma usullari yordamidan foydalanish uchun "Insert" va "Kaskad" haqida alohida tavsiyalar berilgan

Kalit so'zlar: grafik organayzerlar, chizmalar, jadvallar, "Insert", "Kaskad".

Ma'lumki, ona tili va adabiyot darslarida innovatsiya va ilg'or xorijiy tajribalar muhim ahamiyat kasb etadi. Buni biz grafik tashkil etuvchilar yoki organayzerlar misolida ko'rib chiqishimiz mumkin. Grafik tashkil etuvchilarga "Insert" usuli, "Toifali jadval", "Konseptual jadval", "BBB" usuli, "Klaster" sxemasi, "T-jadvali", "Venn diagrammasi", "SWOT-tahlil jadvali", sxema va diagrammalar: "Nima uchun?", "Qanday?", "Baliq skeleti", "Muammoli vaziyat" kabilar kiradi. **Organayzer** inglizcha "tashkil etuvchi, grafik tashkil etuvchi" ma'nosini bildiradi. Axborot texnologiyalari sohasi atamasi sifatida ishlatiladi. Aniqrog'i, Power-point va shu kabi dasturlarda tayyorlanadigan vizual ko'rgazmali namoyish usuli hisoblanadi. Tahliliy ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari sifatida organayzerlar (grafik tashkil etuvchilar)ning vazifasi muhim hisoblanadi. **Ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:** grafik tashkil etuvchilar. Ushbu bo'limda ma'lumotlarni tarkiblashtirish va umumlashtirish usul va vositalari, o'rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o'rtasida aloqa va aloqadorlikni o'rnatish; ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash; muammolarni hal etishni rejalashtirish kabi masalalar o'rganiladi.

Grafik tashkil etuvchi – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi. Ular ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish usul va vositalari, o'rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o'rtasida aloqa va aloqadorlik o'rnatishga o'rgatadi. "Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi" degan naql bor. Og'zaki ravishda materiallarni o'zlashtirish ko'rsatkichi 10 foiz bo'lgan sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi. Mashg'ulotlarda o'quv materialni ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim.

Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish zarur bo'ladi. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilish kerak. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun "Insert" va «Kaskad» kabi organayzerlardan foydalanishni tavsiya qilaman.

INSERT JADVALI. Insert so'zi inglizcha joylashtirmoq, belgi qo'yimoq ma'nosini beradi.

- mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi;

- oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi. O'qish vaqtida olingan ma'lumot yakka tartibda taqsimlanadi: matnda belgi qo'yilgan mos ravishda jadval ustunlariga "joylashtiriladi":

V – "..." haqida olingan bilim (ma'lumot)ga mos keladi;

__ "..." haqidagi bilimga qarama-qarshi;

+ – yangi ma'lumot sanaladi;

? – tushunarsiz qo'shimcha ma'lumot.


INSERT jadvali			
V	-	+	?

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. Insert – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi. Shundan so'ng, matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi. Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini

ta'minlovchi kuchli asbob. Insert - o'zlashtirishning majmuali vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir.

“KASKAD” tarkibiy – mantiqiy sxema iyerarxik g'oyalari tarkibini aniqlash imkonini beradi. Tizimli, ijodiy, tashliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Sxemani tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka (juftlikda) sxema tuziladi. Juftlarga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi.

“Kaskad” tarkibiy – mantiqiy sxema



“Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxemasini tuzish qoidalari

1. “Kaskad”ni tuzish jarayonida tizimli sxema tarkibiy qismi va elementlarini oldinga surish mumkin – bu u yoki bu holatni qayta mushohada qilishga imkon beradi.

2. G'oyalarni ishlab chiqishda agarda siz tor yo'lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizga hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligiga amin bo'ling.

3. Siz chapdan o'ngga yozishga o'rgangansiz. “Kaskad” qurishni o'ngdan chapga bo'lishligiga harakat qiling. Buning uchun asosiy g'oyani varaqning chap qirrasini emas, balki o'ng qirrasiga joylashtiring. Sxemani tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka (juftlikda) sxema tuziladi: asosiy muammo (g'oya, masala), kichik muammolar yoziladi, keyin muammo yoki masalaning ikkinchi darajali jihatlarini chuqurroq ko'rib chiqish uchun xizmat qiluvchi “kichik shoxlar” davom ettiriladi. Buning natijasida bitta g'oya rivojlanishining barcha tomonlari yetarlicha chuqur o'rganib chiqilishi mumkin. Juftlarga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi. Natijalar taqdimoti.

Xulosa shuki, darsni turli ta'limiy vositalar ko'rgazmalar, jadvallar va organayzerlar yordamida o'rgatish o'quvchilarda amaliy ishlash ko'kmasini shakllantiradi, mustaqil izlanishga chorlaydi natijada dars samaradorligi oshadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Ona tili, Adabiyot (5-9-sinf), O'zbek tili (2-9-sinf). Toshkent, 2017-yil.

2. Q.Yuldoshev. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, “O'qituvchi”, 1996.

3. A.Zununov. N. Hotamov. J. Esonov. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, “O'qituvchi” 1993.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH AHAMIYATI

*Boysariyeva Firuza Ishmurodovna
Angren shahar 34-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabining I-toifali
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
Tel; +998994202072*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash ahamiyati ko'rsatib va tushinchalar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qish darsi, matn ustida ishlash, so'z boyligi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo'g'ini hisoblangan xalq ta'limida ham tub islohotlar ro'y bermoqda. Zero, "...Xalq ta'limini tubdan isloh qilish, mazkur dasturni amalga oshirish bizdan nihoyatda katta kuch, mablag' va imkoniyat talab qilmoqda. Lekin, istiqbolimiz, istiqbolimiz ko'zi bilan qaraganda, ham iqtisod, ham siyosat, ham ma'naviyat nuqtai nazaridan bu sarf-xarajatlarga nazar tashlasak, undan keladigan manfaat har qanday xarajatlarni qoplashi va oqlashi muqarrar". Bunda boshlang'ich sinflarda o'tiladigan o'qish fani muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir va unung to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o'zaro bog'laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi.

O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida va unga ma'lum bir o'zgartirishlar kiritishda yangi pedagogik texno logiyalardan foydalanishning samarali usullarini shakllantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. O'qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko'proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko'proq e'tibor berildi. Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi: Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi. Asarning g'oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, sujet chizig'i, qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

O'qish o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda o'qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning harakterini aniqlab olishga yordam beradi. Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning turli xil metodlaridan foydalaniladi: O'qishdan oldin, o'qish jarayonida va o'qishdan keyin.

Shunday qilib, badiiy asar matnini tahlil qilishda, umuman, badiiy asarlarni o'rganishda o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", T., 1998-yil.
2. Mardanov D. Maktabda kasbga yi'naltirish ishlari. -Nukus. 2013.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARNING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Choriyeva Shohida Og'amurodovna
Buxoro viloyati, Olot tumanidagi 13-umumiy
o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998(93)6526903

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda foydalaniladigan didaktik o'yinlarning tur va shakllari, ularning mazmun va mohiyati, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, tarbiya, do'stlik, birodarlik, mehnatsevarlik.

Barchamizga ma'lumki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyati o'yinlarga qaratilgan. Bola uchun 45 daqiqa o'rnidan qimirlamay darsni tinglab, o'qituvchi tomonidan berilayotgan barcha ma'lumotlarni o'zlashtirish juda murakkab. Bunday murakkab jarayonni bola ongiga qiyinchiliklarsiz singdirish uchun o'yin va ta'lim faoliyatlarini chambarchas bog'lash zarur. Ya'ni dars jarayonida ta'limiy va harakatga keltiruvchi o'yinlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini biz istagan darajadanda yuqori bo'lishiga erishishimiz mumkin.

Dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish hamda yangi bilimlarni, tasavvurni ishga solgan holda to'laligicha esda saqlab qolish imkonini beradi. Bolalarga o'yinni o'rgatishdan muayyan ta'limiy maqsad nazarda tutiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O'yin o'tkazilish shakllari va usullari ta'limning boshqa turlaridan farq qiladi.

Didaktik o'yin usullari cheksiz, takrorlash va o'zgartirish, unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor. Masalan, biz "Jimjitlik" o'yinining 5-7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan 10 martadan ko'proq takrorlab o'tkazdik, "Nima o'zgardi?" turidagi o'yin 5 xil turli ko'rsatmali material bilan o'tkazildi. Natijada o'yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo'lishiga hamda o'yinning har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilishiga erishish imkonini beradi.

Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan, asosan, bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushintiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham bir tomonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jon-dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsadi va vazifalarini yaxshiroq tushinib olishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligi, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yin qoidalarini o'zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida zo'r qiziqish bilan harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unga o'qishga ijodiy munosabat, qiziqish hislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinda zo'r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O'yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning oldiga beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Masalan, "Doiraviy misollar" o'yinida hamma bolalar masala yechadi, "Zanjircha" da 10 nafar, "Do'koncha" da 8-12 nafar bola, "Narvoncha" da esa hamma o'quvchilar masala yechadilar.

Bundan tashqari, o'yin jarayonida hatto bolalardan ba'zi birlari ishtirok etmasa ham, ular o'yinda imo-ishoralar bilan ham qatnashadilar. Masalan, ko'zlarini yumib, kim necha marta taqillatganini tinglaydilar.

"Eng yaxshi hisobchi", "Ko'proq va tezroq" kabi o'yinlarda o'z o'rtoqlarining misolni qanchalik to'g'ri-noto'g'ri yechayotganlarini kuzatib boradilar. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi.



Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. "Kim aniqroq va tezroq", "Bo'sh kelma", "Eng yaxshi hisobchi", "Ko'rganni eslab qolish" kabi o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarining tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar. Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10-15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq-atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarni o'zlari mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtni iloji boricha tejay bilish xislatlari tarbiyalanadi. Didaktik o'yinlar bolalarda do'stlik, birodarlik, mehnatsevarlik hissini tarbiyalash va taraqqiy etishiga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar, o'qituvchini bolalarga yaqinlashtiradi, bolalar nazarida tarbiyachigina emas, balki chinakkam do'stga ham aylanadi. Bu esa ayniqsa dastlabki kunlarda yuz beradigan yodsirash hollariga barham beradi. Shunday qilib, o'yinlar bolalarda o'qituvchi va o'qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zayniddinova M. O'quvchilarning mustaqil fikr faoliyatini rivojlantirish omillari. Xalq ta'limi. 2014. 1-son, - 32-37 bet.
2. Inomova M. Ta'limga yangicha yondashuv. Boshlang'ich ta'lim. 2018.
3. Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari.- T.: «O'qituvchi», 2017. – 176 bet.



BOSHLANG'ICH SINFLAR UCHUN MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH.

*Erkaboyeva Go'zalxon Abdusamadovnaning
Farg'ona viloyati Buvayda tumani
12-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi
Telefon: +998974158510*

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilariga juda muhim chunki, sinfdan tashqari ishlash orqali o'quvchilar bilimi yanda mustahkamlanadi. Maqolada ta'limning turli xil tamoyillarini ta'limda tutgan o'rni va ular orqali erishiladigan yutuqlar va yuqori natijalarga erishish uchun qo'l keladigan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sinfdan tashqari ishlar, matematika, rebus, qo'shish, to'garak, dars, masalalar, topshiriqlar, nomerlash, konkurs, olimpiada, hisoblashlar.

Maktabning boshlang'ich sinflarida matematikadan sinfdan tashqari ishlarni sinfning hamma o'quvchilari bilan birga bir vaqtda o'tkaziladigan mashg'ulot shaklida o'tkazish maqul. Sinfdan tashqari mashg'ulot ixtiyoriylik printipi asosida quriladi. Darslar 45 minutga rejalashtirilgani holda sinfdan tashqari mashg'ulotlar mazmuniga va o'tkazilish formalariga qarab 10-12 minutga ham, 1 soatga ham mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Sinfdan tashqari ishlar shakl va turlarining ko'p xilligiga qarab mazmunining turli tumanligi bilan xarakterlanadi. Maktab amaliyotida matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ushbu turlari uchraydi: matematik o'n minutliklar, soatliklar va qiziqarli matematika kechalari, matematika to'garaklari, ertaliklari, viktorinalar, konkurslar, olimpiadalar. Shuningdek, sinfdan tashqari ishga matematikadan gazeta chiqarish, matematika burchaklarini rasmiylashtirishlar ham kiradi. Oldin 1-sinfda sinfdan tashqari ishlar qanday tashkil qilinishi va o'tkazilishini qarab chiqamiz. Bu sinfdan sistemali ishning asosini matematik o'n minutliklar tashkil qiladi. Odatda, o'n minutliklar haftasiga bir marta butun sinf bilan o'tkaziladi. O'n minutliklardagi mashg'ulotlar sinf chegarasidan tashqariga chiqishi juda muhimdir. Topshiriqlar darslarda beriladigan oddiy matematik topshiriqlarga o'xshash bo'lmasligi kerak: topshiriqlarning mazmunlari bolalarga tushunarli qiyinlik darajalari bolalarga mos bo'lishi kerak: javoblar tez topilishi kerak, agar hisoblashlar zarur bo'lsa, ular faqat og'zaki bajarilishi kerak. Matematik to'garak matematikadan sistematik sinfdan tashqari ishlarning eng ko'p tarqalganidan biri. Uning asosiy vazifasi – matematikaga alohida qiziqish ko'rsatgan o'quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish. Matematika to'garagini o'tkazish uchun oldindan uning ish rejasini tuzish kerak. Namuna uchun ikkinchi yarim yillikda 1-sinfda o'tkazilgan bazi to'garak mashg'ulotlarining taxminiy rejasini keltiramiz.

I mashg'ulot.

1. Rebuslarni o'ylab topish.
2. Qo'shishga oid qiziqarli masalalar.
3. 100 ichida nomerlashni bilganlikni tekshirishga oid mashqlar.
4. Hazil masala.
5. « Sonni to'ldir, o'zing angrayma » o'yini.

Reja belgilab olingandan keyin ishning eng masuliyatli qismi boshlanadi- har hil manbalardan aniq material tanlanadi.

II mashg'ulot

1. Rebuslarni o'ylab topish.
2. Topqirlikni talab qiluvchi shery masalalar.
3. Geometrik figuralarni analiz qilishga doir mashqlar.
4. Hazil masala.
5. «Sonni to'ldir, o'zing angrayma» o'yini.

Matematik konkurslar va olimpiadalar. Matematik konkurslar qiyin masalalar echish, o'tkir zehni va tez tushuna olishni talab qiluvchi topshiriqlarni bajarish bo'yicha o'ziga xos musobaqalardir. Matematik konkurslar asosan yaxshi matematikni, tez tushunadigan, payqaydigan, ziyrak, yaxshi sinfni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Internet saytlari:



FARZANDLARDA IJOBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI

*Yuldasheva Gubara Esanbayevna
Toshkent viloyati, Angren shahri
14-maktabma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

Anotatsiya: Har tomonlama yetuk barkamol insonni tarbiyalash butun jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Farzandlarda ijobiy sifatlarni shakllantirish, oilaning ma'naviy, ahloqiy, ijtimoiy-psixologik vazifalari, ota-ona va farzandlarning o'zaro psixologik munosabatlari, shaxsning ma'naviy qiyofasi.

Hozirda maktab partalarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib o'zidan keying avlodga yetkazuvchi vorislarimiz, O'zbekistonning buyuk kelajagining egalaridir.

Shaxsning rivojlanib, tarkib topishida asosan uchta omil hal qiluvchi ahamiyatga molikdir: biologik omil, ijtimoiy omil, va ta'lim tarbiya. Binobarin, kishining ma'naviy qiyofasi, uning fe'l-atvori, voqelikka munosabati, ilg'or dunyoqarashi huddi ana shu uchta omil tufayli qaror topadi. Zotan insonning haqiqiy barkamol inson darajasiga o'sib etishishida mazkur uchta omilning roli birdek ahamiyat kasb etadi. Muayyan sabablarga ko'ra, bu omillardan birortasi marom darajasida bo'lmay, shaxs faoliyatida turli miqyosda amal qilinmasligi salbiy ko'rinishlarni keltirib chiqaradi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs ma'naviy qiyofasida chekinish yuz beradi.

Ayni bir vaqtda oila va oiladagi ota-ona hamda farzandlarining o'zaro munosabatlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishga intilish, uning psixologik muammolarini o'rganish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir, chunki tarbiya avvalo oiladan ota-onadan boshlanishi hammaga ma'lum. Ma'lumki, inson dunyoga kelar ekan, uning "Shaxs" sifatida shakllanishi oilada amalga oshadi. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasidadir. Har qanday davlatning ertangi kuni, shu davlatda yashab, ijod etayotgan iqtidorli shaxslarga, ziyolilarga va ular yaratgan ahloqiy, ilmiy boyliklarga bog'liq bo'ladi.

Binobarin, "Bolani boshidan, niholni yoshidan asra" degan hikmatga amal qilgan holda, yosh bo'g'inni eng kichik yosh davridan boshlab g'oyatda e'tibor bilan tarbiyalab borsak, zarur hulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirsa, farzandlarimizning kelajagi haqida qayg'urib, vatan oldidagi mas'uliyatlarimizni doimo his qilgan holda ota-onalik burchimizni sharaf bilan ado etgan bo'lamiz. Ana o'shanda bolalarimiz muhim xarakter xislatlarini egallab, ular oilaninggina farzandi bo'lib qolmasdan, vatanga va xalqiga munosib farzand bo'lib voyaga etadilar. Bolaning kim bo'lib etishishi asosan, oiladagi muhitga- tarbiyaviy ta'sirga bog'liq. Bu to'g'rida pedagog A.S.Makarenko alohida to'htalib, agar biz farzandlarimizga yaxshi tarbiya bersak, bu- kelajakdagi achchiq ko'z yoshimiz, noqobil farzand tufayli qon-qon yig'lab yutadigan g'amlarimiz, alamlarimiz bo'lmaydi, deb ota-onalarni ogohlantirgan edi. Bolada xarakterning yangi sifatlari kurtak ochayotgan vaqtda ota-onalardan sabrlilik, chidamlilik, shaxsiy namuna talab etiladi, ota-ona bolaning bergan har bir savoliga to'liq javob qaytarishi, tabiat mo'jizalarini ko'ra bilishga, uning ne'matlaridan bahra olishga o'rgatishi va bu in'omlarga hamma vaqt erishib turish uchun har bir kishi tabiat oldidagi o'z mas'uliyatini sezishi shartligini uqtirib borishi lozim. Bolani o'zini jamiyatning, shu oilaning, shu tabiatning a'zosi ekanini his etishiga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Psixologlarning fikricha, xatti- harakat odatni, odat xarakterning taqdirini va uning o'zini yaratadi.

Oilaning asosiy ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy vazifalarini qisqacha tahlil qilib ko'rsak, bolada shakllanadigan barcha hissiy, ruhiy tuyg'ular, mehribonlik, oqibatlilik, o'ziga va atrof tabiatga nisbatan mas'uliyatlilik kurtaklari oilada namoyon bo'ladi. Asosiy maqsadlarimizdan biri vatanparvarlik va milliy g'ururni yoshlar dunyoqarashiga singdirishdan iboratdir. Chunki, farzand vijdonli, qo'shiq aytishni, ilm-hunar olishni xohlagan avlodi bor yurtning xonadonlari tinch, dasturxonli to'kin, yurti osoyishta bo'lishi shakl - shubhasizdir. Farzandlar tarbiyasi bugungi kunda har birimizning asosiy ishimiz bo'lib, unga burch va mas'uliyat nuqtai nazaridan yondashish, ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni shakllantirish garovidir. Oilada har bir bolaning hatti-harakatiga nisbatan rag'batlantirish yoki qattiqqo'llik bilan munosabatda bo'lish, tanbeh



berish, jazolash tarbiyada sinalgan metoddir. Oilada farzandni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, tashabbuskorlikka: o‘rgatish, dunyoviy ilmlar va hayot ilmidan voqif etish, kasb-hunar-sirlarini qunt bilan egallashlari uchun shartsharoit yaratib berish, ularning hayot so‘qmoqlarida adashib qolmasligi va ravon yo‘ldan borishda yordam beradi.

Shunday qilib, oila tarbiya maskani bo‘lib, shaxsning kelajagi shi maskanda tarbiyaing qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish ota-onaning o‘z burch va va zifalariga qanday tarzda bo‘lishiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati :

1. Avloniy A. Guliston yoxud axloq. Islom odobidan mumtoz namunalar. T., 1993. - 120 b.
2. Akramova F. A., Abdullayeva R. M. Sharq mutafakkirlarining oila xususidagi qarashlari.T.: “Shams ASA”, 2002. - 25 b.
3. Akramova F. A., Abdullayeva R. M. Oilaviy hayotga oid psixologik tavsiyalar. T., “Shams ASA”, 2002. – 63 b.
4. Akramova F. A. Insoniy munosabatlar psixologiyasi. T., “Shams ASA”, 2005. - 68 b.
5. Akramova F. A. Oilada muomalani tashkil etish psixologiyasi. T.: “Shams ASA”, 2006, - 90 b.
6. Davletshin M.G., Shoumarov G‘.B. Zamonaviy o‘zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari / O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari qisqacha bayoni. - Toshkent, 1993. - 3-7 b.



О‘ЗБЕК МИЛЛИЙ ХАЛQ HUNARMANDCHILIGI NAMUNALARINING RIVOJLANISHI TARIXI

Ishonxodjayeva Muqaddas
Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumanidagi
49-maktabning texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari texnologiya darslarida xalq hunarmandchiligini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Hunarmandchilik, buyumlar, kulolchilik, hunarmandlar, mahalla.

O‘rta Osiyoda qadimdan hunarmandchilik taraqqiy etib kelgan. Hunarmandlar xalqning ehtiyojidan kelib chiqib kerakli buyumlar yasaganlar. Shahrixon, Urgut, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chustda hunarmandlar alohida-alohida mahalla bo‘lib yashaganlar, ya‘ni hunarmandlar qaysi kasb bilan shug‘ullansalar, shu hunar nomi bilan mahalla nomi ham aytilgan. Chunonchi, zargarlik bilan shug‘ullanadigan mahalla bo‘lsa “zargarlik mahallasi”, pichoqchilik bilan shug‘ullansa “pichoqchilik mahallasi” deb yuritilgan. O‘sha vaqtlarda misgarlik, zargarlik, bo‘yrachilik, tandirchilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravazoslik, kulolchilik, toshtarashlik, savatchilik mahallalari mavjud bo‘lgan.

O‘zbek xalq amaliy bezak san‘atining eng rivojlangan turlaridan biri naqqoshlikdir. Qadimdan, Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san‘ati ravnaq topgan. IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san‘ati rivojlangan. Arxitekturada g‘isht qalab, naqsh solishrivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak darajada rivoj topdi.

XVIII asr oxiri va XIX asrlarda Qo‘qon, Farg‘ona, Buxoro shaharlarida yetuk namoyondalar qatori xalq ustalari yetishib chiqdi. Misgarlik, naqqoshlik, ganchkorlik va boshqa san‘at turlari rivojlana boshladi.

XIX asrga kelib Buxoro, Burota, Shahrisabz, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Farg‘ona kabi katta-katta badiiy kashtado‘zlik, zardo‘zlik markazlari bunyodga keldi. Shuni aytib o‘tish kerakki, kashtachilik san‘ati butunlay xos edi.

O‘zbekistonda kulolchilik xalq an‘analariga asoslangan holda haligacha yashab, ijodiy rivojlanib kelmoqda.

Misgarlik buyumlari qadimdan mahalliy aholi orasida mashhur bo‘lgan. Ular ro‘zg‘or asbobi bo‘lishdan tashqari, misgarning san‘ati tufayli shkaf va tokchalarga qo‘yilib, turar joylarni bezatish vazifasini ham o‘tagan. Qadim zamonlardan buyon davom etib kelayotgan misgarlik san‘atida o‘ziga xos shakl hamda amaliy va tasviriy usullar bilan ifodalangan mahalliy uslublar vujudga kelgan.

Xiva ustalari ko‘pincha serziynat, noyob pichoqlar yasaganlar. Xiva pichoqlari gul bandidan to‘p‘lat tig‘ining uchigacha serbar hoshiyaday boy kandakori naqshlar bilan bezatilgan.

O‘zbekistonda gilam to‘qish an‘analari nihoyatda qadimiydir. Ular ko‘plab ajdodlar mehnati va ijodiy izlanishlarining mahsulidir. Asosan, yurtimizning qishloq joylarida, uyda ishlaydigan ko‘plab chevar xotin-qizlar qo‘lidan chiqqan gilamlar ham badiiy, ham yasalish jihatidan mukammaldir.

Xalq san‘atining nihoyatda rivoj topgan, bizning davrimizgacha o‘z ahamiyatini saqlab qolgan va hozirgi zamon ustalari ijodida yanada rivoj topgan turlaridan biri barcha joylarda tarqalgan va qadim zamonlardan buyon boy an‘analarga ega bo‘lgan zargarlik san‘atidir. Qadimiy zargarlik bezaklari kiyim-kechak, ayniqsa, ayollar kiyimining eng muhim badiiy zeb-ziynatlaridan biri bo‘lib, bu kiyimlarning bichimi va shakli bilan uzviy bog‘langan, rangi, shakli va vazifasi bilan hamohang bo‘lgan.

Kashta tikish san‘atining ham ko‘p asrlik tarixi bor. Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, qadimdan uy-ro‘zg‘or buyumlari – sochiqlar, to‘r hoshiya, dasturxonlar, bayram va kundalik kiyimlar, peshbandlar, bosh kiyimlar va boshqa narsalarni kashtalar tikib bezatilgan.

Xalq ustalari kashta tikib bezagan buyumlar chiroyli gullari bilan, ranglarining bir-biriga mosligi, to‘la mutanosibliigi, bajarish usullarining professional aniqligi bilan ajralib turadi. Kashta tikilgan har bir buyum amaliy vazifasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston kashtachiligining noyob turi zardo‘zlik san‘atisiz to‘la tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu san‘at o‘tgan XVIII-XIX asrda Buxoroda girkirab rivojlangan. U yerda mohir ustalar amir



saroyining ustaxonalarida amir va uning saroy ahli kiyadigan dabdabali kiyimlarga pardozi berishgan. Zardo‘zlik odatda erkaklarga mansub bo‘lgan va ular o‘z hunarini farzandlariga nerost qilib qoldirishgan.

XIX-XX asrlarda zardo‘zlik ishida chetdan keltirilgan turli xil fabrika materiallari kabi mahalliy gazlamalardan ham foydalanilgan.

Bizgacha yetib kelgan zardo‘zlik materialining juda ko‘pchiligi, xususan, erkaklar choponlari chetdan keltirilgan barhutdan tikilgan.

Zardo‘zlik uchun barhutdan tashqari shirg‘a va gulli atlasdan asosan ro‘mol va belbog‘lar tikilgan. Buxoro zardo‘zligida dokadan faqat salla qilingan. O‘zining mahkamligi, mayinligi bilan ajralib turuvchi bu gazmolni doka misqoniy yoki doka xonjariy deb atagan. Barhutga nisbatan surp Buxorolillar turmushida juda kam qo‘llanilgan. Faqat erkaklar ustki kiyimlarini tikishda jaydari bilan bir qatorda hindlarning kashmiriy singari chetdan keltirilgan movut keng qo‘llanilgan. Yarim shoyi jaydari olacha gazmoli zardo‘zlikda deyarli barcha buyumlar tayyorlashda ishlatilgan. Unda asosan uy-ro‘zg‘or buyumlari: so‘zana, tokiyapo‘sh, joynamoz, lo‘la-bolishlar jildi tikilgan. Turli navdagi simli iplar zardo‘zlik uchun asosiy xom-ashyo hisoblangan. Gazmollarga gul tushirish uchun foydalanilgan zar va kumush iplarning o‘ziga xos tarixi bor. Zar iplardan tashqari zardo‘zlikda jaydari rangdor ipak iplardan ham foydalanilib, ular asosan gullarga qo‘shimcha oro berishda hamda matoga zar yo‘l tushurishda ishlatilgan.

Milliy hunarmandchiligimizning yana biri – do‘ppi tikishdir. Do‘ppi O‘zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim hisoblanadi. Do‘ppi kiyish dastlab qadimda Eronda va turkiy xalqlar o‘rtasida vujudga kelgan. Baxmalga, sating, sidirg‘a shoyiga ip, ipak va zar bilan do‘ppi gullari tikilgan. O‘zbekistonda Toshkent, Chust, Samarqand, Buxoro, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur bo‘lib, ular o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Do‘ppilarimizning iroqi, chust do‘ppi, gilam do‘ppi, chakma to‘r, qizil gul, piltado‘zi, zardo‘ppi, to‘ldirma deb nomlanagan turlari bo‘lib, har biri o‘z yaratilish uslubiga ega va bir biridan tubdan farq qiladi.

Yurtimizda erkaklar kiyadigan Toshkent, Chust, Marg‘ilon do‘ppilari keng tarqalgan. Toshkent do‘ppisining asosan ikki xil turi mavjud. Tepasi dumaloq va uchburchaksimon taxlanadigan. Toshkent do‘ppisi sidirg‘a rangli taqir baxmaldan tayyorlanadi.

Buxoro do‘ppisi tepa qismining chuqur va uchli bo‘lishi, jiyagi normal tikilib, maxsus tayyorlanishi bilan Toshkent do‘ppisidan farq qiladi. Buxoro do‘ppilari sidirg‘a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo‘rma usulida tikilgan bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan O‘zbek xalq hunarmandligi namunalari milliy san‘atimizning nechog‘lik boy tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Mazkur hunarmandchilik namunalaridan umumta‘lim maktablarida texnologiya darslarida, qo‘shimcha to‘garak mashg‘ulotlarida foydalansak, o‘quvchi yoshlarimiz ham hunarli bo‘lib qoladi, ham ularning qalbida mehnat qilishga mehr-muhabbat uyg‘onishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Turaqulov.X.A, Sharipov Sh. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini rivojlantirish. Uslubiy tavsifanoma. 1998-yil.

2. Mahkamova Sh. Mehnat ta‘limi darslarida va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda xalq hunarmandchiligini o‘rganish. BMI. Samarqand. 2012-yil.



О‘QUVCHILARDA MILLIY ONGNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY TA’LIM- TARBIYANING AHAMIYATI

Kazakova Salomat To‘ravoyevna
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Tarbiya fani o‘qituvchisi
Jumanazarova Nilufar Bahrom qizi
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Tarix fani o‘qituvchisi
+998934499303

Annotatsiya: maqolada uzluksiz ta’lim tizimi o‘quvchilarining milliy ongini shakllantirishda milliy tarbiyaning ahamiyati hamda ijtimoiy sohaning imkoniyatlari xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlari: milliy ong, milliy o‘zlik, ta’lim-tarbiya, ijtimoiylashuvlik.

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarining milliy ongini shakllantirish, millatning kelajak istiqbolini ko‘ra bilishni o‘rgatish va talab qilish milliy o‘zini - o‘zi anglashdir. Bu o‘quvchilar milliy ongining shakllanishi, tafakkur qilish madaniyati darajasi bilan uzviy bog‘lik. Ma’rifatli, yuksak madaniyatli inson bugungi kun ehtiyojlarini qondirish uchungina yashamaydi. Inson, albatta, ertangi kuni ham o‘ylab yashaydi. Kelajakni ko‘ra bilish, fahmlash – milliy o‘z - o‘zini anglashning zaruriy qismini tashkil etadi. O‘rta Osiyoga sayohatga kelgan Herman Vamberi “Buxoro yohud Mavoraunnahr tarixi” asarida Oltin O‘rdadagi har bir o‘zbekning musulmoncha tarbiyalanganligini, savdo - sotiqda og‘ir vazminligini, oq ko‘ngilliligi va samimiyligini, kamgapligini, sadoqatliligini, dovyurakligini, shinavandaligini, oilaviy munosabatlarda pokligini, mulohazaliligini, andisha bilan to‘g‘ri so‘zlashini, ota – onaga hurmati va e’tiqodi kuchliligini, birinchi bo‘lib o‘tirmasligini va birinchi bo‘lib so‘zlashmasligini, mug‘ombirlikni bilmaslikligini, dinga e’tiqodi kuchli bo‘lib, bu jihatdan anatoliyali turklarga o‘xshashligini ta’kidlab o‘tgan.

O‘zbek milliy ongining nodirligi umumxalq birligi asosida shakllangan o‘rta asr Uyg‘onish bosqichi – Amir Temur va temuriylar davrida namoyon bo‘lgandi. “Biz Kim, mulki Turonimiz millatlarning eng qadimgi... Turkning bosh bo‘g‘inimiz”, degan temuriycha e’tirof haqiqati qoni-yu jonida, ruhining tub-tubida, nasl-nasabida saqlangani o‘laroq, 130 yillik qullik zamon, milliy irsiyatda biologik botiniy saqlangan o‘zlik ongi, ruhi, madaniyatini barbod qilolmaydi.

Milliy ongni shakllantirishda ona tiliga munosabat mezoni muhim hisoblanib, bu – o‘z milliy - ona tilini bilish, uning tarixini o‘rganish, uni buzib gapirishga yo‘l qo‘ymaslik, mumtoz adabiyotni o‘rganishga intilish, o‘z atrofidaqilarni ham bunga qiziqtirish, o‘z ona tilini qadrlash va undan faxrlanishdir.

Milliylik mezoni – milliy iftixor, o‘zligini anglash, millat tarixini bilish, milliy urf – odatlar, an’analar, qadriyatlar o‘zbek millatiga xos bo‘lgan bu sifatning tub ma’nosini tushunib yetish, kishilar bilan munosabatda ongli ravishda mehr ko‘rsata olish, keksalarni hurmat, kichiklarni izzatlash kabi tushunchalarni anglay olish, bilimlilik, milliy onglilik, mustahkam e’tiqodlilik darajasi ekanligini tushunish.

Til, urf-odat, psixologiya, dunyoqarash bolaga uning xohishidan tashqari holatda o‘z milliy tarbiyaviy ta’sirini o‘tkaza boradi. Shu o‘rinda “tarbiya” tushunchasiga yaqin bo‘lgan “ijtimoiylashuv” tushunchasi haqida to‘xtalib, milliy tarbiya va milliy ijtimoiylashuv orasidagi umumiylik va o‘ziga xoslik ustida to‘xtalish lozim. Jamiyatdagi ijtimoiy jarayon, har bir yangilik va o‘zgarishlar o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi.

Ijtimoiylashuv va milliy lashuv ta’sirlari orasida uyg‘unlik yoki ziddiyat milliy ma’naviy taraqqiyotga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tiborga bog‘liq. Mustaqil O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosat o‘zbek davlatchiligini chuqur hurmat qilishga asoslanadi. Iqtisodiyot milliy xususiyatga ega, O‘zbekistonning davlat manfaatlariga xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar tili – Davlat tili, xizmat ko‘rsatish jabhasining insonlarga munosabati, maishiy – tibbiy xizmat, ommaviy axborot vositalari, tabiiy muhit va boshqalar o‘quvchi shaxsning shakllantiruvchi ijtimoiy omillar, lekin ijtimoiylashuv bu inson tomonidan unga ko‘rsatilayotgan maqsadli va maqsadsiz tarbiyaviy ta’sirlarni qabul qilish jarayonidir.

Xulosa qilib aytganda, milliy ong, milliy lashuv esa rivojlanayotgan o‘quvchi shaxsiga ilk yoshlaridanoq bevosita ta’sir qilish orqali samaradorlik, tabiiylik, ustuvorlik kasb etadi. Dastlab



birinchi, keyinchalik ikkinchi signallar tizimi ruh, til, oila, mahalla, qishloq muhiti o'quvchi shaxsiga quyidagi tarbiyaviy ta'sirlarni ko'rsatadi:

-milliylik-tadrijiy taraqqiyotda ijtimoiy tamoyil natijasida yig'ilgan madaniy qadriyatlar sintezi. Milliy tarbiya ta'sirida shakllanayotgan milliy ong madaniy-tadrijiy sintezga asoslangan holda yosh avlodni zamonaviy sharoitga va kelajakka mos ravishda shakllantirish jarayon hamda shaxs milliy ongliligi va zamonaviyligi-o'quvchi shaxsi ijtimoiylashuvining madaniy darajasi;

- milliy ong madaniy - umuminsoniy qadriyatning muayyan ko'rinishi bo'lib, insoniyat esa xalqlar, millatlar majmuasi. Shu nuqtai nazardan milliy ongni shakllantirish har bir maktab o'quvchisini o'z milliy madaniyati manbaida, ya'ni muayyan umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanadi;

-har bir inson o'z hayoti davomida turli ijtimoiy funksiyalarni o'taydi. Bu funksiyalar mazmuni, ko'lami, namoyon bo'lish jabhalari ilk yoshlardan boshlab, ko'payib, kengayib, murakkablashib, milliylashib boradi. U.Gerxardning fikricha, ana shunday tug'ma va ilk o'zgartiriluvchi ijtimoiy funksiyalardan biri — shaxs milliyiligi;

-dinlar, millatlar, mahzablar orasida ziddiyatlar uchun hech qanday asos yo'q. Chunki jahonda dinlar va millatlar orasida bo'lib o'tgan ziddiyatlar ayrim ulamolar, siyosatchilarning o'z maqsadiga erishmoq uchun din, millat nomidan ish ko'rishga chaqiriqlari – insoniyat yo'l qo'ygan xatolari;

-xalqlar, millatlar mavjud ekan, milliy tarbiya zamirida milliy ong bizning xohishimizdan tashqari madaniy determinizm asosida davom etaveradi. Shuning uchun bu jarayon davlatning manfaatlariga mos ravishda maqsadga yo'naltirilsa, milliy ong taraqqiyparvar, ma'naviy, ma'rifiy kuchga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. (1-jild). – T.: 2017

2. Ziyomammedov B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. – T.: 2000

3. Mavlonova R. Pedagogika. – T.: 2001



О‘QISH DARSLARI О‘QUVCHILARNING BILIMINI OSHIRISH VA MILLIY MADANIYAT QADRYATLARINI SHAKLLANTIRISH.

Kenjayeva Iqbol Ramazonovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ch sinf o‘qituvchisi
Telefon : +998(94)254 66 88
shokirova_188@mail.ru

Annotasiya: O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish.

Kalit so‘zlari: badiiy, ilmiy-ommabop matnlar, dunyo qarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirish.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. O‘qish darslari orqali o‘quvchilarning Davlat ta’lim standard (DTS) talablari bo‘yicha o‘zlashtirishlari ko‘zda tutilgan o‘quv-biluv ko‘nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashga yo‘l ochiladi. O‘qish darslarida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda „O‘qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo‘yicha atroficha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy- ommabop asarlar kiritiladi. O‘qish darslari savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarni bo‘g‘in, so‘z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o‘qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o‘qish texnikasi egallangandan so‘ng o‘qish muayyan mavzular bo‘yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib

boriladi. Boshlang‘ich sinf „O‘qish kitobi“ darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan beqilganadi. Shunga ko‘ra, o‘qish darslarining yetakchi xususiyati o‘quvchilarning savodxonligini ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo‘lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og‘zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqloq va ma’naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha ham bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi. Vatandarparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o‘qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo‘lib, 2-sinf „O‘qish kitobi“dagi „Ona yurtim-oltin beshigim“ bo‘limiga kiritilgan „O‘zbekistonim“ (H.Imonberdiyev), Istiqloq”(J.Jabborov), „Yur tog‘larga“ (U.Nosir), 3-sinfda „Ona bitta, Vatan yagona“ bo‘limidagi „Vatan haqida she‘r“ (A. Avloniv), „O‘zbekim“ (E.Vohidov), „Vatan mo‘tabardir“ (X. Davron), „Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi“ (T. Malik), 4-sinfda „O‘zbekiston— Vatanim manim“ bo‘limidagi „Serquyosho‘lka“ (Z. Diyor), „Iqboli buyuksan“ (A. Oripov), „Toshkentnoma“ (M.Shayxzoda), „Xarita“ (N.Norqobil) kabi asarlar misolida atroficha tahlilga tortiladi. Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzu Vatanimiz o‘tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug‘ siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to‘g‘risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standari. T.:2005
2. 2-3 sinf “O‘qish” darsliklari T.: 2013.



О‘QUVCHILAR YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH

*Mahmudova Umida Abdurazzaqovna
Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani
XTBga qarashli 60-sonli xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Ibodullayeva Iroda Mamaraimovna
Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani
XTBga qarashli 60-sonli xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilar yozma nutqini oshirishning pedagogik asoslari, usullari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ona tili ta’limi, nutq, og‘zaki nutq, matn tuzish, savodxonlik.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakat miqyosida ta’lim, tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar tizimlarini tubdan, bosqichma-bosqich isloh qilish zaruriyati sezilib, aslo paysalga solib bo‘lmaydigan bu ishni qadamba-qadam, izchillik bilan bajarishga kirishilgani haqida fikr yuritib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qanday sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimini yangicha ko‘rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ta’lim samaradorligiga erishish, shu orqali ijobiy natija beradigan darslar tashkil etgan holda davlat va jahon talablariga mos kadr tayyorlash davr talabidir.

Nutq madaniyati, namunali nutq (og‘zaki va yozma) tuzish malakasiga ega bo‘lish har bir shaxs umummadaniyatining ajralmas va tarkibiy qismidir. O‘qitish jarayonida asosiy diqqat-e’tibor o‘zbek tili birliklarining barcha imkoniyatlarini ochib berish orqali tilimizning naqadar boy ekanligini namoyish etishga, ulardan maqsadga muvofiq foydalana olish malakasini hosil qilishga va ayniqsa, adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda, namunali yozma nutq tuzishga qaratilishini ko‘zda tutish darkor. Bu narsa, ko‘rinib turibdiki, nutq madaniyati til birliklarining uslubiy imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda hal etilishini taqozo etadi.

Nutqning ikkinchi turi, ya’ni yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u o‘quvchidan grammatik va mazmun jihatdan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatdan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Yozma nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas’uliyatni talab etadi. ana shu sababli nutqning bu turini o‘stirish ancha sekin va murakkab kechadi.

Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillash-tirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqidagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi.

Ona tili o‘qituvchisi yozma ishlarda mazmunga, mavzudan chetga chiqmaslikka, faqat imlo va tinish belgilarigagina emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo‘lishi, materialning to‘g‘ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri bayon qilinishiga ham e’tibor qaratishi lozim.

Ona tili mashg‘ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o‘quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o‘z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi.

Yozma nutqning murakkab jarayon ekani, u ko‘p vaqt va murakkab mehnat talab etishi, bunday nutq davomida o‘quvchining o‘z-o‘zini kuzatib borishi oni tili va adabiyot o‘qituvchilariga juda



yaхshi ma'lum. Yozma nutqda savodxonlik va mazmun asosiy o'rin tutadi.

Bundan tashqari, so'z ma'nolari ustidagi ish murakkabdir. Har doim matn ustida ishlaganda yangi so'zlarga va so'zlarning yangi ma'nolarda qo'llanganiga e'tiborni tortish o'quvchilarning bu sohadagi ko'nikma va malakalarining shakllanishi va takomillashishiga imkon beradi. Buning uchun amaliyotda qo'llaniladigan ayrim shakl va usullarni eslatish mumkin:

1. Yangi so'zning ma'nosini izohli lug'at vositasida oydinlashtirish;
2. Berilgan so'zning ma'nodoshlarini topish;
3. Matndagi so'zning ma'nosiga zid bo'lgan boshqa so'zlarni keltirish;
4. So'z yasalişhiga oid tahlilni amalga oshirish;
5. So'zning kelib chiqishiga oid tahlil bilan shug'ullanish, ya'ni so'zning etimologiyasini aniqlash;

Quyida o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishga mo'ljallangan yana ba'zi usullarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. Matndan zarur o'rinlarni ko'chirib yozish.
2. Badiiy asar qahramonlari nutqidan zarur o'rinlarni ko'chirib yozish.
3. Matn mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirib yozish.
4. She'riy asarlar mazmunini hikoyaga aylantirib yozish.
5. Matn mazmuni asosida reja tuzib yozish.
6. Savol va topshiriqlarga javob yozish.
7. Matn mazmunini qisqartirib yozish
8. Matn mazmunini kengaytirib yozish.
9. Ilmiy uslubda berilgan matnni badiiy uslubga aylantirib yozish. Bu adabiy nutq me'yorlaridan unumli foydalanishni talab etadi.

O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishga asoslangan topshiriqlar ularning yoshiga mutanosib tarzda tanlanishi lozim. Zero, maktab o'quvchisi va professional yozuvchining fikrlashida farq bor. Agar ularning yozma nutqi qat'iy talablar asosida chegaralansa, ular doim eshitib yurgan tayyor birikmalar va jumalardan foydalanishadi. Natijada ijodiy tafakkur qila olmaydi.

Biz yuqorida yozma nutqni rivojlantirishning ayrim muhim yo'llarini sanab o'tdik. Eng muhimi, bu usullarni bir marta qo'llash bilan cheklanib qolmay, balki ularni tez-tez qo'llab turish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. – Toshkent, 2017.
2. Mahmudov N. Ta'lim bo'g'inlarida ona tili o'qitish mazmunini yangilash muammolari // Ta'lim bo'g'inlarida ona tilini o'qitish mazmunini yangilash asoslari.-Qarshi: 1993. 5 – 7-b.b.
3. Mahmudov N. Ta'lim bo'g'inlarida ona tili o'qitish mazmunini yangilash muammolari // Ta'lim bo'g'inlarida ona tilini o'qitish mazmunini yangilash asoslari.-Qarshi: 1993. 5 – 7-b.b.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA HAMKORLIKDA O‘QITISH TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

*Matchanova Munajat Shonazarovna
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998975292088*

*Azatova Shohsanam Mahmudovna
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998937580988*

Annotatsiya: maqolada ta’lim-tarbiya jarayoni, xususan, Boshlang‘ich ta’lim samaradorligining oshirishda hamkorlik ta’lim texnologiyasining ahamiyati xusudida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlari: boshlang‘ich ta’lim, ta’lim-tarbiya, hamkorlik ta’lim texnologiyasi

Ta’lim-tarbiya jarayonida, xususan boshlang‘ich sinflarda har bir o‘quvchini shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish – bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Hamkorlikda o‘qitishga yo‘naltirilgan ta’limning markazida o‘sayotgan inson, uning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas‘uliyatli qaror qabul qilish yotadi. Zamonaviy sharoitda hamkorlik ta’limi va uni tashkil etish o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

Bizga ma’lumki, ta’lim-tarbiya sohasi har bir o‘qituvchidan ijodkorlikni talab etadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari esa bu jabhada ma’lum darajada farqli faoliyat yuritadilar.

Hamkorlik ta’limi – o‘quvchilarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, “o‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta’lim bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi o‘quv topshiriqlarini o‘zaro hamkorlikda bajarish sanaladi.

Hamkorlik ta’limi texnologiyasining belgilari quyidagicha:

- o‘quvchi shaxsi, individualligiga e’tibor qaratish;
- tayyor bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qayta ishlab chiqishni inkor qilish;
- o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- o‘qituvchi va tengdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatning yuzaga kelishini ta’minlash;
- o‘quvchilarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- hamkorlik va o‘zaro tenglikka asoslangan muhitni yaratish.

Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lish, ularni joylashtirish qoidalarini yaxshi biladi. O‘qituvchining keyingi vazifasi guruhlariga o‘quv topshirig‘ini berish bo‘lib, bu bo‘yicha ularga topshiriqni qanday bajarish ko‘rsatmalari aytib o‘tiladi. Asosiy vazifa – maqsad va natijaning aniq shakllantirilishidir, shundagina ishning xulosasini tekshirish mumkin.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik-psixologik va uslubiy asoslari mavjud bo‘lib, ular quyidagicha tavsiflanadi:

– tashkiliy-pedagogik asoslari – o‘quv reja, dastur, dars mavzusi, DTS talablari va ularga muvofiq darajada o‘zlashtirilishi talab qilinadigan yangi bilim hajmi asosida o‘quv mashg‘yuloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit, imkoniyatlarni belgilash va amalga oshirish;

– psixologik asoslari – o‘quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish, mashg‘yulotlarda hap bir o‘quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratish, erkin muloqotni sifatli uyushtirishda dars mavzusi, mazmuni, qo‘llanilayotgan tushunchalar, atamalar, ta’riflar, formulalar va boshqa shartlarning o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlash;

- uslubiy asoslari – mashg‘ulot uchun zarur vositalarni oldindan ishga tayyorlash, ularning talablar darajasida sifatli bo‘lishini ta’minlash Hamkorlikda o‘qitish usullaridan foydalanganda o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini og‘zaki bayon qilish va muammoga boshqa nuqtai nazardan



qarashni o'rganadilar.

Hamkorlikda o'qitish o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham oson va qulay texnologiya bo'lib, o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Dars so'nggida balki o'qituvchi jismoniy va ruhiy toliqishni sezar (o'quvchilarning faolligini ta'minlaydi, har bir guruhning oldiga bir necha bor borib, ularni yo'naltirib, nazorat qilib turadi), biroq natija kutilgandek bo'ladi: barcha o'quvchilar berilgan bilimlarni to'liq o'zlashtirilishiga erishadi.

Xorijiy ta'lim nazariyasi va amaliyotida hamkorlikda o'qitish ("cooperativ learning") keng tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hamkorlik samaradorligi umumiy natija hisobiga ishtirokchilarning interfaolligi, o'zaro aloqadorligi va mas'uliyati, uning takomillashuvini, guruh ishtirokchilarining konstruktiv o'zaro birgalikdagi harakatiga individual mas'uliyati va yo'nalganligini ta'minlaydi.

Hamkorlikda o'qitishning "birgalikda o'qiymiz" metodi 1987 yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Sinf o'quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarishi lozim bo'lgan topshiriqni ma'lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to'liq bajarilishi natijasida o'quv materialining yaxlit o'zlashtirilishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quv jarayoni demokratik holda tashkil qilinadi va bunda nimani o'rganish hamda qanday tartibda o'rganish o'quvchilar tomonidan hal etiladi. O'qituvchi esa guruhlarini maqsadga muvofiq tarzda tashkil qilish va ularni boshqarishni ta'minlaydi, ammo o'quvchilar guruhlararo muloqotni muttasil ravishda nazorat qilib turadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Axmedova F.M., Sultonova L.B. Ta'lim sifatini yaxshilashdagi ayrim masalalar. – T.: 2012
2. Jumayev. M., Yuldasheva M. va boshqalar. Boshlang'ich ta'limni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua.–T.: 2018



YEVROPADA MARKAZIY OSIYO XARITASI

*Mengqobilova Sojida Axmetovna
Oltinsoy tumanidagi 31-maktabning
tarix fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yevropa davlatlarida mavjud Markaziy Osiyo xaritalari haqida yozilgan. Xaritalar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: geografik, tarixiy, genetik, lingvistik, populyatsiya, YUNESKO

Evroosiyo odamlarning populyatsiyasiga va madaniyatiga qarab hududlarga bo‘lingan xaritalar tuzadi. Son-sanoqsiz geografik, tarixiy, genetik, lingvistik va madaniy yo‘nalishlar minglab kilometrlik hududlarni qoplaydi. YUNESKO mintaqaning ob-havo sharoiti asosida siyosiy bo‘lmagan ta‘rifini o‘rnatdi. Ushbu xarita nafaqat beshta “mamlakatni” o‘z ichiga oladi, balki Sibirga ham yetib boradi, butun Mo‘g‘ulistonni, Xitoyning yarmini va Afg‘oniston, Pokiston va Hindistonning bir qismini qamrab oladi. Mo‘g‘ul bosqinchiligi yo‘llari va Ipak yo‘li transport liniyalari. Shunga qaramay, YUNESKO xaritasi ancha xilma-xillikni o‘z ichiga oladi va uni ko‘proq munozaralarga olib keladi. Osiyodagi kabi YUNESKO ning ushbu xaritasi O‘rta Osiyoning aksariyat qismini (ba‘zan Turkmanistonsiz) Mo‘g‘ulistondan Nepalgacha cho‘zilgan hududni belgilaydi. Ammo, masalan, O‘zbekistonning qadimiy shaharlari va qishloq xo‘jaligi amaliyotlari e‘tiborga olinmaydi. Bu, shuningdek, o‘zlarini bitta geografik yoki madaniy birlikning bir qismi deb hisoblamaydigan populyatsiyalarni jalb qiladi. Ushbu xarita an‘anaviy musulmonlarning ulkan qismini yagona yorliq ostida birlashtiradigan eng kattasidir. Xaritaning asosiy qismi bir paytlar dunyoning ushbu qismida hukmronlik qilgan yoki katta ta‘sir ko‘rsatgan turkiy va fors imperiyalariga asoslangan. Shu bilan birga, u turli xil tillarda va madaniyatlarda o‘ziga xosligini aniqlaydigan yagona, yorliq bilan o‘zlashtirishi mumkin emas. Bu muammoli, chunki qirg‘izlar va liviyaliklar, ikkalasi ham ko‘pchilik musulmonlar, aks holda geografiya, til va madaniyat bo‘yicha bir-birlaridan ancha uzoqlashadi. Ushbu mega-xaritalar ma‘lum tarixiy, siyosiy yoki madaniy ta‘sirlarning olis qismlarini o‘rganishda foydali. Bu xaritadan Afg‘oniston chiqarib tashlangan. Sovet Ittifoqi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarilmasa ham katta ta‘sir ko‘rsatgan. Beshta “mamlakat” bilan ko‘p o‘xshashliklarga ega. Tojikiston va Afg‘oniston aksariyati musulmonlardir, ammo turkiy emas, fors tilida gapirishadi. Tojik va afg‘on madaniyati va tarixlari o‘rtasidagi yaqin aloqalarni hisobga olgan holda, ikkalasini ham kiritish mumkin bo‘lgan dalillar mavjud. Ozarbayjon ham ko‘pchilik musulmonlardir, turkiy tilda so‘zlashadi va Turkiya bilan uning qadimgi imperiyalari ta‘sirida bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ko‘prikn tashkil etadi. Biroq, boshqa ikkita Kavkaz davlatlari, Armaniston va Gruziya tarixiy-nasroniy davlatlaridir. Bundan tashqari, ularning tillari na turkiy va na fors tillari va ularning o‘ziga xosliklari Markaziy Osiyo tillaridan qat‘iy ravishda ajralib turadi. Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston birgalikda foydalangan qisman yopiq geografiya umumiy tarixga va umumiy madaniy elementlarga olib keldi. Bular Markaziy Osiyo aholisini o‘zlarini yaxlit birlikning bir qismi sifatida ko‘rishga undaydi. Markaziy Osiyoning shakllanishiga yordam bergan ta‘sirlar hali ham juda ko‘p dalillarga ega. Bundan tashqari, an‘anaviy ravishda ko‘chmanchi qirg‘izlar uzoqroq yashab kelgan o‘zbeklar bilan azaldan qarindosh bo‘lib kelgan. Markaziy Osiyo o‘zining nisbatan ixcham geografiyasi ham umumiy geosiyosiy haqiqatini yaratadi. Markaziy Osiyo Rossiya va Xitoy, ikki qudratli davlatlar hamda Turkiya, Eron va Hindistonning mintaqaviy kuchlari o‘rtasida joylashgan. Azaldan Markaziy Osiyo ular uchun muhim ta‘sirga ega. Ularning doimiy ta‘siri ularning madaniy, siyosiy va hududiy suverenitetlariga tahdidlarni muvozanatlashtirib, investitsiyalar uchun zamonaviy muammolar va imkoniyatlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbar, Z. (2012). “Markaziy Osiyo: yangi buyuk o‘yin”, Vashingtonda Turkiya va Evroosiyo ishlari bo‘yicha sharh.
2. Asia Times, 2012 yil, http://www.atimes.com/atimes/Central_Asia



IMPROVING KNOWLEDGE WITH SUGGESTOPEDIA METHOD

Mukhammedova Farida Kamilovna
The English teacher of the secondary school #6
Navai, qizyltepa

Annotation: This research is intended to find out whether Suggestopedia method improved students' reading comprehension.

Key words: suggestopedia method, concert session, elaboration stage.

There are four main stages of the activities in suggestopedia method. They are presentation, concert session (active and passive), elaboration, and practice. In the presentation stage, the students are helped to get positive mind that learning is easy and fun. In this stage, the teacher sets the environment of the class as comfortable and cheerful as it could be for the students. In the active concert, the teacher reads a text and is repeated by the students. After that, in the passive concert, the teacher plays some baroque music in the background and she/he reads the text again and the students listen carefully. In the elaboration, the teacher tells the students that they will do something like making film, gaming, etc. after the concert session. In the practice stage, the teacher uses games, puzzles, etc. to review the students understanding. This research aims to describe the teacher activities in the presentation stage, concert session, elaboration stage, and in practice stage.

Suggestopedia is a method of language teaching developed by George Lezanov, the Bulgarian psychologist and educator in 1970. Lezanov believes that in the learning process the students use an unconscious mind by giving positive suggestion to make the students relax and concentrate. Using music rhythm is used in the teaching learning process.[2] This method applies the influence of suggestion of human behavior. It was supported by Rodrigues, Suggestopedia is a method deals with concentration and relaxation to get a maximum understand of the material that given by the teachers.[3]

Giving motivation for students is one of the characteristics of Suggestopedia method to make students relaxed and comfortable during read a text. In the Suggestopedia method, Students' feeling have an important place. Venkanna & Glorry added that the effect of physical surrounding and pleasant atmosphere of the classroom can make the students relaxed, confident and comfortable in reading the text because they do not feel under pressure to learn in the classroom. The purpose of this method is to make the students relax and enjoy during the learning process. Music in the learning process background helps to make students focus and concentrate to the material. Thus, it can be concluded that Suggestopedia is a good method for students to improve their comprehension during the reading activity in the classroom with relaxed and comfortable situation in the learning process. Lezanov justified that there are three procedures of Suggestopedia method. The purpose of this stage is to help students to relax, enjoy and move into a positive frame of mind.[5]

Based on the conclusion, these suggestions could give good impact to the student so that they got improvement in reading comprehension. In the Suggestopedia method, the teachers should be more creative do design the classroom atmosphere to make the student attract in reading text. For the researcher, to conduct a similar study, but they should investigate this problem in different grades for example; in the second or third grade and in the different types of genre.

References:

1. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*(3rd edition).Cambridge: Longman
2. Rodriguez, M. B. A. (2011). *Suggestopedia: Use and review of the technique and steps to be applied in an EFL classrom*. Cuenca: Universidad De Cuenca.
3. Venkanna, K., & Glorry, N. (2015). " Use of suggestopedia as an innovative strategy for promoting effective reading comprehension abilities in English at the ESL level " An experimental study. *International Journal of English Language, Literature and Humanities*, 3(8), 128–149.
4. *Suggestopedia Method on Improving Students' Reading Comprehension* Vebriana Setia Deny1, Syamsul Bahri, Dian Fajrina1 1Syiah Kuala University, Banda Aceh.



BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Narmuxammatoва Sayyora Ja'farovna
1-toifali boshlang'ich sinflar o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqola boshlang'ich ta'lim darslarini tashkil etishda zamonaviy interfaol usullardan foydalanishga qaratilgan bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda qanday usul va uslublardan foydalanish kerakligi bayon etilgan. Bu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: integratsiya, texnologiya, interfaol, zamonaviy, multimedia.

O'quvchilarning tarixiy tafakkurini shakllantirishda ko'p yillik maktab tajribasi hamda ilmiy-tadqiqot xulosalariga asoslangan holda darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borish lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni o'quv jarayonida qo'llash ta'lim tizimida katta yutuqlarga erishilmoqda. Bu esa o'z navbatida, o'quv jarayonini demokratlashtirish, hamkorlik, ham ijodkorlikda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bir so'z bilan aytganda, o'quv jarayonining markazida o'quvchi bo'lmog'i va o'quv jarayoni unga yo'naltirilgan bo'lishi talab etilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish, axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida multimedia mahsulotlari yaratilgan bo'lib, darslarda keng foydalanilmoqda. Bunday multimedia mahsulotlari pedagoglar uchun quyidagi afzalliklarga ega;

- darsning ko'rgazmaliligini ta'minlaydi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi;
- interfaol dars tashkil qilishga imkoniyat yaratadi va h. k.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonida yakka tartibda, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar, axborot manbalaridan unumli foydalanish imkonini beradi. Masalan, «G'oyalari gilami» mashqi boshlang'ich sinf darslaridagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga, o'zlashtirishga, shu bilan birga, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Darsdan oldin quyidagilarni tayyorlab qo'yish zarur bo'ladi: eni 15-20 sm hajmda uzun qilib kesilgan rangli qog'oz bo'laklari (3 xil rangda, har biridan 30-40tadan), 6ta flipchart qog'oz, yelim. Bumerang texnologiyasi – o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash, o'rganilgan materiallarni saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan. Mazkur texnologik mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga mo'ljallangan bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir o'quvchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolida bo'lishi, kerakli balni to'plashga imkoniyat beradi.

«Fikriy hujum» metodi. Bu metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonida faolligini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlashdan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rangbarang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish, yechish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yechishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Ushbu metodning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs)ning xar bir ishtirokchisi tomonidan o'rta tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad ta'lim oluvchilarning mashg'ulot (bahs) jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining kengligiga bog'liq bo'ladi. «Fikriy hujum» metodidan foydalanish chog'ida ta'lim oluvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.



Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soat tashkil etilishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o'qitilgan dars shunday kechadiki, bu jarayonda birorta o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'quvchilarda fanga oid «Boshlang'ich ta'lim» jurnali tahririyati tasavvurini shakllantirish, asosiy tarixiy faktlarni yaxshi o'zlashtirish va ular to'g'risida aniq tushuncha hosil qilishlarida, vaziyatni tahlil qilish, baholash, munosabat bildirishda pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva B., Fanlararo aloqadorlikning metodologik didaktik asoslari (monografiya). - Toshkent: «Fan», 2005, 130- b.
2. Bikbaeva N. va boshq. Matematika 2. – Toshkent, «O'qituvchi», 2007.- 208- b.
3. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi.- Toshkent, TDPU nashriyoti, 2006.-98 b.



SYSTEM OF VISUALIZATION TOOLS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING

*Oblokulova Mahliyo,
The English teacher of the
secondary school №21,
Navai, Navbahor*

Abstract: The use of visual tools in foreign language education is only becoming widespread. As the practice and traditions of foreign language education in Uzbekistan show, the principle of visibility has always been one of the fundamental principles of teaching foreign languages. The use of visualization is typical for all stages of training, and its scope is constantly expanding. In modern conditions, we are increasingly talking not just about visualization tools, which are based on various ways of processing and composing information, allowing us to present it in a compact and convenient form for perception and use.

Keywords: practical application, communicative knowledge, multimedia presentations, dialogical speech

But the problem is that, despite the significant spread of visual tools, their use in the learning process is often haphazard and chaotic. In this regard, we suggest using a systematic approach to develop complexes of visual tools in teaching a foreign language, since it is system thinking that makes it possible to identify all the defining parameters and relationships of components, optimize the processes of cognition, comprehension and practical application of knowledge, and thus improve the quality of teaching a foreign language in General.

Knowledge visualization tools are created for the purpose of transmitting knowledge and stimulating cognitive processes, while the principles of quantization of knowledge and cognitive visualization are most developed. The created means of knowledge representation help not only to master the studied material, but also to generalize and remember the studied material, as well as contribute to its longer retention in memory and easy reproduction. In relation to language learning, phonetic, lexical, grammatical, country studies, and socio-cultural knowledge are distinguished. In addition, we consider it necessary to include communicative knowledge in this list, since the formation of communicative competence is impossible without communicative knowledge. The advantage of presentation as a means of visualization is that knowledge is transmitted in the unity of image and text, using memory, thinking, imagination and personal meaning along with sensation. The information presented in the presentation is perceived by a person as a kind of mental constructor. In the course of introjections, this constructor is assigned by the individual. Dynamic presentations, which are actually educational videos based on multimedia presentations with active use of animation effects, have become very popular recently.

Using multimedia presentations in foreign language lessons allows you to implement a communicative approach to mastering all aspects of a foreign language: cognitive, educational, developmental and educational, and within the educational aspect - all types of speech activity: reading, speaking, listening, writing.

Creating and using multimedia presentations in foreign language lessons helps to implement a person-oriented approach to learning, provides individualization and differentiation of learning taking into account the abilities of students. The potential of mental schemes in teaching a foreign language is difficult to overestimate, they can be used for the development of socio-cultural knowledge, the formation and improvement of grammatical and lexical skills, as well as when planning monological statements and dialogical speech, for the development of writing skills.

The development of visualization tools is based on the principles of purposefulness, functionality, complexity, principles of system quantization and cognitive visualization. The structural components of the system include: information visualization tools and knowledge visualization tools, and each of them implements all the components of foreign language education in Uzbekistan. Therefore, the use of visualization tools in foreign language education provides a wide range of opportunities not only to get acquainted with the facts, processes and events of culture, but also to transfer lexical, grammatical, phonetic and communicative knowledge in an



accessible and easily assailable form.

The use of this method in foreign language classes is one of the means to increase interest in learning, allows students to provide better mastery of oral speech, increase the level of language and speech training, and contributes to the formation and improvement of lexical skills. Technically simple implementation and free use of the application provides great opportunities for the dissemination of this type of knowledge visualization tools.

Thus, the system of visualization tools used in teaching foreign languages in Uzbekistan provides for the implementation of educational, educational, developmental and cognitive potentials of foreign language education through the visualization of information and visualization of knowledge.

References

1. Zotova I. N. communicative competence as an aspect of socialization of a student's personality in the conditions of Informatization of society// Actual socio-psychological problems of personality development in the educational space of the XXI century", Kislovodsk: 2006, P. 109.
2. Kalinina S. I. Use of computer presentations in English lessons. [Electronic resource] // 2010 URL::<http://knu.kg/psikhologija-nagljadnosti-v-obuchenii-jazykam/157-vidy-nagljadnosti.html> (accessed 17.02.2015)
3. Kamyanova T. Successful English. System approach to the study of the English language: Moscow: house of Slavic books, 2008. 512p.



GULLI O‘SIMLIKLAR DUNYONI QANDAY O‘ZGARTIRDI

*Ortiqova Jong‘il Xoliyorovna
Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumani
18- maktabning biologiya fan o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu o‘simliklar tarixi haqida yozilgan. Gullarning inson hayotidagio o‘rni xususida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: evolyutsiya, angiospermlar, Elizabeth Zimmer, gulli o‘simliklar Birinchi gulli o‘simliklar qachon va qanday paydo bo‘lgan?

1990-yillar davomida Osiyo, Avstraliya, Evropa va Shimoliy Amerikada gullarning kashfiyotlari haqida muhim ma’lumotlarga ega edi. Shu bilan birga, genetika sohasi qidiruvga yangi vositalar to‘plamini olib keldi. Agar bizda gulli o‘simlik evolyutsiyasi to‘g‘risida aniq tasavvur bo‘lsa, unda biz uning tuzilishi va funksiyasi to‘g‘risida ba’zi savollarga javob berishga yordam beradigan narsalarni bilib olamiz. U qanday davrlarni bosib o‘tganligi, har xil changlatuvchilari haqida. Bu bizni qishloq xo‘jaligining yanada oqilona va samarali usullariga olib boradi, shuningdek evolyutsiyaning katta jarayonini aniqroq anglaymiz. Elizabeth Zimmer so‘nggi yillarda bu jarayonni qayta ko‘rib chiqmoqda. Zimmer bugungi turdagi DNKni o‘rganish orqali gullarni o‘simliklarning kelib chiqishini aniqlash bo‘yicha ish olib borgan. Bugungi kunga kelib olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kamida 130 million yillik tarixga ega bo‘lgan eng qadimgi nasl-nasab, *Amborella trichopoda* nomli ma’lum turni o‘z ichiga olgan oiladir [1]. Ko‘pincha “tirik qoldiq” deb ta’riflanadigan bu kichik yog‘ochli o‘simlik faqat botanikchilar orasida o‘zining ibtidoiy florasi bilan mashhur bo‘lgan Janubiy Tinch okeanining Yangi Kaledoniyasida o‘sadi. Bizda 130 million yillik cho‘kindilarga ko‘milgan eng qadimgi yo‘q bo‘lib ketgan boshqa gullarning va o‘simliklarning qoldiqlari mavjud. Ushbu topilmalar bizga dastlabki gullarning qanday ko‘rinishini ko‘rsatadigan yagona ko‘rsatmalar beradi, bu ularning mayda va bezaksiz, ko‘rkam barglari yo‘qligini anglatadi. Shamol changlanishi ko‘plab o‘simlik turlari uchun yetarli bo‘lsa-da, hasharotlar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish ancha samaralidir. Hasharotlar, shubhasiz, 130 million yil oldin yerda yangi o‘simliklar paydo bo‘lishi bilanoq angiospermlarga tashrif buyurishni va changlatishni boshladilar. Ammo gullab-yashnayotgan o‘simliklar changlatuvchilarning e’tiborini tortishi uchun yana 30 yoki 40 million yil bo‘lar edi. 70 dan 100 million yil ilgari yer yuzida gullaydigan o‘simlik turlarining soni ko‘payib ketgan edi, hodisa botaniklar tomonidan “katta nurlanish” deb nomlanadi. Bir paytlar e’tibordan chetda qoldirilgan angiospermlar yangi bezaklarida landshaftda ajralib turadigan bo‘lib, hasharotlar changlatuvchilarini ilgari hech qachon ko‘rmagan [2]. Ko‘paytirish to‘liq ma’noda boshlandi. Hasharotlar va gullarni o‘simliklarning o‘zaro ta’siri ikkala guruhning rivojlanishini shakllantirdi, bu jarayon koevolyutsiya deb ataladi. Vaqt o‘tishi bilan gullar ranglari, jozibali xushbo‘y hidlar va hasharot changlatuvchilar uchun qo‘nish maydonchalarini ta’minlovchi maxsus barglar rivojlandi. Oxir oqibat odamlar rivojlanib, qishloq xo‘jaligi orqali gulli o‘simliklar oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojimizni qondirdi. Biz o‘z navbatida makkajo‘xori va guruch kabi ba’zi turlarni oldik va misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdik, ularni keng dalalarda o‘stirdik, ataylab changlatdik, ishtiyiq bilan iste’mol qildik. Deyarli biz iste’mol qilayotgan har qanday nooziq ovqat gulli o‘simlikdan boshlanadi, biz iste’mol qilayotgan go’sht, sut va tuxum esa donlarga semirgan chorvachilikdan - gulli o‘simliklardan keladi. Hatto biz kiygan paxta ham gulli o‘simliklardan olinadi. Estetik jihatdan ham gullar hayotimizni qo‘llab-quvvatlaydi va boyitadi. Biz ularni faqat go‘zalliklari, hidlari, guldasta, oshxonada do‘stligi uchun qadrlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Armstrong, W.P. 1998. “The Truth About Cauliflory.” *Zoonooz* 71: 20-23.
2. Borror, D.J. and D.M. DeLong. 1964. *An Introduction To The Study Of Insects*. Holt, Rinehart and Winston, New York.



О‘СИМЛИК ТУРЛАРИ КУТИЛГАНИДАН ТЕЗРОҚ YO‘QOLIB КЕТМОҚДА

*Ortiqova Nilufar Xoliyorovna
Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani
3-maktabning Biologiya fan o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo‘q bo‘lib borayotgan o‘simlar haqida yozilgan. Shu xususida o‘tkazilgan tadqiqotlar haqida aytilgan.

Kalit so‘zlar: populyatsiya, tendensiya, diversifikatsiya, funktsional

Agar siz shunchaki o‘simlikni yaxshi ko‘radigan odam bo‘lsangiz, siz yolg‘iz emassiz. 10 iyun kuni Nature Ecology & Evolution jurnalida chop etilgan yangi tadqiqotga ko‘ra, butun sayyora bo‘ylab bunday insonlar juda ko‘p [1]. Tadqiqot mualliflari dunyo bo‘ylab 330 mingdan ziyod urug‘ o‘simliklarining populyatsiyasini tahlil qilib, 1900 yildan beri Yerda har yili uchga yaqin o‘simlik turlari yo‘q bo‘lib ketganligini aniqladilar, bu ko‘rsatkich ushbu turlarning tabiiy yo‘q bo‘lish darajasidan taxminan 500 baravar yuqori. ko‘p daraxtlar, gullar va mevali o‘simliklarni o‘z ichiga olgan o‘simliklar. Shubhasizki, yo‘qolib ketish tendensiyasida inson faoliyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘simliklarning zamonaviy yo‘q bo‘lib ketishining geografik ko‘rsatkichlari hayvonlarnikiga o‘xshashdir. Barcha o‘simliklarning yo‘q bo‘lib ketishining taxminan yarmi izolyatsiya qilingan orollarda sodir bo‘lgan, bu yerda turlar inson faoliyati natijasida atrof-muhit o‘zgarishiga nisbatan zaifroq. Havayi orollari, Janubiy Afrika, Mavrikiy, Avstraliya, Braziliya va Hindiston oroli kiritilgan, ayniqsa, yuqori stavkalari bilan. Tadqiqotchilar o‘zlarining tasarrufidagi har bir jurnal va o‘simlik ma’lumotlar bazasini ko‘rib chiqdilar, 1753 yil boshlangan botanik olim Karl Linneyning kompendiumidan boshlab va yo‘qolib borayotgan va yo‘q bo‘lib ketadigan o‘simliklarning to‘liq ro‘yxatini saqlab turuvchi xavf ostida bo‘lgan turlarining Qizil ro‘yxati bilan yakunlangan [2]. Butun dunyodagi hayvonlar va turli xil yo‘q qilinish haqidagi hisobotlarni birlashtirgan va o‘zaro tekshirgandan so‘ng, guruh natijalarini o‘simliklarning tabiiy yoki «su‘niy» yo‘q bo‘lib ketish ko‘rsatkichlari bilan taqqosladi, 2014 yilda o‘tkazilgan tadqiqotda har yili million turga nisbatan 0,05 dan 0,35 gacha yo‘q bo‘lishi hisoblangan [3]. 1753 yildan beri taxminan 1300 urug‘ o‘simlik turlari yo‘q bo‘lib ketgan deb e‘lon qilingan bo‘lsa-da, bu xulosalarning taxminan yarmi yolg‘on ekanligi isbotlangan. So‘nggi 250 yil ichida yo‘q bo‘lib ketgan deb hisoblangan 400 dan ortiq o‘simlik qayta kashf etildi va 200 ta boshqa jonli tur sifatida tasniflandi. Bu so‘nggi 250 yil ichida yo‘qolgan tasdiqlangan 571 turni qoldiradi va yiliga million turga taxminan 18 dan 26 gacha yo‘q bo‘lib ketadi. Hayvonlarning sayyoradan yo‘qolish tezligi bilan solishtirganda (bu tabiiy ko‘rsatkichdan qariyb 1000 baravar ko‘p), bu raqam susaygan ko‘rinishi mumkin, ammo bu tendensiya hali ham tashvishga solmoqda. Ko‘proq tashvishlantiradigan narsa shundaki, ular yo‘q bo‘lib ketish darajasining yuqoriligi, yo‘q bo‘lib ketgan yoki o‘ta xavfli bo‘lgan o‘simlik turlarining haqiqiy sonini kam baholashi mumkin. Ko‘pgina natijalar “funktsional ravishda yo‘q bo‘lib ketgan” o‘simliklarni hisobga olmaydi. Masalan: Ular faqat asirlikda yoki yovvoyi tabiatda g‘oyib bo‘ladigan darajada oz sonli mavjudligini anglatadi. Yaqinda va keng tarqalgan insoniyatgacha bo‘lgan xilma-xillikning pasayishiga dalil yo‘q edi. Bu shuni anglatadiki, yo‘q bo‘lishning o‘rtacha ko‘rsatkichlari diversifikatsiya qilishning o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan past. O‘simliklarning xilma-xilligi yiliga million turga 0,05-0,2 yangi turni tashkil etdi [3]. Ushbu natijalar asosida biz fanni yo‘q qilishning odatdagi ko‘rsatkichlariga yaqinroq bo‘lishi mumkin degan xulosa kelishimiz mumkin. Shunday qilib, hozirgi yo‘q bo‘lib ketish darajasi tabiiy yo‘q bo‘lish fonidan 1000 baravar yuqori va kelajakdagi ko‘rsatkichlar 10 000 baravar yuqori bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Piter H. Raven, O‘simliklar bizning mavjudligimizni ta‘minlaydi, O‘simliklar, odamlar, sayyora, 10.1002 / ppp3.10173, 3, 1, (2-6), (2021).
2. Stuart L. Pimm, O‘simlik turlarining ommaviy qirilib ketishining oldini olish uchun nimalarni bilishimiz kerak, O‘simliklar, odamlar, sayyora, 10.1002 (7-15), (2020).
3. onbio.onlinelibrary.wiley.com



ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA HAMOHANGLIK

Qo‘ysinova Gavhar Xaydaraliyevna
277-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
+998 94 6197022

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o‘rganishda Alisher Navoiy asarlari ta‘sirida yaratilganligini his qilamiz. Maqolada Navoiy va Bobur Mirzoning hamohang she‘rlari tahlili yoritilgan. Ijodkorlarni asarlari qiyosiy tahlil qilinib, o‘xshash jihatlari bilan birga farqli xususiyatlari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Navoiy, Bobur Mirzo, g‘azal, ruboiy, topmadim, ko‘ngil, ohang, badiiy asarning tili, badiiy ta‘siri, ijod

Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiy ijodidan bahramand bo‘lib o‘sdi. O‘sha davr taqozosiga ko‘ra davlat ishlari, maktab darslari arab va fors tillarida olib borilgan. Shu tufayli Bobur Mirzo arab va fors tillarini yaxshi bilgan.

Bobur Mirzo o‘z otasi Umarshayx Mirzo haqida shunday yozadi: “Ravon savodi bor edi... Aksar “Shohnoma o‘qir edi” Boburning o‘zi ham yoshlikda ko‘proq forsiy tildagi she‘rlarni yod oladi. Masalan, 1499-1500- yillar voqealari hikoya qilingan bobda yozadi:

“ Ul mahallar biror bayt, ikkiror bayt forsiyda aytur edim:

Hech kas chun man xarobu oshiqu rasvo mabod,

Hech mahbube chu tu berahmu beparvo mabod”

Tarjimasi:

Hech kim meningdek xarobu oshiqu rasvo bo‘lmasin,

Hech kim sen kibi berahmu beparvo bo‘lmasin.

Bu bayt o‘zbek tiliga shunday oson tarjima qilinadiki, go‘yo Bobur uni o‘bekcha o‘ylab forscha aytgandek.

Boburning tili Navoiy tiliga nisbatan sodda, jonli so‘zlashuv tiliga yaqin. Masalan “erdi”, “erdim” deb yoziladigan so‘zlar qisqaroq tarzda “edi”, “edim” deb yoziladi.

Yod etmas emish kishini g‘urbanda kishi,

Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatda kishi.

Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,

G‘urbanda sevinmas emish, albatta, kishi

Boburning quyidagi birinchi ruboiysini tatabbu‘ shaklida yozilganligini aytadi, lekin qaysi ijodkor she‘ridan ta‘sirlanganligini ko‘rsatmaydi. Taxmin qilish mumkinki, bu ruboiy Navoiyning quyidagi mashhur ruboiysi ta‘sirida yaratilgan:

G‘urbanda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo‘lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulga tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

Bobur Navoiy she‘riyatining eng yaxshi an‘analariga izchil amal qilgan. Buning yaqqol dalili sifatida uning:

Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim,

Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror topmadim,-

deb boshlanuvchi g‘azalini olish mumkin. Alisher Navoiyning “ Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim” deb boshlanuvchi g‘azali va Bobur g‘azali radifi aynan bir xil “topmadim”. Yana shuni aytish joizki, Alisher Navoiy va Bobur Mirzoning 17-25 yoshlar orasida chekkan aziyatlari, mashaqqatlari o‘xshashki, g‘azal mazmun –mohiyatida ham bu aks etgan.

Alisher Navoiy 21-22 yoshlarida sulton Abusaid zulmi ostida xonumonidan ayrilib Hirotdan bosh olib ketishga majbur bo‘ladi. Bobur hayotida ham shunday mashaqqatli davrni ko‘rishimiz mumkin. Usha paytda Andijon va Samarqanddan judo bo‘lib, O‘ratepaning shimolidagi tog‘ qishlog‘i Dahkatda bir qishni o‘tkazadi. Keyin Toshkentga, tog‘asi Mahmudxon huzuriga madad so‘rab boradi. Tog‘asi Boburga yordam berishni xohlamasligini muomalasi orqali namoyish etadi. Bobur Mirzo ruhi cho‘kib Ohangaron tog‘lari tomon qaytib ketadi. Uning “Topmadim” radifli g‘azali Ohangaron yaqinidagi Somsirak qishlog‘ida yozib tugatilgani “Boburnoma”ning1501-



1502-yillar voqealari oxirida qayd etilgan.

Teran hayotiy voqelikka asoslangan badiiy asarning tili hamda badiiy ta'siri yuksak bo'ladi. Lirik she'r bir lahzalik-oniy tuyg'u ta'sirida yaratiladi Ikki buyuk qalb egalari bo'lmish Navoiy va Bobur ga'zali o'rtasida o'xshashlik bo'lgani kabi farqli o'rinlari ham borki, kishi qalbi takrorlanmas his-tuyg'ularga molik ekanligining guvohi bo'lamiz.

G'am bila jonimga yetdim, g'amgusore ko'rmadim,-
deydi Navoiy g'azalning uchinchi misrasida. Bobur g'azalining uchinchi misrasida ham shunga o'xshash tugallanganligini ko'ramiz:

Jonimdin o'zga jonni dilafgor ko'rmadim.

Qofiyalarda o'xshashlik mavjud, ammo g'azal vazni farqli hamda ichki mazmunda ham ma'no nozikliklari sezilib turadi.

Navoiy g'amga botganda g'amni ketkazuvchi g'amgusorga ehtiyoj sezadi. Bobur esa, o'z jonini boshqalar joniga qiyoslab ko'rib, "jonimdan o'zga dili vayron ko'rmadim" deydi. "Tani bosha dard bilmas" deyishganidek, Bobur ahvoli mushkul, dili vayron bo'lib yurganda xon tog'asi va yaqin qarindoshlari bunga loqayd qaraganlari uning qalbini ezadi. Yana o'sha kezlarda birinchi rafiqasi Oyisha begim va Bobur o'rtasiga sovuqchilik tushgan edi, buning sababi: Samarqand qamalida farzandidan ayrilgani va Oyisha begimning kasallanib qolganligi natijasida qarindoshlari Boburni aybdor qilib ularni ajratishga harakat qilishi edi.

Boburning "Topmadim" radifli g'azalida mana shu hodisalarga ishora borligini maqtada sezish mumkin:

Bobur, o'zingni o'rgata ko'r yorsizki, men,

Istab jahonni, muncha qilib yor topmadim

Navoiyning "Muhokamat uy-lug'atayn" asarida turkiy tilning qo'shma so'z yasashdagi katta imkoniyatlari to'g'risida so'z borganda, shunday fikr bildirilgan:

"... ba'zi lafzning oxirig'a ilhoq (qo'shimcha) qilurlar, andin mubolag'a va say' iroda qilurlar, andoqki bilako'r va qilako'r va ketako'r va yetako'r"

Ana shu fikrning yorqin tasdig'ini Boburning o'z hayotida yuz bergan og'ir ko'rgiliklarga mardona munosabatda bo'lib aytgan: "Bobur, o'zingni o'rgatako'r yorsiz!"-iborasida uchratamiz. Bu yerdagi "o'rgatako'r"so'zida ham alohida bir say' va Navoiy aytganidek, iroda kuchi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Bobur Mirzo chin ma'noda Navoiy izdoshidir. Bu so'z san'atkori badiiy mahorat bobida va ona tilimiz boyliklaridan samarali foydalanishda Alisher Navoiyning eng yaxshi insoniy va ijodiy an'alariga suyangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Boburnoma" –T. 1960.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. XIV jild. 1967-y.
3. To'xliyev B. Va b.O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi. – Toshkent, O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010
4. U. Normatov Ijod sehri, Toshkent-Sharq. -2007



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATEMATIK TO'GARAKLARNING O'RNI

*Raxmonova Shohista Payg'amonva
Buxoro shahri 25-umumta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan yosh avlodni matematika sohasiga qiziqtirish va bu sohadagi ilmlarini oshirish uchun maktablarda matematika to'garaklarini tashkil etish va ularni qiziqarli tarzda olib borishga doir ma'lum bir fikrlarimizni berib o'tmoqchimiz.

Kalit so'zlar: matematik savodxonlik, fokuslar, qiziqarli kvadratlar, topishmoqlar, matematik o'yinlar.

Abu Nasr Forobiy o'qituvchi faoliyatida yoshlarning axloqiy me'yorlari, amaliy ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirilganligi asosiy vazifalardan biri ekanligini ifodalaydi. Ibn Sino fikricha, tarixiy manbalarni bilish olijanob va foydali faoliyatdir. U ilm narsalarining inson aqli yordami bilan o'rganilishi shaxs faoliyatida muhim hisoblanishini ta'kidlab o'tadi. Abu Rayhon Beruniy pedagogik ijodida tarbiyaning maqsadi, vazifalari va o'rni, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik asosida qurilgan. Abu Rayhon Beruniyning pedagogik g'oyalardan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgandek, boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu vazifalar boshlang'ich ta'lim uchun xos bo'g'inlarni ajratish imkonini beradiki, bu bo'g'inlar xilma-xil o'quv fanlari dasturlarida, o'quv rejalarida, darsliklarda ta'limning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilishi mumkin.

Bugungu kun yosh avlodlari uchun iqtisod va matematika qay darajada muhim ekanligi barchamizga ma'lum. Boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan yosh avlodni matematika sohasiga qiziqtirish va bu sohadagi ilmlarini oshirish uchun maktablarda matematika to'garaklarini tashkil etish va ularni qiziqarli tarzda olib borishga doir ma'lum bir fikrlarimizni berib o'tmoqchimiz.

Matematika to'garagiga o'quvchilar tanlashda ularning matematikaga nisbatan alohida qiziqishlarini, moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olish kerak. To'garak a'zolari mustaqil ravishda ko'g'zmal qurollar (ba'zi o'yinlar uchun misollar yozilgan kartochkalar va boshqalar) tayyorlaydilar, matematika kechalari o'tkazishga tayyorgarlik ko'radilar va hokazo. To'garak ishi mazmuniga masala va misollar yechish, o'quvchilarning fikrlashini o'stiruvchi savollarni kiritish, konkretlikdan abstraktlikka o'tish qobiliyatini hosil qilish va zaruriy umumlashtirishlarga olib kelish kiradi. Qiziqarli xarakterdagi mashqlarni bajarish asosiy rol o'ynaydi. Unga *arifmetik fokuslar, qiziqarli kvadratlar, topishmoqlar, matematik o'yinlar* va boshqalar kiradi.

To'garak mashg'uloti har oyda o'tkazilishi va 2-sinfda 25-35, 3-4-sinfda 40-45 minut davom etishi maqsadga muvofiqdir. Matematika to'garagida quyidagi ishlar olib borilishi ko'p uchraydi:

1. *Mustaqil misol va masalalar yechish.*

2. *Misol va masalalarni har xil metodlar bilan yechish. Masalan, Iraqamidan boshlab, sonlar yordamida arifmetik amallar bajarib, Isonini hosil qilish.*

3. *Ko'rgazmalilikni mustaqil qo'llash.* Misol. Nonning og'irligi $\frac{1}{4}$ qismigacha 90gr keladi. Nonning og'irligi qancha?

To'garak davomida matematik fokus, o'yin, topishmoqlar mashg'ulotning qiziqarli o'tishiga yordam beradi. Misol, natural sonlar to'plamining tartiblanganlik xossasiga doir fokuslar.

$$1+2+3+4+5-6-7+8-9=1$$

$$(12-3+4-5+6):7+8-9=1$$

$$1-2-(3+4)+5+6-7-8-9=1$$

$$1+2+3+4-5+6+7-8-9=1$$

Maqsad: sanash malakasini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, qiziqarli kvadrat (1-2-sinflarda), 9 ta katakka 9 ta ketma-ketsonni yoziladi.

Misol, 4 dan 12 gacha 20 sonini hosil qilish uchun 4 dan boshlab son qo'shiladi.

Tanlovlar har xil qiyinlikdagi masalalarni yechish, qiziqarli fikrlaydigan masalalar va topshiriqlarni bajarishdagi musobaqalar hisoblanadi. Asosan o'quvchilarning xohishi bo'yicha



masalalar yechishda o'z kuchini sinaydigan, yetarlicha tayyorgarligi borlari ishtirok etadi. Quyida 2-sinflarda tanlovlar o'tkazishga misollar keltiramiz. 2-sinf(4-chorak).

1. Ikki o'ram jun ipdan 3 ta qo'lqop to'qish mumkin. Shunday 9 ta qo'lqop to'qish uchun necha o'ram ip kerak?

2. Vali va Salimning 30 ta konfeti bor edi. Ular baravardan yeyishgandan keyin Valida 9 ta, Salimda 5 ta konfet qoldi, ular qanchadan konfet yeyishgan?

3. 1,2,3,4,5,6,7,8,9 sonlari berilgan. Bu qatordagi sonlardan uchta qo'shganda 15 soni chiqadigan nechta misol keltirish mumkin.

Tanlov mavzusi va uni o'tkazish vaqti oldindan belgilanadi. Masalan quyidagicha mavzularda tanlovlar o'tkazish mumkin:

1. Murakkab hisoblashlarni eng qulay usul bilan taqqoslash yordamida hisoblash.
2. Mantiqiy masala va mashqlar.
3. Topqirlik, ziyraklikka oid mashqlar.
4. Hisoblashlari murakkab bo'lgan masalalar.
5. Sharq mutafakkirlari merosiga oid bayon qilishlar, algebraik, geometrik shakllar mazmunini yoritishga oid topshiriqlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirish darajasini o'rganish uchun maktabdagi amaliy ish hamda to'garaklardan tashqari ma'lum metodik tayyorgarlik ham kerak. Uni xususan, quyidagicha amalga oshirish mumkin. Eng avvalo, tashxislash mazmuni, o'quvchining individual bilim o'zlashtirish darajasi va o'rganilayotgan obyekt to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish demakdir. Tahlil quyidagicha yo'nalishlarda o'tkazilishi mumkin:

- 1) mazkur bo'limga tegishli mavzular kiritilish sabablarini aniqlash;
- 2) dastur tuzuvchilar biror mavzuga tegishli masalalarni kiritishda nimalarga amal qilganliklarini aniqlash;
- 3) dasturning boshlang'ich maktab doirasida ayrim masalalarini o'rganishdagi bog'lanishni ochib berish va boshlang'ich sinflarning mavzularidan qaysilari yuqori sifatlarda yuqoriroq darajada o'rganilishini aniqlash.

Matematik ta'lim jarayonini optimallashtirish va mazmunini boyitishda pedagogik imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni yanada kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- doimiy ravishda yangi tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ularni hayotga keng tatbiq etish;

- to'plangan ilmiy bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona foydalanish; - umumiy ta'lim maktablarida matematikaga oid bilimlarni oshirish uchun maxsus to'garaklar tashkil etishga alohida ahamiyat berish;

Maktabda o'qitiladigan har bir fanning, shu jumladan matematikaning o'ziga xos pedagogik ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish o'qituvchining bilim, tajriba, mahorati va ijodkorona izlanishiga bog'liq.

Ota-bobolarimizdan qolgan ilmiy merosni chuqur o'rganib, uni ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish har bir ma'naviyatli va ijodkor mutaxassisning muqaddas burchidir. Yuqorida biz boshlang'ich sinflarda matematikadan dars samaradorligini oshirishga doir to'garak mashg'ulotini dars tipida o'tkazish mumkin bo'lgan namunasini tavsiya etdik. Yosh avlodlarimiz bizdan ko'ra ilmliroq va zukko bo'lishlarida bu tavsiyalarni qo'llash, hayotga tatbiq etish yaxshi natijalar berishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev E.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi. – T.: 2005
2. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. – T.: 2004
3. Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda fakultativ darslarni tashkil etish. – T.:2005



БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА АКТ ИМКОНияТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Ризаева Дилдора Хакимовна,
Яккабоғ туман 8-мактабнинг
бошланғич синф ўқитувчиси*

Аннотация. Мазкур мақолада бугуннинг замонавий ўқитувчиси қандай бўлиши керак деган саволга баҳоликудрат мисоллар асосида жавоб берилган. Ва шу ўринда фаол ўқитувчининг шаклланишига асос бўладиган омиллар санаб ўтилган.

Калит сўзлар. Телефон, планшет, компьютер, ахборот, коммуникацион технология, мультимедиа техникаси, моторик ва вербал коммуникатив кўникма, видеороликлар, слайдлар, анимация, овоз, гипермуражаатлаш.

Таълим жараёнида ахборот – коммуникацион технологияларнинг ўринли қўлланилиши, машғулотларнинг қизиқарли тарзда ташкил этилишига олиб келиши билан билан ўқув материалларининг чуқур ўзлаштирилишига кенг имконият яратиб беради. Педагогик жараёнларда таълимнинг замонавий технологияларини киритиш, ёшларни мустақил ижодий ишлашга, эркин фикрлашга ўргатишни ҳозирги давр талаби экан, унинг таълим-тарбия билан узвийлигини таъминлаш бугунги кун вазифасидир. Ҳозирги кун боласи сергак, қизиқувчан, интилувчан, изланувчан ва серғайратдир. Ана шунда ўқувчиларга биз педагоглар қандай таълим бермоқдамиз? Уларнинг билимга бўлган иштиёқларини қондира оляпмизми? Бошланғич таълимда дарс жараёни қандай ташкил этилаёпти? Жисмонан соғлом, маънавий етук, ҳар томонлама уйғун ва баркамол ривожланган, мустақил фикрлайдиган интеллектуал салоҳиятга, чуқур билим ва замонавий дунёқарашга эга бўлган ёш авлодни тарбиялаб вояга етказиш ҳам бир муаллим олдидаги вазифадир. Ана шу вазифани адо этишда бошланғич таълим жараёнида таълим-тарбия қандай ташкил этилмоқда? Ҳозирги кун боласи мактабга ўқиш ва ёзишдан аввал телефон, планшет, компьютер техникасидан саводга эга бўлиб мактабга келмоқда. Боланинг қизиққан машғулоти компьютер техникаси бўлиб келмоқда. Ана шу қизиққан техникани биз дарсга олиб кирсак, ўқувчининг янги материални ўзлаштириш учун ижобий таъсир кўрсатади. Ўқувчи кўрган нарсасини эшитганига кўра яхши тушунади, эсида сақлаб қолади, дарсга безътибор ўқувчи қолмайди.

Барча ўқувчиларнинг диққати экранда намоиш этилаётган объектга қаратилади. Ўқув жараёнида дарс сифати, самарадорлигини оширишда ёрдам беради. Бундай жараёнда бир вақтни ўзида ўқитувчи назарий ахборотларни бериш билан материалларни юқори даражадаги замонавий техника воситасида намоиш этиш имкониятига эга бўлади. Ўқув объектларини ва воқеаларни моделлаштиради, уни автоматик равишда намоиш этади. Тасвирни туширади. Бундай дарсларда ўқув меҳнати фаолиятини ташкил этишда компьютер техникаларини қўллаш, фойдаланиш имкониятини туғдиради. Шахсан ўзлари ўқув материални амалиётда синаб, бажариб бориш имкониятига эга бўладилар. Ўқувчининг яқка тартибда ишлаган ҳолда қизиқиш ва ижодий ишларини такомиллаштириш имконияти очилади. Мультимедиа техникаси уларнинг ўқув мазмунини ўзлаштирилишига қизиқишини янада оширилишига ёрдам беради. Ўқувчида кўргазмалли образли таъсирда фикр юритишга, моторик ва вербал коммуникатив кўникмаларининг шаклланишига олиб келади. Ахборот билан ишлаш, ахборотни қидириш, зарурларини ажрати билиш, қайта ишлаш, тартибга солиш, ахборотларнинг мазмунини тушуниш, мантиқий яқинларини ажратишга ўрганади. Шулар асосида ахборотни ишлаш маданияти шаклланади.

Хуллас, бундай дарсларда ўқитувчи кам меҳнат сарфлаб, дарсда кўпроқ ўқувчининг фаоллигини таъминлайди, дарснинг сифат ва самарадорлигини оширади. Ўқиш, она тили математика, табиат, мусиқа, меҳнат, саломатлик дарслари бўйича дастурлар асосида тайёрланган анимацияли сюжетли, видеороликлардан, слайдлардан, фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Масалан, бошланғич синфларда атрофимиздаги олам, табиатшунослик дарсларида ахборот технологияларини қўллаш ўқувчилар учун ўз ҳудуди ва болани ўраб турган табиатга бўлган меҳр ва муҳаббатини англаган ҳолда онгли муносабатни шакллантириш имконини беради. Она тили ва ўқиш дарсларида мавзуларининг аниқ маълумотларини тушуниб олишга, калит сўзлар билан танишишга, матнда асар қаҳрамонлари, воқеалар



кетма-кетлиги билан танишишга имкон беради. Мусиқа ва саломатлик дарсларида видеороликлар, слайдлар ўқувчиларнинг мавзуни жонли ўзлаштиришлари учун самарали натижа беради. Ушбу йўлда бошланғич синф, жумладан, 1-2 синф ўқув фанлари бўйича Республика таълим маркази ва Республика мултимедиа маркази дарсликларнинг мултимедиали электрон қўлланмалари тайёрланди. Мултимедиали электрон қўлланманинг афзаллик томонларидан бири мавзуларга тегишли анимациялардан гипермуружаатлаш ёрдамида фойдаланиш имкони мавжуд. Анимациялар ҳаракат ва овоз билан бойитилиши эвазига ўқув материалларининг мазмунини кенгроқ ва тушунарли тарзда ёритиб беради.

Айниқса дарслар давомида АКТдан фойдаланиш ўқувчиларда:

- мавзуни ўзлаштиришни қулайлаштиради;
- турли хил предметлар билан муносабатда бўлишга ўргатади;
- муомала маданиятни шакллантиради;
- билиш фаоллиги ошади ва ўз қобилиятини намоён этиш имконияти яратилади;
- билимга иштиёқ ва қизиқиш уйғотади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Р.Ж.Ишмухамедов. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. Т.2004.
2. Педагогика. Расулов.Б. Т.2016.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI HARAKATLI O‘YINLAR VOSITASIDA ESTETIK TARBİYALASH IMKONIYATLARI

Saidjonova Ikbol Abdullayevna
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
10-umumta’lim maktabi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Xolimova Farog‘at Qadamboyevna
Xorazm viloyati Yangibozor tumani
10-umumta’lim maktabi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998975172785

Annotatsiya: Mazkur maqolada harakatli o‘yinlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalashda didaktik imkoniyatlardan foydalanish borasida fikrlar keltirilgan. Shuningdek, o‘yinlar o‘quvchilarni estetik tarbiyalash bilan bir vaqtda borliq va undagi barcha go‘zallikni idrok etish, uni anglash ko‘nikmalarini shakllantirishi haqida mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Harakatli o‘yinlar, estetik tarbiya, boshlang‘ich ta’lim, didaktik imkoniyat, qadriyat, jismoniy tarbiya.

Mustaqil mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol va yetuk etib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim vazifadir.. Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda pedagogika fanida tarbiyaning zamonaviy shakl va usullarini izlab topish, o‘zib borayotgan avlodda mustahkam umuminsoniy ishonchni shakllantirish, shaxsda milliy madaniyat va qadriyatlarni hurmat qilish, avaylab-asrash tuyg‘ularini o‘stirishga diqqatni qaratmog‘imiz lozim. Shu fikrlarga asoslanib, harakatli o‘yinlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik madaniyati, xarakteri va ongini shakllantirish mumkin deb hisoblaymiz.

Inson butun hayoti davomida harakatda bo‘ladi. Bu hayot ehtiyoji. Ayniqsa, yosh bolalarda jismoniy harakatlarga bo‘lgan ehtiyoj darajasi yuqori. Shu ma’noda milliy harakatli o‘yinlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, avvalo, o‘quvchilarni jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va faollashtiradi.

Harakatli o‘yinlar muhim jismoniy tarbiya va sport turlaridan biridir. Shuning uchun jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlarga e’tiborni kuchaytirish zaruriyati yanada yaqqol ko‘rinmoqda. Zero, bolalarning jismoniy madaniyatini oshirish jarayonida milliy harakatli o‘yinlarni o‘rganish asosida ularni axloqiy, aqliy hamda estetik jihatdan tarbiyalashni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Harakatli o‘yinlarni bajarish chog‘ida bolalar harakatida ijobiy (hamjihatlik, intizomlilik, kamtarinlik, mehribonlik) va ma’naviy fazilatlar (halollik, odillik, do‘stlik tuyg‘usi, hamkorlik, zamon bilan hamnafas bo‘lib ishlay olish qobiliyati, topshiriqlarni mas’uliyat bilan bajarish)ni tarbiyalash, shuningdek, irodaviy xususiyatlar (jasorat, qat’iylik, o‘z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni sobitlik bilan yengish, chidamlilik va hokazolar)ni namoyon qilish uchun eng qulay sharoit va imkoniyatlar vujudga keladi.

Milliy harakatli o‘yinlarning axloqiy-estetik jihatlari o‘quvchilarni tarbiyalash, shu jumladan, estetik tarbiyalashning muhim vositasidir. Ularda harakatlarning go‘zalligi xilma-xil hodisalar shaklida taqdim etiladi. Muhimi, o‘yinlar g‘oyatda harakatli bo‘lib, ular – yurish, yugurish, otish, sakrash, ushlab olish, yuk ko‘tarish va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Aslida bu o‘yinlar faqat jismoniy harakatlardan iboratdek tuyuladi. Biroq ularning estetik jihatlari e’tiborimizda bo‘lishi lozim. Zero, o‘yin turlarining asosida milliy elementlar bilan bog‘liq bo‘lgan estetik xususiyatlar yotadi. Shuning uchun bu o‘yinlardan foydalanish jarayonida murabbiy o‘ziga xos pedagogik mahorat bilan rahbarlik qilgan vaziyatlarda uning tarbiyaviy ahamiyati, bolaga ta’siri samarali bo‘ladi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlardan maqsadli foydalanilganda ular mo‘jizalar yaratishga qodir. Shu asnoda, V.V.Gorinevskiy jismoniy tarbiya darslarida olib boriladigan harakatli o‘yinlar nazariyasi va metodikasi borasida o‘z fikrlarini bildiradi: bu jarayon o‘qituvchining o‘zidan ham ko‘tarinki kayfiyatda ishtirok etishni, bunda qatnashchi sifatida estetik harakatlanishi, o‘yinda ishtirok etgan bolalarga individual yondashishni, o‘yinni bajarish chog‘ida uning qoidalariga aniq rioya etilishiga alohida e’tibor qaratadi. Shu bilan birga harakatli o‘yinlar muayyan axloqiy-estetik mazmun va albatta musobaqa elementlari bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Demak, yuqorida ta’kidlab o‘tganidek, o‘qituvchi tomonidan me’yoriy darajada rahbarlik qilib turilgan vaqtda, o‘yinga hayajon elementlarini kiritish hamda ulardan o‘quvchilarni ma’naviy va estetik fazilatlarini tarbiyalash maqsadida foydalanish ijobiy samara beradi.



O'quvchilarda ijobiy hissiyotlar, odamlar bilan samimiy va quvnoq munosabatda bo'lish tuyg'ularini tarbiyalash, shuningdek, yuz bergan salbiy ruhiy holatlarni tez bartaraf qila olish layoqatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois jismoniy tarbiya darslarini mazmunan modernizatsiya qilishda milliy harakatli o'yinlarning didaktik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Bu omil jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarda harakatli o'yinlarning estetik jihatlarini anglab borishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

O'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirishda uning yosh xususiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, katta yoshdagi o'quvchilarda estetik tarbiya jihatlarini tarbiyalash murakkablik tug'diradi. O'quvchilarning estetik rivojlantirish ilk kichik maktab yoshidan boshlanadi. Estetik tarbiya nazariyachisi B.T.Lixachovning yozishicha, "Boshlang'ich sinf davri estetik tarbiyani shakllantirish va rivojlantirish uchun hal qiluvchi davr hisoblanadi. Ayni shu davrda bolaning atrof-muhitda bo'layotgan har bir voqelikga munosabati shakllanib boradi. Bu esa har bir shaxsning o'ziga xos bo'lgan xususiyati hisoblanadi. Shaxsning yoshlik davridagi shakllangan ma'naviy-estetik xususiyatlari uzoq vaqt mobaynida saqlanib qoladi va uning kelgusi hayotida aks etadi". Darhaqiqat, o'quvchilarning boshlang'ich sinf davrida shakllangan estetik tasavvurlari uning asosiy xususiyatlariga aylanadi va kelgusi tarbiyaviy jarayonlarga asos bo'lib xizmat qiladi.

Harakatli o'yinlarga asoslangan jismoniy madaniyat estetik tarbiyani amalga oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Harakatli o'yinlarni bajarish jarayonida estetik zavqni idrok qilish va o'ziga singdirishni, go'zallik, nafosat, ma'nodorlik, qad-qomat, liboslar bejirimligi, o'z atrofidagi barcha narsalarni to'g'ri tushunish, ularni qadrlash hissini rivojlantirish, estetikaga va o'z xulq-atvoriga gard yuqtirmaslikka bo'lgan moyillikni, qilayotgan ishi, aytayotgan gap va barcha xatti-harakatida qo'rslik, dag'allikka aslo yo'l qo'yilmaslikni rivojlantirish lozim bo'ladi. Aynan harakatli o'yinlarda shu sifatlarni tarkib toptirish va rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. O'yinlar o'quvchilarni estetik tarbiyalash bilan bir vaqtda borliq va undagi barcha go'zallikni idrok etish, uni anglash ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Shu bois o'quvchilar quyidagilarni yodda tutmoqlari lozim:

- o'yinga bayramga tayyorgarlik ko'rgandek tayyorlanish;
- o'yinning maqsadi, mazmuni, qoidalari, harakatlarni idrok etish;
- estetik jihatlarini yodda tutish;
- o'yin jarayonida so'zda ham, xatti-harakatda ham aldamaslik;
- qo'pollik qilmaslik, o'zini go'zal va axloqli tutish;
- g'alabaga halol o'yin bilan erishish, sovrin olish o'zbek xalqining milliy an'anasi ekanligini anglash kerak.

O'quvchilar harakatli o'yin ularga rivojlanish, kuch, chaqqonlik, tezlik, topqirlik, go'zallikka bo'lgan muhabbat, milliy vatanparvarlik tuyg'usi belishi lozim.

Harakatli o'yinlarning ijtimoiy ahamiyati g'oyat katta bo'lib, o'yinlar orqali bolalarda hayotiy muhim jismoniy va ruhiy fazilatlar takomillashtiriladi, yosh shaxsni keng ma'noda tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

O'tkazilgan tadqiqotning tahliliy natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda harakatli o'yinlardan foydalanish quyidagi omillar bilan ta'minlanadi:

- qo'llanilayotgan o'yinlar o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga muvofiqligi;
- psixologik sifatlar;
- estetik tafakkur hamda estetik ko'nikmalarni shakllantirish;
- o'yinni tahlil etish, ishtirokchilar tasnifi, rag'batlantiruvchi omillar.

Demak, o'quvchilarni har tomonlama (aqliy, axloqiy, ma'naviy, estetik va h.k.) tarbiyalashda harakatli o'yinlarning ahamiyati beqiyos bo'lib, ulardan boshlang'ich sinflar jismoniy tarbiya darslari hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda unumli foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanib, o'zining yuksak samarasini berishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.
2. Rahimov M.M. Boshlang'ich sinflar jismoniy tarbiyasida xalq jismoniy madaniyati. Avtoref. dis....ped. fan. dok. – T.:1995.
3. Salimov G'. Milliy harakatli o'yinlar asosida 7-10 yoshli o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish samaradorligi. – T.: 2007.



АДБИЙОТ ТА’ЛИМИДА МУАММОЛИ О’ҚИТИШНИНГ О’ҚУВЧИ ШАХСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ.

Savriyeva Firusa
Buxoro viloyati G’ijduvon tumanidagi
10- umumiy o’rta ta’lim maktab
Ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
Telefon raqami:

Annotatsiya. Hozirgi ta’lim tizimida samarali o’qitish texnologiyalaridan biri – bu muammoli o’qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Maqolada adabiyot fanini o’qitishdagi muammoli vaziyatlar haqida fikr yuritamiz.

Kalit so’zlar. Pedagogik adabiyot, texnologiya, Chingiz Aytmatov, Komil Yashin, Adabiyot.

Muammoli o’qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Pedagogik adabiyotlarda muammoli o’qitishning turli ta’rif va tavsiflari bor. Muammoli o’qitishning mohiyati muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali yangi bilimlarni mustaqil o’zlashtirishdan iborat. Adabiyot ta’limida muammoli texnologiyalarning qo’llanishi o’quvchining erkin fikrlashi, badiiy asar mazmun mohiyatini chuqur anglab yetishi, adabiy tushunchalarni, yozuvchi va uning hayoti ijodiga bog’liq jarayonlarni to’liq o’zlashtirishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta’lim texnologiyasi adabiyot ta’limida amaliy jihatdan hali o’z o’zini to’liq namoyon qilgani yo’q. Bugungi kunda adabiyot ta’limida muammoli texnologiyalarni qo’llash borasidagi metodik ko’rsatmalar nisbatan kamdir. Biz ushbu texnologiyani “Oq kema” qissasi misolida tatbiq etishga harakat qilamiz. Ramziy obrazlarga boy bo’lgan “Oq kema” qissasi 7-sinf adabiyot darsligida o’quvchilarga taqdim etilgan, eng qiziqarli va eng ta’sirchan asarlardan biri desak mubolag’a bo’lmaydi. Adib Chingiz Aytmatov tomonidan yaratilgan ushbu asar bola qalbidagi beg’uborlik, mehrga tashnalikni va ezgulikni kuylaydi. Qissa qahramoni hayotda mehr ko’rmagan, uning bobosidan boshqa suyanadigan odami, yaxshilik qilish mumkin bo’lgan kishisi yo’q. Shu bois u hayotda ko’rmaganlarini xayolda yaratib, izlaganlarini ramzlardan topishga urinadi. Ibrohim Haqqul qissa haqida taassurotlarini aytar ekan shunday deydi: “Hayotni to’g’riroq mushohada qilishga kirishgan chog’larimni hali-hamon eslayman. O’shanda nechundir dilda ismsiz g’ussa, kundan kunga uzlatga undovchi bir yolg’izlik qad rostlay boshlagan. Chingiz Aytmatovning “Oq kema”sidagi bolakayga o’xshab o’ksik nigoh ila atrofmuhitga qaraganlarim, kazo-kazo kimsalarning chiroyli, balandparvoz, biroq mag’zibo’m-bo’sh gaplaridan tamoman bezgan kunlarim va holatlarimni aslo unutmayman...”. “Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasida o’rtaga tashlangan falsafiy muammolar: ertak va hayot, hayot va nafosat, inson va tabiat, moziy va kelajak, zulm va shafqat, ezgulik va yovuzlik, insonparvarlik va vahshiylik, yozuvchi va voqelik – bularning hammasi adibning o’tkir qalami orqali kishilarning yuksak axloqiy ideallari nuri-la munavvar etilgan. Bu qissa juda katta badiiy emotsional kuchga ega bo’lib, Ch. Aytmatov ijodida yana bir yangi sahifa ochdi”, - deydi Komil Yashin. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, adabiyot o’qitishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini ta’minlash bilan birga o’quvchining faolligini oshiruvchi, uni mustaqil va asosli fikrlashga o’rgatuvchi muhim omildir. Adabiyot ta’limida muammoli o’qitish o’quvchining shaxsiy sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bugun jahon ta’lim tizimida, ayniqsa iqtisod ta’limida keng qo’llanilayotgan ushbu texnologiyalarni adabiyot ta’limiga joriy qilish, uning amaliy ko’rinishlarini ishlab chiqish adabiyot o’qitish metodikasi oldida turgan muhim vazifalardandir. Zero, adabiy pedagogik ijodkorlik adabiyot darslarining estetik yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Usmonova K., Xayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o’qitishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.

2. Keldiyorov R. Adabiyot darslari samaradorligini oshirishning ilmiymetodik asoslari. Diss.: T., 2001.

3. www.ziyouz.com



LEKSEMANING IFODA JIHATI.

Sobirova Shahnoza Hazratovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani 21-DIUM
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Leksema – asosiy, birlamchi til birligi bo‘lib, til qurilishining lug‘at boyligiga mansub; shunga ko‘ra lug‘at birligi, leksik birlik deb ham yuritiladi. Lug‘at boyligidagi leksemalar qatlamini o‘rganuvchi sohaga leksemika deyiladi (Adabiyotlarda leksikologiya termini ishlatiladi).

Kalit so‘zlar. Leksema, til birligi, lug‘at, leksemika, lisoniy birlik, fonema, sintaktik, artikulyatsion belgi, bo‘g‘in.

Leksema lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismidagi ramzga teng; leksemadan foydalanishda ana shu ramzdan nusxa olinadi. Nutqda leksemaning o‘zi mustaqil namoyon bo‘lmaydi, chunki u butunga emas, qismga teng holatda bo‘ladi, sintaktik belgi-xususiyat qo‘shilganidan keyin butunga aylanadi. Leksemaning ana shunday qism holatida bo‘lishi oxiriga chiziqcha yozib ko‘rsatiladi: nok-, pish-, shirin-, sekin- kabi. Masalan, nokleksemasini talaffuz birligi sifatida nok tarzida yozsak, leksemani emas, balki leksemashaklni (“leksema + birlik son ko‘rsatkichi + bosh kelishik ko‘rsatkichi”ni) yozgan bo‘lamiz. Demak, leksema til xotirasida lisoniy birlik sifatida mavjud bo‘ladi, nutqda sintaktik tavsif olib qatnashadi. Til birligi sifatida leksema ikki jihatning – ifoda jihatining va mazmun jihatining bir butunligidan iborat. Bu ikki jihat ajralmas bir butunni tashkil etishiga qaramay nisbiy mustaqillikka ega: har biri o‘z taraqqiyot qonunlari asosida o‘zgaradi. Shunga ko‘ra leksemaning ifoda jhati va mazmun jhati mustaqil bayon qilinadi. Leksemaning ifoda jhati deganda avvalo qaysi til tovushlarining qanday tartibdagi qatori bilan ifodalanishi tushuniladi. Leksemaning (shuningdek morfemaning ham) ifoda jhati bo‘lish vazifasini bajarishi bilan til tovushi fonema mavqeiga ega bo‘ladi. Demak, til tovushi – tilning tovushlar tizimiga mansub birlik; fonema – til birligi (leksema, morfema) tarkibida birlamchi qurilish ashyosi vazifasini bajaradigan til tovushi. Fonema – til birligining ifoda jhati bo‘lib xizmat qiladigan va shu orqali til birliklarining o‘zaro farqlanishini ham ta‘minlaydigan til tovushi. Fonema til qurilishidagi alohida bir hodisa, alohida birlik emas, balki til qurilishiga mansub tovushlarning ijtimoiy vazifa bajarish holati xolos: til tovushiga ijtimoiy vazifasiga ko‘ra fonema nomi berilgan. Afsuski, fonema nazariyasi rivojlangan sari til tovushiga xos artikulyatsion belgi-xususiyatlar ham fonemaga tortib olinib, til tovushi tilning qurilish birligi sifatida umuman gapirilmaydigan, til birligi deb to‘g‘ridan to‘g‘ri fonema aytiladigan bo‘ldi, “til tovushi” tushunchasi go‘yo “fonema” tushunchasiga singdirildi. Aslida til qurilishiga xos birliklar (birlamchi qurilish birliklari) sifatida avvalo til tovushlari tasvirlanadi, keyin-gina shu til tovushlari ijtimoiy vazifasiga ko‘ra fonema sifatida o‘rganiladi. Leksemalarning ifoda jhati dastlab bir bo‘g‘inli leksemalar bo‘yicha bayon qilinadi. Bo‘g‘inni tasvirlash nuqtayi nazaridan til tovushlari bo‘g‘in). Bo‘g‘inni tasvirlashda sonantni V harfi bilan, konsonantni C harfi bilan belgilash qabul qilingan [V harfi – vokal (lot. vokalis‘birga’), boshqa tovushlar ikkinchi turga birlashtirilib, konsonant deb nomlanadi (lot. con - ‘jarangla-’ hosil qiladigan va bo‘g‘in hosil qilmaydigan tovush deb ikkiga ajratiladi. Birinchi turga ovoz tovush kiritilib, sonant deb nomlanadi (lot. sonare –) so‘zining bosh harfi]. ‘ovoz’- Bir bo‘g‘inli leksemalarning ko‘pchilik qismida ifoda jhati bo‘lib uch fonema CVC tartibida keladi: bosh-, bo‘sh-, besh-, bo‘l-, bil-, bel- va b. Ifoda jhati ikki fonemadan iborat leksemalar oz bo‘lib, bular ikki turli: VC, CV; asosan VC turiga to‘g‘ri keladi: ish-, osh-, ot-, o‘t-, et-, uch- va b.; CV tur leksemalar juda oz: ye-, de-. Ifoda jhati qator keladigan ikki konsonant bilan tugaydigan VCC, (ust-, ort- kabi), CVCC (qirq-, turt- kabi) turkiy leksemalar ham sanoqli. Ifoda jhati faqat yakka ovoz tovushga teng leksema hozirgi o‘zbek tilida yo‘q; yakka ovoz tovush bilan ifodalanadigan deb u olmoshini ko‘rsatish to‘g‘ri emas, chunki bu olmosh ul-, un- shakllarida ham ishlatiladi; hatto “to‘liqsiz fe’l” deb nomlanuvchi e- ham er- shaklida uchraydi. Adabiyotlarda uzoq vaqt “Bir bo‘g‘inli turkiy so‘zlar azalan CVC tuzilishiga ega bo‘lgan, VC, CV, V ko‘rinishlari CVC ko‘rinishi tarkibidagi birinchi, uchinchi, birinchi va uchunchi tovushni (fonemani) tashlash (talaffuz qilmaslik) natijasida yuzaga kelgan” mazmunli fikr hukmron bo‘ldi. Tarixiyetimologik nuqtayi nazardan yondashish ko‘rsatadiki, qadimgi turkiy tilda yakka ovoz tovushning o‘zi bilan ifodalangan leksemalar mavjud bo‘lgan. ma’nosini anglatgan 1- leksemasidan yasalgan va b.



(“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”ga qarang). ‘o‘simlik’ ma’nosini anglatuvchi u- leksemasi mavjud bo‘lgan; yog‘och leksemasi asli ‘uyqu’ Masalan, qadimgi turkiy tilda Fonema tarkibi VC ko‘rinishli leksemalar qadimgi turkiy tilda 200dan ortiq bo‘lgan; shu qadar ko‘p leksemalar boshlanishidagi tovush tashlangan deyish mutlaqo mumkin emas. Xullas, hozirgi adabiy o‘zbek tilidagi bir bo‘g‘inli turkiy leksemalar CVC, VC, CV, VCC, CVCC ifoda jihatiga ega. Bunday leksemalar hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi, shunga ko‘ra ularning ifoda jihati deb tarkibida qatnashuvchi fonemalar to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. “O‘qituvchi”, T.: 1980.
2. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. 3– nashri, T.: 1987.
3. www.ziyouz.com



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARINING SAMARALI OLIB BORISH USULLARI

Soyibova Umriyo Yusupovna
Buxoro viloyati Olot tumani
7-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998973092447

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarining samarali bo‘lishi uchun sinfdan tashqari o‘qish darslarining ahamiyati xususida fikrlar bayon etilgan. Sinfdan tashqari o‘qish uchun zarur bo‘lgan o‘qish malakasini shakllantiradi, o‘qigan asarni tushunishga o‘rgatadi, lug‘atni boyitadi.

Kalit so‘zlari: boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish darslari, sinfdan tashqari ishlar, kitob, savodxonlik.

Bugungi kunda o‘quv-tarbiya jarayonini zamonaviy o‘qitish usullaridan, pedagogika fanining ilg‘or yutuqlardan foydalanib shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang‘ich ta‘lim nazariyasini yaratish kabi vazifalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifalaridan biri – ijodiy va mantiqiy tafakkur yuritishni, aqliy rivojlanishni, dunyoqarashni, kommunikativ savodxonlikni va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishdan iborat. Bu borada esa o‘quvchilarni kitob o‘qishga, kitobxonlikka o‘rgatish ustuvor sanaladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘qish samaradorligiga ijobiy ta‘sir etuvchi eng qulay usulidir. Sinf va sinfdan tashqari o‘qish darslari boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan barcha o‘quv fanlarining bo‘limlari bilan bevosita bog‘liq. O‘qish darslarida o‘tilgan mavzular asosida badiiy kitoblarni ajrata olish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish o‘quvchini ijod qilishga undaydi.

Maktab o‘quvchisini o‘qish malakasi bilan qurollantirish – kitobni mustaqil o‘qiy oladigan, uni tushunadigan, ma‘lum bir mavzuga oid kitoblarni tanlay oladigan, gazeta va junallarni ham mustaqil o‘qiydigan faol kitobxonni tarbiyalaydi. Shu jihatdan sinfdan tashqari o‘qish tarbiyaning asosiy quroli sifatida xizmat qiladi, kop narsani bilishga havasini orttiradi.

Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari o‘qish darslari tashkil etilgan. Bunday darslar 1-2-sinfdan haftada 1marta, 3-4-sinfdan 2 haftada 1 marta o‘tkaziladi. Savod o‘rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17-20 daqiqasi ajratiladi. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish talab etiladi.

O‘quvchilarda kitobga havas uyg‘otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Sinfdan tashqari o‘qish tanish bo‘lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag‘i, kirish so‘zi, mundariyasi va suratlariga qarab asarning tahminiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarning asosiy vazifasi o‘quvchida badiiy kitoblarni o‘qishga havas uyg‘otish, o‘qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o‘rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi. Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy estetik tafakkurini yuksaltirish sinfdan tashqari o‘qish darslarining ham tub mohiyatini tashkil etadi. Sinfdan tashqari o‘qish sinfdan tashqari o‘qish bilan uzviy bog‘liq ravishda uyushtiriladi.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun zarur bolgan o‘qish malakalarini shakllantiradi, o‘qigan asarni tushunishga o‘rgatadi, lug‘atni boyitadi. Sinfdan tashqari o‘qish qiziqarli va o‘ziga jalb etadigan faoliyat bo‘lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Hozirgi paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari o‘qishga mo‘ljallangan **“Kitobim –oftobim”** nomli qo‘llanmalar ham chop etilgan.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. *Kitob tanlashda tarbiyaviy maqsad ko‘zda tutiladi.*



2. *Kitob tanlashda asarlar janri va mavzusining xilma-xilligi e'tiborga olinadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar asosan hikoyalar, ertaklar, sh'erlar topishmoqlar, maqollarni o'qishga qiziqqanlari uchun shu janrdagi asarlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.*

3. *Kitobning o'quvchilar yoshi va saviyasiga mosligi hisobga olinadi.*

4. Kitob tanlashda o'quvchilarning shaxsiy qiziqishi va mustaqil o'qishi hisobga olinadi.

5. Kitob tanlashda mavsumiy tamoyilga amal qilinadi.

Umuman olganda, kitobni to'g'ri tanlash sinfdan tashqari o'qish muvafaqqiyatini ta'minlashning muhim shartidir. Sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan. Shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo'ladi. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchining ijodi hisoblanadi. Darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa maqsadga erishish oson bo'ladi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'quvchilar qiziqishi, yosh xususiyati inobatga olinadi. Bunda o'quvchilar ertak tanlashlari uchun o'zlari o'qigan o'qish darsligidagi yozuvchilar asarlaridan foydalaniladi. 1-sinf o'quvchilari endi savod o'rgatish jarayonidan chiqqan bo'lib ularning ham yoshiga mos kichik hajmli hikoyali ertak kitoblar tanlanadi. 2-sinf sinfdan tashqari o'qish darslarida har bir chorak yakunida o'qituvchi tomonidan asarlar ro'yxati berilib o'quvchilarni ta'til mobaynida shu kitoblarni o'qib tushunib kelishlari topshiriq qilib beriladi.

1-chorak:

1. Qudrat Hikmat.
2. Aziz Abdurazzoq.
3. Ilyos Muslim.

2-chorak:

1. Xurshid Davron.
2. Quddus Muhammadiy.
3. Qambar Ota.
4. Zafar Diyor.

3-chorak:

1. Xudoyberdi To'xtaboyev.
2. Tursunboy Adashboyev.
3. Ivan Krilov.

4-chorak:

1. Miraziz A'zam.
2. Do'stjon Matjon.

Har bir o'quvchi berilgan yozuvchilarning asarlarini o'qib chiqib, sinf kutubxonalariga keltirishadi. Sinf kutobxonachisi bu kitoblarni o'quvchilarga navbat bilan kutubxona kartatekasi orqali o'quvchilarga berib boradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil o'qishga o'rgatish sinfdan tashqari o'qish darslarida tashkillanib o'quvchilar badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishini ilk maktab yoshidan boshlasak, o'quvchi ulg'ayib borar ekan, bu jarayon unga odatiy va refleksiv tarzda amalga oshadi. O'quvchi ongli ravishda ta'tilda yoki dam olish kunlarida badiiy adabiyotni o'qish uning uchun kerak va muhimligini anglab yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Matjonov S., G'ulomova X. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.:2009
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.– T.: 2013
3. Matjononov S., G'ulomova X., Sariyev Sh. va boshq. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik.–T.: 2013



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIKADAN O'QUV MATERIALLARINI O'ZLASHTIRISH DARAJASINI O'RGANISH

Sultonova Manzura Tolmasovna
Buxoro viloyati Olot tumani 7-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi 998 93 961 02 78

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinflar uchun matematikadan taqdim qilinadigan didaktik materiallarni murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirib, ularni muayyan tizim asosida taqdim qilinishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka egallashlarida muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: matematik bilim, o'qitish metodlari, o'quvchi, rivojlantiruvchi o'qitish, pedagogik maqsad, metodik yordam, o'quv materiali, yangi avlod darsliklari.

Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan taqdim qilinadigan didaktik materiallarni murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirib, ularni muayyan tizim asosida taqdim qilinishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotda o'qituvchilarning ko'pincha biror topshiriqning variantlardan biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytish, bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san'atkorona tuzilgan bo'lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida nechog'lik chuqur g'oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni juda tez hal etishga qodir emas. Bugungi kunda respublikadagi har bir o'quv dargohi o'zining ta'lim tizimini mukammallashtirishga harakat qilmoqda. Yangi avlod darsliklarining yaratilishi, turli yo'nalishlardagi nazoratlar, ta'lim jarayonida faol o'qitish metodlaridan foydalanish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday ish uslubi joriy etilganda ham, o'quvchi shaxsi, uning bilimiga intilishi, mustaqil mushohada qilishi, ijodiy fikrlash imkoniyatlari asosiy muammo bo'lib qolaveradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlantiruvchi o'qitish asosida ham shakllantirilishini tajriba ko'rsatmoqda.

Innovatika muammolariga murojaat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo'nalishlariga qo'shish jamiyatda ijodiy faollik dinamikasining o'sishiga turtki bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar jamoasida matematik bilimlarni o'zlashtirishni aniqlash va tahlil qilish metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganda jamiyatning komil insonga xos bo'lgan fazilatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin. Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda standart va nostandart masalalar tushunchalaridan foydalaniladi. Boshlang'ich sinflarda standart masalalar deyilganda bevosita yangi materialni o'zlashtirish uchun yechiladigan tipik masalalar tushuniladi. Yangi to'plangan bilimlarni rivojlantirishni talab etadigan yangi turdagi masala nostandart masala deb ataladi. Masalan, 3-sinfda o'quvchilarga taqdim qilinadigan quyidagi masala o'quvchilarni nafaqat operativ o'ylashga, balki ularni mantiqiy mushohada yuritishga ham undaydi: —Yosh kuch jurnalining narxi 835 so'm. Jurnalning bir yilda chiqadigan sonlari qancha so'm turadi? Mazkur topshiriq standartlaridan farq qiladi. Uni standart ko'rinishga keltirish uchun o'quvchilar ma'lum tipdagi masalani yechishlari zarur. Qo'shishga doir misollarni ko'paytirish amali bo'lgan misollar bilan almashtiring: $2+2+2+2+3$; $2+3+3+2$. Ushbu masala uchun ko'paytirish amalidan foydalaniladigan topshiriq yozing: —Xalq so'zi gazetasi 100 so'm yoki 125 so'm turadi. Agar haftaning dushanba kunidan tashqari gazetaning narxi 150 so'm bo'lsa, bu gazetaning bir haftada bahosi qancha turadi? Bu topshiriqlar ham ilgaridan ma'lum bo'lgan masalalarni yechish yo'li bilan standart masalalarga keltiriladi: o'quvchilar ikkitadan ortiq qo'shiluvchilarga ega bo'lgan yig'indilarga ko'p marta duch kelganlar va qo'shiluvchilarnig guruhlashni biladilar. Masalan, boshlang'ich sinfda taqdim qilinadigan tipik masalalarga murojaat etaylik: Quyidagilarni ko'paytirish amali bo'lgan misollarga aylantiring? 1) $a+a+a+a$; 2) $a+b+b+a$.

O'quvchilar qo'shiluvchilari o'zgaruvchilar orqali ifodalangan yig'indilar bilan tanishadilar. Demak, bilim o'zlashtirilishining mazkur darajasi uchun topshiriqlar keltirishni davom ettirish mumkin edi. Lekin to'rt topshiriq bir-biridan murakkabligi bo'yicha farq qiladi. Bunday topshiriqlarni tuzish uchun quyidagilarga asoslanamiz.: standart masala sonlar bilan ifodalangan qo'shiluvchilardan iborat chekli yig'indidir. Bunday masalani standart ko'rinishda yo qo'shiluvchilarni o'quvchilarga noodatiy shaklda ifodalash hisobiga yoki qo'shiluvchilar sonini noodatiy berish bilan, standart ifodani nostandart matnli masala yordamida berish bilan almashtirish mumkin.



Математик та'лим jarayonini optimallashtirish va mazmunini boyitishda pedagogik imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni yanada kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

-doimiy ravishda yangi tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ularni hayotga keng tatbiq etish; -to'plangan ilmiy bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona foydalanish; -umumiy ta'lim maktablarida matematikaga oid bilimlarni oshirish uchun maxsus to'garaklar tashkil etishga alohida ahamiyat berish; -o'sib kelayotgan yosh avlodga erkin fikr bildirish, mantiqiy mushohada qilish ko'nikmalarini singdirish ta'lim-tarbiyaning samarali amalga oshishi garovidir.

Maktabda o'qitiladigan har bir fanning, shu jumladan matematikaning o'ziga xos pedagogik ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish o'qituvchining bilim, tajriba, mahorati va ijodkorona izlanishiga bog'liq.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori–T: Sharq, 1997.
2. Jumayev M. E., Jumayev E. E., Adilxanova N. A. Matematika o'qitish metodikasi. T.: Ilm Ziyo, 2003.
3. Jumayev M.E., Z.G. Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T: Fan va texnologiya, 2005.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'ZLASHTIRISHI PAST BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

*Toshpo'latova Gulbahor Azizovna
Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani
XTBga qarashli 60-sonli xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi psixologi
Tursunova Madina Vahobjonovna
Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani
XTBga qarashli 60-sonli xorijiy tillarga
ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning sust o'zlashtirishi sabablari va uni bartaraf etish yo'llari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'zlashtirish, sust o'zlashtirish, faollik, psixika.

Ma'lumki, mamlakatimiz iqtisodiy va ma'naviy hayotini har tomonlama rivojlantirish, demokratik jamiyat qurishda xalq ta'limi tizimini takomillashtirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi ish faoliyatini yuqori darajaga ko'tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim keyingi ta'lim bosqichlari uchun asos – poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ta'limning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, uning ustiga qurilajak bilimlar ham shunchalik mustahkam va ishonchli bo'ladi. Ilm-fan, texnika va texnologiyaning shiddatli rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarini kabi pedagogikada ham mavjud nazariya va g'oyalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Chunki, zamonaviy axborot asrida ulg'ayayotgan yosh avlodni darsga qiziqtirish va kerakli bilimlarni bera olish jarayoni oldingidan ancha murakkablashdi. Zamonaviy pedagoglar jamiyatda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlar mohiyatini anglay olishlari, barkamol shaxsni tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojning dolzarbligini yetarli darajada his eta bilishlari, shuningdek, bugungi kun talablarini inobatga olgan holda kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir.

Har bir sinfda alohida iqtidorli o'quvchilar bo'lganidek, afsuski, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar ham bo'ladi. Bunday o'quvchilar bilish jarayonlaridan ortda qolish bilan birga sinfdoshlarining ham ta'lim olishlariga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar psixologiyasini o'rganish, muammoning sabablarini aniqlash va bartaraf etish muhim hisoblanadi.

O'zlashtirish jarayoni jamiyatning iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy tarbiyalanganligi, o'qituvchining zamonaviy o'qitish usullari va vositalari haqida yetarlicha bilimga ega ekanligi hamda o'quvchilarning o'rganishga ishtiyoqmandligi bilan uzviy bog'liq hodisadir. Sust o'zlashtiruvchi o'quvchi – bu fanlarni DTSda belgilangan darajada o'zlashtira olmayotgan, bilim olishga ishtiyoqi pasayib ketgan va o'ziga ishonchi yo'qolgan bola. O'quvchilarning fanlarni yetarlicha o'zlashtira olmasligining bir qancha sabablari mavjud. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

O'quv materialining betartib va haddan tashqari ko'p berilishi;

- o'qituvchining darslarni qiziqarli tashkil etmasligi;
- o'quvchi davomatining pastligi;
- bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchini o'z vaqtida aniqlamaslik va e'tibor qaratmaslik;
- bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan muntazam izchil reja asosida ish olib bormaslik;
- o'quvchining oilaviy, ijtimoiy muhitidagi salbiy omillar;
- o'quvchining sog'lig'i bilan bog'liq holatlar;
- bolaning jismoniy taraqqiyotidagi ayrim yetishmovchiliklar;
- dars qilish, o'zlashtirish, mustaqil ishlash uchun shart-sharoitlarning yo'qligi;
- ota-ona va pedagog o'rtasida aloqaning yo'lga qo'yilmaganligi;
- bolaning o'zlashtirishini muntazam ravishda nazorat qilmaslik;
- Bolaning individual xususiyatlari, atrofdagilar bilan munosabatlari va boshqalar.

An'anaviy dars o'tish jarayonida ko'proq ma'ruza, savol-javob kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sababli an'anaviy ta'lim samaradorligi nisbatan past bo'lib, o'quvchilar dars jarayoning passiv ishtirokchisiga aylanib qoladilar. Bolalarga tinimsiz vazifa beraverish, ustma-ust nazariy



bilim-u qoidalar yodlataverish o'quvchilarni o'qishdan bezdirib qo'yadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bunday holat ko'p uchraydi. Ular o'yinqaroq bo'lgani va diqqatlarini uzoq muddat bir joyda to'plab turolmaganligi uchun ham dars mashg'ulotlaridan tez zerikadilar. Buning oldini olish uchun an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda dars jarayoni oqilona tashkil etilishi, mavzuni o'tishda bahs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash, rang-barang o'quv topshiriqlarini o'ylab topish, turlicha baholash usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlarining yutug'i bilan solishtiradilar. Ular uchun birinchi bo'lish juda muhim. Dabdurustdan olingan yomon baho maktabga endigina qadam qo'ygan bolaning orzularini yo'qqa chiqarishi hech gap emas. Shuning uchun past o'zlashtirayotgan o'quvchiga individual yondashib, o'qish istagidagi har qanday harakatlarini rag'batlantirish lozim. Bolani eng avvalo, tushunish kerak. Talabchanlik va qattiqqo'llik har doim ham kutilgan natijani beravermaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, odatda, o'qituvchisi bilan yaxshi emotsional munosabatda bo'ladi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni bu yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashda turli guruhli o'yinlar ham yordam beradi. Bunda o'zlashtirishi nisbatan orqada bo'lgan o'quvchi yaxshi o'qiydigan o'quvchiga birlashtiriladi va ularning birgalikdagi faoliyati rag'batlantirilib boriladi. O'quvchining o'qish va jamoat faoliyatidagi eng kichik muvaffaqiyatga ham e'tibor berish, maqtash muhim ekanini yodda tutish lozim. Chunki bolaning kichik yutug'ini ham boshqalar oldida maqtash, nisbatan yuqori baholash bolani yangi muvaffaqiyatlarga undashi isbotlangan. Shuningdek, psixologlar bola xatoga yo'l qo'yganida uni tanqid qilishda ham ehtiyotkor bo'lish kerakligini ta'kidlaydilar. Masalan, "Hech qisi yo'q. kelasi safar yaxshiroq bajarasan. Senga ishonaman" kabi. Bola bilimlarni yetarlicha o'zlashtirmasa, o'zlashtirishga qiynalsa yoki buni xohlamasa o'qituvchi, psixolog va ota-onalar hamkorlikda ish olib borishlari, avvalo, muammoning sababini aniqlab, so'ng uni bartaraf etishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Krutenskiy V.V. "Pedagogik psixologiya", Toshkent, 1979-y.
2. Sherimbetova Z.Sh. "O'quvchi nega o'zlashtirmaydi", Boshlang'ich ta'lim, 2002-y., 1-son.
3. G'oziyev E. "Umumiy psixologiya", Toshkent-2003-y.



ODDIY KASRLAR, SODDA O'NLI KASRLAR

*Uzoqova Salovatxon Baxronovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman XTB ga
qarashli 21-umumta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: O'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishda kasr va ulush mavzusi- ni axborot texnologiyalari asosida o'rganishning ilmiynazariy asoslarini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish.

Mavzuning mazmun-mohiyati: O'quvchilar ongida kasr va ulush tushunchasini axborot texnologiyalari orqali tarkib toptirish va kasrlarni yechish ko'nikma va malakalarini hosil qilish yo'llarini tahlil qilishdir.

Ulush va kasrlarning mantiqiy-didaktik tahlili."Ulushlar" mavzusiga asoslangan holda ulushlarning hosil bo'lish bilan tanishtiriladi. Bu yerda ham ko'rgazma qurol bilim berishning bosh mezon bo'ladi. Narsalarni, shakllarni va boshqa atrofda qilarni teng bo'laklarga bo'lish

va shu bo'laklardan bittasini, ikkitasini, uchtasini,... olish masalasi, uni ifodalash, va yozish asosiy vazifa bo'ladi. Bunda ulush, ulushning surati, maxraji kabi terminlar bilan tanishtirila- di. Tahlil qilish jarayonida quyidagi topshiriqlarga e'tibor qaratish lozim. **Ulushlar va kasr- lar haqida umumiy tushunchalar** Bugungi kunda hayotimizda ulush va kasr tushunchalarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Kundalik ishlarimizda ham, insonlar bilan suhbatlashganda ham ulush va kasr kabi tushunchalarni ishlatamiz. Bunday tushunchalarni bolalik chog'imizdayoq (maktabgacha bo'lgan davrlarda) ishlatsakda, uning ma'nosini uncha anglamasligimiz mumkin. Boshlang'ich maktabda ulushlar va kasrlar bilan dastlabki tanishishni V sinfda kasrlarni o'rganishga tayyorgarlik sifatida qarash lozim. To'rt yillik boshlang'ish maktabning III sinfi dasturida sonning ulushini va ulushiga ko'ra sonning o'zini topish masalasi qaraladi. IV sinfda esa sonning bir necha ulushlarini topishga doir masalalar yechiladi.

Doira chizing va uni teng ikkiga bo'lib, bir qismini, ya'ni yarminibo'yang. Bunda siz doiraning



ikkidan bir qismini bo'yaysiz. Bu kasr ko'rinishida ifodalanadi.

$$\frac{1}{2}$$

Ushbu topshiriq o'quvchilar bilan amaliy tarzda bajarib boriladi va kasrning mana bunday ko'rinishi haqida o'quvchilarga ma'lumot beriladi.


Kasr (yoki kasr son) deb shunday natural sonlar juftiga aytiladiki, ulardan chiziqcha ostiga yozilgani ob'ekt nechta teng bo'lakka bo'linganligini, ikkinchisi, chiziqcha ustiga yozilgani esa hosil bo'lgan ulushlardan nechta olinganligini bildiradi:

Kasrlarni hosil bo'lishi bilan o'quvchilarni tanishtirish III sinfdan boshlanadi.

Bunda ko'rgazmalilik masalasi va ko'rsatma – qo'llanmalar masalasi juda muhimdir. Kasrlar hosil bo'lishining qaralishi munosabati bilan har xil real predmetlarni teng qismlarga bo'lish, geometrik figuralar modellarini teng qismlarga bo'lishga doir amaliy mashqlar bajarilishi kerak. Har xil figuralarni teng qismlarga bo'li shva shunday qismlardan bittasini, ikkitasini va bundan ortiqlarini o'z ichiga oladigan figuralarning qarashli zarur terminologiyani (kasrning surati, kasrning maxraji) va kasr sonlarni belgilash simbolikasini kiritish imkonini beradi.

Surati maxrajidan kichik kasr to'g'ri kasr deyiladi.

Surati maxrajiga teng yoki maxrajidan katta bo'lgan kasr noto'g'ri kasr deyiladi



Kasr chizig'ining tagiga butun nechta teng qismlarga bo'linganini (bitta olma teng ikkiga bo'lindi) ko'rsatuvchi son yoziladi va kasr maxraji deyiladi.

Kasr chizig'ining ustiga bo'lingan teng qismlardan nechta (bo'lingan teng



qismlardan bittasi) olingani yoziladi vakasr surati deyiladi.

Kasrlarning aniq ma'nosini anglab olishda kasrlarni taqqoslashga doir mashqlar yordam beradi.

Kasrlarni taqqoslash uchun odatda to'g'ri to'rtburchaklar tasvirlangan rasmlardan foydalaniladi. Bolalar daftarlarida bo'yi 16 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizadilar. Bu bitta to'g'ri to'rtburchak. Yozamiz. (Birinchi to'g'ri to'rtburchakda 1 sonini yozamiz)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 3-sinf matematika darslik S. BURXONOV, O'. XUDOYOROV, Q. NORQULOVA, N. RUZIKULOVA, L. GOIBOVA
2. <https://uz.wikipedia.org/> sayti



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING FANLARGA QIZIQISHINI TASHKIL ETISH TIZIMI

*Xoliyorova Shoira Salmonovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
159-A maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlangich sinf o‘quvchilarni fanlarga bo‘lgan qiziqishini orttiradigan metodlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, sinf, kitob, o‘quvchilar, o‘yin, faoliyat.

Mamlakatimizda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun asosida uzluksiz ta‘lim tizimi samarali amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur tizimda boshlang‘ich ta‘limga alohida e‘tibor qaratilgan. Ayniqsa, o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Davlat ta‘lim standartida bolalarning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olishga o‘rgatish bilan birga predmet haqidagi tushunchalarni, faoliyatlarini kengaytirish, ularning erkin fikrlay olish, o‘zgaralar fikrini anglash ko‘nikma va malakalarini egallashlariga erishish boshlang‘ich ta‘limning asosiy maqsadi sifatida qayd etilgan. Professor Donsonning fikricha, qiziqish – shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o‘ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror anglagan holda o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda qo‘l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishga yordam beradi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro‘yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. U shaxsning borliqqa tanlab munosabatda bo‘lishga, o‘ziga xos qarorlar qabul qilishida, o‘zini-o‘zi nazorat eta olishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan to‘siqlarni yengishida ifodalanadi. Qiziqish sinchkovlik, qiziquvchanlik, bilishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarni shaxsiy qiziqishini idora qilishga o‘rgatish, bu yo‘nalishda turli mashqlar, terninglar, testlardan foydalanish intiluvchan, toliqmas xislatlarni shakllantirishga yordam beradi.

O‘quvchilarning fanlarga qiziqishini shakllantirishda, biz yuqorida ta‘kidlaganimizdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini bilishi va ularni inobatga olishi, ta‘lim-tarbiya jarayonini innovatsion metod va texnologiyalarni qo‘llagan holda tashkil etishi muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan bir qatorda sinf xonasidagi o‘quv muhiti, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar xarakteri ham katta ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning fanlarga qiziqishini orttirish maqsadida quyidagi metodlardan foydalanilsa samaraliroq bo‘ladi.

1. Izlanish metodi;
2. Mashq qilish;
3. interfaol metodlar.

Quyida biz turli xil metodlar yordamida o‘quvchilarni qiziqishini orttirishga harakat qilamiz.

Darvoza o‘yini – bunda ramziy ma‘noda ikkita darvoza yasaladi. (Devorga yozish yoki biror belgi chizish mumkin). O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Stol ustiga fil, tanaffus, futbol kabi “f” harfi ishtirok etgan so‘zlar yozilgan kartochkalar to‘nkarilib qo‘yiladi. Ikki guruh ikki darvozadan o‘tadi. O‘quvchilar darvozadan o‘tayotganda kartochkalardan birini olib, undagi so‘zni ovoz chiqarib o‘qib o‘tadi. Noto‘g‘ri o‘qigan o‘quvchiga qaytadan o‘qitiladi. Qaysi guruhdagi o‘quvchilar to‘g‘ri birinchi bo‘lib o‘qib, darvozadan o‘tib bo‘lsa, g‘olib sanaladi. Bu o‘yin o‘quvchilarda to‘g‘ri va tez o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu fanga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Bu o‘yin 1-sinflarda tayyorlov davri o‘qish darslarida tashkil etiladi.

So‘z top o‘yini – o‘qituvchi o‘quvchilarni uch guruhga bo‘ladi. Birinchi guruhga “o” tovushi bilan boshlanadigan so‘zlar topish, ikkinchi guruhga “o” tovushi bilan tugaydigan so‘zlar, uchinchi guruhga “o” tovushi so‘z o‘rtasida kelgan so‘zlarni topish aytiladi. Qaysi guruh belgilangan muddatda so‘z topa olmasa, o‘yindan chiqadi. O‘yinni oxirigacha davom ettirgan guruh g‘olib hisoblanadi. Bu o‘yin 1-sinflarda tayyorlov davri o‘qish darslarida tashkil etiladi.



1-guruh	2-guruh	3-guruh
Ota	Samo	Kitob
Ona	Baho	Nok
Oy	Xato	Non
Olma	Sado	Son
Osh	Bobo	Somon
Ot	Momo	Bahor
Osmon	mato	yoz

Aql charxi o'yini – bu o'yinda ikki yoki uch o'quvchidan iborat guruhchalar tashkil etiladi. Birinchi o'quvchi mavzuga oid terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan so'zni qaytaradi va bitta so'z qo'shib aytadi. Yana birinchi o'quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta termini qaytaradi va o'zi ham bitta termin qo'shib aytadi. Qaysi o'quvchi adashib ketsa yoki aytilgan so'zlardan qaytarib aytsa, o'yindan chiqadi. Shu tariqa o'quvchilar guruhi davom etadi. Bu o'yinni tashkil etishdan maqsad aniq bo'lishi va o'quvchilarning qaysi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga e'tibor qaratilishi muhim. Masalan, topishmoqlarga tegishli so'zni ayting.

1. Sog' tanda.

2. Sog' tanda – sog'lom aql.

3. Sog' tanda – sog'lom aql, ozodlik.

4. Sog' tanda – sog'lom aql, ozodlik, obodlik.

5. Sog' tanda – sog'lom aql, ozodlik, obodlik, Yurtim.

6. Sog' tanda – sog'lom aql, ozodlik, obodlik, Yurtim deb yuzga kirdim.

O'yin shu tariqa davom etadi. Bir kichik guruhdan keyin yana yangi guruh o'yinni davom ettiradi. Bu o'yin 1-4-sinflar o'qish darslarida tashkil etiladi.

Davom ettir o'yini – o'quvchilar uch yoki to'rt guruhga bo'linadi. O'qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi. Birinchi guruh uni davom ettiradi. O'qituvchi to'xtatgan joyidan ikkinchi guruh davom ettiradi. Qaysi guruh davom ettirmay to'xtab qolsa, o'yindan chiqadi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi. Bu o'yinda barcha o'quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin. Bu o'yindan umumlashtiruvchi o'qish darslarida ham foydalanish mumkin. Bu o'yin 1-4-sinflar o'qish darslarida tashkil etiladi.

Tez javob o'yini – o'quvchilar uch guruhga bo'linadilar. O'qituvchi yoki boshlovchi qator oralab yurib, guruhlardagi o'quvchilardan birini turgazadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu turga kiruvchi so'z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi lozim. Javob berolmagan o'quvchi guruhiga jarima kartochkasi beriladi. Uchta jarima olgan guruh o'yindan chiqariladi. O'yin to bitta guruh qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, bola atrof muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi.

O'qituvchi: Hayvon

O'quvchi: Ot

O'qituvchi: O'quv quroli

O'quvchi: Daftar

O'qituvchi: Sinf jihozi

O'quvchi: Parta

O'qituvchi: Transport

O'quvchi: Nexia

Yuqorida ko'rib chiqqan metodlarimiz o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini orttiradi hamda ulardagi hozirjavoblik, mantiqiy fikrlash, nutq ravonligi ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. T.: 2011

2. Ziyomammedov B. Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. T.: 2009

3. Baxtiyorova A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning fanlarga qiziqishini tizimli tashkil etish metodikasi. BMI. Nizomiy nomidagi TDPU. T.: 2014



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSIQIY TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Xudoyberganova Xurshida Mo'minovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-maktabning musiqa fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, o'quvchi, dars, pedagogik texnologiya, boshlang'ich sinf.

Musiqiy ta'lim – o'quv jarayonining o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatidagi hamkorlik ta'limning eng samarali jihatlari hisoblanadi. Darsda o'quvchilar jamoa bo'lib kuylaydilar, musiqa tinglaydilar, musiqaqaga mos harakatlar bajaradilar. Bunda ular turli xil hissiy kechinmalarni boshdan kechiradilar. Darsni qiziqarli, turli usul, turli vositalar qo'llanilgan holda o'tilishi o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni nisbat qulay va qiyinchiliksiz egallash imkoniyatini oshiradi. Musiqa ta'lim tizimining tahlillari va shu vaqtga qadar to'plangan tajribalarni umumlashtirish musiqa darslarining yangi-yangi turlarini, qo'llaniladigan uslublarini tadbiq etish vazifasini qo'yadi.

Zamonaviy ta'lim oldiga qo'yilayotgan talablar musiqa darslarini ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda musiqa darslarining samaradorligini oshiradigan pedagogik texnologiyalar, metodikalar, didaktik o'yinlar haqida to'xtalib o'tamiz. Chunki, boshlang'ich sinflarda darslarni imkon qadar o'yin tarzida olib borish o'quvchilarning faolligini oshirishga va berilgan vazifalarni qiziqish bilan amalga oshirishlariga olib keladi. Masalan, musiqiy cholg'ular mavzusi o'tilganda, o'quvchilarga turli xildagi musiqa cholg'ulari surati solingan kartochkalar beriladi. O'qituvchi magnitafon, CD player yordamida biror bir cholg'uda ijro etilgan kuyni eshittiradi. O'quvchilar musiqiy asar qanday cholg'uda ijro etilganligini qo'llaridagi kartochkalar orqali ko'rsatadilar. Faol o'quvchilar baholanadi va rag'batlantiriladi. Shu xildagi dars turlariga qisqacha ta'rif beramiz.

Konsert darslari – o'quvchilardagi bor musiqiy – nazariy bilimlarni amalda qo'llash, o'zlari va boshqalarning bilimlariga baho berishi, jamoa bo'lib kuylash, yakkanavozlik, jo'rnavozlik malakalarini shakllantirish, raqs elementlarini bajarish va hokozolarga keng imkoniyatlar yaratadi. Bunday darslarni asosan, bir chorak tugab ikkinchisi boshlanganida uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu darsturida o'quvchilar chorak davomida o'zlari o'rgangan kuy qo'shiqlari asosida konsert berishadi. Bunday darslar o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashga va baholashga yordam beradi. Dars avvaldan rejalashtiriladi. O'quvchilarning har biriga vazifalar oldindan beriladi. Bu darsda o'quvchilar o'zlarining ijodiy qobiliyatlari, ijrochilik mahoratlarini namoyish qiladilar. O'quvchilarda o'zini sahnada tutishi, jamoa bo'lib kuylash, mustaqillik, tashabbuskorlik malakalari shakllanadi. Konsert darslarini bir kompozitor, ijodkor, yozuvchilar tavallud kuni yoki ijodiga bag'ishlab ham o'tkazish mumkin. Bu shu ijodkor yaratgan asarlarga asosiy e'tibor qaratiladi.

Viktorina darslari – bu dars asosan musiqa tinglash jarayonida o'tkaziladi. O'qituvchi bir texnik vosita yordamida o'quvchilarga musiqa qo'yib beradi. O'quvchilar esa bu musiqaning nomi, ijrochisi, kompozitorini topadilar.

Darsda o'qituvchi o'quvchilarni qatorlarga, ya'ni guruhlariga bo'ladi. Har bir guruhning faolligiga, to'g'ri javoblariga qarab ball berib boriladi. Viktorina darslari o'quvchilarni nafaqat musiqa tinglash, balki qo'shiq kuylash jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Bunda o'quvchilar musiqa asarlarini yaratuvchilari kompozitor, shoir ijrochilari haqida ham ma'lumotlar bilan tanishadilar. Qo'shiqlarning janri qaysi mahalliy uslubga xosligi, ijro etish holati haqida bilimlarini mustahkamlashga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Bahs – munozara darslari. Musiqa darslarini badiiy va nazariy tahlil qilish – musiqa tarixi, adabiyoti, nazariyasi kabi musiqiy-nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratiladi. Bu mashg'ulot turida asosan chorak va yarim yil davomida olingan musiqiy-nazariy bilimlarga tayaniladi. Bahs-munozara darslari o'quvchilarning avval egallagan bilimlarini sinovdan o'tkazishda ham yaxshi usul hisoblanadi. Bu dars boshqa darslardan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi, ya'ni bu darslarda bir mavzu yoki biror janr, nazariy tushuncha yuzasidan tortishuv bo'ladi. O'qituvchi



va o'quvchilar o'z fikr – mulohazalari bilan o'rtoqlashadilar. Har bir fikr isbotlanadi va to'g'ri javob qabul qilinadi.

Quvnoqlar va zukkolar darsi – bu dars musobaqa tarzida tashkil etiladi va bir kompozitor yoki musiqiy asarning yaratilish tarixiga bag'ishlanishi mumkin. Bu o'rinda kompozitorning mahorati, badiiy obrazi, voqelik tasviri, ularga singdirilgan g'oyalarni anglash, mushoxada yuritish, qo'llanilgan vositalarni tushunishga undash alohida o'rin tutadi. Bunday darslar o'quvchilarda topqirlik, faollik, zukkolik, ziyraklik fazilatlarini shakllantiradi.

Quvnoqlar va zukkolar noan'anaviy dars bo'lib, uni bir necha yo'nalishda o'tkazish mumkin. O'tilgan mavzularni takrorlash, savol-javob tarzida, tinglangan musiqa asarining mazmun mohiyatini izohlash, shuningdek, didaktik o'yinlar tarzida uyushtirish mumkin. Bunday darslarda musiqiy o'yinlarni uyushtirishning keng imkoniyatlari mavjud. Masalan, televideniya orqali namoyish etiladigan ba'zi bir musiqiy ko'rsatuvlar shakllaridan foydalanish mumkin. Bunday darslarda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi: qizlar-bolalar, qatorlararo, parallel sinflar bo'lishi mumkin. Har bir jamoaga sardor saylanadi. Ikki raqib jamoa o'z bilimlarini sinab ko'rishadi. Faol qatnashgan jamoalar rag'batlantiriladi. Nufuzli pedagoglar, yuqori sinf o'quvchilaridan saylangan hakam javoblarni baholab boradi. Musobaqaning shartlari avval o'tilgan darslarga asoslanmog'i darkor. O'quvchilarga bu haqda bir hafta oldin ma'lum qilinadi va hafta davomida o'quvchilar unga tayyorgarlik ko'rib yurishadi. Darsda musiqiy ko'rinishlar, qo'shiq-raqslarga ham ahamiyat beriladi. Dars so'ngida to'plangan ballar umumlashtirilib, e'lon qilinadi va g'olib jamoa rag'batlantiriladi. Quvnoqlar va zukkolar darslardagi ta'limiy o'yinlar, mitti bosh qotirmalar, sirli qiziqarli topshiriqlar, har xil faoliyatlarni almashib turishi o'quvchilarni fikrlashga odatlantiradi, zerikish va toliqishdan saqlaydi.

Quvnoqlar va zukkolar darslarini tashkil etishda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

-o'rganilgan mavzularning mazmun va mohiyatini, o'quvchilarning bilim darajasini va qiziqishlarini hisobga olish;

- dars mavzusini va dars o'tkaziladigan haqida o'quvchilarga bir hafta oldin xabar berish;

- musobaqa shartlari hamma bilan kelishilgan holda belgilash va tasdiqlatish;

- qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlarning har bir sharti uchun vaqtni, ishtirokchilar sonini kelishib olish.

Tahlil darsi – bu dars asosan musiqa savodi, musiqa tinglash va qo'shiq kuylash jarayonlarida o'tilgan asarlarni mukammal tahlil qilishga qaratiladi. Musiqa asarlarini tahlil qilishda asar mualliflari haqida ma'lumot berish, asarning tempi, xarakteri, ritmi, o'lchovi, shakli qanday jamoa uchun moslab yozilganligi, janri, g'oyaviy mazmunini o'rganish bularning barchasi musiqiy-nazariy bilimlar majmuini bildiradi. Tahlil darsini qanday tashkil etish va o'tkazish o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribasiga bog'liq.

Yuqorida ko'rib chiqqan metodlarimiz o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini orttiradi hamda ulardagi hozirjavoblik, mantiqiy fikrlash, nutq ravonligi ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ahmedov M. Musiqa madaniyati fani o'qitilishida dasturiy ta'minot. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash: muammolar, yechimlar. – T.:2010.

2. Saipova D.Yu. Musiqa madaniyati fani o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. T.: 2004.

3. Ahmedov M.M. Bo'lajak o'qituvchilarni maktab o'quvchilarida musiqiy-nazariy bilimlarni shakllantirishga tayyorlash. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. 2011.



YOSH AVLODNI TARBIYALASHNING SAMARALI USUL VA VOSITALARI

*Yunusova mayramxon polvonovna
Marg'ilon shahar 28-umumta'lim maktabi
Tarbiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash hamda kamol topish masalalariga doir fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit soʻzlari: ta'lim-tarbiya, ajdodlar merosi, xalq ogʻzaki ijodi janrlari.

Hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri - ma'naviy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash hisoblanadi. Milliy istiqlol gʻoyasi, mafkurasi xalqimizning azaliy anʼanalariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, yosh avlod qalbiga va ongiga kelajakka ishonch, mehr -oqibat, insof, sabr - toqat, adolat, ma'rifat tuygʻularini singdirishi lozim.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: *“Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq. Eng asosiysi, ularning qalbida boy tariximiz, madaniy merosimiz bilan faxrlanish tuyg'usi kamol topadi. Biz barchamiz – fuqarolar ham, jamiyat ham, davlat ham Vatanimiz ravnaqi uchun mamlakatimizda tinchlik-barqarorlikni mustahkamlash uchun, tarixiy, ma'naviy va madaniy merosimizni saqlash, boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish uchun birdek mas'ulmiz”*.

Bilamizki, Yosh avlodni tarbiyalashda asosan, koʻp asrlar davomida qoʻllangan usul va vositalar, shakllari, milliy urf-odat va anʼanalar, tarbiya haqidagi gʻoyalarga tayaniladi. Tarbiya berishda tajribalar xalq yaratgan afsonalarda, ogʻzaki ijod namunalarida, ogʻzaki, yozma yodgorliklarda oʻz ifodasini topgan. Ulugʻ mutafakkirlarning ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan asarlarida bayon etilgan. Buni yaratilgan maqol, topishmoq, ertak, latifa, dostonlarda hamda Ahmad Yassaviy, Saʼdiy Sheroziy, Ahmad Yugnakiy, Rabgʻuziy, Yusuf xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Rumi, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zamaxshariy, Gulxaniy, Furqat kabi mutafakkirning asarlarida koʻrish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oʻzbek xalq ogʻzaki ijodidagi har bir janr bir olam, odob, ta'lim-tarbiyaning oʻziga xos darsligi deyish mumkin. Folklorning har bir janr namunasi tarbiyaning umumiy jihatlari aks ettiradi. Folklor janrlarda yaxshilik, ezgulik va odamiylikni goʻzal, ibratli misollar orqali tasdiqlab berilgan. Masalan, epik ijod namunasi qahramonlik, ishqiy-romantik, tarixiy dostonlar koʻproq ishq-muhabbat va vafu qanday boʻlish, oʻzligini tanish, or-nomus, burchini anglash iymon-eʼtiqodli boʻlish, inson va hayvonot dunyosi oʻrtasidagi bogʻliqlik eʼtirof etish mumkin. Qoʻshiqlar (lirik, marosim, mavsum qoʻshiqlari, “Yor-yor”lar, “Alla”lar, yigʻi-yoʻqlovlar, oʻrim, bayram sayil qoʻshiqlari, bolalar folklorining namunalari va boshqalar) goʻzallik, gʻam-gʻussa, armonlarni tarannum etish orqali har qanday kishida chuqur insoniy tuygʻularni oʻstiradi, hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi. Ertaklar orqali kishilar sirli-sehrli olam bilan tanishadi, bu boradagi bilimi, tushunchalari boyiydi, yaxshi odamlardagi yaxshi xislatlar, yomonlardagi buzuvchilardan xabardor boʻlib, yaxshilikka mehri tovlanadi, yomonlikka nafrati ortadi. Afsona va rivoyatlar esa donolar donoligi, ibrati, shuningdek, tabiatni asrab-avaylab, qadriga yetish, saqlash, chiroyiga chiroy qoʻshish, kamol toptirishda muhim manbalardan boʻlib, yosh avlodni tarbiyalashda tarbiyaning yetakchi sohalaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganimizda, yosh avlodning har tomonlama barkamol shaxs sifatida rivojlanishi, kamol topishida ajdodlar merosi, anʼanalari, qadriyatlar, urf-odatlar, xalq ogʻzaki ijod mazmuni singdirilgan tajribasidan foydalanish samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ibrohimov A., Sultonov H., Joʻrayev N. Vatan tuygʻusi. – T.: 1996
2. Temirov F., Nazarova S.M. Jamiyat va qadriyatlar. – T.: 1992
3. Ismoilova Z.K. Milliy gʻoya va ma'naviy-axloqiy tarbiya. –T.: 2007



ФУНКЦИИ И ЭТАПЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ШКОЛЫ

*Байзакова Шохида,
учитель русского языка,
№ 24 Паярикского района,
Самаркандская область*

Аннотация: В статье рассматриваются этапы и функции организации инновационной деятельности учителей.

Ключевые слова: инновационной деятельности учителя, коммуникативной речи, образования.

В современных условиях образовательный процесс должен быть ориентирован на развитие, социализацию личности и развитие навыков независимого, критического, творческого мышления. Образование, способное продемонстрировать эти способности само по себе, называется личностно-ориентированным образованием. Это означает, что среда обучения адаптирована к возможностям учащихся. Образовательная среда, педагогические условия, процесс обучения и воспитания в целом подразумевает реализацию личностного потенциала учеников, развитие их способностей, обеспечение их зрелости как личности, обогащение их мышления и мировоззрения. В связи с этим важно обучить учащихся начальному образованию, создать основу для их независимого мышления. Для выполнения этих задач учитель начальных классов должен быть в курсе нововведений, входящих в сферу образования, уметь применять новшества в своей работе, то есть формировать собственную инновационную деятельность.

Инновационная деятельность - это процесс, состоящий из создания нового технологического процесса или нового улучшенного продукта на основе научных исследований, разработок, экспериментальных работ, использования достижений науки и техники. Инновационная деятельность - это деятельность, направленная на решение сложных проблем, возникающих в результате несоответствия новых социальных требований традиционным нормам или отрицания существующих идей вновь возникающими идеями. Инновационная деятельность требует от учителя начальных классов приобретения теоретических знаний, практических навыков и умений на основе направления умственных, физических сил на конкретную цель, дополнения практической деятельности теоретическими знаниями, развития знаний, дизайна, коммуникативной речи и организационных навыков. Инновационная деятельность - это также деятельность, направленная на решение сложных проблем, возникающих в результате новых социальных требований, не соответствующих традиционным нормам, или новых возникающих идей, отрицающих существующие идеи.

Инновационная активность школьного учителя определяется: готовностью применять нововведение; принятием педагогических новшеств; уровнем новаторства; развитием коммуникативных навыков; креативность; владение педагогическими методами исследования; возможность создавать авторские концепции; уметь планировать и проводить экспериментальные работы; уметь сотрудничать с коллегами; уметь обмениваться мнениями с коллегами и, при необходимости, оказать им методическую помощь; развитие умения предотвращать и разрешать конфликты; уметь находить инновации и адаптировать их к своей деятельности.

Внедрение нововведений в образовательный процесс начинается с инновационной деятельности учителя. При подготовке учителей к инновационной педагогической деятельности их деятельность должна включать в себя следующие элементы: склонность учителей принимать инновации; формирование инновационной направленности у учителей; высокий уровень занятости; стремление к качественному конечному результату; умение преодолевать трудности; проявлять творческое отношение к своему делу; стремление к самосовершенствованию; быть ответственным, уметь принимать решения, не бояться ошибаться; способность общаться, сотрудничать и выражать себя; уметь быстро освоить новую работу.



Чтобы учителя начальных классов применяли эффективные нововведения в образовательном процессе, они должны обладать следующими профессиональными качествами. Они: хорошо разбираются в своей области; владение технологической культурой; такие как развитие психологических культур.

Изучение инновационных процессов, их функций, педагогической основы законов развития позволяет организовать образовательный процесс на уровне мировых стандартов на основе достижений современной педагогики и психологии. В этом процессе он выступает как учитель, автор новых педагогических технологий, теорий, концепций, исследователь, пользователь и промоутер. Анализ инновационной деятельности учителя требует использования определенных критериев, определяющих эффективность нововведения. К таким нормам относятся новизна, оптимальность, высокая эффективность, возможности для новаторского творческого применения массового опыта. К способностям педагога к инновационной деятельности относятся его творческая склонность, любознательность, творческий интерес, творческие достижения, прогрессивные взгляды, креативность, способность оценивать, оценивать профессиональную деятельность, сотрудничество и помощь в области творческой деятельности.

Инновационная активность проявляется в наличии способностей, технологического подхода и умения размышлять. Способность учителей начальных классов применять новаторский подход к своей профессиональной деятельности гарантирует достижение ими своих целей, а также повышает качество и эффективность образования.

Литература:

1. Дюков В.М., Семенов И.Н. Педагогическая инновация. - Красноярск: Университет, 2007. - 84 с.
2. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тураев А.Б. Инновационные образовательные технологии: Учебник. - Т., 2015. 208 с.



МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСALARINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Abdirahmanova Maxliyo Erkinbayevna
Angren shahar MTB tasarrufidagi “Quyosh” nomli
26-sonli Maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori
Tel: +99899 823 11 73

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim-tarbiyaning asosiy bo’gi hisoblangan maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyati va vazifalari bayon etilgan.

Kalit soʻzlar: tarbiya, ta’lim, muassasa, pedagogika, shaxs, maqsaq va vazifa.

Farzandini maktabga yuborayotgan har bir ota-ona farzandim o’quv jarayoniga tayyor deb hisoblaydi. Chunki, har bir kishi o’z farzandini qobilyatli va takrorlanmas deb o’ylaydi. Ammo shu o’rinda savol tug’iladi. Bola har jihatdan maktabga tayyormi? U yangi sharoitga ko’nika oladimi? Maktabga tayyorgarlik va maktab hayotiga moslashtirishning muvaffaqiyatli kechishi bu ishni oldinroq boshlab, uni asta sekin bolaning manfaati bilan uyg’unlashtirgan holda sabr bilan amalga oshirishni talab etadi.

Bolaning 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo’lgan muddat maktabgacha yosh davriga to’g’ri keladi. Bu bosqichda bola o’zi uchun yangi dunyoni kashf etadi. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang’ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog’lom va rivojlangan shaxs bo’lib shakllanishini ta’minlab, o’qishga bo’lgan ishtiyoqini uyg’otib, tizimli o’qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo’lgan maktabgacha ta’lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’limning maqsadi - bolalarni maktabdagi o’qishga tayyorlash, bolani sog’lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo’lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o’qishga, tizimli ta’limga bo’lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Bolalar maktabgacha muassasalari - O’zbekiston Respublikasidagi ta’lim muassasalarining turi bo’lib, turli yo’nalishdagi maktabgacha ta’lim umumta’lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta’lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo’lgan bolalarni tarbiyalashni, o’qitishni, nazoratini, parvarishlashni va sog’lomlashtirishni ta’minlaydi.

- Maktabgacha ta’lim muassasalarining asosiy maqsad va vazifalari? Maktabgacha ta’lim, olinish shakli va usullaridan qat’iy nazar, quyidagi maqsadlarni o’z oldiga qo’yadi:

- Bolalarni maktabda o’qishga maqsadli va tizimli tayyorlash;
- Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste’dodlarini rivojlantirish;
- Bolalarni milliy va umuminsoniy etik va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;
- Bolalarda yuqori ma’naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish;
- Bolalarning jismoniy va ruhiy sog’ligini mustahkamlash;

Maktabgacha ta’lim muassasasi bolani har tomonlama rivojlantirish yo’lidagi muhim ta’lim muassasasi hisoblanadi. Shu boisdan bolalarni albatta maktabgacha ta’lim muassasasida tarbiya olishga topshirish ularning rivojlanishi va bevosita maktab ta’limiga tayyorlashning muhim jihati hisoblanadi. Bunda albatta, ijodiy imkoniyatlarga ega bo’lgan bola yangi o’quv materialini mustaqil tushunib yetishga, izlanish faoliyatiga, pedagoglar va tengdoshlari bilan o’zaro munosabatlarini o’rnatishga tayyor bo’ladi. U bilishga qiziquvchan, faol, tashabbuskor bo’ladi.

Maktabgacha ta’lim muassasasi ta’lim-tarbiya va sog’lomlashtirish muassasasi hisoblanadi, quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilangan:

- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog’lig’ini mustahkamlash;
- bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish;
- bolaning intellektual, shaxsiy va jismoniy rivojlanishini ta’minlash;
- bolaning rivojlanishidagi nuqsonlarni zarur tarzda tuzatish;
- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- bolalarni maktabda o’qishga tayyorlash.

Shu bilan birga maktabgacha ta’lim muassasasi ish faoliyatini yuritayotgan har bir hodim,



ishiga ma'suliyat va fidoiylik bilan yondashsa kelajak avlodimiz bo'lgan bolalarni har tamonlama bilimli, vatanparvar, ijodkor, mehribon va buyuk inson etib tarbiyalash mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida». 2016 yil 29 dekabr PF - 2707 –sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida” gi PF–3261-sonli Qarori.



PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING ASOSIY ELEMENTLARI

*Abdullayeva Barnoxon Nuraliyevna
Namangan viloyati Norin tumani
39-son maktab matematika-
informatika fani o‘qituvchisi
Qozixonova Asalxon Umaraliyevna
Namangan viloyati Norin tumani
39-son maktab kimyo fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kun ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lgan pedagogik texnologiya va uning asosiy elementlari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, ta’lim, muloqot, baholash, axborot, tizim, metod, malaka, talab.

Bugungi kunda respublikamizni rivojlangan davlatlar darajasiga chiqarish maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Ta’lim O‘zbekiston davlati siyosatining ustuvor sohasiga aylanmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarini egallagan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadi va vazifasi kun tartibiga qo‘yilgan. Auditoriyalarga kirib o‘quv jarayonini kuzatgan kishi mavjud pedagogik tizim birinchi va ikkinchi bosqichlarga xos ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Xozirda ta’limni pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin, pedagogik texnologiyalar, turli interfaol metodlar talim tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o‘qituvchi (pedagog)ning o‘quvchi-talabalar bilan muloqoti.

Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olinadigan tasavvurlar;
- muloqot yuzasidan fikrlash va fikr almashish;
- pedagogik muloqotni tashkil etishning texnikasi va texnologiyasi ;
- ishga ijodiy yondashish va boshqalar.

Pedagogik talab texnologiyasi.

- «pedagogik talab» tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari;
- xulq-atvor va ijtimoiy-madaniy qoidalarning namoyon bo‘lishi;
- o‘quvchiga bo‘lgan hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

2. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va uni mezonlash.

- xatti-harakatlardan olingan taassurot, voqelikni, ob’ekt va sub’ektini qabul qilish;
- baho berish usullarini tanlash, o‘qituvchi(pedagog)ning o‘z imkoniyatini tahlil etishi va ta’sir samaradorligini oshirishi;

-pedagogik baholash texnologiyasi.

3. Axborotning ta’sir ko‘rsatish texnologiyasi.

- nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, demonstratsion va ko‘rgazmali vositalar-axborot olish vositalaridan biri sifatida;

- nutqiy ta’sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko‘rgazmalar va obrazlar;
- nutqiy ta’sir etish texnologiyasi;
- demonstratsion va ko‘rgazmali vositalar, etik, iqtisodiy, estetik, gigienik materiallar;
- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

4. Pedagogik vaziyatlarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt sub’ektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, bo‘sh va mazmunli konflikt;

- holat tahlili (voqeani aniqlash);
- konflikt;
- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);
- konfliktni yechish shakllari (yumor, hazil, mutoiba).



Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo‘shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.
2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.
3. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.
4. O‘quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.
5. Xulqi va odobi yomon o‘quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.
6. Etik himoya texnologiyasi.
7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.
8. Pedagogik vosita texnologiyasi.
9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta’rif bergan. Hali bu tushunchaga to‘liq va yagona ta’rif qabul qilinmagan. Ushbu ta’riflar ichida eng maqsadga muvofiq‘i YuNESKO tomonidan berilgan ta’rif sanaladi. *Pedagogik texnologiya* – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo‘llash, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Pedagogik texnologiya - amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya - ta’lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, ta’lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo‘li bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada. Zamonaviy pedagogik texnologiyani pedagogika fanining alohida tarmog‘i sifatida yoki faqat ta’lim amaliyotini maqbullashtirishga yo‘naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Zamonaviy pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv uslubiy majmua.
2. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.
3. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish.



DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA PSIXOLOGIK BOSHQARUVNING O'RNI

*Adizova Nasiba Anvarovna,
Navoiy shahar 19- DMTT psixologi*

Annotatsiya: Xodimlar, ota-onalar va albatta bolalar bular barchasi birlikda bir formula asosida psixalogik boshqaruv jarayoniga taqaladi psixologdagi - Notqlik san'ati alohida mahorat va qobiliyat talab qiladi. Sharqdan otiqlik san'ati voizlik deb yuritilgan. Shunga ko'ra nutq va'z, notiq-voiz deb yuritilgan. Va'z degani «Qomusi Usmoniy» lug'atida sharhlanishicha «kishilarning qalbini yumshatadigan pand-nasihatdir». Demak biz o'rganamiz va faoliyatimizda ko'p psixalogik o'rinlardan foydalanamiz qulf kalit qanday texnologik bog'liqlik bulsa psixalogik boshqaruv ham go'yoki qulf tashkilot bo'lsa kalit psixolog deb o'ylaymiz.

Kalit so'zlar: Fan, Texnologiyalar, Lider, Notiq, Mahoratli, Demosfen, Psixologik boshqaruv

Fan va texnologiyalar rivoji jadall suratlar bilan ketayotgan bir vaqatda psixologiya faniga bo'lgan talab ham kuchaymoqda.

Bu fanni o'qiyapmiz, o'rgatayapmiz, o'rganyamiz va rivojlantiryapmiz. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik boshqaruv o'rni va olib borishimiz kerak bo'lgan faoliyatlardan biridir. Yurtboshimiz ko'z oldida turgan maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchi bizning kelajagimiz ertangi kunimiz rivoji deb takidlaydilar. Ushbu tashkilotlarimizda faoliyat olib borayotgan shunday shaxslar borki bular psixologlardir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik boshqaruv qanday bo'lishi kerak

Lider

Notiq

Mahoratli

Uslubdor ushbu jihatlarni birga olib borgan har qanday psixolog o'sha tashkilot yuragi bo'lib boshqaruvlikni olib boradi.

Lider (ingilizcha - leader – yetakchi, boshlovchi so'zidan) bir ishni bajarishda boshqalarning yordami va harakatini birlashtiruvchi ijtimoiy ta'sir jarayoni. Liderlik o'zida o'rganib olgan shaxs rahbarning boshqaruv faoliyatida ham yetakchilik qilishini va boshqarish malakasini tushuntirish, boshqaruv jarayonidagi o'rnini ilmiy-amaliy yondashuvlar bilan tushuntiradi. Xodimlar, ota-onalar va albatta bolalar bular barchasi birlikda bir formula asosida psixalogik boshqaruv jarayoniga taqaladi psixologdagi - Notqlik san'ati alohida mahorat va qobiliyat talab qiladi. Chunki har qandaynutq egasi mohir notiq bo'lavermaydi. Shunga ko'ra har ikkalasining ham o'ziga xos tarixi mavjuddir. San'atning eng qadimiy turlaridan biri notqlikdir. Tinglovchilarga biror narsa-hodisani tushuntirish, isbot etish yoki ularning hissiyotiga, tushunchasiga ta'sir qilish niyatida so'zlangan nutq notqlik faoliyatiga kiradi.

Bu hodisani san'at darajasiga ko'taraolgan kishiha qiqiy notiqdir. Nutq madaniyati ham uslubiyat ilmi ham o'zining uzoq o'tmishiga ega. Ular ta'limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan. Qadimgi davlat arboblarning obro'-e'tiborli yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan baravar ulug'langan. Bu ikki san'atni mukammal egallagan arboblargina yuqori lavozimlarga saylangan. Hozirgi sharoit ham shuni taqozo etmoqda. Grek notig'i Demosfen va Rim notig'i Sitseronlarning hayoti bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notqlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratganlar.

Sharqda notqlik san'ati voizlik deb yuritilgan. Shunga ko'ra nutq va'z, notiq-voiz deb yuritilgan. Va'z degani «Qomusi Usmoniy» lug'atida sharhlanishicha «kishilarning qalbini yumshatadigan pand-nasihatdir».

Har bir psixologdan otiqlik bo'sagina u har qanday shaxs qalbiga yo'l topa oldi. O'zida uslubdorlik ya'ni nutq uslublarini mujassamlashtirgan shaxsdir.

Demak har qanday psixolog bu yuqoridagi jihatlardan tashqari boshqa uslublarga ham ega bo'lmog'i zarur. Masalan, Yaponiyaliklarning Kaizen usuli – bu usul yaponchadan olingan bo'lib “yaxshi tomonga o'zgarish”, yoki “doimiy takomillashib borish” ma'nolarni anglatadi. Bu usulda Yaponiyada biznes falsafasida qo'llanilgan hozirda Kaizen boshqa ko'plab sohalarda xususan



shaxsiy rivojlanishga ham juda foydali. Bu usul birdaniga ko'p kuch sarflab emas bolalarcha qadamma - qadamamalga oshiriladi va o'rganiladi. Demak biz o'rganamiz va faoliyatimizda ko'p psixalogik o'rinlardan foydalanamiz qulf kalit qanday texnologik bog'liqlik bu isapsixalogik boshqaruv ham go'yoki qulf tashkilot bo'lsa kalit psixolog deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi // T: 2011 y. Fan va texnologiya // 5-bet.
2. Boboyeva D.R. // T: 2010 y. // Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish // 12-bet.
3. G'oziyev E. // T: 1990 y. Tarbiyachi // Umumiy psixologiya // 105-bet.
4. Ochilov M. // T: 2001 y. Muallim qalb me'mori // 128-bet.
5. Rahimboy Jumaniyozov // T: 1990 y. // Notiqlik san'ati// 7-bet.
6. Sh.K. Toshpo'latova // T: 2001y. TDPU// MTM ni tashkil etish boshqarish usullari // 66-bet.



SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA AXBOROT KOMMUKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Andayeva Shohsanam Bahodirovna
Buxoro viloyati, Olot tumanidagi 13-umumiy
o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon:+998(93)0818393

Annotatsiya: Maqolada sinfdan tashqari o‘qishning o‘qish malakalarini takomillashtirish va kichik yoshdagi o‘quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og‘zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini oshirishdagi ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, kitobxonlik.

Boshlang‘ich ta’limda bolalarni ma’naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda sinfdan tashqari o‘qish darslari muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslari, o‘qish samaradorligiga ijobiy ta’sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfdan tashqari o‘qishning maqsadi o‘qish malakalarini takomillashtirish, kichik yoshdagi o‘quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og‘zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklashdan iboratdir.

Sinfdan tashqari o‘qish dasturining mazmuniga ko‘ra ta’limning har bir bosqichida ikki asosiy bo‘lim ajratiladi: birinchi bosqichda o‘qish doirasi, ya’ni o‘qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o‘qish bilan tanishtirish yuzasidan o‘quvchilarga ko‘rsatma beriladi. Ikkinchi bosqichda shu o‘quv materiallari asosida bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari o‘qish darslari bilan bog‘lab olib borishda o‘zbek multfilimlarining muhim o‘ringa ega. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir nechta kitob bilan tanishsalar, so‘ngra bolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab o‘qishga o‘tadilar. Bunda video roliklardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalar adabiyoti avvalo o‘zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarning go‘zalligi, tilning ifodaliligi, she’riy so‘zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch bahsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta’sir ham ko‘rsatadi. Bolalar adabiyoti o‘quvchilarga jonajon o‘lka tabiyatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko‘rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqelikni, bolalarning o‘yinlarini tushunishga o‘rgatadi. Bunda AKT o‘rni va ahamiyati zarurdir. O‘quvchilarni badiiy adabiyot bilan ishlash jarayonida quyidagi malakalari o‘stiriladi:

- kitobxonlikka xos bilimlari shakllantiriladi va idrok etishi osohlashsdi;
- asarga va fanga bo‘lgan qiziqishlari orttiriladi;
- kitob nomini va mualliflarini bilish va namotish etish orqali tassavuri kengayadi;
- kitob o‘qish gigienasi va kitoblarni saqlash, ekranda yaqqol namoish etiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarga bolalar gazeta va jurnallari ham ertak, she’r, hikoyalar o‘qishga yordam beradi. Darslar jarayonida o‘rgangan xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, tez aytishlardan foydalanib o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga ega bo‘ladilar.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari orqali o‘quvchilar tashqi hayot, hayvonot olami, tabiat hodisalari, yurtimizning tarixiy va zamonaviy ko‘rinishi, xalqimizning hayot tarzi, milliy qadriyatlar va milliy urf-odatlar kabi tushunchalar haqidagi to‘liqroq ma’lumotlarni ham ana shu darsda egallaydilar.

O‘qituvchi agar ijodkor bo‘lsa, o‘z faoliyatida dars o‘tishning turli usullaridan foydalanib, AKT va ilg‘or pedagogik texnologiyalar darslarni tashkil etadi. Bu darslarda quyidagilardan foydalanish mumkin: teleko‘rsatuv, teatrlashgan sahna, sayohat tashrif, fantastik, muammoli, davra, musobaqa darslari va hokazo. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida “Tez aytish”, “Topishmoqlar toppish”, “Ifodali o‘qish”, “Maqollar aytish musobaqasi”, “Ertak to‘qish”, “Bilimdonlar anjumani” kabi ko‘rik-tanlovlar ham tashkil qilish mumkin. Ushbu dars (usuli)dan foydalanish ancha qo‘l keladi. Har bir sinfdan sinfdan tashqari o‘qilgan barcha asarlarni o‘quvchilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nutqni rivojlantirishga, lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi. Shungdek sahnalashtirilgan asarni tomosha qilgan o‘quvchilarning xotiralarida saqlash qobiliyati o‘sadi. Hatto sahnalashtirish o‘quvchini har tomonlama yo‘naltiradi, ya’ni aktyorlik qobiliyatini rivojlantiradi, suxandonlik, rejissorlik kabi kasblarda ilk tasavvurlarni o‘rgata



boshlaydi. Asarni sahnalashtirishga davrida albatta o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilarning ifodali o'qishlari ularga zavq-shavq bag'ishlab, kitobga, badiiy asarga havas, uni o'qib o'rganishga intilish uyg'otadi. Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlari bilan tanishtirib borish lozim. Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev, Erkin Malikov, Tolib Yo'ldosh kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta'lim muassasi o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda ijod ahli bo'lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishlari kerak. Bunday uchrashuvlar o'quvchilarni vatanni madh etishga, uni sevib ardoqlashga chaqiradi. Kitobni, asarni qanday paydo bo'lishini, uni hurmat qilish, asrab-avaylashni o'rgatadi. Shunday qilib badiiy adabiyot, bolalar adabiyoti voqelikni haqqoniy aks ettirish, yorqin obrazlar yaratish bilan bolalarda estetik did va ahloqiy sifatlarni mujassamlashtiradi. Ularda hayot go'zalligini idrok etishga o'rgatadi. So'z san'ati badiiy asarda o'z ifodasini topadi. Xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuch-qudrati va jozibasiga qadim zamonlardanoq e'tibor berib kelingan. Badiiy so'z xalqning barcha madaniy boyliklarini abadiylashtirgan. Buning uchun esa o'quvchi albatta og'zaki xalq ijodni yaqindan o'rganishi lozim. Ertaklar-yaxshilikka yetaklar deganlariday o'quvchi ertaklar bilan tanishar ekan mard, jasur, vatanparvar, mehribon bo'lishga, topishmoqlar o'qir ekan, topog'on, bilimdon, zukko bo'lishga intiladi. Shu bilan bir qatorda sinfdan tashqari o'qish darslarini samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Ro'ziyeva, Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi – Toshkent: 2013.
2. Pedagogik mahorat A. Holiqov// Toshkent, 2019



“VOCABULARY GAMES AND ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH ”

Avulova Dilnoza Ma’ruffjonovna
An English teacher of the school №,
Kiziltepa District, Navoi Region, 91 250 52 74

Annotation : In this article several activities are created to reinforce vocabulary or give students practice in vocabulary, thinking, speaking and but underlying goal of all activities is to produce a smile and an awareness that communicating in English has a lighter side and potential for fun. it is also useful for remembering and revising learnt vocabulary.

Key words: spelling ladder, love it or hate it, alphabet race, grouping race, basketball, board draw relay

These games are based on learnt vocabulary. It is useful for all levels and interests every pupil. The vocabulary becomes an effective tool when it is placed at the disposal of the grammar. The main goals of the vocabulary activities are to remember previous words, to create a natural situation for the use of vocabulary in natural communications. Our young generations are very intelligent and energetic. If you are not active they will be bored easily during your lessons. Therefore, we should organize our lessons with fun games and activities.

One of these activities is vocabulary activities.

Activity 1. “Love it or hate it.” Students pair up and take turns picking a topic (a thing an activity, a person, an animal, a fruit, and others). Both students relate to the suggested topic.

Example:

a) A: “Vacation”

B: “Best time of the year”

b) A: “Apple”

B: “Red and fresh, it is also delicious”

Activity 2. “Spelling ladder” divide the class into two teams. Divide the blackboard in two sections. Write the same word on both halves of the board and let the students take turns writing a word beginning with the last letter of the previous word. Set a time frame. Each letter written correctly spelled words means one point.

Example:

America

Are

Elephant

Throw

Activity 3. ”Basketball” This game will be played in two variations.

Variation 1. Students take a shot at the trash can/box etc. prepare some flashcards of the taught lesson before hand. First show a flashcard to student1 (if you are teaching emotions, show the “happy ” flashcard). If s/he answers correctly then s/he can take a shot at the basket without going inside then s/he wins one point. The person who gets the most points is a winner. This can also be played in teams.

Variation 2. Place 2 lines of several flashcards. you need two players and a basket far away. To shoot the basket from far away is hard so the players need to say the card and make their way closer and closer each turn. when they fell that they can throw and hit the basket, they make their attempt. Each successful shot scores a point for their team.

Activity 4. “Board draw relay.” Make 2 teams and line up as far away from the board as possible. Call out a word to the first members of each team, and they have to run to the board, draw the picture and run back to his/her next teammate. The process is repeated for each student and the team that finishes first is the winner.

Variation: teacher whispers the word. the student can only run back to his/her team when his teammates guess what the picture is.

Activity 5. “Alphabet race” Divide the blackboard into two sections and do the same with the students. Write the alphabet on both halves of the blackboard. Tell the kids to take turns going to the board to write a word starting with the next latter. (you can have different categories: nouns, verbs, adjectives, music instruments, sports etc.) who is done first?

**Example:**

A apple, ant, Anne... A aunt, add, afraid

B ball, big, balloon B book, bear, banana

Activity 6. "Grouping race." Put some cards with words written on them (back up) on the desk. Divide students into groups of two or three. Divide the blackboard into two or three sections; each section has four headlines:

<u>Nouns</u>	<u>Verbs</u>	<u>Adjectives</u>	<u>Adverbs</u>
Cat	walk	pretty	fast
Book	take	big	slow
Cake	go	tall	quickly

Teacher should limit the time. Which group writes the most and correct spelling words is the winner.

Activity 7. "Label it." This works well with newcomers of all ages who need an introduction to basic vocabulary. As long as the learners are able to identify beginning letter sounds, they should be able to do this activity. To familiarize my students with names of objects found in the classroom, I label everything with an index card that has the item's name on it. Then I have them repeat what I read as they point to the item. The next day, I remove the cards and go through them one at a time and we place them on the correct item together. The third day, I let them label whatever they can on their own. I continue this for few days. When they are able independently label most of the items, I surprise them by having them labeled incorrectly. Then they have to straighten out the mess. You can adapt this to any noun-based vocabulary list (e.g.. types of foods, body parts, parts of a room in a house, animals, etc.)

Activity 8. "Window game" You can only do this activity if your classroom has a window that you can stand outside of and look into the classroom (don't try this on the 10th floor). Model first: stand the students in front of the window and go out of the room. Wave to them through the window and silently mouth some words (so it seems like they can't hear you through the glass). Look at a flashcard and then mouth the word a few times. Go back in and the student who first tells you the word you were saying can have a turn.

Activity 9. "Badminton" Good for reviewing target vocabulary (words or communicative expressions). Set a "court" in the classroom by placing a skip- rope tied up to two chairs. Make two small teams (the other students can be the crowd and or challengers).give each student a flyswatter ("Racket"). Inflate a balloon (this will be the ball). Remember : the younger students, the bigger the balloon must be (slower). Decide who serves and for every winning shot the team to call out the flashcard or picture card shown by the teacher to get a point. Lots of fun!

Note: For every active be careful since they might hit the others' faces when playing.

Activity 10. "Bean bag toss." Lay out flashcards face up the floor. Students toss a bean bag onto a card and identify the flashcard it lands on. If they say the card correctly they keep the card but if they choose incorrect card, it remains on the floor. When all the cards have gone count who has the most cards to see who the winner is.




ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИДА STEM ТА'ЛИМИ

*Namangan shahar 48 maktab
texnologiya fani o'qituvchisi
Baltabayeva E'zozxon Xashimovna,
tel: 934068746*

Annatatsiya: STEM ta'limiy yondashuvi o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: STEM, STEAM, ta'lim fan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning II bo'lim, 11-bandida – umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarish uchun, avvalo, ta'lim ishtirokchilari – pedagoglar, metodistlar, o'quvchilar, ota-onalar va boshqalar STEM ta'limi yo'nalishida o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar haqida ma'lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llash uchun malakalarga ega bo'lishlari zarur bo'ladi. Hozirgi vaqtda texnologik inqilob mavjud. Yuqori texnologiyali mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Zamonaviy maktablarda robot dizayni, modellashtirish va dizayn loyihalashtirish ishlari yetakchi o'rinni egallamoqda. Mamlakatimizning raqobatbardosh-ligini oshirish uchun ko'proq texnik ta'lim talab etilayotganligi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bugungi kunda STEM ta'limi jamiyat va davlatning rivojiga katta hissa qo'shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini bermoqda. Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimi, an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, amaliyotda o'rganilayotgan ilmiy-nazariy va metodik uslubni kundalik hayotda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatishga imkon beradigan aralash muhit hisoblanadi. Matematika va fizika bilan bir qatorda o'quvchilar robototexnika va dasturlashni o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilar aniq va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini amaliyotdagi natijasini shaxsan ko'rib turadilar. STEM ta'limining muhimligi shundaki, haqiqiy fan sohasida ta'lim sifatining pastligi, moddiy-texnika bazani yetarli darajada emasligi, o'qituvchilar va o'quvchilarning sust motivatsiyasi – bularning barchasi ta'lim tizimining eng katta muammosidir. SHu bilan birga, bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan davlatimiz yuqori texnologiyalar sohasidagi fanlarning turli xil ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi. SHu munosabat bilan, bugungi kunda STEM ta'limi birinchi o'rinda turadi. Bu esa kelajakda texnologik jarayonni rivojlantirish va mamlakatimizda ilmiy va muhandislik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplanishiga yordam beradi.



STEM atamasi ilk bor AQSHda maktab dasturiga kiritilgan bo'lib, o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlaridagi kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu yo'nalish kengaytirilib, atamaga qo'shimcha harflar kiritildi. Jumladan, unga "R" – robotics – robototexnikani qo'shib, STREAM deb "A" - art - san'atni qo'shib, STEAM deb atala boshlandi.



Bugungi davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifani qo'yimoqda. Bu esa o'quvchilarni jamiyatda yashashga tayyorlay olishi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o'zgarayotgan axborot bilan ishlaydigan kasblar bilan bog'liq xususiyatlarni o'quvchida shakllantirish lozim. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEM ta'limi dasturining asosini tashkil qiladi. STEM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilash va ijodiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda turli konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi. STEM ta'limi o'quvchining rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog'laydi. Ma'lumki, texnologiya fani kundalik hayotimizda doimiy qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda o'z aksini topgan biror bir kasb, kundalik mashg'ulotlarimiz ozmi-ko'pmi matematik hisobkitoblar bilan bog'langandir. STEM ta'limiy yondashuvi o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o'quvchida qiziquvchanlikni rivojlantiradi. O'zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, uning yechimini topishning algoritmini ishlab chiqishni, natijalarini tanqidiy baholashni, fikrlashni muhandislik stilini shakllantirishga olib keladi. Jamoaviy faoliyat olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bularning barchasi o'quvchi rivojlanishining yuqori bosqichga ko'tarilishini va kelajakda to'g'ri kasb tanlashga zamin yaratadi. SHunga ko'ra dunyoning ko'pgina mamlakatlarida STEM ta'limiy yondashuvga katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, Yevropaning 10 dan ortiq mamlakatlari (Avstriya, Germaniya, Frantsiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, Angliya, Irlandiya, Ispaniya va boshqalar) milliy strategiya va tashabbuslarida bu hisobga olingan.

STEM ta'limni amalga oshirish uchun davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritish lozim. Masalan, bunda AQSH tajribasidan ijodiy ravishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-sonli Qarori. – T.: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.
2. Tohirov O'.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017.-72 b.



О‘QUVCHILARDA LINGVISTIK TAHLIL KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH - NUTQ MADANIYATINI EGALLASHNING BOSH OMILI

Barotova Dilbar Naimovna
Vobkent tumani 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning lingvistik tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish orqali nutq madaniyatini tarbiyalash usullari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Mustaqil matn yaratish, lingvistik o‘yinlar, ijodiy-tahliliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, *sharhlash, izohlash, tasniflash* kabi mustaqil ish usullari

O‘quvchilarda mustaqil matn yaratish malakasini yuksaltirish, nutqiy mahoratni takomillashtirish bir qator lingvistik o‘yinlar, ijodiy-tahliliy ishlar, muammoli vaziyatlar, psixolingvistik topshiriqlar vositasida amalga oshiriladi.

O‘quvchi bilimini aniqlashda lisoniy hodisalarni qiyoslash va farqlash, o‘z fikrini dalillash, izchil, uzluksiz fikrlash, ixcham fikr ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvopsixologik topshiriqlar notiqlik san’ati, badiiy matnlar yaratish malakalarini shakllantirishda o‘ta foydali. O‘quvchi nutqini ravonlashtirish, matnda so‘zni tanib va tanlab ishlatishga o‘rgatishda maqol va hikmatli so‘zlar, topishmoqlar aytish, ular ma’nosini og‘zaki sharhlash kabi mustaqil ishlardan samarali foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Ektranda berilgan topishmoqqa muqobil(o‘xshash), ma’nodosh topishmoqlar qatorini tuzib, daftaringizga (monitorga) yozing. *“Yer tagida ho‘l gavron”*.

a) *“Yer tagida ho‘l gavron”* b) *“Yer tagida yog‘li qayish”* v) *“Yer tagida moyli qamchi”* g) *“Yer tagida oq arqon”*, d) *“Yer tagida yog‘li qazi”*...

2. Muqobil topishmoqlarning o‘xshash tomonlarini aniqlang.

3. Muqobil topishmoqlarning o‘zaro farqlarini ko‘rsating.

4. Topishmoqdagi o‘xshatma - atamaga, sheva so‘zlar shakli, kelib chiqishi, etimologiyasiga qarab, maqollarning taxminan qaysi viloyatlarda ko‘proq ishlatilishini ayting. Fikringizni dalillar asosida isbotlang.

Bajarish namunasi:

1. Berilgan barcha topishmoqlardagi asosiy o‘xshashlik *“yer tagida”* birikmasining takrorlanishidir. Ajdodlarimiz ilonning asosan yer tagida yashashiga ishora qilish bilan bir qatorda, uni turli narsalarga o‘xshatish orqali topishmoq yechimini murakkablashtirishga, bolani o‘ylashga, qiyoslash va tanlashga yo‘naltirmoqdalar. Qiyoslang: *Yer tagida ho‘l gavron, Yer tagida yog‘li qayish*. Ilonni gavronga o‘xshatish, qayishga o‘xshatishdan ko‘ra aniqroq, chunki gavron (kesilib, salqinda so‘ltilgan tol shoxi, chiviq) ning bosh qismi yo‘g‘on, uchi esa ilonning dumidek ingichkalashib boradi. Ilonning muzdek tanasi esa *“ho‘l gavron”*ga o‘xshaydi. Ammo ilonni qayishga o‘xshatishning mukammalligi shundaki, u ilon tanasining silliqligi, o‘ta pishiq va mustaxkamligiga, uzilmasligi va sinmasligiga ishora qilmoqda.

Shuningdek, ilonning *qamchiga* o‘xshatilishi bilan arqonga o‘xshatilishining o‘rtasida anchagina farq bo‘lib, bu narsa topishmoqning ko‘proq yerli xalqning kasb-kori, yashash joyi, mehnat faoliyati (chorvachilik, dehqonchilik, kosiblik) ga qarab yaratilgani, o‘xshatilgani, tanlanganining guvohi bo‘lamiz. Masalan, ot boqib, uloq chopadigan chorvadorlar ilonning chayirli, yaltiroq va sirg‘aluvchanligini qamchiga, hayvonlarni uyda ko‘paytiradigan o‘troq aholi, kosiblar esa uni naqshinkor arqonga o‘xshatishlari ma’lum. Muqobil topishmoqlar ichida, *“Yer tagida yog‘li qazi”* o‘zining haqiqatga yaqinligi, ishoraning mukammalligi bilan alohida ajralib turadi: ilonning go‘шти yog‘li bo‘lishi, ularning xalq tabobatida (ba’zi mamlakatlarda ilon go‘шти to‘yimli, parhez taom hisoblanadi) ishlatilishi va, albatta, yer tagida yashashiga ishora qilinganligi topishmoqning qiziqarli, kichik muammoga aylanishini ta’minlashga xizmat qilgan.

Quyida o‘quvchi nutqini *sharhlash, izohlash, tasniflash* kabi mustaqil ish usullari bilan boyitishga xizmat qiluvchi, xalq og‘zaki ijodi zahiralari, nazmiy matnlardan namunalar berildi:

1. Qo‘yni oshpaz so‘ymasin, qassob kapgir tutmasin. (Izoh: Har kim o‘z ishini qilsin.). 2. Nonvoyga non aziz, tegirmonchiga un. (Izoh: O‘z mehnatining mahsuli ko‘proq qadrlanadi...). 3. Shodligimda shunda bo‘l, shodlanganing ko‘rayin. Qayg‘umda qoshimda bo‘l, qayg‘uraning bilayin (Izoh: Haqiqiy do‘st har qanday holatda ham doimo yoningda bo‘ladi). 4. Husn - zohiriy



go‘zallik bo‘lsa, yetuk va ravon nutq botiniy go‘zallikdir (...). 5. Go‘zal nutq sohibi bo‘lmoqlik, birni yuz turda anglamog‘-u yuzni birga jamlay olmoqlikdir (...)

Mustaqil ish. Berilgan nazmiy matnni nasriy matnga aylantirib ko‘ring, mazmunini sharhlang. Badiiy matnni grammatik tahlil qiling.

Garchi, azim daraxt ersa til, matn unda yaralgan hosil,

Tasavvurning tavalludi til, matn - izhori tafakkur, bilgil,

Hodisa deb qaralsa, lison, matn turur xulosa, inon,

Til sabab deb olinsa, albat, matn turur najot, oqibat.

Til - tafakkur, matn - ta‘limot, til boylikdir, matn - taqdimot,

Til onadir, matn - zurriyot, til tilsimdir, matn - kashfiyot!

Matn taxlili: Agar biz tilni ulkan bir daraxtga qiyoslasak, matn ushbu daraxtning mevasi, pishib yetilgan hosili. Ikkinchi misrada tilning inson ma‘naviyati, madaniyati, ichki dunyosining yuz ochishi, tug‘ilishi, yorug‘ dunyoni ko‘rishiga sababkorligi, matn esa ma‘rifiy bilim, tafakkur, idrok va xotira qudrati, nutqiy mahoratni ko‘z- ko‘z qiluvchi xilqat ekanligi ta‘riflangan. Lison biz uchun ilohiy hodisa bo‘lsa, matn ana shu hodisaning insoniy yechimi, xulosasi, natijasi demak. Unda tilning afsonaviy tilsimga o‘xshatilishi, matnning haqiqiy kashfiyot darajasiga ko‘tarilishiga izn beradi, misrada so‘zning ifoda qiymati ko‘rinadi, yashirin, ko‘z ilg‘amas ma‘nolari ko‘z ochadi, turfa rangda tovlanadi, darajalanadi, yuksaladi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O‘zbek xalq topishmoqlari" Toshkent-2002

2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta‘lim tarbiyada innovasion pedagogik texnologiyalar. Toshkent -2017



INTEGRATION OF MODERN PEDAGOGICAL METHODS IN LESSONS OF A FOREIGN LANGUAGE IN A MODERN SCHOOL

*Barotova Malika Komilovna,
An English Teacher of the secondary
school # 6 in Navai, Navbahar;*

Abstract: Since the advent of intensive methods of studying foreign languages and potential and feasibility are still being discussed their use in regular school. Intensive methods take up a specific place at each stage of teaching foreign languages in secondary school: at the initial, secondary, senior stages.

Keywords: integration, teamwork, simulations of intensive methods

Accelerated methods allow you to take a fresh look at methods of teaching foreign languages at school, intensify processes of perception and mastering the basics of communication and increase teamwork performance. It is important to say that the use of intensive methods in the medium Schooling can be challenging for several reasons. To such Reasons include, for example, technical problems associated with the complexity of the equipment of a special room for classes, as well as lack of a specially trained specialist.

Classroom this focus should be equipped with appropriate lighting, soft chairs in a semicircle, two tape recorders, projector, etc. For a comprehensive school it would be very difficult technical equipment of this type of room.

Consequently, regarding secondary school, it's more correct to talk about integration into the process of teaching foreign languages elements intensive techniques. Based on the theoretical foundations and analysis of school books "Spotlight", as well as manuals for this tutorial, you can highlight the following types of exercises:

Exercise 1: "Imitation."

The purpose of imitation is the involuntary memorization of speech models text. Maximum results are achieved by acting on the principle of "From simple to complex", i.e. first of all, memorization of words follows studied topic, and then, the transition from a learned word to combinations of words and suggestions. Before starting work, the settings are voiced in Russian and in foreign languages: Look at me! Listen to me! Repeat with facial expressions and intonation, like mine! Then the words are pronounced by the teacher (speaker) in a foreign language and in Russian several times (depending on complexity), and students chorus repeat. They need to repeat the facial expressions and intonation of the teacher or announcer (or maybe surpass it).

The emotional state can be expressed in many ways: pronouncing lexical units with surprise, sadness, indignation, smiles, joy, pride. Some words can be pronounced. chant. A variety of spectra is used to avoid monotony. paralinguistic means: intonation, facial expressions, rhyme, rhythm, gestures.

An example is the exercise to learn new vocabulary in Spotlight textbooks, where all the above techniques apply (exercise 1, page 40; exercise 2, page 46; exercise 1, page 73 and others [5, pp. 40-73]).

Exercise 2: Rhyming.

The purpose of using rhymes is the involuntary memorization of speech text patterns. The peculiarity of pronouncing a poetic text with By "chasing out" each word and at a set fast pace leads to direct unconscious memorization of information.

Intensive training has long been formed in practice and is perceived by most educators as a kind of system training, which differs in a number of parameters from teaching methods foreign languages currently used. As part of this training, new principles of selection and organization of speech and language material, a new dynamic model of training and management of communicative and educational activities students. The practical use of a set of exercises that contains elements of an intensive technique, reveals an increase in efficiency learning, which is due to the activation of the subconscious sphere along with conscious, in addition, there is an increased level of memorization vocabulary and increased motivation to learn a foreign language. Variety of types of exercises, audiovisual opportunities provide increased emotional mood, productive desires work and create



a friendly atmosphere throughout the lesson. Motor and speech involvement of all participants in educational process makes the lesson more lively, helps to remove tension in the educational process and emotional discharge.

References:

1. Elukhina, N.V. On incorporating elements of intensive learning into teaching a foreign language in high school
2. N.V. Elukhina //Foreign languages at school: a scientific and methodological journal. - No. 6. - 1990. -S. 6 - 12.
3. Kitaygorodskaya, G.A. Intensive Methodological Basics teaching foreign languages [Monograph] / G.A. Kitaygorodskaya
4. R.S. Nemov, T.N. Smirnova. - M.: Publishing house of Moscow University, 1986. - 175 p.
5. Kitaygorodskaya, G.A. Intensive Learning Technique foreign languages [Text] / G.A. Kitaygorodskaya. - M, 1986. - 302с.
6. Kozlov, VV. The fundamental core of the content of the general Education [Text] / Ed. V.V. Kozlova, A.M. Kondakova. 3rd ed. - M.: Education, 2011.-- 79 p.
7. Komkov, I.F. Methods of teaching foreign languages [Textbook for the institutes of foreign languages] / I. F. Komkov. - Mn., 1979. - 352 s



MEDIYA TA'LIM-DARS SAMARADORLIGINI OSHIRADI

*Berdiyeva Nilufar To'xtayevna
Toshkent shaxar Sergeli tuman
317-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang'ich sinflarda AKT dan foydalanishning samarali usullari, afzalliklari va zararli tomonlari yozilgan

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, AKT, dars, kompyuter

Bugungi kun bolasi uchun an'anaviy kompyuter, noutbuk yoki cho'ntak kompyuterlari (planshet), murakkab xotira tizimiga ega telefonlarni tushunish yoki boshqarish muammosi mutlaqo mavjud emas. Demak, bu vaziyat boshlang'ich sinf o'qituvchisiga darslarda aborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishda qiyinchilik tug'ilishining oldini oladi.

Media mahsulotlar yordamida dars qiziqarli va maroqli o'tadi. "Media ta'lim" tushunchasini hayotimizga kirib kelishi tajribali o'qituvchilarga yangilikni amalda qo'llash orqali darsni samarali tashkil etish imkonini berdi. Ayniqsa, qiziquvchan, rang-baranglikni xush ko'ruvchi boshlang'ich sinf o'quvchilariga mavzularni tushuntirayotganda media manbalarga murojaat etish ularning diqqatini o'rganilayotgan mavzuga qaratadi. Bolaning ko'rish, eshitish, tasavvur imkoniyatlarini bir vaqtning o'zida faol ishlatishi esa bilim samaradorligini oshiradi.

O'qituvchi uchun foydasi:

Malaka oshirish kursida bilimlari boyigan o'qituvchilar AKT vositasida darsga tayyorgarlik jarayonidagi mashaqqatlarni osonlikcha yengadi. Ko'rgazmali qurol yetishmasligi muammosidan aziyat chekmaydi. Darslikdan tashqari ma'lumotlarni tez topadiva o'quvchilarga havola yetadi. Qo'shimcha topshiriqlarga o'quvchilarni jalb etish imkoniga ega bo'ladi.

O'quvchi uchun foydasi:

Ta'lim materialini muntazam kuzatadi. Bu orqali tasavvurlari jonlanib, tushunchalari mustahkamlanadi. Testlar, nazorat, mustaqil ishlar savollariga javoblarni tezkor topshirish, ma'suliyat va vaqt oralig'idagi mo'ljalni ololadi. O'z uylaridagi kompyuterdan faqat o'yin maqsadida emas, darslarni tayyorlash, mavzuga doir qiziqarli ma'lumotlarni izlab topish maqsadida foydalanish mumkin degan to'g'ri qarash shakllanadi. Elektron kitobxonlik darajasi oshadi.

O'quvchilarni telefon va kompyuterga tobe bo'lib qolishdan asrash uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari sinfni ikki guruhga bo'lib "Oqlovchi", "Qoralovchi" ga ajratib munozara tashkil etadi. Bunga tajriba asosida 10 yaqin quyovlar qamalgan qafasga yuali telefon solib qo'yilgan. Navbati bilan ushbu apparatlarga qo'ng'iroq qilinavergach, 4 ta quyov, ko'maga tushib o'lim xolatigacha bordi. Bunday tasvirlarni ko'rgan bolalar telefon va kompyuter o'yinlari ta'sirida insonning xotirasi, immuniteti, suyaklar rivojlanishini bilib olishdi. 2 guruhga alohida markerli do'ska berilib, o'quvchilar foydali va zararli jihatlarini yozib chiqishadi.

Foydali jihatlar:

Matn terish, chet tillarni o'rganish, shaxmat- shashka kabi o'yinlarni o'ynab, zukkolikni oshirish, kerakli ma'lumotlarni internetdan izlab topib, bilimlarni boyitish mumkin.

Zararli tomonlari:

Kompyuter va telefonda soatlab o'yin o'ynash oqibatida ko'z va bosh miya zo'riqadi. Ruhiy jihatdan asabiylashish, jizzakilik, jonli nutqning yo'qolib borishi, doimiy tushkunlik kuzatiladi. Bilim olishga qiziqish susayib, eng qimmatli vaqtni virtual o'yinlarga sarflaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, keltirilgan ma'lumotlar ko'rgazmali tarzda o'quvchilarga havola etilsa, ular fikrlaydi, xulosa qiladi va aqli texnikalardan foydalanish jarayonida me'yorni saqlash qoidasiga ama qilishga urinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim jurnali 2016-yil 5-son
2. <http://www.bt-jurnal.uz>



BOSHLANG'ICH SINFLARGA KONSTITUTSIYA SABOQLARINI O'RGATISH- HUQUQIY MADANIYATNI OSHIRISHNING ENG YAXSHI USULI

Boltaboyeva Saida Anvarovna
Namangan viloyati Norin tumani
16- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998944118240
s.haydarova2903@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rgatish muhimligi va konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo'lib, konstitutsiyaviy tuzum, davlat va jamiyat qurilishi asoslari, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Millat, o'zbek, xalq, fuqarolik, burch, majburiyat, tarixiy, qomus, konstitutsiya, "Temur tuzuklari", ma'naviy-madaniy me'ros.

Boshlang'ich sinflarda O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga nisbatan hurmatni oshirish va undan to'g'ri foydalanishni o'rgata borish davr talabidir, chunki hech qaysi davlat o'z qonunlar majmuiga bepisand munosabatda bo'lmaydi. Konstitutsiyamiz xalqimizning asriy an'analari va urf-odatlariga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, yurtdoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat, insonparvarlik, halollik, mardlik va sabr-bardosh, adolat hamda bilim, ma'rifatga intilish hissini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo'lib, konstitutsiyaviy tuzum, davlat va jamiyat qurilishi asoslari, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda davlat ramzlarini belgilab beradi. Konstitutsiya xalq farovonligi va yurt tinchligining asosi hisoblanadi. Konstitutsiya hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, moddiy va ma'naviy borlig'imizdir. Uni o'rganish, ma'no-mazmunini yoshlarimizga yetkazish zimmamizdagi ustuvor vazifa sanaladi. Davlatimiz rahbari "Konstitutsiya hamda qonun talablariga og'ishmay amal qilish ma'naviy saviyamiz, madaniyatimizning asosiy mezoniga aylanishi shart", deb bejiz aytmaganlar. Rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ular o'z konstitutsiyalarini qadrlab, unga hurmat ko'rsatishganini ko'ramiz. "Konstitutsiya – mamlakatning bosh qomusi" deb e'tirof etilishining boisi ham shunda. Chindan ham, asosiy qomusimizni yaratish zarurati muhim siyosiy jarayonda yuzaga kelib, mustaqillik, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar, inson huquqlariga yangicha yondashuv, davlat hokimiyati tizimini yaratishga katta hissa qo'shdi.

O'zbekistonimizning Konstitutsiyasida yurtdoshlarimizning kelajak avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish, ularning baxtu kamolini ko'rishdek orzu-havaslarini o'z ifodasini topganligi bilan birga, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, unda jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i – Inson degan fikr ilgari surilgan va shu asosda fuqaro – jamiyat – davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimi belgilab berilgan. Asosiy qonunimizda davlatimizning, jamiyatimizning va har bir fuqaroning huquq va burchlari bir-biriga uyg'unlashtirilgan va muvofiqlashtirilgan. Shuning uchun ham Konstitutsiyamiz boshlang'ich sinflarda soddaroq tilda va turli o'yinlar bilan o'rgatilsa, ular kelajakda huquqiy madaniyati yuqori fuqarolar bo'lib yetishishadi. Chunki, yoshlikda o'rganilgan bilim toshga o'yilgan naqshga qiyoslanadi. Asosiy qonunimizda demokratik huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyatining qiyofasi, o'ziga xos belgi va xususiyatlari shakli va shamoyillari o'z ifodasini topgan.

Ulug' ajdodlarimizning asriy armonlari, erkin hayot, farovon jamiyat va adolatli davlat barpo etishdek eng ezgu tilaklari va ulug' orzularini o'zida mujassam etgan davlatimiz Konstitutsiyasi barcha qabul qilinadigan qonunlar va me'yoriy hujjatlar uchun mustahkam asos va dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamizda shaxs, uning huquq va erkinliklari davlatdan ustunligi e'tirof etilgan, shuningdek, unda inson qadri, shaxs erkinligi va hayotini ta'minlovchi tabiiy imkoniyatlarni yuzaga chiqishiga alohida ahamiyat berilgan.

Konstitutsiyamizda shaxsning yoshi, millati, irqi, ijtimoiy ahvoli bilan bog'liq hech qanday cheklashlar yo'q. Masalan, boshqa mamlakatlarning fuqarolikka ega bo'lish to'g'risidagi qonunchiligida kuzatishimiz mumkin bo'lgan til bilish va o'troqlik masalasida ham cheklashlar yo'q bo'lib, teng fuqarolik huquqi mustahkamlab qo'yilgan.



Zero, o‘z oilasidagi tartib-qoidalarga amal qiladigan, uni hurmat qiladigan farzand boshqalarning ham mana shunday talab-tartiblari borligini anglaydi, ularni hurmat qila biladi. Shu ma’noda Konstitutsiyamiz barchamiz uchun asosiy mezon bo‘lishi, uning qoidalari hayotimizning asosiy qoidalari va maqsadlariga aylanishi darkor. Konstitutsiya – tarixiy ahamiyati beqiyos bo‘lgan hujjatdir, chunki uni tuzish jarayonida Amir Temurning “Temur tuzuklari” va ko‘plab tarixiy asarlarga asoslanib yaratilgan. Uni shu vaqtga qadar davlatchiligimiz tarixidagi boshqa hujjatlarning birortasi bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Zero, unda tarixiylik zamonaviylik bilan uyg‘unlashib, jahonning ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va huquqiy tafakkuri sohasida erishilgan barcha yutuqlar mujassamlashgan. Shuning uchun asosiy qomusimizga hurmatni yuksaltirgan holda kelajak avlodimizni va bolajonlarimizni uni mukammal o‘rganishiga ko‘maklashaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Konstitutsiyaning 28 yilligidagi nutqlaridan
2. Karimov I.A.”Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”



О‘QISH DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLAR

Boltayeva Roza Ikramovna
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
1-son maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qish darslarida mustaqil ishlarning ahamiyati haqida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish darsi, mustaqil ish, ichda o‘qish, savol-javob, topshiriq bajarish, reja tuzish.

Mustaqil ish mashqning faol turi bo‘lib, uni bajarish jarayonida o‘quvchilar fikrlashga va mustaqil faoliyat yuritishga o‘rganadilar. Bir vaqtning o‘zida ikki yoki uch sinf bilan ishlanadigan oz komplektli maktablarda mustaqil ish, ayniqsa, juda zarur hamda katta ahamiyatga ega.

O‘qish darslarida mustaqil ishni bajarishga bolalar taxminiy tayyorlanadi albatta. O‘quvchilarni mustaqil ishga tayyorlashda topshiriqning maqsadi ularga qisqa va aniq tushuntiriladi. Mustaqil ish uchun tanlangan matnning hajmi kichik va o‘quvchilar saviyasiga mos bo‘lishi zarur. Mustaqil ish turlari har xil bo‘lib, uni tanlashda o‘quvchilarning tayyorgarligi, o‘qiladigan matnning xarakteri, asarni o‘rganish bosqichi hisobga olinadi. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida mustaqil ishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Asarni ichda o‘qish. 1-sinfda bu mashqni topshirishdan oldin ayrim so‘zlarni kesma harflar bilan tuzdirish va uni o‘qishni mashq qildirish maqsadga muvofiq. O‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab ichda o‘qib, ayrim qatnashuvchi shaxslarning gaplarini topish, uni o‘qish va o‘z so‘zi bilan gapirib berish, matndan o‘qituvchi bergan savolga javob bo‘ladigan o‘rinni topish kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

2. O‘qilgan matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish. Bu mashq bolalarni diqqar-e’tibor bilan o‘qishga o‘rgatadi; bu ish turidan oz komplektli maktablarda foydalanish dars tartibini belgilashga ham yordam beradi. Mashqning bu turi asta murakkablashtirila boriladi: avval o‘quvchilar matnga oid savollarga javob berish bilan uning mazmunini o‘zlashtirsalar, keyin asarning asosiy g‘oyasini bilib oladilar, voqea-hodisalar orasidagi sabab-natija bog‘lanishlarini tushunadilar. Bunda “Nega?”, “Nima uchun?” kabi savollardan foydalaniladi. Masalan, 4-sinf “O‘qish kitobi” dagi “Davlat” ertagi matni ustida ishlaganda “Ertakda Davlat dehqonning uyida umrbod qolishga jazm qilibdi. Nima uchun?” savoli beriladi. 2-sinf dan boshlab bolalar nima uchun hikoya, she’r shunday nomlanganini aytib berishga o‘rganadilar.

3. O‘qilgan asar mazmunini to‘liq anglash, bilib olish uchun o‘qituvchi topshirig‘ini bajarish. Topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- o‘qing va omonatga xiyonatning jazosi qandayligini aytib bering. (“Omonatga xiyonat”, 4-sinf)

- o‘qing va nima uchun hunarsiz kishi o‘limga yaqinligini tushuntirib bering. (Hunarsiz kishi o‘limga yaqin”, 4-sinf)

Ba’zan topshiriqlar turli xildagi qayta hikoyalashni talab qiladi.

4. O‘qilgan matn rejasini tuzishga tayyorlanish va reja tuzish. Bunda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

- 1) O‘qilgan matnga oid rasm chizish;
- 2) Rasmga matndagi so‘zlar yoki o‘z so‘zi bilan sarlavha qo‘yish;
- 3) O‘qituvchi tomonidan tartibsiz berilgan savollardan foydalanib reja tuzish;
- 4) Matnni qismlarga bo‘lish va har bir qismga sarlavha qo‘yish va hokazo.

Mustaqil ishning qanday bajarilganini hisobga olish o‘quvchilarning tayyorlik darajasini aniqlash va keying bosqichlarda mustaqil mashqni to‘g‘ri tashkil qilish uchun material tanlashda o‘qituvchiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Qosimova, X.G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva Ona tili o‘qitish metodikasi.
2. T.G‘afforova, G.Eshturdiyeva 1-sinf savod o‘rgatish darslari.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA OG'ZAKI HISOBLASHNI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI

Djumaniyazova Dinara Kalandarovna
Urganch shaxar 28-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (93) 747 01 40
d.djumaniyazova0140@inbox.uz
Nurmetova Salomatjon Saparbayevna
Yangibozor tumani 14-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (97) 510 75 51
nurmetova_ss@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda og'zaki hisoblashni rivojlantirish texnologiyasi haqida.

Kalit so'zlar: Og'zaki hisoblash, yig'indi, ko'paytma, bo'linma, arifmetik amallar, distrebutivlik qonuni.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar og'zaki hisoblash bilimini shakllantirish hozirgi zamon o'qitish metodikasida yangi texnologiyani joriy etishni asosiy masala qilib qo'ymoqda. Lotin yozuviga asoslangan matematika darsliklarimizda ayniqsa, yuz ichida, ming ichida arifmetik amallar bajarish jarayoni o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradigan, ijodiy qobiliyatini aniqlaydigan holatdir. Yig'indidan, ko'paytmaga o'tish qoidasi, ko'paytma, bo'linma tushunchalari, ularning komponentlari orasidagi munosabatlarni mukammal o'zlashtirishni talab etadiki, bu yuqori sinf matematika fanidan oladigan bilimni mustahkamlash asosi bo'lsin. Boshlang'ich sinflarda eng qulay usul bilan hisoblash masalasi arifmetik amallar bajarishning asosiy tayanchi hisoblanadi. O'qituvchi darslikdagi materiallar bilan cheklanib qolmasdan balki ijodiy fikrlaydigan materiallar bilan darsni boyitish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 10, 100, 1000 ichida ko'paytirishni turli ko'rinishlaridan foydalanish o'quvchilarni qiziqishini oshiradi.

$$68 \cdot 5 = (34 \cdot 2) \cdot 5 = 34 \cdot (2 \cdot 5) = 34 \cdot 10 = 340$$

$$68 \cdot 50 = 34 \cdot 100 = 3400$$

Qo'shishning distrebutivlik qonuniga ko'ra:

$$17 \cdot 50 = (16+1) \cdot 50 = 16 \cdot 50 + 1 \cdot 50 = 800 + 50 = 850$$

Sonlarni bo'lish texnikasiga ko'ra:

$$135 : 5 = (135 : 2) : (2 \cdot 5) = 270 : 10 = 27$$

$$2250 : 50 = 4500 : 100 = 45$$

O'quvchilar diqqatini og'zaki va yozma ko'paytirishga jalb etish zarurki, bunda o'quvchilar qiziqishi ortib borsin.

$$24 \cdot 25 = (6 \cdot 4) \cdot 25 = 6 \cdot (4 \cdot 25) = 6 \cdot 100 = 600$$

Bunda imkon boricha qisqa holat tanlashga intilish zarur:

$$24 \cdot 25 = (24 : 4) \cdot (25 \cdot 4) = 6 \cdot 100 = 600$$

Ko'paytirishning qavslardan foydalanish holatlari juda ham qiziqarlidir:

$$37 \cdot 25 = (36+1) \cdot 25 = 36 \cdot 25 + 25 = 900 + 25 = 925$$

$$35 \cdot 25 = (36-1) \cdot 25 = 36 \cdot 25 - 25 = 900 - 25 = 875$$

$$38 \cdot 25 = (36+2) \cdot 25 = 36 \cdot 25 + 2 \cdot 25 = 900 + 50 = 950$$

25 ga ko'paytirishning og'zaki usulini 24 va 26 ga ko'paytirishni (25-1) va (25+1) ifoda bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir.

(Bu chorak, bo'lak, ulushlar tushunchasini o'tganda zarur bo'ladi.)

$$\text{Masalan: } 36 \cdot 26 = 36 \cdot (25+1) = 36 \cdot 25 + 25 + 36 \cdot 1 = 900 + 36 = 936$$

$$36 \cdot 24 = 36 \cdot (25-1) = 36 \cdot 25 - 36 \cdot 1 = 900 - 36 = 864$$

25 ga bo'lish esa, 5 ga bo'lish qoidasidek bajariladi. Yuqoridagi hisoblashlarga teskari hisoblashlarni bajarish bilan mustahkamlaymiz.

Bo'luvchini 2 ga, 4 ga ikki martalab ko'paytirish bo'lgan hollar uchun xonalarni nollar bilan to'ldirish qoidalariga asoslanadi:

$$225 : 25 = (225 : 2) : (25 : 2) \text{ yoki } (225 \cdot 4) : (25 \cdot 4) = 900 : 100 = 9$$

Agar 9,99 va 999 ga ko'paytirish kerak bo'lsa, u holda eng qulay usulda hisoblash qoidasiga ko'ra (10-1), (100-1), (1000-1) ko'rinishlarda distrebutivlik qonuniga ko'ra:



$$678 \cdot 9 = 678(10-1) = 6780 - 678 = 6102$$

$$577 \cdot 99 = 577(100-1) = 57700 - 577 = 57123$$

$$34 \cdot 999 = 34(1000-1) = 34000 - 34 = 33966$$

3 sinfda (14·15) ko‘paytirish qoidasi

$$14 \cdot 15 = 14(10+5) = 140 \cdot 14 \cdot 5 = 140 + 70 = 210$$

Buni darhol hisoblashga shoshilmasdan bajarish zarur, chunki

$$14 \cdot 15 = 14 \cdot 10 + 14 \cdot 5 = (14+7) \cdot 10 = 21 \cdot 10 = 210$$

ko‘rinishda hisoblashni bajarishni unutmashlik kerak.

Agar 23·15 bo‘lsa

$$23 \cdot 15 = (22+1) \cdot 15 = 22 \cdot 15 + 1 \cdot 15 = 330 + 15 = 345$$

Shuningdek, 14 va 16 ga ko‘paytirishni (15+1) va (15-1) ifodaga almashtirish mumkin.

$$66 \cdot 14 = 66 \cdot (15-1) = 66 \cdot 15 - 66 = 990 - 66 = 924$$

$$62 \cdot 16 = 62(15+1) = 62 \cdot 15 + 62 = 930 + 62 = 992$$

$$61 \cdot 69 = 6(6+1) \cdot 100 + 1 \cdot 9 = 4200 + 9 = 4209$$

$$243 \cdot 247 = 24 \cdot 25 \cdot 100 + 3 \cdot 7 = 60000 + 21 = 60021$$

Bunday usullardagi hisoblashlarni bajarish o‘quvchilarni og‘zaki hisoblash texnologiyasini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. M.Jumayev. Matematika (1-sinf). Turon iqbol. 2018 yil 160 bet. O‘quv qo‘llanma
2. M.Jumayev. Matematika daftari. Turon iqbol. 2018 yil 4,5 bet.
3. M.Jumayev. Boshlang‘ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Ilm Ziè.2018 yil.
4. Jumayev M., Yuldasheva M, Mingbayeva B., Mamatova G. Boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitish metodikasi moduli bo‘yicha O‘QUV-USLUBIY MAJMUA – T.: – Nizmiy nomli TDPU huzuridagi XTXQTMOHM|| 2017



TUSHUNCHALARNI UMUMLASHTIRISH METODI ASOSIDA MATEMATIK DARSLARINI O‘TISH SAMARADORLIGI

Ergasheva Mahbuba Sunnatovna
Toshkent shahar 21-sonli
maktab matematika o‘qituvchisi
Telefo: +998 90 9705018

Annotatsiya: Maktabda matematika darslari o‘tilayotganda bir necha pedagogik metodlardan foydalaniladi. Matematik tushunchalarni umumlashtirish metodi orqali o‘quvchilarga misol va masalaning tub mohiyatiga yetib borish uchun ularni umumlashtirish, ya’ni bir xil jihatlari orqali bog‘lab tushuntirish mavzuni osonroq va tezroq tushuntirishga imkon beradi. Maqolada ushbu metoddan qanday foydalanish bo‘yicha tajribamdan kelib chiqib fikrlar va maslahatlar beraman.

Kalit so‘zlar: umumlashtirish, ta’lim metodi, tushunchaning mazmuni, akslantirish tushunchasi, qaytuvchi akslantirish

Metod so‘zi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, ”yo‘l ko‘rsatish” ma’nosini bildiradi. ”Ta’lim metodi” tushunchasi zamonaviy metodika va didaktika fanlari tushunchalardan biri hisoblanadi, lekin bu tushuncha turli metodik adabiyotlarda turli mazmunda qo‘llanib kelingan. XIX asrgacha chop etilgan metodik adabiyotlarda ”metod” tushunchasi matematika kursining asosiy mazmunini bayon qiluvchi mavzuning tavsifisi sifatida ishlatiladi. Masalan, ”Sonlarni o‘rganish metodi”, ”Geometrik figuralarni o‘rganish metodi” kabi tushunchalar mavjud bo‘lgan. Hozirgi zamon didaktikasida, jumladan, matematika o‘qitish metodikasi fanida ta’lim metodining muammolari umumiy holda hal qilingan bo‘lib, u o‘zining quyidagi ikki tomoni bilan xarakterlanadi:

1. o‘qitish (o‘qituvchining faoliyati);
2. o‘rganish (o‘quvchilarning ongli bilish faoliyati).

Umumlashtirish metodi ham matematika o‘qitishdagi ilmiy izlanish metodlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Umumlashtirish usulini ahamiyatini atoqli olim A.N.Kondakov quyidagicha ta’riflaydi: ”Umumlashtirish shunday mantiqiy usulki, uning vositasi orqali birlik fikrlashlardan umumiy fikrlashlarga o‘tiladi”. Matematik tushunchalarni umumlashtirishga quyidagicha ta’rif bersak bo‘ladi: Matematik ob’ektdagi narsalarning asosiy xossalarni aks ettiruvchi tafakkur shakli matematik tushuncha deyiladi.

Har bir matematik tushuncha o‘zining ikki tomoni bilan xarakterlanadi:

- a) tushunchaning mazmuni;
- b) tushunchaning hajmi.

Ta’rif: Tushunchaning mazmuni deb, ana shu tushunchani ifodalovchi asosiy xossalarning to‘plamiga aytiladi.

Masalan, to‘rtburchak tushunchasini olaylik. To‘rtburchak tushunchasining mazmuni quyidagi asosiy xossalar to‘plamidan iborat:

- 1) to‘rtburchakning diagonali uni ikkita uchburchakka ajratadi.
- 2) ichki qarama-qarshi burchaklarning yig‘indisi 180° ga teng.
- 3) diagonallari bir nuqtada kesishadi va shu nuqtada ikkita bo‘lakka bo‘linadi.

Yana bir ta’rif: Tushunchaning hajmi deb ana shu tushunchaga kirgan barcha ob’ektlar to‘plamiga aytiladi. Masalan, to‘rtburchak tushunchasining hajmi to‘rtburchak tushunchasiga kirgan barcha to‘rtburchak turlaridan, ya’ni: parallelogramm, kvadrat, romb va trapetsiyadan iborat. Bundan ko‘rinadiki, to‘rtburchak tushunchasining hajmini tomonlari uzunliklarining miqdori turlicha bo‘lgan barcha katta va kichik to‘rtburchaklar tashkil qilar ekan. Hajm jihatidan keng, mazmun jihatidan esa tor bo‘lgan tushunchani jins tushunchasi va aksincha hajmi tor, mazmuni esa keng bo‘lgan tushunchani tur tushunchasi deb yuritiladi. Masalan, akslantirish tushunchasini olaylik. Bu tushunchadan qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalari kelib chiqadi. Bu yerda akslantirish tushunchasi qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalariga nisbatan jins tushunchasi, qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalari akslantirish tushunchasiga nisbatan tur tushunchalari bo‘ladi. Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, jins tushunchasi tur tushunchalariga nisbatan umumiy bo‘lgan tushuncha ekan. Shuning uchun ham tushunchani umumlashtirishga quyidagicha ta’rif berilgan: ”Tur tushunchalaridan jins tushunchalariga o‘tish tushunchani umumlashtirish deyiladi”. Umumlashtirish jarayonida o‘rganilayotgan tushunchalar



orasida umumiy xarakterli mosliklar oʻrnatilib, umumiy fikrlashlarga oʻtiladi. Yuqoridagi mulohazalardan koʻrinib turibdiki, umumlashtirish jarayonida umumlashtirilgan tushunchaning hajmi ortib, mazmuni torayar ekan.

Ushbu fikrga mos keladigan misol keltiramiz. Qaytuvchi akslantirish tushunchasining hajmi β boʻlsin, uning mazmuni α boʻlsin. Akslantirish tushunchasining hajmi H boʻlsin, uning mazmuni esa β boʻlsin. Tushunchani umumlashtirishga berilgan taʼrifga koʻra quyidagi munosabat oʻrinli boʻladi:

$(\beta < H) \Rightarrow (\alpha > \beta)$. Bu yerda β - qaytaruvchi akslantirishning hajmiga obyektiv akslantirish kiradi. H - akslantirishning hajmiga esa barcha akslantirishlar kiradi. Shuning uchun qaytuvchi akslantirish tushunchasi akslantirish tushunchasining qismi boʻlyapti. Boshqacha aytganda, akslantirish tushunchasi qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalarining umumlashgan holi ekan. Endi uning mazmuniga kelsak, bu yerda qaytuvchi akslantirish deganda biz faqat shu akslantirishning xossalrigina oʻrganamiz. Demak, biz oʻrganadigan tushunchaning mazmuni aniq. Endi akslantirish tushunchasini olsak, bu yerda biz oʻrganadigan tushunchaning mazmuni noaniqroq, chunki akslantirish tushunchasidan ikkita, yaʼni qaytuvchi va qaytmaydigan akslantirish tushunchalari kelib chiqadi. Bulardan koʻrinib turibdiki, qaytuvchi akslantirish tushunchasining mazmuni akslantirish tushunchasining mazmunidan katta ekan, yaʼni: $\alpha > \beta$

Xulosa oʻrnida shuni keltirish mumkinki, matematika darslarida umumlashtirish metodidan foydalanish bir necha yengilliklar keltiradi, oʻqituvchiga ham oʻquvchiga ham. Ushbu metoddan samarali foydalanish darsning asosiy pedagogik maqsadiga yetishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Azizxodjayeva N.H “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”- Toshkent.: TDPU, 2003
2. Bikbayeva N.U va boshqalar ”Boshlangʻich sinflarda matematika oʻqitish metodikasi ”- Toshkent.: Oʻqituvchi, 2007
3. Alixonov S. Matematika oʻqitish metodikasi. Toshkent. 1992



BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMPYUTER VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARS O'TISHNING ASOSIY VAZIFALARI

*Ergasheva Nodira Komilovna
Namangan viloyati Uchqorg'on tumani
6-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Ataxanova Zilola Muxtorjanovna
Namangan viloyati Uchqorg'on tumani
6-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanib dars o'tishda qoyiladigan talablar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Kompyuter, o'qituvchi, dars, axborot texnologiya.

Respublikamizda axborotlashtirish masalasiga dolzarb vazifa sifatida yondashib kelinmoqda. Bugungi kunda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlari, ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish, hamda internet xizmatlaridan foydalanish davr talabi sifatida qabul qilinmoqda.

Umumta'lim maktablarning barcha o'quvchilarini kompyuter va axborot texnologiyalari bilan ishlashga keng ko'llamda o'qitishni ta'minlash vazifasi qo'yilgan. Ana shunga javoban biz pedagoglar davr talabiga mos tarzda faoliyatimizni o'zgartirgan holda, ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanib yangi pedagogic texnologiyalar. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bugungi hayotga tatbiq etishimiz lozim.

Darslarda axborot texnologiyalarini negizini tashkil etuvchi kompyuterdan foydalanib dars o'tish, o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o'quvchiga individual yondashish imkonini beradi. Boshlang'ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars o'tish imkoniyatlariga to'xtalamiz.

Birinchidan, kichik maktab yoshdagilarga bolalar o'z oldiga o'quv jarayonida faol qatnashishni rejalashtirish imkoniga ega emas. Shuning uchun o'qituvchi 7-9 yoshdagi bolalarda o'yinga bo'lgan qiziqish kuchli bo'lishini hisobga olgan holda ularga mavzularni o'yin tarzida tuzilgan o'yin pedagogik yoki yoshga mos bo'lgan o'yin dasturlaridan foydalanib kompyuter yordamida information texnologiya tushunchalarini kiritib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ikkinchidan, boshlang'ich sinflarda informatsion texnologiyalar elementlarini o'rgatish insoniyatning kelajakdagi ish faoliyati uchun pydevor bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilar oldiga katta ma'suliyat, davlat dasturini bajarish masalasini qo'yadi. Bunda o'quvchilarning turlich fikrlashi, qobiliyati, yodda saqlash mahorati o'qituvchi tomonidan inobatga olinishi, ya'ni yaxshi, o'rta va past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni tabaqalashtirilib dars tashkil etilishini taqozo etadi.

Ma'lumki, fikrlash qobiliyati yuqori yoki past bo'lgan va ma'lum sabablarga ko'p darslarni qoldirgan o'quvchilar bilan ishlashda turli muammolar keladi. Fikrlash qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilar kompyuter yordamida yangi ma'lumotlar bilan tanishadilar va o'z bilimlarini kuchaytiradi. Bundan tashqari murakkabroq mashqlarni bajarish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, dars berish jarayonida o'qituvchi qisqa vaqt mobaynida kompyuter yordamida test o'tkazish va diagnostik komplekslardan foydalanib o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi haqidagi to'la ma'lumot olish bilan birga uni o'z vaqtida tuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda kompyuterdan foydalanib dars o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib, boshlang'ich sinflarda kompyuter-o'quv tizimlarini qo'llab dars olib borish istiqbolli bo'lib, uning samarasi juda yuqoridir. Dars o'tish jarayonida kompyuterdan foydalanib dars o'tilsa, o'quvchi yangi mavzuni tez tushuna va o'zlashtira oladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Axborot resurslari va internet tarmoqlaridan



XOTIRANI QANDAY RIVOJLANTIRISH MUMKIN?

*Erkabayev Inomjon Shavkatovich
Yuridik texnikum psixologi
Sherjanova Nodira Alisherovna
Urganch davlat universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning bilish jarayonlaridan biri hisoblangan xotira haqida, va uning rivojlanish usullari, insonning hayotida xotiraning roli haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: xotira, shaxs, rivojlantirish, parishonxotirlik, psixika.

Hayotimiz shiddatli va zavqli bizning ongimiz har lahzada turli- tuman voqea – hodisalarga, diqqatimiz har hil obyektlarga qaratiladi va toʻplanadi. Lekin biz har doim ham diqqatimizni qaratgan narsalar masalan: turli jumlar, oʻqigan gazeta yoki kitobimizdagi noananaviy nom olgan tushunchalar, sahifalar har doim ham xotiramizda qoladimi? Nimaga ataylab esda qoldirishga uringan narsalarimizni kerak paytda tezda eslashimiz qiyin kechadi? Buning sababi nimada? Kuni kelganda xotiramiz oʻzimizga pand berib qoladi, rejalarimiz samarasizday koʻrinadi goʻyo. Kerakli maʼlumotlar bazasini miyamizda uzoqroq saqlash uchun insondan qanday murakkab vazifalar talab qilinadi? Talab qilinayotgan vazifa haqiqatdan ham murakkabmi? Yoki boʻlmasa biz oʻz hayotimizni murakkablashtiryapmizmi? Bu savollarning javobiga toʻxtalishdan oldin xotiramiz haqidagi tushunchalarga toʻhtalsam. Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida shaxsning gʻoyaviy yoʻnalishi katta oʻrin egallaydi. Bu yoʻnalish uning faoliyatini hayot sharoiti taʼsirida shakllantiradi. Yoshi qirqdan oshgan kishilar gap orasida «Xotira chatoq-da, qarichilik endi» deb qoʻshib ketishi odatiy hol. Aslida esa bunday emas. Ana shu bahonaga tayanadiganlar koʻpincha faol oʻrganish davri tugaganidan keyin oʻrganishga ishtiyoqni yoʻqotishadi va xotirani zoʻr berib ishlatmasliklari natijasida shu koʻyga tushib qolishadi. Dono xalqimiz «Ishlamagan tesha zang bosadi» deb juda toʻgʻri aytishgan. Xotiradagi maʼlumotlar, bilimlar qancha takrorlanib tursa, miyamizda xotiraning tiklanishi, rivojlanishi shuncha tez va barqaror boʻladi. Kaliforniya universiteti tadqiqotchisi doktor Marion Daymond miya faoliyati ustida izlanishlar olib borib «Insonning qarishi xotiradagi hujayra bogʻlarini yoʻqotmaydi», degan xulosaga keldi. Boshqa tadqiqotlar natijasi ham bu fikrni qoʻllab-quvvatlamogda. Hatto, agar miya davomli ravishda ishlab, taʼlimga yoʻnalib tursa, hujayralararo bogʻlar zichligi yanada mustahkamlanishi xususida qarashlar mavjud. Yetmish, sakson yoshli qariyalar bilan olib borilgan tadqiqotlarda aqliy faoliyatning turli davrlarida eʼtiborga loyiq natijalarga erishish mumkin ekani isbotlangan.

Xotiramizni qanday shakllantirishimiz mumkin?

Fanda xotiraning tabiiy imkoniyatlari uch qismga boʻlib oʻrganiladi. Bular taassurot, qaytarish va assotsiatsiyalar.

1. Taassurotga koʻrish va eshitish orqali ega boʻlinadi. Insondagi koʻrish hissi boshqa hissiy aʼzolarga nisbatan kuchliroq sanaladi. Chunki koʻzdan miyaga boradigan nervlar quloq nervlariga nisbatan 20 marta qalinroq. Masalan, Mark Tven sahnada oʻynashi kerak boʻlgan rolni qaydlar yordamida yaxshi eslab qola olmagach, rasmlar bilan ishlagan va bu qiyinchiliklarni osonlikcha yengib oʻtolgan ekan.

2. Qaytarish. Qadimda koʻpchilik olimlar kichik yoshligidayoq butun boshli kitoblarni aynan qaytarish orqali yod olishgan.

3. Assotsiatsiya - oʻxshashlik. Biror faktni boshqa narsa bilan qiyoslash orqali eslab qolish. Misol uchun tanishingizning telefon raqamini uy nomeringiz, tugʻilgan yilingiz yoki kundalik yuradigan avtobusingiz raqami bilan qiyoslab, assotsiatsiya qilishingiz mumkin.

Xotiramizda maʼlumotlarni uzoq vaqt saqlash uchun nima qilishimiz kerak?

Xalqimizda «yuz martada yod boʻladi, ming martada muhr» degan naql yuradi. Bu maqol asosli, faqat qachonki unga toʻgʻri amal qilingan taqdirda shunday. Chunki, miya maʼlumotni muhrlashi uchun unga vaqtincha boshqa maʼlumot yuklanmay turishi lozim. Tadqiqotchi Myuller va Piltsekerlar biror matnni yod olgach, miyani dam oldirish kerakligini taʼkidlashadi. Tin olish jarayonida miya maʼlumotlarni oʻz-oʻzidan takrorlar ekan. Bu jarayon maʼlumot yodlanganidan keyin oʻrinsiz qaytarilaversa ham buziladi. Natijada miyada hech qanday «muhrlanish» jarayoni yuz bermaydi.



Хо‘sh, ma’lumotni yodlash bilan mustahkamlash orasida miya qancha vaqt tin olishi kerak? Bu savolga ruhshunos olim Peron javob topgan. U bir necha kishilar ustida tajriba o‘tkazib, ularga 18 ta notanish so‘zlarni yodlashni va takrorlab turishni buyuradi. Tajribada so‘zlar 30 soniyadan keyin 14 marta qaytarilganda yaxshi samara bergan. Tanaffus 10 daqiqani tashkil qilganda esa 4 marta takrorlash kifoya qilgan. 10 daqiqadan 24 soatgacha bo‘lgan tanaffusda ma’lumotlar qisqa muddatli xotirada mustahkamlangan. 24 soatdan ortiq tanaffuslarda takrorlash miqdori ko‘payib boradi va 48 soatga yetganida 8 marta qaytarish talab qilinadi.

Chunki, bu vaqt ichida xotiraga o‘rnashgan qo‘shimcha ma’lumotlar xotira quvvatini susaytiradi. Shuning uchun har 24 soatda yodlangan so‘zlarni qaytarib turish maqsadga muvofiq. Matnning ko‘p jihatlari bir-biriga o‘xshashligi yodlash jarayonini qiyinlashtiradi. Agar so‘zlar majmuasi har xil qilib tuzib chiqilsa, ish osonlashadi. Misol uchun ro‘yxat tartibida yozilgan biror so‘zni eslaganingizda aqlingizga nima keladi? Tabiiyki, uning ro‘yxatda joylashgan o‘rni. Bu xotiraning kuchiga dalolat qilmaydi. O‘sha so‘zni eslash uchun bundan ahamiyatliroq jihat yo‘qligini anglatadi xolos. Shunday ekan, yod olinayotgan har bir so‘z o‘ziga xos tarzda boshqalardan ajralib turishi kerak. Ularni yozganda bir xillikdan qochib, rang yoki harf shakllari turlicha qilib tuzilsa, yodlash jarayonida ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Adabiyotlar

1. F.I Xaydarov, N.I Xalilova “Umimiy psixologiya” T: 2010 yil
2. N. Boymuradov”Amaliy psixologiya”T: 2008 yil
3. Deyl Karnegi “o‘z o‘ziga ishonch xosil qilish”T : 2009 yil



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA MASALALAR USTIDA ISHLASH

*Ernazarova Marxabo Isoqvoyevna
Namangan viloyati Chust tumani
35-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Kosimova Odina Toshtemirovna
Namangan viloyati Chust tumani
35-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annatsiya : Ushbu maqolamda boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechish usullari va tushuntirish qoidalari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Matematika, masala, sodda, murakkab, usul.

Masalalar yechish boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy qismi hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda sodda va murakkab masalalar o'quvchilar bilimlarini mustahkamlashtirishga xizmat qiladi. Ko'pgina masalalar bir necha usul bilan yechiladi. Bunday masalalarni yechishda tartibga rioya qilish bir usul bilan masala yechishni yaxshi o'zlashtirib olgandan keyingina yangi usulga o'tishi lozim. Bir necha usuldan eng to'g'risini, maqsadga muvofiqligini tanlab olishi kerak.

Masala yechish ishi masala yechish metodini yaxshi tushunishga yordam beradi, o'quvchilarning tashabbuskorligini, masala yechish usullariga nisbatan topqirlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darsligida juda ham ko'p uchraydigan masalalar va ularning yechimni topish haqidagi ma'lumotalarni biz birinchi sinfdanoq ularga o'rgatib ulardagi bilish va fikrash qobiliyatini o'stirib borishimiz juda ham muhimdir. Masala yechishga o'rgatishning muhimligi shundan iboratki, o'qituvchi o'zining asosiy e'tiborini matnli masalalar mazmunini matematika tiliga ko'chirishga qaratmog'i lozim.

Masalalar yechish avvalo, mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish, ularni dasturda belgilangan nazariy bilimlarni o'zlashtirishda favqulodda muhim ahamiyatga ega. Masalan, agar biz o'quvchilarga qo'shish haqida to'g'ri tushuncha berishni xohlasak, buning uchun bolalar yig'indini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to'plamlarni birlashtirish amalini bajarib yechish lozim.

Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan dasturda bolalarni masalalarni yechishga o'rgatishga katta ahamiyat bergan. Bu dasturda bolalarga masalalarni yechishda ular oldindan o'rgangan arifmetik amallarning xossalardan foydalanishi va o'zlariga ma'lum bo'lgan usullardan eng ratsionalini tanlay olishga o'rgatish zarurligini ta'kidlagan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sodda masalalarni o'zlashtirib olganlaridan keyin ma'lum va noma'lumlarni qiynalmay ajratadigan bo'ladilar, masala yechishning dastlabki ko'nikmalarini oladilar, shundan keyin darsga tartibli kiritila boshlaydi. Murakkab masalalarni yechishga tayyorlash sodda masalalarni yechishdan boshlanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich matematika kursida matnli masalalar xususan, murakkab masalalarni yechish muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarni murakkab masalalarni yechishga o'rgatishning ahamiyatlisi, ular ustida ish olib borish usullariga bog'liq. Masalalar yechish paytida muammoli vaziyatni hosil qilish o'quvchining idrokini, fikrleshini o'stiradi. Masalada izlanilayotgan miqdorda ma'lum miqdorlarga qarab tahlil qilish orqali analitik usulda yechish malakasi shakllanadi. Masalalar ustida ishlash jarayonida uni turli usulda yechish malakasini shakllantirib borilishi g'oyat muhim. O'qituvchi masala yechishning u yoki bu usulini qo'llaganda didaktika tamoyillarini hisobga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bikbayeva N.U " Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi".
2. Toshmurodov.B "Boshlang'ich sinflardamatematika o'qitishni takamillashtirish" Toshkent " O'qitovchi" 2000-yil
3. Ijtimoiy tarmoqlardan.



ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA ҚО‘ЛЛАНИЛАДИГАН ДИДАКТИК О‘ЙНЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ

*G‘afurova Ma‘rifat Raximjonovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi*

24-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta‘lim maktablarida ona tili darslarida qo‘llaniladigan didaktik o‘yinlardan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Didaktik o‘yinlar, ta‘lim, dars, ona tili, o‘zaro bog‘lovchi, rag‘batlantiruvchi o‘yinlar.

Ta‘lim jarayonida, uni rivojlantirish va o‘zgartirish o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ochiq muloqoti va ishonchi muhitida samarali bo‘ladi. Dars davomida didaktik o‘yinlardan foydalanilsa, o‘quvchilarning ona tili darslariga qiziqishlari ortadi hamda ularning nutqiy ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan o‘yinlar qisqa vaqtga mo‘ljallangan bo‘lib, bular orqali o‘quvchilar guruh bo‘lib mashq qilishga odatlantiriladi. O‘yinlar vositasida kichik guruhlar faolligi ortadi, ta‘lim ishtirokchilarining diqqati ta‘lim jarayoniga to‘liq jalb etiladi.

Ta‘lim jarayonida qo‘llanilgan har bir o‘yin yakunida o‘qituvchining sharhiga vaqt ajratiladi. Bunda u yoki bu o‘yin guruh a‘zolari tomonidan qanday g‘oyalar tug‘dirganini sharhlashga e‘tibor beriladi.

O‘yinlar vositasida o‘quvchilarga yangi bilim berish, ko‘nikma hosil qilish, kichik guruh a‘zolarining ijodiy qobiliyatlari rag‘batlantirish mumkin. O‘yinlarni maqsadiga ko‘ra yeti turga ajratish mumkin:

1. Guruh bo‘lib ishlash uchun sog‘lom muhitni tashkil etishga qaratilgan o‘yinlar. 2. Umumiy qiziqishlarni aniqlashga qaratilgan o‘yinlar. 3. Guruhlarning birligini qo‘llab-quvvatlovchi o‘yinlar. 4. O‘zaro bog‘lovchi o‘yinlar. 5. Rag‘batlantiruvchi o‘yinlar. 6. Ijodkorlikka da‘vat etuvchi o‘yinlar. 7. Yakunlovchi o‘yinlar.

Quyida ona tili darslarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ayrim o‘yinlar xususida so‘z yuritimiz.

“Oq terakmi ko‘k terak” o‘yini. Bu o‘yin bolalar sevib o‘ynaydigan o‘yinlardan biri bo‘lib, uni ta‘lim jarayonida ham qo‘llash mumkin. Mazkur o‘yin bolalarni tez fikrlashga, topqirlikka o‘rgatadi. O‘yindan leksikologiya, morfologiya bo‘limlariga oid mavzularni o‘rgatishda foydalanish mumkin. Omonim so‘zlar mavzusi o‘rganilgach, mavzuni mustahkamlash uchun shu o‘yin o‘tkaziladi. O‘yin quyidagicha tartibda o‘tkaziladi.

Sinf ikki guruhga bo‘linadi. O‘qituvchi oldindan omonim ya‘ni shakldosh so‘zlar yozilgan karton qog‘ozlarni, ularning ma‘nosi yozilgan karton qog‘ozlarini, shuningdek, boshqa so‘zlar yozilgan qog‘ozlarni ham tayyorlab qo‘yadi. O‘yin qoidalari tushuntirilgach, o‘yin boshlanadi. 1-guruhga omonim so‘zlar yozilgan qog‘ozlar beriladi. 2-guruhga esa shu so‘zlarning ma‘nosi va ayrim boshqa so‘zlar yozilgan qog‘ozlar beriladi. 1-guruh 1-raqamdagi ot so‘zi yozilgan karton qog‘ozni ko‘taradi va 2-guruhga qarab “Oq terakmi ko‘k terak?” – deydi. 2-guruh esa ot so‘zining ma‘nolari yozilgan va ularga aralash holda berilgan so‘zlarni (o‘t-olov, o‘t-maysa, o‘t-harakat, o‘t-quyosh) ko‘tarib “Bizdan sizga kim kerak?” – deb javob berishadi. 1-guruh a‘zolari bu so‘zlar ichidan o‘t-olov, o‘t-maysa, o‘t-harakat so‘zlarini ajrata bilishlari va ularni ushlab turgan bolalarning nomlarini aytishlari kerak. Masalan, “Sizdan bizga Begali, Abduqodir, Inomjonlar kerak”- deydi.

Agar o‘t so‘zining ma‘nolarini to‘g‘ri topishsa, o‘sha so‘zni ushlab turgan o‘quvchilar 1-guruh tomon o‘tadilar. Ular xatolikka yo‘l qo‘yishsa, so‘zlarni tanlagan o‘quvchilar 2-guruhga o‘tadilar. Agar omonimlik so‘zning ma‘nosini qisman topishsa, ball to‘liq berilmaydi. Shu bilan o‘yinning 1-bosqichi yakunlanadi. 2-bosqichda 2-guruh o‘quvchilariga yoz, tuz omonim so‘zlari yozilgan qog‘ozlar beriladi. O‘yin yuqoridagi tartibda o‘tkaziladi. O‘yin tugagach, har ikki guruh to‘plagan ballar aytilib, g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

“Oq terakmi, ko‘k terak?” o‘yidan antonim so‘zlar, uyadosh so‘zlar, ibora mavzularini o‘rgatishda ham foydalanish mumkin. Morfologiya bo‘limida fe‘l, ot, sifat, son, olmoshlarning ma‘noviy guruhlarini yuzasidan o‘tkaziladigan mustahkamlash darslarida ham bu o‘yin yaxshi samara beradi.



“O‘z o‘rningni top” o‘yini. Bu o‘yin o‘quvchilarni sezgir, zukko va topqir bo‘lishga odatlantiriladi. O‘yinda ishtirok etish uchun o‘quvchi mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Aks holda, o‘yindan chiqib qoladi. Ana shuni o‘quvchi his qilsa, unda ilmga qiziqish ham orta boradi.

Mazkur o‘yindan tilning barcha sathlarini o‘rganishda foydalanish mumkin. Jumladan, leksikologiya bo‘limida ma‘nodosh so‘zlar mavzusi yuzasidan o‘tkaziladigan mustahkamlash daqiqalarida shu o‘yinni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘yin quyidagi tartibda o‘tkaziladi. O‘qituvchi bir necha ma‘nodosh so‘zlar guruhini tanlaydi. Masalan, yuz, bet, aft, bashara, chehra; quyosh, kun, oftob; avval, ilgari, oldin, burun; ataylab, atay, jo‘rttaga, maxsus. Bulardan bosh so‘zlar ajratib olinadi va 4 ta o‘quvchiga beriladi. Demak, to‘rtta o‘quvchi bosh so‘z yozilgan qog‘ozni ushlab to‘rt joyga turadi.

Qolgan so‘zlar aralashtirilib qo‘yiladi. Sinf o‘quvchilari ham to‘rt guruhga bo‘linadi va har bir guruhga bitta bosh so‘z biriktiriladi.

Masalan, 1-guruh o‘quvchilariga yuz so‘zining, 2-guruhga avval so‘zining, 3-guruhga quyosh so‘zining 4-guruhga ataylab so‘zining ma‘nodashlarini topshiriladi. 1-guruh o‘quvchilari navbat bilan chiqib, aralash holdagi so‘zlar ichidan bet, aft, bashara, chehra so‘zlarini topib yuz so‘zi yozilgan qog‘ozni ushlab turgan o‘quvchi yonidan, ya‘ni “Bosh so‘z” yonidan o‘rin oladilar. Qolgan guruh a‘zolari ham o‘yinni shu tarzda davom ettiradilar. O‘qituvchi guruhlarining topqirlikni qanday bajarganliklarini tekshiradi, o‘z o‘rinlarini to‘g‘ri topgan guruhlariga to‘liq ball, o‘rin topishda adashgan guruhlariga esa pastroq ball qo‘yiladi. O‘yinni biroz murakkablashtirish ham mumkin. Buning uchun ma‘nodosh so‘zlar ichiga ma‘nodoshlik qatoriga mansub bo‘lmagan so‘zlar ham aralashtirib yuborilsa, o‘quvchilarning kerakli so‘zni topib olishi qisman murakkablashadi. Bu ish o‘quvchilar bilimiga, iqtidoriga qarab belgilanadi.

Uyadosh so‘zlar, shakldosh so‘zlar, iboralar mavzusi bo‘yicha ham bu o‘yin shu tartibda o‘tkaziladi.

“So‘zdan so‘z” o‘yini. Bu o‘yin turi o‘quvchilarni fikrlashga, izlanishga undaydi, ularda topqirlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Leksikologiya bo‘limida shakldosh, zid ma‘noli so‘zlar mavzularini o‘rganishda bu o‘yindan foydalanish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi shakldosh yoki zid ma‘noli so‘zlarni keltirib chiqarish mumkin bo‘lgan so‘zlarni tanlay bilishi va shundan keyin uni o‘quvchilar e‘tiboriga xavola qilishi lozim.

Zid ma‘noli so‘zlar mavzusida bu o‘yindan qisman foydalanish mumkin. Mavzu yuzasidan mashqlar ishlanib, kerakli tushunchalar berilgandan so‘ng o‘quvchilarga qarag‘ayzorlar, ko‘z munchoq so‘zlarini berib, antonim so‘zlari keltirib chiqarish topshiriladi. Qarag‘ayzorlar so‘zidan oq-qora, ko‘z munchoq so‘zidan och-ko‘k so‘zlarini hosil qilish mumkin.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan didaktik o‘yinlar ona tili darslarida o‘quvchilarning bilim darslarida bilim darajasini yuksaltirishga, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – T.:RBIMM, 2008.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A., Pardayev A., Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste‘dod, 2008.
4. Ko‘palov F. Ona tili darslarida o‘yinlardan foydalanish. Sadikov.uz



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA MADANIYATINING O‘QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH

*Hasanova Shohida Hakimovna
Navoiy viloyati Nurota tumani
32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
musiqa fani o‘qituvchisi*

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang‘ich sinflarda musiqa fanining ahamiyati va o‘quvchilarni axloqiy tarbiyasini shakllantirishning vazifalari haqida yozilgan

Kalit so‘zlar: musiqa, san‘at, bola, qo‘shiq, axloqiy.

Insoniyat paydo bo‘lgandan boshlab, odamlar u yoki bu shakl va mazmunda farzandlari tarbiyasi bilan shig‘ullanganlar. Ibtidoiy jamoa davrida bu jarayon ba‘zan ongli, gohida esa ongsiz ravishda kechgan bo‘lishi mumkin. Qanday bo‘lmasin, tarbiya usullari muttasil davom etavergan. Ular davrlar o‘tishi, hayot va turmushning murakkablashishi natijasida taboro chuqurroq va kech ma‘no kasb eta borgan.

Boshlang‘ich ta’lim muassasasi o‘quvchilarining tevarak-atrofidagi voqeelikning belgi va xususiyatlarini, ularning hossalarni, qonuniyatlarini bilish va ta’lim jarayonida tushunib boradi, tafakkur faoliyatida muhim o‘zgarishlar yuzaga kela boshlaydi. Aynan mana shunday vaqtda ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda musiqaning o‘rni kattadir.

“Musika, -deb yozgan edi.V.Sohomlinskiy-tafakkurning ulkan manbasi. Musika tarbiyasisiz bolaning mukammal aqliy rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi!”. Shunday ekan, musiqa bolaning axloqiy-estetik va g‘oyaviy-siyosiy tarbiyasi uchun muhim vosita hisoblanadi. Musika mashg‘ulotlari jarayonida bola hayotiy voqeelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bola yoshiga mos musiqa asarlari o‘quvchilarda unitilmas taassurot qoldiradi, Ularning ruhiy dunyosini boyitadi.

O‘quvchilarga musiqa ta’limini berish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘quvchining musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;
2. Musika asarlari bilan tanishtirish jarayonida o‘quvchilarga emotsional hiz-tuyg‘ular hosil etish yo‘li bilan ularning musiqa haqidagi tasavurlarini boyitib borish.

Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan musiqa darslarida asosan ashula aytish, musiqa tinglash, musiqali ritmik harakatlar va ularning yoshiga mos cholg‘u asboblardan oddiy kuylar chalishni o‘rgatishdan iborat. Bundan tashqari musiqaga hissa qo‘shgan bastakorlar rasmi va ularning hayoti haqida ham o‘rganadilar.

Qo‘shiq kuylash qismida oldin o‘rganilgan qo‘shiqlardan bir-ikkitasi takrorlanadi. Bu vaqtda bolalar tik turib aytish qoidalariga rioya qilishlari kerak. Chunki tik turib aytganda bolalarning to‘g‘ri nafas olib, uni sarflashlari oson bo‘ladi, keyin yangi qo‘shiqni o‘rganishga kirishiladi. Yangi qo‘shiqning mazmunini tushuntirishdan oldi tarbiyachi suhbat metodini qo‘llaydi, ya‘ni bolalar bilan suhbatlashadi. Qo‘shiqning mazmuni nima haqida, muallif kim va hakoazolarda haqida so‘raydi. Shundan so‘ng o‘qituvchi qo‘shiqni kuylab ko‘rsatadi.

Xulosa shuki, bolaga musiqa tarbiyasi berishning asosiy vazifalari nimalardan iboratligini tushuntirish. Musika darslarining oldiga qo‘ygan har qanday pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun enf avvalo, bolaning bir qancha komponentdan iborat musiqa o‘quv qobiliyatini tinmay o‘stirib borish shart. Boshlang‘ich sinflarda o‘tkaziladigan tadbirlarda o‘rganilgan qo‘shiqlardan keng foydalanish, turli bayramlarda qo‘shiq kuylashshda musiqa ajralmas yo‘ldosh ekanligi haqida tushuncha hosil qilishdan iboratdir.



BOSHLANG‘ICH TALIMDA ZAMONAVIY INNOVATSION YONDASHUV

*Hudoyberdiyeva Odina Gofurjon qizi,
Namangan viloyati, Norin tumani,
25-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Tel: +998990203739.
E-mail: xudoyberdiyevaodina63@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’limning samaradorligini ko‘tarishga, mashg‘ulotlarni qiziqarli tashkil etishga, pedagogning innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish harakatini faollashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: interfaol, didaktik o‘yinlar, kommunikativ qobiliyat, ko‘nikma

Bugungi kundagi eng asosiy vazifamiz, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini yangi davlat ta’lim standarti asosida bolalarning mantiqiy fikr, tafakkur qila olish, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashini, kommunikativ qobiliyati, savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish ko‘nikmalarini egallashlari uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlashimiz lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o‘tishning interfaol usullari o‘z-o‘zidan ta’limga kirib kelmaydi. Demak, o‘qituvchidan bilim, ijodiy mehnat va kasb mahorat talab qilinadi. Chunki o‘qituvchi faoliyati yangilanmasa, ta’limda samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta’limda o‘quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Barcha umumta’lim maktablarining boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi. Birinchi sinfdan boshlab maqsadli rejalashtirilgan, interfaol metodlardan qo‘llanilgan holda tashkil etiladigan darslar o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kichik guruhlarda ishlaganida, o‘zaro bir-birlariga tushuntirganda, mikroguruhlar orasidagi munozaralarda yaxshi ishtirok etadilar. Oddiy darslarda sust o‘tiradigan o‘quvchilar ham didaktik va rolli o‘yinlar tarzida tashkil etilgan darslarda o‘zlarini ko‘rsatishga harakat qiladilar. Chunki bunday darslarda o‘quvchilarning har bir fikri inobatga olinadi, rag‘batlantiriladi. Eng asosiysi tanqid qilinmaydi, uyaltirilmaydi. Mikroguruh a’zolari har bir savolga maslahatlashgan holda javob topadilar. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda insonparvarlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, hamjihatlik, bilim olishshga intilishni shakllantirish mumkin. Dars jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan «Aqliy hujum», «Shaxsiy fikr», «Klaster», «Roven doirachalari», «Venn diagrammasi», «Ikki qismli kundalik», «BxBxB», «Rolli o‘yinlar» kabi interfaol ta’lim metodlari, munozara va slaydli taqdimotlardan unumli foydalanish dars samaradorligi oshiradi va kafolatlangan natijaga erishishga imkon yaratiladi.

Klaster “tarmoqlash” ma’nosini anglatib, bolalarni mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, tushunchalar va voqealarning bir-biri bilan bog‘liqligini anglab yetishga o‘rgatuvchi usul hisoblanadi. Bu usul asosan darsning yakuniy qismida olingan bilimlarni mustahkamlashda qo‘llaniladi. Multklaster usulida bolalarga multfilm qahramonlaridan iborat klaster taqdim etiladi. O‘yinning asosiy maqsadi bolalarni hayolan tasavvur qilishga, topqirlikka, nutqi ravon bo‘lishiga, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga, gap tuzishga o‘rgatadi va ko‘rish, sezgi qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu usullarni qo‘llashdan asosiy maqsad, zerikarli muhitni bartaraf etish, bolalarni qiziqitirib, ular o‘rtasida samimiy do‘stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirishdan iborat. Eng muhimi bunda ta’lim samaradorligi oshib, barkamol shaxs voyaga yetkaziladi.

Didaktik o‘yinlar ham o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to‘g‘ri va samarali metodidir. U ma’lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o‘qituvchidan o‘yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi.



“O‘zim tekshiraman” didaktik o‘yini. Bunday o‘yinlar o‘tkazishda o‘qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Bunday o‘yinlarni har bir boshlang‘ich sinfda darsning avvalida o‘tkazish mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o‘quvchilar yozib bo‘lishgach o‘qituvchi hattaxtaga diktant yozib ko‘rsatadi. Diktant hattaxtaga oldin yozilib, usti yopib qo‘yilgan bo‘lsa, o‘qituvchi pardani ochadi. O‘quvchilar esa o‘qituvchi yozganiga qarab o‘zlarining diktantini tekshiradi.

“Jumlani davom ettiring” o‘yini. O‘yin qoidasiga ko‘ra, birinchi o‘quvchi qisqa biror gap aytadi, boshqa biror o‘quvchi aynan shu gapga boshqa biror gap qo‘shib boraveradi. Masalan: 1- o‘quvchi; Men hikoya qildim. 2-o‘quvchi; Men qiziqarli hikoya o‘qidim. 3-o‘quvchi; Men kecha qiziqarli hikoya o‘qidim va h.k. So‘z qo‘sha olmagan yoki hatoga yo‘l qo‘ygan o‘quvchi o‘yinni tark etadi. 6-7 daqiqa mobaynida o‘yin davomiyligini ta‘minlab turgan o‘quvchilar g‘olib bo‘ladi va baholanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ta‘limda jarayonida uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlashga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish lozim degan xulosaga kelish mumkin. Innovatsion yondashuvlardan foydalanishning maqsadi o‘quvchilarda hozirjavoblik, hissini rivojlantirish, bahs – munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirishdan iborat. Biroq pedagoglar bu usullardan foydalanishda mashg‘ulotning maqsadiga hamda ta‘lim oluvchilarning yoshiga va tayyorgarlik darajasiga muvofiqlarini to‘g‘ri tanlab olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, 2003.
2. Farberman V.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.- T.: «Fan», 1999.



BOLALARDA МАТЕМАТИК ТУШУНЧАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ НАЗАРИЯСИ VA METODIKASI

*Husaynova Nargiza Jo'raqulovna
Navoiy viloyati Nurota tumani
4-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya. Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish nazariyasi va metodikasining bosh masalasi bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirishning didaktik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Bu o'z navbatida dunyoni chuqur bilish, fikrlashni rivojlanishini yangi metodlarini o'rganish kabi vazifalarni bajarish orqali yechiladi.

Kalit so'zlar. Didaktik asoslar, matematik tushunchalar, miqdor, kesma, to'g'ri chiziq, Tushuncha, fundamental fanlar, Gnedenko.

Tushuncha—bu predmetlar va hodisalarni ba'zi bir muhimi alomatlariga ko'ra farqlash yoki umumiy lashtirish natijasidir. Masalan, son, miqdor, kesma, to'g'ri chiziq va hokazo. Alomat(belgi) esa predmet yoki hodisalarning bir-biriga o'xshashligi, tengligi yoki farqlanishini bildiruvchi xossadir. Predmetlar deganda obyektlar nazarda tutiladi. Odatda, obyektlar ma'lum muhim va muhim bo'lmagan xossalarga ega. Muhim xossa faqat shu obyektga tegishli va bu xossasiz obyekt mavjud bo'la olmaydigan xossalarga aytiladi. Obyektning mavjudligiga ta'sir qilmaydigan xossalar muhim bo'lmagan xossalar hisoblanadi. Obyekt nimani anglatishini bilish uchun uning xossalari mavjud bo'lsa, u holda bu obyekt haqida tushuncha mavjud deyiladi. Tushuncha nomlanadi, shuningdek, mazmun va hajmga ega bo'ladi. Obyektning barcha muhim xossalari birgalikda tushunchaning mazmunini tashkil etadi. Bir xil muhim xossalarga ega bo'lgan obyektlar to'plami tushuncha hajmini tashkil etadi. Demak, tushuncha hajmi bitta tushuncha bilan nomlanishi mumkin bo'lgan obyektlar to'plami ham ekan. Matematik tushunchalar o'z navbatida insoniyat to'plagan katta tajribani umumlashtirish natijasida yuzaga keladi va moddiy dunyoning tub mohiyatini aks ettiradi, lekin real obyektlarning ko'pgina xossalaridan ko'z yumgan holda ularni ideallashtirish natijasida hosil bo'ladi.

Matematik tushunchalarni shakllantirish maktab yoshdagi bolalarni matematikani o'rgatishga tayyorlash maktabning zarur predmetlaridan biri sifatida tan olingan.

Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirishning nazariy jihatlarini psixologik, pedagogik va boshqa fundamental fanlar asosida yaratiladi:

— ko'rgazmali dasturli hujjatlar (bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish bo'yicha ko'rsatmalar va hokazo);

— metodik adabiyotlar (maxsus jurnallarda chop etilgan maqolalar, masalan, maktabgacha tarbiya to'g'risida o'quv qo'llanmalar, o'yinlar va hokazo);

— jamoa va yakka tartibda ish olib borish, ilg'or tajriba va olimlarning fikrlari.

Hozirgi kunda bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish muammosi ilmiy asoslangan metodik tizimga ega. Ularning asosiy elementlari maqsad, mazmun, metodlar, ishni tashkil etish shakl va usullari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ular orasidagi asosiy maqsad tasavurni shakllantirishga qaratiladi.

Matematik tushunchalarni shakllantirish — inson ijodiy faoliyatining butun maqsadli amalga oshiriladigan pedagogik jarayonidir. Uning maqsadi—bolalarni faqat matematikani bilishdan emas, balki ularni hayotga tayyorlash, o'zlarining hayotdagi o'rinlarini topa olishlariga yordam berishdan iborat.

Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish fanining asosiy masalalari quyidagilardan iborat:

— bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi nuqtai nazaridan ikkinchi kichik, o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlari uchun shartlar rejasini asoslash;

— matematik tushunchalarni rivojlantirish maktab matematikasini o'rganishga tayyorlashni mundariyalash;

— matematik tushunchalarning rivojlantirish yo'llari va shartlarini ishlab chiqish;

— bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishni ta'minlovchi metodik ko'rsatmalar berish.



Gnedenko o‘z ishlarida matematik qobiliyatlarning ikki darajasini ajratib ko‘rsatadi: „Oddiy o‘rta qobiliyat” (ushbu qobiliyat boshlang‘ich maktab kursini o‘zlashtirish uchun zamin bo‘lgan) va „o‘rtadan yuqori bo‘lgan qobiliyat”, ya‘ni matematik bilimlarni osonlikcha egallashda masalalarning aql yechimini topishda namoyon bo‘ladigan qobiliyatdir.

Matematikani o‘rgatishda u tarbiyaviy choralarga ushbu omillarni kiritadi:

- 1) bolalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;
- 2) mashg‘ulot jarayoniga bo‘lgan mas‘uliyatlilikni tushuntirish;
- 3) o‘z kuchiga, qobiliyatiga bo‘ladigan ishonchni tarbiyalash;
- 4) „Matematika keyingi bosqich uchun zamin” ekanligiga ishonchlilikni tarbiyalash.

Demak, ilk matematik qobiliyatlar shunday insoniy xususiyatlar orqali ifodalanadiki, ular matematika ilmida yuqori ijodiy faoliyat ko‘rsatishga imkon yaratadi.

Bilim va ko‘nikmalarni o‘rganuvchilarning ko‘pchiligi bilish bu matematik masalada qo‘yilgan maqsadga muvaffaqiyatli erishtiruvchi bilim va ko‘nikmalarga asoslangan insoniy qobiliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori» T. «Sharq», 1997y.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risidagi» qonuni T., «O‘zbekiston» 1997y.
3. www.ziyouz.com



CHIZMACHILIK FANI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI. CHIZMANING INSON AMALIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI.

Ibroximova Gulnoza Erkin qizi

Shofirkon tumani 55-IDUM

Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Tarixiy yodgorliklar, arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, odamlar hali yozuv dunyoga kelmagan davrlardayoq atrofidagi turli buyumlarning shaklini chiza boshlaganlar va o'zaro bo'lgan muloqotda tasvirlardan foydalanganlar. Ibtidoiy odamlar yaratgan qoyalardagi tasvirlar hozirgi to'g'ri burchakli (ortogonal) tasvirlarga taxminan to'g'ri keladi.

Kalit so'zlar. me'morchilik, grafika, Sank-Peterburg, Ermitaj, tasvir, frontal izometriya, trimetriya, frontal dimetriya, Yevklid, G.Monj, Vaynbrenner, Dyuken, Gashet, Bordon, Perez, Brisson, Myulenger, Gauss, Veybak.

Inson ongi taraqqiy etgan sari fan-madaniyat shakllana bordi. Ishlab chiqarish, me'morchilik taraqqiy eta boshladi. Bular o'z o'rnida grafikaning asosiy turi hisoblangan chizmalarning mohiyatini orttira boshladi. Uy-joylar, qo'rg'onlar va boshqa inshootlarni qurish davrida birinchi chizmalar paydo bo'ldi. Dastlabki chizmalarda faqat bitta tasvir bo'lib, uni reja deb atashadi. Odatda, bu rejalarni to'g'ridan-to'g'ri qurilajak inshootlarning o'rniga, ya'ni yer sirtiga, haqiqiy kattaligi bilan bajariladi. Bunday chizmalarni yasash uchun birinchi chizmachilik asboblari-yog'ochdan yasalgan sirkul-o'lchagich, arqon yasalgan to'g'ri burchakli uchburchaklar yaratiladi. Keyinchalik bunday reja chizmalarni pergament qog'ozda, daraxtlarda va xolostga kichraytirib bajarila boshlandi. Dastlabki chizmalar bilan shakl o'rtasida deyarli farq bo'lmagan.

Tasvirlar ko'z bilan chamalab qo'lda chizilgan, Sank-Peterburgdagi Ermitajda saklanayotgan Sug'd laganchasiga o'yib tushirilgan ko'shk fasadi chizmasi (V-VII asr) ga e'tibor bersak, bu chizmada o'lchamlar qo'yilmagan. Bunday chizmalar tasvirlangan narsalar haqida taxminiy tasavvur bera olgan xolos. Sharq miniatyuralarida uzoqdagi narsalar shakli teparoqda, yaqindagi narsalar esa pastroqda bir xil kattalikda tasvirlangan. Ko'p tasvirlar, hozirgi zamon qiyshiq burchakli frontal izometriya, trimetriya yoki qiyshiq burchakli frontal dimetriya ko'rinishiga mos keladi. XV asrda qurilgan Go'ramir maqbarasi va madrasalar tasviri berilgan. Keyinchalik chizmalarda buyumning shaklini, shuningdek, o'lchamini ko'rsatishga harakat qilinadi, chizmalar asta-sekin takomillashib borgan. Unda tasvirlangan inshootlar taxminan ancha aniq aks ettirilgan va chizmachilik asboblardan foydalanilganligi ko'rinib turibdi. Rossiyada kemasozlikning rivojlanishi natijasida yanada aniqroq chizma masshtabiga qattiq rioya qilingan chizmalar paydo bo'ldi. Bunda uzunligi, kengligi va balandligi tasvirlangan uchta proeksiyadan foydalana boshlandi. 1719 yilda Pyotr I tomonidan proeksiya nurlaridan foydalanib, chizilgan eshikli qayiq chizmasi ko'rsatilgan. XVIII asrda chizmalar g'oyatda puxta va rangli tusda bajarildi. Bu chizmalarda shartli qirqimlar bajarildi va buyumning kesilgan qismi materialiga qarab bo'yab ko'rsatildi. M.Kant va uning o'tmishdoshlari Yevklid geometriyasini yagona, hatto ilohiy geometriyadir deb hisobladilar. Fransuz muhandisi matematik olim, davlat arbobi Gospar Monj (1748-1818) reja va fasadni birgalikda ishlatilganda insondagi geometrik kashfiyotchilikka doir tafakkur keskin rivojlantirib yuyuborish mumkinligiga alohida e'tibor berdi. To'g'ri burchakli (ortogonal) proeksiyalar usuli G.Monjga qadar ham grafik ishlarda qo'llanilgan. Monj esa dunyodagi bir qator mamlakatlarda bu sohada orttirilgan ayrim qoida va chet el olimlarining fazoviy metrik masalalarni grafik usul bilan yechish yutuqlarini umumlashtirib, har taraflama ishlab chiqdi va ilmiy jihatdan tizimga soldi. Chizma geometriya faniga bo'lgan talabni sezgan G.Monj birinchi marta klassik asarni 1799 yili «Chizma geometriya» (Geometrie descriptivi) nomi bilan yaratdi. O'sha davrdagi chizma geometriyani o'z tadqiqotlari bilan boyitgan olimlardan Vaynbrenner, Dyuken, Gashet, Bordon, Perez, Brisson, Myulenger, Gauss, Veybaklarni ko'rsatib o'tish lozim. Markaziy Osiyo mintaqasida shahar va qishloqlarning paydo bo'lishi asrimizga qadar bir minginchi yillarning o'rtalariga to'g'ri kelsa, mahalliy uslubda me'morchilik va dekorativ ishlarning ayrim sohalari asrimizga qadar III asrga to'g'ri keladi. O'zbekiston hududida Surxondaryo va boshqa viloyatlarda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, asrimizdan avvalgi VII-V asrlarda Markaziy Osiyo bilan Eron Sosoniylari, Vizantiya, Hindiston va Xitoy o'rtasida vujudga kelgan iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida amaliy san'atning rivojlana borishi o'z



oʻrnida grafika taraqqiyotiga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Simmetriya, geometric shakllar bu davrda oʻz ifodasini topa boshladi. Tasviriy va naqsh sanʼati paydo boʻla boshladi. Ayniqsa, naqsh sanʼati Xorazm, Sugʻd, Baqtriya viloyatlarida IV-II asrlardan boshlab rivojlangan. Curxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asrlarda), Dalvarzintepadagi topilgan naqsh qoldiqlari, Xorazmdagi Tuproqqalʼa zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizlarga arxeologik qazilmalardan maʼlum. Xorazm vohasida meʼmorlik sanʼati eramizdan avv.III asrda va eramizning III asrida ulkan yuksaklikka erishdi. Shu davrda Termiz madaniyati shuhrati dunyoga tarqaldi. Afrosiyob va Axsikent yangi eramizning III-VII asrlaridek tom maʼnoda gullab yashnadi, tabiiyki, bu davrda oʻyma naqshlarni tasvirlash usuli rivojlandi. VII-IX asr oʻrtalarida arablar istilosi va islom dinini qabul qiinishi natijasida jonli mavjudotlarni tasvirlash maʼn etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. P.Odilov va boshqalar. Chizmachilik., - T., TDPU. 2000.
2. Murodov SH., Tashimov N., «Grafika tarixi va taraqqiyoti», T-2011, TDPU
3. www.Ziyo.net



ТА'ЛИМ ЖАРАЙОНИДА О'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA UNDAYDIGAN INTERFAOL METODLAR

*Ismoilova Mukaram Mirpayziyevna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
315-maktabning o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini dars jarayonida jadallashtirishga xizmat qiladigan interfaol metodlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik-psixologik, interfaol, metod, ta'lim mazmuni, o'quvchilar, dars jarayoni.

So'nggi yillarda umumta'lim maktab tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanib borilishi, ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida "aktyor" emas, aksincha "rejissyor" bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z o'quvchilarini fanga ijodkorli nuqtai nazari bilan qarshlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u bir necha yangi ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi.

Dars maboynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda o'quvchilarning aqliy salohiyatini yuqori, mustaqil va erkin fikrlovchi shaxs sifatidagi qiyofani shakllantiradigan interfaol metodlarni ko'rib chiqamiz.

"Nuqtai nazaring bo'lsin" metodi - ushbu uslubning maqsadi quyidagilar:

1. O'quvchilar muayyan muammoga o'z nuqtai nazarini asosli dalillab himoya qilishga o'rganadilar;

2. O'qituvchi barcha o'quvchilarni munozaraga jalb etish va sinfdagi hamma o'quvchilar o'rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

Nuqtai nazaring bo'lsin metodi uslubi o'quvchilar o'rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o'z fikrini o'z sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o'zgartirishga ishontiradigan g'oyalarni eshitib o'zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini berish maqsadida qo'llanadi. O'quvchilar shuningdek, maktab, mintaqa, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo'lgan eng dolzarb muammolar o'z nuqtai nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o'rganadilar. O'qituvchi ochiqdan-ochiq savollar uslubi bilan odatda dars jarayonida faol bo'lmagan o'quvchilarni munozarada ishtirok etishga majbur qiladi.

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi. Mazkur metodda ko'proq o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar alohida – alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o'rganish lozim bo'lgan o'quv materialini kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o'quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o'quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o'tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o'quvchilari o'rtasida o'z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'quv bahsi, munozara o'quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o'quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarini, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llanib, yangi bilimlarning o'zlashtirilishiga bog'liq bo'ladi.

"Zig-zag strategiyasi" metodi – sinf o'quvchilari 7 guruhga bo'linadilar va guruhlar nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan



liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarining o'quvchilari o'zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganib chiqilgach o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g'oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi. So'ngra o'zlashtirilgan bilim asosida o'quvchilarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

“Arra”metodi – pedagogik amaliyotda mazkur metoddagi kichik guruhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o'quvchi guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha mutaxassisga aylanadi. Bu guruhlarda har bir qism mutaxassis bo'lishi shart, mazkur mutaxassislar o'zlari egallagan bilimlarini xuddi arra tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o'rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o'quv materiali mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

Yozma bahslar – o'quvchilarga sinfdoshlar bilan birgalikda hozirgi vaqtda jamoatchilik fikrini to'liqlantirayotgan mavzularda dialoglar rejalashtirish imkonini berish kerak. Yozma bahslar metodikasi yozma shakldagi bunday dialoglarni sinfdagi barcha o'quvchilar ishtirokida o'tkazish imkonini beradi. Metod o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratadi. Munozara madaniyatini o'rgatish, asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.

Komandada o'qitish metodi – mazkur metoddagi o'quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a'zolari o'quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o'quvchi mavzudan ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga e'tibor qaratadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar o'rtasida tom ma'nodagi hamkorlik har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining natijasi avval qo'lga kiritgan natijasi bilan taqqoslanadi.

Shundagini o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishga intiladi.

Yuqorida keltirilgan barcha metodik texnologiyalardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, interfaol usullardan foydalanib dars o'tilganda guruhda o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchi qolmaydi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Tolipov O.Q., Usmonboyeva M.U. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.

2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008.



SMART TA'LIM VA UNING IMKONIYATLARI

Jumaniyazova Go'zal Abdirimovna
Urganch tumani 13-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (93) 756 66 50
g_abdirimovna6650@inbox.uz
Poliyozova Shoxida Axmedovna
Bog'ot tumani 47-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (99) 573 52 71
sa_poliyozova47@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola smart ta'lim va uning imkoniyatlari hamda ta'lim jarayonidagi o'rni haqida.

Kalit so'zlar: Smart ta'lim, elektron hukumat, elektron uy, elektron ta'lim, aqlli ta'lim, internet, twitter, facebook.

XXI asrga kelib insoniyat hammaga birdek axborot olish imkoniyatini beruvchi ochiq axborot jamiyatini shakllantirish tomon jadal bormoqda. "Elektron hukumat", "elektron uy", "elektron tijorat", "elektron ta'lim" kabi raqamli borliq elementlari hayotimizga kirib ulgurdi va odatiy hol bo'lib qoldi. Endilikda insoniyat elektron resurslardan shunchaki axborot man'basi sifatida emas, balki interfaol muhitda ulardan aql bilan foydalanishni maqsad qilib qo'ymoqda. Bu jadal yangilanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan muloqot darajasida foydalanish, ma'lumotlarni qayta ishlash va qaysidir ma'noda odam o'rnida "o'ylash"ga majbur qilishni talab qiladi. Bunday "aqlli", inson bilan muloqot qiluvchi va o'rgatuvchi elektron resurslarni yaratish o'ta dolzarb va mashaqqatli ish bo'lib, uni yaratishga butun dunyoning eng malakali mutaxassislari imkoniyatlarini birlashtirishni taqozo qiladi. Bu yo'nalishda qo'yilgan salmoqli qadamlardan biri bu ta'lim sohasida dunyo bo'yicha amalga oshirilishi boshlangan Smart education loyihasini keltirish mumkin.

Smart education (yoki aqlli ta'lim) – bu ochiq axborot resurslari yordamida interaktiv virtual muhitda amalga oshiriladigan moslashuvchan va induvidualashtirilgan yangi global ta'lim texnologiyasidir. Uning eng asosiy xususiyati uning butun dunyo miqyosida amalga oshirilishi va hammaga birdek axborot olish va keng ta'lim olish imkoniyatlarining yaratilishidir.

Smart education ta'lim muhiti o'z navbatida uning qatnashchilaridan butun ta'lim jarayonini, foydalanilayotgan metod va texnologiyalarni yangilash va bir tizimga keltirishni taqozo etadi. Xuddi shu maqsadda Yevropa Ittifoqi davlatlari o'z ta'lim tizimlarini bir xil standartga keltirish yo'lidan borishmoqda va dunyoning boshqa davlatlarini ham bunga da'vat etishmoqda. Kelajak ta'limi muhiti sifatida e'tirof etilayotgan yagona Yevropa universiteti loyihasi bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan salmoqli qadamlardan biridir.

Kecha ta'lim olishning yagona manbasi o'qituvchi bo'lib, o'quvchi ta'lim olish uchun sinfxonaga kelishi va o'qituvchi bilan yuzma-yuz muloqot qilishi yoki kitob o'qishi hamda tushunmaganlarini o'qituvchidan so'rab o'rganishga majbur edi. Bugunga kelib, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan o'quvchi bilimni nafaqat sinfxonada o'qituvchidan, balki istalgan

joyda, internetdagi boshqa faol bilim manbalardan ham olish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Shu bilan birga, hozirda qo'llanilayotgan ta'limning pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'qituvchining ta'lim jarayonidagi rolini o'zgartirmoqda. O'qituvchining roli endi faqat bilim manbai emas, balki bilim olishga yo'naltiruvchi va bu jarayonni boshqaruvchisi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu o'rinda interfaol texnologiyalarning qo'llanishi o'quvchilarning o'zi ham bilimlarni bir-birlariga uzatish va yangilarini shakllantirish manbai sifatidagi rolini oshirmoqda. Bundan tashqari, so'nggi yillarda o'quvchi yoshlarning Twitter, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarni ishg'ol qilganliklari va turli qiziqishlar, xususan ta'lim olish bo'yicha o'z uyushmalarini tuzib, faol muloqot qilayotganliklari, ya'ni o'zaro keng muloqot, ta'lim muhitining yaratilganligi mazkur ta'lim tizimiga bo'lgan qiziqishni orttirmoqda.

Smart education ta'lim muhiti vositalari ham kun sayin o'zgarib bormoqda. Endi istalgan joydan internetga ulanish imkoniyatining yaratilganligi, mobil kommunikatsiya vositalari, "aqlli" doska, "aqlli" ekran va ta'limning boshqa "aqlli" texnik vositalarining paydo bo'lishi va kun



sayin takomillashib borishi Smart education ta’lim muhitida faol bilim olish nufuzini yanada oshirmoqda.

Bu o’z navbatida bilim manbai sifatida kitob bilan bir qatorda undan ancha afzalliklarga ega bo’lgan faol, qulay va mobil ta’lim mazmuniga bo’lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Buni birgina kitob va internetda joylashtirilgan ma’lumotlar, ta’lim mazmuni hajmlarini taqqoslash orqali ham anglab yetish mumkin. Internetda joylashtirilgan va kun sayin, soat sayin karralab oshib borayotgan veb resurslardagi ma’lumotlar, ya’ni bilimlar xazinasidan oqilona foydalanish, internet qulayliklari va texnik imkoniyatlaridan to’laqonli foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan. Bunday yagona ta’lim tizimi texnik jihatdan ta’minlangani bilan unda tegishli ta’lim mazmuni, mobil va interaktiv muhitda ishlaydigan ta’lim resurslari bo’lmasa, undan foyda yo’q, albatta. Bu masala yaqin kelajakda eng malakali mutaxassislar, olimlar va uslubchilar tomonidan yaratiladi va ochiq resurs sifatida taqdim etiladi. Bunday resursga misol tariqasida, AQShda 2015 yilda Discovery Education kompaniyasi tomonidan qator fanlardan texnologik darslikni keltirish mumkin. Mazkur darslik “Smart education” ta’lim muhitida ishlashga mo’ljallangan. Mazkur texnologik darslik o’zining tuzilmasi, o’quv materiallarining rang-barangligi, interfaol muloqot va o’quvchilarning individual ta’lim olish trayektoriyalarini tanlash imkoniyatlarining yaratilganligi, nazorat va tarqatma materiallar mavjudligi, o’qituvchilar uchun uslubiy ta’minotning berilganligi hamda uning mazmuni takomillashtirish uchun ochiqligi bilan ajralib turadi. Darslikdan o’rin olgan har bir mavzu bo’yicha nazariy materialni o’rganish, o’zlashtirilgan bilimlar asosida ko’nikmalarni shakllantirish uchun mashqlar va kundalik turmushdan olingan vaziyatlarda bilim va ko’nikmalarni amalda qo’llash va tadbir qilishga doir turli tuman interfaol mashq va topshiriqlar o’rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Ishmuhamedov R.J. Innovation texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o’qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o’qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

2. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari o’qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste’dod, 2010.-140 bet.

3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.



INSON NIYAT BILAN NASIBA O‘RTASIDA YASHAYDI

*Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar
XTB ga qarashli 20-sonli maktabning
amaliyotchi-psixologi
Karimova Dilnoza Mansurovna*

Anotatsiya. Xalqimizda "Yaxshi niyat-yarim davlat" degan naql bor. Hayotiy tajribalar buni isbot qilib kelmoqda. Shuning uchun yosh avlodga ham buni hayotiy misollar bilan tushuntirishga harakat qilishimiz kerak.

Inson niyat bilan nasiba o‘rtasida yashaydi. - Donolar bisotidan

-Bolalik kunlarimda,

Uyqusiz tunlarimda.

Ko‘p ertak eshitgandim,

So‘ylab berardi buvim.

Esimda o‘sha damlar,

O‘zi uchar gilamlar.

Tohir-Zuhra, Yoriltosh,

Oyni uyaltirgan qosh.

Ot bog‘lagan qanotlar,

Beqanot uchgan otlar...

So‘ylaguvchi devorlar,

Bola bo‘p qolgan chollar...

Fikrlarimni bejizga shoirning ushbu misralari bilan boshlamadim. Qadim-qadimdan otabobolarimiz hayotlari davomida qanday mo‘jizalarni niyat qilishgan bo‘lsa, ularni ertaklarda, rivoyatu hikoyatlarda, masalu matallarda, qolaversa, o‘z asarlarida ifodalashgan: uchar gilamlar, uchar otlar, oynai jahon, tezyurar etik, shifobaxsh damlamalar, pahlavon-bahodirlar...

Yillar o‘tishi bilan rivoyatlardagi bu mo‘jizalar kashf etildi va insonlar hayotiga ancha yengillik olib kirdi: avtomobil, televizor, telefon, samolyot, vertolyot, poyezd, kompyuter... Ularning son-sanog‘i yo‘q va hali-hanuz kashf etib kelinmoqda. Ular haqida asarlar, kinofilmlar, multafilmlar yaratildi. Axir yaxshi niyat-yarim davlatda...

Lekin so‘nggi yillar davomida yaratilayotgan asarlar, kinofilmlar, hattoki, multafilmlar va bolalar o‘yinchoqlariyu kiyimlarida ham salbiy holatlarni ko‘rishimiz mumkin (Ayniqsa chet el filmlarida). Ularda bosqinchilik, odam o‘ldirish, xiyonat, turli tabiiy ofatlar – yong‘in, suv toshqini, zilzila, tuzalmas kasalliklar, insonlar tomonidan yaratilayotgan anglab bo‘lmas mavjudotlar, qandaydir tuzalmas viruslar, qirilib ketishlar, zombilarga aylanib qolishlar...

Va, bu, bizning tom ma‘nodagi "niyatlarimiz"ni amalga oshayotganini ko‘ring: yer yuzining turli joylarida bo‘layotgan yong‘inlar, qurg‘oqchiliklar, zilzilayu suv toshqinlari, kasalliklaru qirg‘inbarotlar, odamfurushlik, mehirsizligu xiyonat... Bular, biz kattalarning yaratayotgan asarlarimizdagi "orzu niyatlarimiz" emasmi?!...

Hozirgi o‘rta va keksa yosh vakillari ko‘p ham bunday filmlarni qiziqib ko‘rishmasa kerak (o‘zimdand kelib chiqib aytyapman). Lekin ming afsuski, yosh avlod mana shunday asarlar, filmlar ta‘sirida katta bo‘lishmoqda. Va, eng achinarlisi, ko‘p borada ularga taqlid qilishmoqda. Xo‘sh, kelajakda ulardan nimani kutamiz, aybdor o‘zimiz bo‘lib?!...

Yoshligimizda kimdir saraton yoki sil kasalligiga chalilib, vafot etsa, "nimadan bo‘lmabdi?" (qarang, "o‘libdi" emas) degan savolga kasallikning nomini aytmay, "yomon kasallikdan" deb qo‘yishardi. Yoki biror noxush voqeani bir-birovlariga aytib qo‘yishsa, orqasidan "eshitgan joyda yaxshilik bo‘lsin" deb qo‘yishgan. Ba‘zida juda oddiy, juda sodda tuyulgan bu serma‘no fikrlar ayni zamonada ko‘pchilikning yodidan chiqdiyov...

Fikrlarimni shu yerda yakunlay qolay va maqsadga o‘tay: Hurmatli kattalar! Keling, farzandlarimizga yaxshi niyat qilishni o‘rgataylik, ezgulik bilan yo‘g‘rilgan kitoblar va filmlarni ilinaylik. Yaxshilik va ijobiy fazilatlarini ulug‘lovchi asarlar yarataylikki, farzandlarimiz ulardan



bahra olib, oʻrnak olishsin. Va bu dunyodan faqat hikmat izlashsin!

Biz esa ularning hayotlari chiroyli va mazmunli boʻlishiga yordam beraylik!!!

Gʻurbat izlaganga gʻurbatdur dunyo,

Illat izlaganga illatdur dunyo.

Kim neni qidirsam topgay begumon

Hikmat izlaganga hikmatdur dunyo.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov."Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"
2. H.Olimjon."Oygul bilan Baxtiyor" ertagi.
3. Oʻzbek xalq maqollari.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA IQTIDORLI O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING AHAMIYATI

*Kenjayeva Marhabo Boynazarovna
Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani
14-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda tabaqalashtirilgan o‘qish metodlari yaxshi samara beradi. Bunda o‘qituvchi faqat iqtidorli o‘quvchilar emas, balki qiyin o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashga muvaffaq bo‘ladi.

Tabaqalashtirilgan o‘qish metodi haqida

Tabaqalashtirib o‘qitishda o‘quvchilar bilim darajasiga, aqliy rivojlanganligiga qarab tabaqalashtiriladi.

Tabaqalashtirib o‘qitishning asosiy maqsadi:

1. Har bir o‘quvchini imkoniyatlari va qobiliyati darajasida o‘qitish;
2. O‘qitish usulini o‘quvchilarning xususiyatlariga moslashtirish;

Tabaqalashtirib o‘qitish texnologiyasida odatda sinfni bilim va ko‘nikma darajalariga qarab uchta: A, B, C guruhlariga bo‘lish nazarda tutiladi. O‘qituvchi uch guruhga uch xil dastur ishlab chiqadi. Dasturlar o‘rtasida uzviylik bo‘lib, ular bir-birini to‘ldirishi kerak. C dastur majburiy minimumni tashkil qiladi. Bu dastur topshiriqlarini barcha o‘quvchilar bajara olishi kerak. B dastur C dasturni to‘ldiradi. A dastur esa iqtidorli o‘quvchilar uchun mo‘ljlanlangan. Bunday tabaqalashtirish o‘quvchilarning rivojlanish darajasi ko‘proq hisobga olish, o‘quvchining individual o‘zlashtirish tempiga moslashish imkonini beradi.

Ushbu usulda o‘qituvchining mahorati nuqtayi nazaridan o‘quvchilarni baholash jarayoni ancha qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Chunki, bu usulning asosiy shartlaridan biri har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanish darajasi, o‘quv faoliyatining sifati baholanishi kerak. Har bir guruhning ichida o‘z “a’lochilari”, “qoniqarli” o‘zlashtiruvchilari bo‘lgani sababli, o‘qituvchi har bir qiyinchilik darajasidagi topshiriqga bir xil, masalan, besh baho qo‘yish kerak. Lekin bu vaqtinchalik hol bo‘lib, kuchsiz guruhlarga besh baho qo‘yilishi o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini ortirradi. Natijada uning bilim olishga intilishi kuchayadi.

Shuni aytish lozimki, tabaqalashtirib o‘qitish pedagogikada birday baholanmaydi. Bu usulning yutuqlari bilan kamchiliklari ham yetarli. Bu usul mahorat bilan qo‘llanilmasa, salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Ammo bu usulni qo‘llashdagi kamchiliklar va muammolarni “avtonom” deb hisoblash mumkin. Bu usulda iqtidorli o‘quvchilar bilan ko‘proq ishlashga, hamda zaif o‘quvchilarning ham e‘tibordan chetda qomasligiga imkon yaratadi.

Iqtidorli bolalar bilan ishlashda shaxsni faollashtirishga yo‘naltirgan ta’lim texnologiyalari ham qo‘l keladi.

Shaxsni faollashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari haqida

Ta’limda o‘quvchi shaxsiga faoliyatli yondashuv bu tizimning konsepsiyasini tashkil etib, bunda shaxs “sub’ekti” kategoriyasi erkinlikka intilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, yaxlitlik, mustaqil o‘qish, o‘zligini namoyon etish va faollashtirish xususiyatari asosida anglashiladi, o‘quv jarayoni va uning tarkibiy qismlari-maqсад, mazmun, metod, shakl, usul, vositalar o‘quvchi uchun shaxsan ahamiyatga ega bo‘lgan, uning shaxsiy tajribasi mahsuli sifatida tatbiq etiladi. o‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T:1994-yil
2. “Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash” haqidagi ma’ruzalar matnidan.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MA’NAVİY-AXLOQIY TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH USULLARI

*Mamarahimova Sayyora Abdug‘aniyevna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
7-sonli maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Maxkamova Gulnoza Mirzajanovna
Namangan viloyati Uchqo‘rg‘on tumani
6-sonli maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dars o‘tish jarayonida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning usullari haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich sinf, ma’naviy-axloqiy, tarbiya, usul, dars, malaka, ko‘nikma
“Ma’naviyatli halqni yengib bo‘lmaydi”

Inson ma’naviy ruhiga ta’sir etishda va ma’naviyatini mustahkamlashda ta’limning roli benihoya kattadir. Ta’limning qay darajada berilishi esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy, bilimdonligi, iqtidori, uslubining rang-barangligiga bevosita bog‘liqdir. Shu boisdan ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’naviyat elementlarini singdirish vazifasi o‘qituvchilardan tinmay o‘z bilim ko‘lami va doirasini kengaytirib borishini talab etadi. Hamda ular dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ma’naviy- axloqiy tarbiya bo‘yicha maqsad va vazifalarini aniqlab belgilashlari va bunda kafolatlangan natijalarga erishish uchun ta’lim jarayonini loyihalash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim.

Boshlang‘ich ta’limda sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy va axloqiy tarbiyalashga, ularni darsga nisbatan qiziqishlarini orttirishga, milliy ma’naviy meroslarimizga sodiqlik, ajdodlar ruhini hurmat qilish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiya metodlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi vaqtda insonlarning ma’naviy-axloqiy bilimdonligini rivojlantirishga e’tibor qaratish talab etilmoqda. Buning uchun esa, ma’naviy ta’lim berish boshlang‘ich sinflaridan boshlab uzluksiz tarzda olib borilishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga taqdim etiladigan ma’naviy-axloqiy bilimlarning samaradorligi ham ko‘p jihatdan ta’lim mazmunini, usul va metodlariga bog‘liq. Ma’naviyatga oid bilimlarni taqdim etish usul va metodlari har bir yoshdagi o‘quvchining ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari asosida tanlanishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviyatga oid bilimlar bilan tanishtirish dastlabki harakterda bo‘lishi kerak. Bu yoshdagi o‘quvchilarga alohida elementlar ma’naviy tushunchalarni o‘rnatishga urg‘u berish maqsadga muvofiqdir. Ma’naviy-axloqiy tushunchalar interfaol usullar yordamida obrazli, his- hayajonli va qiziqarli o‘yin shaklida bayon etilishi kerak. Ma’naviy-axloqiy bilimlarni taqdim etishda nimani o‘quvchilarga berishgina emas, balki qanday berish ham katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongiga ma’naviyatga oid bilim va tushunchalarni yanada chuqurroq singdirish uchun ularga har xil o‘yinlar, musobaqalar, sahna ko‘rinishlari, ta’limiy topshiriqlar berish maqsadga muvofiqdir. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarda ma’naviyatga oid bilim ko‘nikmalarni hosil qilish, ya’ni ularni kichik yoshdan boshlab atrofda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga ahamiyat qaratish, ularga nisbatan o‘z fikrini bildirish, halol, irodali bo‘lish, kattalarni hurmat qilish, mehnatni qdrash, nutqni rivojlantirish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, sabr-qanoyatli bo‘lish ruhida tarbiyalaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda darsning turli shakl hamda vositalaridan foydalanish lozimligi amaliyotda natijaga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang‘ich ta’lim” jurnalidan



BOSHLANG'ICH TA'LIM VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Meliboyeva Barnoxon Normatovna
Qo'qon shahar 36-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
e-mail:normatovna@inbox.uz

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinflarni o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda dars jarayoniga bo'lgan muhim omil sifatidagi vosita ekanligi xususida mulohazalar bayon etilgan

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, didaktik o'yin, o'quvchi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi. Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobi-liyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullarni tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, u haqiqatan ham ta'lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Shuning uchun ham ta'limga texnologik yondashuv katta ahamiyatga ega.

Ta'limga texnologik yondashuv:

- ta'lim jarayoni maqsadini aniq belgilashni;
- o'qish-o'qitish jarayonini uzviy bog'liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo'lishni;
- ta'lim jarayonida mo'ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirish, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini bir xil bajarishni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, urejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi, avvalo, o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'qitiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak. Shuni ta'kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o'tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish



osonlashadi. Didaktik jarayonning samarali o'tishida motivlar muhim o'rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo'ladi. Motiv kishini biror ish-harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki. Shunday ekan, muallimlar bolada o'qish motivlarini hosil qilishga intilishlari va uni o'stirishlari kerak. Motivlar o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalami oson egallashlariga yordam beradi. Motiv bolada bilim olishga ishtiyoq va qiziqish uyg'otadi. O'qituvchilar bundan mohirlik bilan foydalanishlari va o'quvchilarga beriladigan mustaqil ishlar tizimini ishlab chiqishlari foydadan holi bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot-maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'adi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda o'qish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish, faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Diss. T, 2001-yil
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T., 2008-yil
3. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T., 2010-yil



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASH ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA ONA TILINI O'RGANISHNING O'RNI

*Murodova Dilobar Farhodovna
Haydarova Dilfuza Savriddin qizi
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
3-umumiy orta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o'rganishning ahamiyati haqida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, tafakkur, ong, fonetika, leksika, grammatika, so'z yasalishi, til, ong, tabiat, ot, sifat, son, fe'l.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti – o'quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyida ko'rsatilgan omillar tilni o'rgatish bilan bog'liq holda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi:

1. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Maktabda, shu jumladan, boshlang'ich sinflarda tilni o'rgatishning yetakchi yo'nalishi o'quvchilar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi.

2. Til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning maxsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o'zicha yashamaydi.

3. Til va tafakkur atrofimizni o'rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir. Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. So'z tushunchaning shartli nomini o'zida aks ettiradi. Dunyoda yo'q narsa ongda ham, tilda ham bo'lmaydi. Bu holat o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish asosini tashkil etadi va didaktik tamoyillardan birini, ya'ni til atrofini o'rab olgan muhitni, voqelikni kuzatish jarayonida faol bilish faoliyati vaziyatida o'rganilishini belgilaydi. Bunday yondashish dunyoqarashning asosiy masalalaridan biriga, ya'ni nima birlamchi: tabiat (materiya) mi yoki ongmi degan savolga javob tayyorlash hisoblanadi; materiya – birlamchi, ong – ikkilamchi degan tushunchadan o'quvchilarning xabardor bo'lishiga yordam beradi.

4. Til – barcha tomonlari o'zaro dialektik bog'lanishda va birlikda bo'lgan murakkab, ko'p qirrali hodisa. Aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari, uning barcha jihatlarini bir-biriga o'zaro ta'sir etadi, shunday sharoitdagina til o'zining aloqa quroli vazifasini bajara olgan.

Maktabda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasalishi) ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyil bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini bunday idrok etish hodisalarning rivojlanuvchanligi va o'zaro bog'langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi.

Maktab tajribasi va maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida qayd etilgan dastlabki qoidalarni o'quv jarayonida amalga oshirishda ijtimoiy hodisa sifatida til haqidagi bilimlar majmuasini to'g'ri tanlash, asosiy til hodisalarini va turlarini tushuntirishda o'qituvchining tutgan metodologik yo'lining aniqligi, o'quvchilar fikrlashini faollashtirish, til nazariyasini o'g'atishga asos bo'ladigan til materialining yuqori sifatli bo'lishi kabi dalillar hal qiluvchi ta'sir etadi. Shubhasiz, har bir omil maktab tajribasida bir-biridan to'g'ri, maqsadga muvofiq ta'siri ijobiy natija beradi.

Tilni ijtimoiy hodisa sifatida tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Tilning ijtimoiy mohiyati uning aloqa vazifasini bajarishida ko'rinadi. Uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini aniq tushunishga yordam berish uchun quyidagi jihatlariga ahamiyat berish kerak:

a) o'quv jarayonida har bir til birligining nutqimizdagi o'rnini o'quvchilar o'zlashtirishini ta'minlash zarur. O'quvchilar tilning aloqa vazifasini tilning asosiy birliklari (fonema, marfema, so'z, so'z birikmasi, gap) ning vazifasini tushuntirish jarayonida o'rganadilar.



b) o'quvchilarning tilning o'zaro aloqa vositasi ekanligini tushunishlari "Til har bir kishi, umuman, jamiyat hayotida qanday o'rinni egallaydi?" savoliga javob topishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tishi bilan bu savolga javob chuqulashib va kengayib boradi. Til kishilarning birgalikdagi mehnat faoliyatida, yangiliklarni maslahatlashib tushunishida, yangi mashinalar ixtiro qilishida zarurligi haqida misollar topib, o'z fikrlarini tasdiqlaydilar. Yoshlari ulg'aygan sari o'quvchilar odamning odam bo'lishida tilning ahamiyatini tushuna boradilar. Odam o'zining fikrlash faoliyatini rivojlantirish va nutqini o'stirish bilan o'zini doimo takomillashtirib boradi. Olamni, koinotni o'zgartira borib, kishi yanada kamol topa boradi, uning tili ham boyiydi. Kishilar bilan jamiyat a'zolari bilan aloqa, munosabat har bir kishining o'sishi rivojlanishida zaruriy shartlardan hisoblanadi.

d) boshlang'ich sinf o'quvchilarining tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarashini shakllantirishda tilning kelib chiqishi, tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi haqida ularning saviyasiga mos bo'lgan "sir" ni yechish ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi o'quvchilarga tilning bir kishi tomonidan maxsus o'ylab chiqarilmaganini, u ibtidoiy odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'liq holda yaratilganini va asta-sekin rivojlanib borganini tushuntiradi. Atofmizda mavjud bo'lgan shaxs va narsalarga, ularning belgilariga, jarayonga, juda ko'p boshqa narsalarga kishilar nom qo'yganlar. Shunday qilib, til yangi so'zlar bilan boyidi va boyib bormoqda. Tilning rivojlanishi, ayrim so'zlarning ma'nolari haqidagi bilimni boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lni o'rganish jarayonida asta-sekin o'rganib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva Ona tili o'qitish metodikasi.
2. www.ziyonet



BOSHLANG'ICH SINFLARDA OT SO'Z TURKUMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Murolimova Muhayyo Bohodirovna
Farg'ona shahar 1-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
e-mail:muhayyo@cmail.com

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'qitish va uning o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarda ot so'z turkumiga oid tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: DTS, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, oddiy, murakkab, xususiy, umumiy, otga xos tushunchalar.

“Ot” mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangan. Boshlang'ich sinflarda otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

- 1) “ot” haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- 2) *kim?* So'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan *nima?* So'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;
- 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;
- 4) otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;
- 5) otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;
- 6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;
- 7) o'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinli foydalanish malakasini o'stirish;
- 8) so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, “Ot” mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, I-II sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, III sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. IV sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi.

O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi. So'z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (*kishi, qush, hayvon, asalari*), yer va osmonga oid narsalar (*quyosh, yulduz, daryo, tog'*), o'simliklar (*paxta, beda, gul*), voqealar (*yig'in, majlis*), tabiat hodisalari (*shamol, bo'ron, yomg'ir, momaqaldiroq*), belgi-xususiyat (*ahillik, kuchlilik, samimiyat*), harakat-holat (*uyqu, sevinch, kurash*), o'rin va vaqt (*yoz, bahor, joy*) nomlarini bildiradi. Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birika oladi.

Otning ma'nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o'quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. S.Matchonov va boshqalar “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish”, Toshkent, 2008 y.
2. S.Matchonov, X.G‘ulomova, M.Suyunov, H.Boqiyeva, “Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish”, Toshkent, 2008 y.
3. O‘zbek tilining imlo lug‘ati, Toshkent, “O‘qituvchi” 1995 y.
4. T.Gaforova, “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, O‘qituvchi kitobi, Toshkent, 2011 y.
5. K.Qosimova, S.Matchonov, H.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldasheva, Sh.Sariyev, “Ona tili o‘qitish metodikasi”, Toshkent 2007y.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

*Normatova Zebo Xayrullayevna
Farg'ona viloyati Farg'ona tumani
28-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'qish darslarida didaktik o'yinlar va interfaol usullardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Didaktika, interfaol, qiziqish, shakllantirish, dars, tafakkur.

Pedagogik texnologiya-bu ta'lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasiga qo'yadigan texnik va shaxsiy resurslarni va ularning bog'liqligini hisobga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli. Ta'limni takomillashtirishda zamonaviy bilimlarga yo'l ochish pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Zamonaviy ta'limning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun ilg'or texnologiyalarni hamda o'quv, tarbiya jarayonining didaktik ta'minotini yaratish, ta'lim mazmunini inovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish kerak. O'quv jarayonida ishlaydigan o'qituvchilarning pedagogik tafakkurida boshlangan pedagogik texnologiya darslari protsesslarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarurdir. Bu hamkorlik asosida o'quvchilarning faolligini oshirish uchun maxsus ishlab chiqilgan: o'quvchilarga boshqalarning fikrlarini eshitish, tushunish, hurmat qilish, boshqalarning manfaatlarini hisobga olish, ularni o'rgatish, ularga ta'sir qila olish.

Tushunish, idrok etish, o'zini o'zi boshqarish, fikrini aniq, aniq va batafsil tushuntirish qobiliyatiga, interfaol o'qitish usullari, o'z-o'zini va boshqalardan foydalanish "Men" tezda rivojlanadiva ijobiy samara beradi. O'qitishda interfaol metodlardan foydalangan holda o'quvchilar o'rtasida raqobat muhiti yaratildi, bu o'quvchilarning oldinga siljishiga imkon berdi, natijada o'quvchilar birgalikda o'rganishni boshladilar. Har qanday interfaol usul o'quvchilarni to'g'ri va maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya- bu o'qituvchi asosiy javobgar shaxs bo'lgan ta'lim tizimining ratsional usullarini ishlab chiqaradigan jarayon. Chunki uning asosiy vazifasi o'quvchilarga tezkor, aniq va tushunarli tarzda ma'lumot berishdir.

Boshlang'ich ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun darslarimizda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalaridan, didaktik o'yinlar va interfaol usullardan foydalanishimiz darkor. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun didaktik o'yinlar bilim olishning faollashtiruvchi ish turlaridan biri bo'lib o'quvchilarda tafakkur, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar o'qish darslarida o'quvchilarning qiziqishini o'stiruvchi vositalardan hisoblanadi. Didaktik o'yinlarning maqsadi o'quvchilarning fanga, ta'lim olishga, kitobga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishdir. O'quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va ularga moyil bo'lishlariga va fe'l atvorning xilma-xilligiga qaramay, o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, kuzatishga, xulosa chiqarishga o'rgatishi kerak. Bunda o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchdir, o'qish, chizmalar chizish, bir-biri bilan do'stona munosabatda bo'lish, oldida turgan muammolarni hal qilishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasidir. Ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar nafaqat o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarni beribgina qolmay, balki yoshlarimizni jamiyat, davlat, tabiatga munosabati bilan vatanparvarlik g'oyalari ongli va qalbiga singdirishni ta'minlaydi.

Didaktik o'yinlar bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg'otadi va ma'lumotlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu o'yinlar bolalarga atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga, tartibga solishga, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Didaktik o'yinlar o'quvchilar uchun qiyin bo'lgan bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Ta'limiy o'yinlarda mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma'lum qismida foydalanish lozim. Boshqotirma, tez aytish kabi o'yinlar muntazam o'tkazib turilsa, o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalar hosil bo'lib boradi. Dars jarayonida o'yinlarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazishda vazifalar, qoidalar va ularning natijalarini tekshirib borish lozim. Didaktik o'yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo'lish, jasur, qat'iyatli bo'lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Didaktik o'yinlar maktab o'qituvchilari va murabbiylari tomonidan ijod qilingan maktabgacha ta'lim muassasalarida tayyorlov guruhlaridagi



bolalarga va maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan. O‘yin orqali bola jamoani tushunadi. O‘zi bajarayotgan mashg‘ulotga nisbatan ongli munosabatda bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilardagi tortinchoqlik, xato qilishdan qo‘rqish kabi noqulayliklarga barxam beradi. Shunday ekan har bir darslarda didaktik o‘yinlar va interfaol metodlardan unumli foydalanmog‘imiz darkor. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatdosh kadrlar tayyorlaydigan o‘qituvchiga zamonaviy talablar to‘plamini belgilaydi. O‘zaro bog‘liq talablar to‘plami tarbiyachining umumlashtirilgan modelini tavsiflaydi va unga asoslanib quyidagi asosiy talablar: o‘qitish mahorati, tarbiya mahorati. Ta‘lim jarayonida inson omilini ta‘minlovchi shaxsiy fazilatlar-o‘qituvchilarning bilimlarini ob‘ektiv baholash va nazorat qilish qobiliyati. Bu shuni anglatadiki, oldiga qo‘yilgan murakkab mas‘uliyatli va shoshilinch vazifalarni bajarish, shuningdek, o‘quv jarayoni haqidayangi qarashlarni shakllantirish uchun o‘qituvchi quyidagi fazilatlariga ega bo‘lishi kerak:

Zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyot mohiyatini chuqur anglash;

Dunyo va inson t‘g‘risidagi bilim tizimini chuqur va keng nuqtai nazardan yangilash;

Pedagogik mehnat samaradorligini tahlil qilish usullarini bilish va o‘zini o‘zi baholay bilish;

Oilaviy ta‘lim va tarbiya muammolari to‘g‘risida tasavvurlarini rivojlantirish;

Texnik vositalarni va ta‘lim vositalaridan foydalanish usullarini bilish, bolalarni o‘zlarining izlanishlari, ijodkorligi, tashabbusi va aniq harakatlari orqali o‘qitish kabi sifatlarga ega bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich sinf metodikasi
2. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali
3. Ziyonet



DARSLARDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

*Qosimxo‘jayeva Muborakxon Raxmatillayevna
Marg‘ilon shahar 32-maktab o‘qituvchisi
Tel:+998(90)4080084*

*Rayimova Qimmatxon Xomitjonovna
Marg‘ilon shahar 32-maktab o‘qituvchisi
Tel:+998(90)3037709*

Annotatsiya: Maqolada darslarda o‘yinli texnologiyalardan qanday foydalanish misollar yordamida keltirilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarda o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash qanchalik foydali ekanligi tushuntirib berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, yangi pedagogik texnologiya, didaktik topshiriq, kim tezroq o‘yini, o‘yinli texnologiyalar, pedagogik mahorat

O‘quvchilar hayotida o‘yin katta rol o‘ynaydi. O‘yin bolalarning ongi va qalbiga singib ketgan faoliyatdir. **Ularning bu faoliyati** o‘yin turlariga qarab ob‘yektiv voqe‘likni, hayotni muayyan darajada o‘zida aks ettiradi. O‘yin sinfda o‘tilgan o‘quv faoliyatining ma‘lum darajada mustahkamlashidir. Darslarda didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati beqiyos. Ular orqali ta‘lim jarayonining samaradorligi oshadi. Ta‘limdagi o‘yinlarning yana bir foydali tomoni, o‘yinlar tufayli o‘quvchi yoshlarning miya yarimsharlarida ishlash faoliyati yanada yaxshilanadi.

O‘yinlar tufayli hamma fanlarning ijobiy tomonlari ko‘rinadi. Didaktik o‘yinlar orqali fanlar o‘zaro bog‘lanadi, ularning integratsiyalanishi yuzaga keladi.

O‘quv jarayonida samaradorlikka erishish uchun motivatsiyani to‘g‘ri tanlay olish kerak. Didaktik o‘yinlar esa ana shunday motivatsiyani bera oladi.

Tabiat darslarida esa videolavha orqali ko‘rsatilgan tasvirlarni suhbat asosida mustahkamlash mumkin.

Didaktik o‘yinga misol tariqasida “Sehrli saroy” o‘yini keltirish mumkin. To‘g‘ri va xatosiz hisoblashga o‘rgatish, Maktab ilm olish dargohi ekanligi haqida tushunchalar berish o‘yinning maqsadi. O‘yin bayonida misol keltirish orqali ona o‘z bolasini bir saroyga olib keladi va bolasiga bir saroyga olib kelganligini, bu yerda bolasi bir muddat qolishi, keyinchalik aqlli bo‘lib yetishishini aytadi. “Quvnoq vagonlar yoki poyezd” o‘yini. Didaktik topshiriq: O‘quvchilarning arifmetik amallarni bajarishlari jarayonida yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarni bartaraf etishga o‘rgatish. O‘yin topshirig‘i: Topshiriqlarni doiraviy misollar yechish orqali o‘quvchilarning bilimni mustahkamlash. O‘yin bayoni: O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagicha savol beradi: — Siz qanday transportlarni bilasiz? — Javob: — avtobus, tramvay, trolleybus, poyezd, metro, yengil mashinalar. — O‘qituvchi: Juda to‘g‘ri javob qildingiz, endi biz sizlar bilan «Quvnoq vagonlar» o‘yini o‘ynaymiz. Bu o‘yinni turlicha o‘tkazish mumkin.

Bolalarga tabiiy bilimlar yoshligidanoq berilar ekan tabiiy ranglar, asosiy ranglar, qo‘shimcha ranglar, iliq ranglar, sovuq ranglar to‘g‘risidagi tushunchalarni boshlang‘ich sinfning hamma darslarida bolalar ongiga singdirish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish mumkin.

Didaktik o‘yin – ta‘lim beruvchi usul bo‘lib, muayyan ta‘limiy maqsadlarga asoslangan, ma‘lum qoidalarga, fanlarda berilgan mavzular, topshiriqlar va boshqalarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘ladi. Har bir didaktik o‘yinda aniq maqsad vazifa qilib olinadi. Didaktik o‘yin fanlararo bo‘liqni keltirib chiqaradi. Bola bir vaqtning o‘zida bu o‘yinlarni hayotda qo‘llay olish ko‘nikmasini o‘zida shakllantiradi.

Bolalarni yoshligidanoq o‘yin orqali bilimlar ummoniga yetaklash zarur. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhlari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xususiyatini hisobga olib, ularga o‘yin orqali bilim berish tez samarasini ko‘rsatadi. ta‘limiy o‘yinlar o‘quvchilarning darsda faolligini oshirishi bilan birga bilimlarini o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avliyoqulov N. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. — T.: 2001
2. Ziyomhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya — zamonaviy o‘zbek milliy modeli. — T.: «Lider Press», 2009.
3. Ziyomhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. — T.: «Turon-Iqbol», 2006
4. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O‘quv uslubiy qo‘llanma// Ta‘limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010.
5. www.fayllar.org



XALQARO BAHOLASH DASTURLARINI TA'LIM TIZIMIGA JORIY ETISH МЕХАНИЗМЛАРИ

Quboniyazova Muxabbat Ahmedovna
Yangibozor tumani 14-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (94) 313 23 21
muxabbat.quboniyazova11@inbox.uz
Yusupova Maqsuda Baxtiyorovna
Xiva shaxar 1-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (90) 558 63 52
y_maqsuda5252@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro baholash dasturlari va ularni ta'lim tizimiga joriy etish mexanizmlari haqida.

Kalit so'zlar: Xalqaro baholash dasturlari, PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS, milliy markaz, yo'l xarita, xalqaro aloqalar.

Dunyo ta'lim tizimida tan olingan va juda ko'plab mamlakatlarda joriy etilgan xalqaro baholash dasturlari quyidagilar:

The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun.

Xalqaro baholash dasturlarini mamlakat ta'lim tizimiga joriy etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish vazifasi davlat inspeksiyasi huzurida yangi tashkil etilgan Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi zimmasiga yuklatilgan.

Quyidagilar Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib belgilangan:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

- ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

- ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

- xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Xalq ta'limi vazirligi 2019 yil 1 fevralga qadar Milliy markaz bilan birgalikda o'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o'rta ta'lim



muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta'minlash dasturini ishlab chiqadi. Bundan tashqari, xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'quv dasturlari hamda o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish, o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish va 2019-2021 yillarda amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish, xalqaro tadqiqotlarning baholash dasturlari yo'nalishlaridagi savollarni o'zida mujassam etgan o'quv dasturlari asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlar yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahar hamda har bir tuman (shahar)da xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan tayanch maktablarni belgilash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlarni xalqaro baholash

dasturlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlanganlik va Internet jahon axborot tarmog'iga ulanganlik holatini inventarizatsiya qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf qilish choralarini ko'rish vazifalarini ham amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xalqaro tadqiqotlar o'tkaziladigan o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash hududiy mintaqaviy va tarmoq markazlarining o'quv dasturlariga xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish, xalqaro tadqiqotlar dasturlarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib,

davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida loyihalar tayyorlash singari vazifalarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Milliy markazning murojaatiga asosan uni belgilangan tartibda zarur aloqa vositalari, shu jumladan hukumat aloqa vositalari bilan ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi yuzasidan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan hamkorlik shartnomalarining imzolanishini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Abduqodirov A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish muammolari. Uzluksiz ta'lim jurnali, 2002. № 4, 60-73 betlar.
2. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. Toshkent, 2005. 3-26 betlar.
3. Abdullayeva Sh. Ta'limda o'qituvchi shaxsi va o'quvchi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari. // Molodoy uchyonyy, 2016 yil. 9-son.
4. Azizxo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. T.: TDPU, 2000.



BAHOUDDIN NAQSHBAND MEROSINING SHAXSNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

*Ro‘ziboyeva Karima Hayitboyevna
Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumanidagi
49-maktabning tarix fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf ta’limotining namoyondalaridan biri bo‘lgan Bahouddin Naqshbandning shaxs ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdagi qarashlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, kamolot, mehnatsevarlik, samimiy, axloq.

Yoshlarimizni yuksak ma’naviyatli, har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashda xalqimizning boy madaniyati, ulug‘ bobokolonlarimizning ma’naviy merosi beqiyos ahamiyatga ega.

Islom dunyosidagi eng mo‘tabar shaxslardan biri Bahouddin Naqshbanddir. Sayyid Muhammad Ibn Sayyid Jaloliddin Naqshband 1318-yil Buxoroda tug‘ilgan. Bahouddin yoshligidayoq pokiza, odobli, ustozlariga mehribon va zukko bo‘lgan. Bahouddin 11 yoshida Ahmad Yassaviyning hikmatlarini, shayx Azizon (Rometoniy) risolalarini o‘rgangan.

Sayyid Mir Kulol yosh Bahouddinga zikr qilish sirlarini o‘rgatgan va Bahouddin yosh bo‘lishiga qaramay, halol mehnat qilish har bir inson uchun zarurligini anglagan. Ruhiiy mo‘jiza va karomatlar ko‘rsatish bilan birga hunar o‘rgangan, qalin ipakli mato – kimxob to‘qish bilan tirikchilik qilgan.

14 – asrdan keyin O‘rta Osiyo Xoja Bahouddin asos solgan Naqshbandiya tariqati shakllandi va rivoj topdi. Xoja Ahrori Valiy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham ana shu tariqatga mansub edilar.

Bahouddin butun hayoti va faoliyati islom dinini targ‘ib qilishga qaratgan buyuk shaxs sifatida “Bahouddin Balogardon”, “Devonai Bahouddin”, “Shayx Bahouddin”, “Hazrati Eshon”, “Xojai buzurg” kabi nomlar bilan insoniyat tarixida barhayot qolgan.

Bahouddin Naqshbandning shaxs ma’naviyatini shakllantirish haqidagi fikr – mulohazalari va pandu nasihatlarini g‘oyat qimmatlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta’kidlab shunday degan edi: “Agar xulqni chiroyli qilish, so‘z va fe’lni soz qilishdir... Adab saqlash – muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug‘i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo‘l qo‘ysang ham, nimaiki qilsang ham beadablik ko‘rinadi. Odam o‘zini bir xil sifat va ko‘rinishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta’sir qilish) ta’masi paydo bo‘lmasin”.

Naqshbandiy do‘stlik va o‘rtoqlikka katta e’tibor bergan va agar do‘st aybiga boqsang, do‘stsiz qolamiz, hech kim dunyoda beayb emas, degan piri hikmat hikmatlarni qoldirib ketgan. U shuningdek, yaxshilikka chorlovchi fikrlarni ham bayon etgan: “Niyat – kasb qilib topadigan narsa emas, balki u g‘ayb olamidandir. Niyating haqiqati ixtiyor ostida emas. Niyating haqiqati ixtiyor ostida emas. Agar niyat yo‘q bo‘lsa, umid natija bermaydi”. “Sabr va chidamda nog‘ora kabi bo‘lmoq lozimki, u qanchalik shapaloq yemasin, biroq o‘z adabiga xilof ovoz chiqarmaydi”.

Buyuk mutafakkir mehnat va hunarga alohida e’tibor bergan. Madrasaga qabul qilinadigan bolalardan eng oldin: “Siz qanday hunarni bilasiz” – deb so‘ragan. Hunar bilmaganlarni biror hunarni egallashga, so‘ngra islom ilmini o‘rganishga da’vat etgan. Bu haqda u shunday yozgan:

Dengizdan hamisha izlamagil dur,

Odamga bir hunar bas, ezgu turar.

Naqshbandiy Bahouddinning taxallusi bo‘lib, matoga naqsh (gul) bosuvchi kasbini bildiradi. Binobarin, Naqshband o‘zining mato to‘qiydigan do‘koni borligini ham yozgan. Mazkur so‘zning ramziy ma’nosi muridning qalbiga Olloh muhabbatini naqsh etishni anglatadi. Naqshbandiya suluki qo‘l mehnati bilan shug‘ullanishni, ter to‘kib hayot kechirishni targ‘ib qiladi. Bahouddin Naqshbandning: “dil ba yor, dast ba kor”, degan shiori g‘oyat mashhurdir.

Bahouddin Naqshband inson aqlini, idroki va qobiliyatini o‘stirish zarurligini alohida ta’kidlaydi: “Kamolotda inson ahlining yo‘li shunday: bu yo‘lning chaqalog‘ini tariqat beshigiga belaydilar va tarbiyat ko‘krigidan sut emizadilar, so‘ng biror usul bilan ularni o‘zlikdan qaytaradilar. Ular Ollohdan fayz oladilar va voyaga yetadilar”. [1. 35-36-bet]



Naqshbandiya tariqati asosida har bir insonning halol, pok bo'lishi, o'z mehnati bilan hayot kechirish kerakligi, sabr qanoatli bo'lish, kamtar, samimiy bo'lish, iymon va e'tiqodini mustahkam tutishi, dilga xudoni jo etib, amalda xalq bilan birga bo'lish kabi olijanob xislatlarni o'zlashtirib borish jarayonida inson poklana boradi va Olohga erishishga o'zini tayyorlaydi. Naqshbandiya tariqati kishilarni mehr – oqibat, samimiylik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, sabr – qanoatga ega bo'lish sari yo'llar ekan, ularda yomon illatlar, harom ishlar, ya'ni o'g'rilik, nopoklik, xasislik, yolg'onchilik, firibgarlik, ta'magirlik, boylikka hirs qo'yish kabilarni qoralaydi. Buni biz Hazrati Hoji Bahoviddin Naqshbandning quyidagi fikrlaridan ham bilib olamiz:

“Shamga o'xshagin, toki barchaga ravshanlik bag'ishla, o'zing esa qorong'ida bo'l”, “Hoyu havas va nafs ahllari tutgan ishlar asosining barchasi zalolat (adashuv)dan iboratdir. Ishlarda niyatni to'g'ri qilish eng muhim narsadir”, “Kishi o'zining nafsiga tuhmat qilishi kerak. Kimki Haq subhonahu inoyati bilan o'z nafsining yomonligini tanigan, uning hiyla nayrangini anglagan bo'lsa, bunday qilish unga oson bo'ladi.” Bu yo'ldan yuruvchilarda o'zgalarning gunohini o'zlaridan deb bilish hollari ko'p uchraydi.[2. 69-70-bet]

Bahouddin Naqshband o'z ta'limotida Allohga yaqin bo'lishning eng to'g'ri va samarali yo'li – jamiyat saodati uchun yashash, bunyodkorlik, savob ishlar va mukammal ahloq ekanini tasdiq etuvchi mafkurani eng izchil va yorqin ifoda etdi.[3. 74-bet] Yuqoridagilardan ham ko'rinib turibdiki, Bahouddin Naqshbandning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta'lim – tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Zero, uning o'zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati kelajak avlodlarga katta ma'naviy meros sifatida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O.Hasanboyev, J.Hasanboyev, H.Homidov. Pedagogika tarixi. T.: 2004-yil.
2. K.Hashimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi, Toshkent, 2005-yil.
3. A.Zunnunov, M.Xayrullaev, B.To'xliev, N.Xotamov. Pedagogika tarixi, 2000-yil.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH

*Sa’dullayeva Barno Rajabovna
Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani
14-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona tili darslarida o‘g‘zaki nutqini o‘stirishda ot so‘z turkumining ahamiyati haqida yozilgan

Kalit so‘zlar: Ona tili, bilim, ot so‘z turkumi, matn, kelishik.

Ma’lumki, ona tili o‘qitish metodikasi o‘quvchiga tayyor bilimlar berishning xilma-xil usullarini o‘ylab topdi. Ko‘proq bilim o‘zlashtirilishi uchun har xil ko‘rgazmali qurollar va texnik vositalar ishlab chiqarildi.

Yangi asr o‘qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellectual salohiyat bo‘yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta’lim bo‘yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta’lim texnologiyalari, ta’limning interfaol usullari va ilg‘or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarida ot so‘z turkumiga mansub so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, to‘g‘ri yozish, lug‘aviy ma’nolarini bilish hamda nutqda to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llay olishni o‘rganish- mazkur mavzuning asosiy maqsadi bo‘lishi lozim.

Ot so‘z turkumi haqida o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash, ularni uslubiyat bilan bog‘lab rivojlantirish uchun turli mavzulardagi matnlardan foydalansa bo‘ladi.

O‘quvchilar nutqini otlar bilan boyitishda so‘zlarni aniq va mavhumlarga ajratish, istagan matndan ko‘rish, o‘lchash mumkin bo‘lgan otlarning aniqligi yoki aksincha, mavhumligi asosida ikki guruhga bo‘lish va so‘z boyligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinflarda olingan bilimlarga suyanib, o‘tilganlarni takrorlash va mustahkamlash uchun quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- otlar necha usulda qo‘llaniladi?
- faqat birlikda qo‘llanadigan otlar qaysilar?
- ko‘plikdagi otlar qaysi qo‘shimchalar bilan hosil qilinadi?

O‘quvchilar savollarga to‘liq javob beradilar. O‘quvchilar ko‘plikdagi otlarni o‘rganishda nutqda ko‘plikdagi otlardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini takomillashtirish maqsadi ko‘zda tutiladi. O‘quvchilar suhbat yordamida otlarni kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Kelishik qo‘shimchalari gapda so‘zlarni bog‘lash uchun xizmat qilishi, ona tilidagi olti kelishik, ularning nomi, so‘roqlari, qo‘shimchalari va joylashish haqida bilib oladilar.

Kelishik otlarning gapda boshqa so‘zlar bilan munosabatini ifodalaydi. Demak, kelishiklarni o‘rgatishda o‘quvchilarning gapda so‘zlarning bog‘lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Kelishiklarni bilish uchun o‘quvchi ot gapda qaysi so‘z bilan bog‘langanini aniq bilishi kerak. Aslida o‘quvchilar 1-sinfdayoq, soz shakllarining o‘zgarishi bilan amaliy tanishadilar, ammo ular so‘z shakli nimaligini bilmaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda ona tili fanining mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘ygan vazifasiga moslangan. Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini o‘rgatish, bulardan ot so‘z turkumi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. O‘zlari tuzgan gap va matnlarga ot so‘z turkumi va otga kelishik qo‘shimchalarini qo‘shishni mustaqil bajara olishlarini o‘rganadilar. Bunda o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatlari va og‘zaki nutqlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova “Ona tili o‘qitish metodikasi



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI

Saparova Raushan Baxiyevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Kanlikol rayoni 21-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
Tel:907145088

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida qo'llaniladigan zamonaviy interfaol metodlar va ularning foydalanish haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, matematika darslari, venn diagrammasi, kompyuter darslari.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lganligi sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'suliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qoingan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi ma'suliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xoxish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarni o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda MATEMATIKA darslarida quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: "Venn diagrammasi" metodi.

ushbu texnologiya o'qish darslarida o'tilayotgan mavzu haqida o'z fikriga ega bo'lish, matn bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodda saqlash, so'zlab berish, fikrini erkin bayon etish, hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Sahnalashtirilgan masalalar. Sahnalashtirilgan masalalarga katta e'tibor beriladi. Bu masalalarda bolalarning kuzatgan, ko'pincha o'zlari bevosita bajargan harakatlari aks ettiriladi. Bu yerda savolga javob berish emas, balki bu berilgan sonlar ko'rgazmali asosida ko'rinib turishi muhimdir. Birinchi sinf bolalari ko'pincha masalani yechishni bilmaydilar, chunki ular u yoki bu harakatni ifodalovchi (sarf qildi, bo'lishib oldi, sovg'a qildi va hakoza) so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar. Shuning uchun maktabda, tayyorlov guruhida u yoki bu harakatni ifoda etuvchi so'zlarni mazmunini ochib berishga alohida e'tibor berish kerak. Shu maqsadda masala asosiga qanday amaliy harakatlarni kiritish zarurligini hisobga olish kerak. Bunda qarama-qarshi harakatni: keldi-ketdi, yaqin kelishdi-uzoqlashdilar, oldi-berishdi, ko'tarishdi-tushirishdi, olib kelishdi- olib ketishdi, uchib ketishdi nazarda tutuvchi yig'indi va qoldiqni topishga oid masalalarni taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Ko'rgazmali masalalar. Dastlab bolalarga mavzu mazmuni to'g'risida gapiriladi, hamda berilgan sonlar tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. Rasm bo'yicha birinchi masalani o'qituvchining o'zi tuzadi. U bolalarni rasmlarni ko'rib chiqishiga, berilgan sonlarni hamda miqdoriy munosabatlarning o'zgarishiga olib kelgan hayotiy harakatlarni ajratib olishga o'rgatadi. Masalan, rasmda 5 ta shar ushlagan bola tasvirlangan, u 1 ta sharni qizchaga bermoqda. Rasmni kuzatayotib o'qituvchi: Bu yerda nima tasvirlangan? Bola nima ushlab turibdi? Unda nechta shar bor? U nima qilmoqda? Biz nimani bilamiz? Masalani shartini tuzing. Nima haqida so'rash mumkin? deb so'raydi. O'qituvchi berilgan sonlarni o'zgartirib, bolalarni ayni bir mavzuda har xil mazmundagi yig'indi va qoldiqni topishga oid masalalarni o'ylab topishga, hikoya qilishga



o‘rgatishda foydalanadigan hohlagan mazmundagi rasm asosida masala tuzishga undaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar tushunchasiga doir qiziqarli masalalar va ko‘rgazmalilik, predmetlar vositasida, nazariy mantiqiy savollardan foydalanish na faqat o‘quvchilarning arifmetik amallar chuqur o‘rganishga, ularda mantiqiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda asosiy boshlang‘ich matematik tushunchalarning nutqda o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi va ularni bosqichma-bosqich tafakkur usullari mohiyatini tushunishlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumaev M.E, Tadjieva Z.G. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent. Fan va texnologiya. 2005 y
2. Jumaev M.E, Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi Toshkent. Ilm Ziyο.



SIFATLI TA'LIM FAQAT O'QITUVCHIGA BOG'LIQ EMAS

Sapayeva Feruza Quryazovna
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
14-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolamda dars o'tishda o'quvchilarga sifatli ta'lim berishda o'qituvchi va o'quvchilarning o'rnini haqida yozilgan

Kalit so'zlar: ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka,

Nega deysizmi? Bilim uchun poydevorni maktabda muallim qo'yadi, u go'yoki me'mor, bezakchi, bolani to'g'ri yo'lga boshlovchi mutaxassisdir. Muallim o'z kasbining ustasi bo'lsa, ta'lim sifati ham o'sadi.

Ammo tasavvur qiling: bolaning xotiri parishon, tushkun kayfiyatda o'tirsa-yu, o'qituvchi ming jonini koyitganidan nima naf? Fanlardan o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchining muvaffaqiyatsizligiga faqat o'qituvchi aybdor emas.

O'quvchidagi bunday holatga, aksariyat hollarda, oiladagi tushunmovchiliklar ham sabab bo'ladi. Bola ota-onasi bilan yaxshi munosabatda bo'lib, ertalab yaxshi kayfiyatda uydan chiqsagina, darsga chin ma'noda quloq soladi. Demak, ta'lim sifatini oshirishda ota-onaning ham ishtiroki muhim va bu ishtirok ota-onalar majlisida hozir bo'lish bilan ado etilmaydi.

Xalq ta'limi vazirligi BMTning Narkotik moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda umumta'lim maktablarda joriy qilayotgan «Baxtli maktab» loyihasi ham shu maqsadga qaratilgan. Loyihaning maqsadi — o'quvchining oilasi bilan munosabatini yaxshilash, bu orqali uning ruhiyatida ijobiy o'zgarish yasab, ta'lim jarayoniga bo'lgan rag'batini oshirish. «Baxtli yasha, baxt ila ta'lim ber, baxt bilan ishla, baxt bilan o'qi, baxt ulash» shiori ostida ish olib borayotgan mazkur loyiha 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarini qamrab oladi. Loyiha 4 bosqichda amalga oshiriladi:

Har bir hudud bo'yicha (12 viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi) bittadan — jami 14ta tayanch-trener maktab tanlab olinadi. Tanlab olingan maktablardan 4 nafardan mutaxassis (Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, maktab psixologi, yoshlar yetakchisi va jismoniy tarbiya o'qituvchisi) poytaxtda «Baxtli maktab» loyihasining «Mustahkam oila» dasturi bo'yicha o'qitiladi.

Mutaxassislar o'rgangan dasturlari bo'yicha o'z maktablarida o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan 7 hafta davomida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan treninglar olib borishadi. Dars chog'ida o'quvchi bilan ishlash tajribalarini maktabning pedagogik jamoasiga ham o'rgatishadi. Tayanch-trener maktabi mutaxassislari o'z hududlaridagi boshqa maktablarga ham bu tajribani o'rgatishadi. Hozirga qadar loyihaning dastlabki ikki bosqichi o'tkazilgan, 3- bosqich hozirda amalda. 2019 yil fevral oyidan boshlab esa to'rtinchi bosqichni tatbiq qilish rejalashtirilgan. Viloyatlardagi Xalq ta'limi boshqarmasida mas'ul koordinatorlar jarayonni nazorat qilib borishadi. Moskva davlat universiteti professori, sotsiolog Rinat Sharipov loyihaning muvaffaqiyati maktablardagi psixologlarning professionalizmiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

«O'quvchining maktabdagi xulqi, o'zlashtirish darajasiga oiladagi muhitning ta'siri katta ekanligiga shubha yo'q. Loyihaning konsepsiyasi yaxshi, lekin uning samarasi ko'p jihatdan maktab psixologining professionalizmiga va yondashuviga bog'liq. Umumiy davradagi treninglardan tashqari ota-ona bilan alohida, bolaning o'zi bilan alohida ishlash kerak. Oilada bola tarbiyasi uchun muhit u dunyoga kelishidan ilgariroq yaratilmagan bo'lsa, keyin vaziyatni o'zgartirish oson kechmaydi. Oiladagi masalalar imkon qadar tor doirada muhokama etilishi lozim, deb o'ylayman», - deydi u. Mutaxassisga ko'ra, loyihaning real natijasiga u amaliyotga to'la tatbiq etilib, butun respublika maktablari qamrab olingandan keyingina baho berish mumkin.

Chet el tajribasi AQShda ham o'quvchilarning o'qishga bo'lgan rag'batini oshirish masalasi doimo kun tartibining avvalidan joy egallashini bildiradi. Faqat amerikalik pedagoglar boshqacha yechimni tanlagan: bolaning shaxsiy qiziqishlaridan kelib chiqib, uni to'garaklarga yo'naltirish, kreativ yo'llar bilan unda motivatsiya uyg'otish maqsad qilingan. Misol uchun, «GlassLab» loyihasiga ko'ra, o'quvchi darslarini ta'lim beruvchi maxsus videoo'yinlar orqali o'zlashtiradi. Bu amaliyot ham qiziq, ham foydali. O'zbekistondagi umumta'lim maktablarning 38 foizigina



shaharda, 62 foizi esa qishloqlarda joylashgan. Ta’limga bog‘liq bo‘lmagan omillar, oilalarning yashash tarzidagi tafovutlar ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, maktab o‘quvchilarining darsdan bo‘sh paytida akademik uy vazifalarini bajarish uchun yetarli sharoit yaratib beriladi, deb bo‘lmaydi. O‘quvchining ovqatlanishi va dam olishi muntazam nazoratda emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Internet tamoqlaridan



INTERFAOL TA'LIM VA UNING IMKONIYATLARI

*Saydaxmedova Iqboloy Soliyevna
Andijon viloyati Izboskan tumani
20-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annatsiya: Ushbu maqolamda boshlang'ich sinf darslarida interfaol ta'lim va uning imkoniyatlari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim.

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li mashg'ulotlarni interfaol metodlar yordamida tashki etishdir. Xo'sh, interfaol metodning o'zi nima? U qanday didaktik xususiyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq, qo'llanishi qanday natija beradi?

Interfaol tushunchasi ingliz tilida "inter"- o'zaro, ikki taraflama, "act"- harakat qilmoq, ish ko'rmq ma'nolarini anglatadi. Interfaol ta'limi- o'quv jarayonida ishtarakchilarning bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'limdir.

Interfaollik esa avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi. Ma'lumki, ta'lim sohasida an'anaviy ta'lim, asosan, ma'ruza va savol-javobga asoslangan edi.

Eski an'anaviy ta'limda, tabiiyki, suhbat asosini axborot tashkil etgan. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining nazariy bilimi va nazariyasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarini og'zaki tarzda o'quvchiarga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko'rsatish oqituvchigagina xos bo'lib, o'quvchilar bu vaziyatda faqat tinglovchi bo'lib qolaveradi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, ruxsat etilgandagina so'zlashdan iborat edi.

Shu boisdan, bugungi kunda ta'limda interfaol usulining imkoniyatlari oldingi an'anaviy ta'lim erkinliglaridan kengroq ekanligi ravshanlashmoqda. Interfaol ta'limda o'quvchi manbani o'zi o'qiganida 10 foizini, eshitganida 20 foizini, sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 foizini, voqea jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotni eshitganida 50 foizini olar ekan. Agar o'sha ma'lumotlarni o'zi uzatganida (so'zlashganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 foiz, o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot) larini o'z faoliyatida tadbiiq etganida 90 foiz malumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interfaol ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra, muloqatning "o'quvchi-axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida bilim, ko'nika, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

Mazkur tizimning afzalliklari quyidagi jihatlar bilan izohlanadi:

-Interfaol ta'limning oldingi an'anaviy ta'lim berish usulidan metodik, ilmiy hamda uslubiy jihatdan farqlanishi;

-Ta'lim oluvchiga o'z bilimini doimiy mustahkamlash va o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatining yaratilganligidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'qituvchi har bir darsni qiziqarli, interfaol metodlardan foydalanib darslarini tashkil qilsa o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich talim jurnali
2. Ijtimoiy tarmoqlar



ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ: МУАММО, ЕЧИМ ВА ИСТИКБОЛ.

Шарипова Мадина Исмаиловна
Хоразм вилояти, Богот туманидаги 38-сон
мактабнинг математика фани ўқитувчиси,
Телефон: +998 (93) 755 73 00
madina.sharipova@umail.uz

Аннотация: Ушбу маърузада таълим соҳаси ходимлари учун зарур янгилик ва маълумотларни ўз ичига олган, таълимдаги долзарб муаммоларни кўтариб чиқилган ҳамда уларга ечим изланган.

Этот доклад содержит актуальные новости и информацию для педагогов, поднимает актуальные проблемы в сфере образования и ищет решения.

This report contains relevant new points and information for teachers and educators highlighting relevant issues in education and seeking for viable solutions.

Калит сўзлар : Таълим, муаммо, истикбол, АКТ, компетенция.

Хар бир жамиятнинг келажаги таълим тизимининг қай даражада ривожланганлиги билан белгиланади. Зеро, инсон қалбига йўл таълим ва тарбиядан бошланади. Муҳаммад ал-Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Райхон Беруний, Мирзо Улуғбек сингари улуғ аждодларимиз тамал тошини қўйган математика фани илм-фан ва техниканинг замонавий тармоқлари жадал ривожланиши муносабати билан ҳозирги кунда янада катта аҳамият касб этмоқда. Ахборот-коммуникация технологиялар, тиббиёт, биология, рақамли иқтисодиёт соҳасида ва бошқа кўплаб соҳаларда математиканинг роли айниқса бекиёсдир.

Бугунги кунда мамлакатимизда улкан ўзгаришлар юз бермоқда. Туб ислохотлар жамиятимиз ва иқтисодиётимизнинг барча жабҳаларини камраб олмақда. Жумладан, халқ таълимида ҳам ана шундай жиддий ўзгаришлар амалга оширилиб, илғор хорижий тажрибалар асосида инновацион таълим технологияларига катта эътибор қаратилмоқда. Ўқувчиларга фанлардан фақат билим бериш билан чекланиб қолмасдан, долзарб илмий-техникавий муаммоларни ечишга жалб этилиб, инновацион жараёнлар иштирокчисига айлантириш лозим.

Таълим республикамизда давлат сиёсати даражасига кўтарилган бўлиб, у педагоглар зиммасига мустақил фикрлайдиган, юксак маънавиятли, чуқур билимга эга бўлган баркамол шахсни тарбиялашдек масъулиятли вазифа юклайди. Бугун аниқ ва табиий фанларни ўқитишда, қолаверса, ахборот макони ва меҳнат бозоридаги талабнинг жадал ривожланиши натижасида репродуктив таълим тизими давр талабига жавоб бермай қолди. Бу эса аниқ ва табиий фанларни ўқитишнинг янгича ёндашувларини ишлаб чиқишини талаб қилмоқда. Фақат билим олишга йўналтирилган таълим ўтган замонда қолди ва бугун таълим-тарбия мазнунини ўзгача ёндашув асосида такомиллаштириш талаб этилмоқда.

Бугунги кун ўқитувчиси фақатгина дарсликлар билан чекланиб қолмасдан, таъбир жоиз бўлса, ҳар дарс учун кичик кашфиётлар яратиши лозим.

Инсон ҳаётига кириб келадиган ҳар қандай янгилик унда сергакликни, ҳаттоки норозиликни уйғотади. Шунга кўра узоқ йиллар давомида анъанавий усуллар билан ишлаб келган педагоглар, бугунги куннинг ўзидаёқ такомиллаштирилган Давлат таълим стандартлари асосида ўқишларни талаб даражасида ташкил эта олмайдилар. Энг аввало таълимда бирор бир ўзгаришларни амалга ошириш учун, аввал ўқитувчининг касбий онгини тубдан ўзгартириш керак. Ўқитувчи бундан буён дарслик билан биргаликда ўқувчиларга “объектив билимларни” етказувчиси бўлиб қолмайди. Замонавий ўқитувчининг асосий вазифаси ўқувчиларда ташаббускорлик ва мустақиллилик ҳиссини ҳосил қилиш, уларнинг ҳар бири учун ўзининг иқтидори ва қизиқишини амалга ошира оладиган ривожлантирувчи муҳитни яратишдан иборат. Компетент инсонни фақатгина компетент педагог тайёрлаши мумкин.

Замонавий ўқитиш жараёнлари янгича технологияларни қўллашни талаб қилмоқда. Аниқ ва табиий фанларни ўқитишда педагогик ўйинлар технологиясини қўллаш дарс самарадорлигини оширувчи психологик омилдир. Кичик гуруҳларда ишлаш жараёнида ўқувчилар ўзларини анча эркин тутадилар. Нотўғри жавоб бериб, уялишдан чўчийдиган болалар ҳам ўз билимини намойиш қилиш имкониятига эга бўладилар. Улар ўзларининг



фикрларини бошқалар кадрлаётганларини кўрадилар. Синфдаги тортинчоқ, ўқувчилар ҳам анча фаоллашадилар. Гуруҳдаги иш унда ўзига ишонч ҳиссиётини пайдо қилади. 4-5 ўқувчидан иборат гуруҳда тортинчоқ ўқувчи ўзини 30-35 ўқувчи олдида жавоб бериш ҳолатидан кўра эркинрок сезади. Бу эса, ўз навбатида, алоҳида ўқувчи ва ўқувчиларнинг дарсга нисбатан қизиқишларини орттириш, мустақиллиги ва фаоллигини ривожлантириш, танқидий тафаккурини ўстиришга қаратилган интерактив таълим олишларига кўмак берувчи инновацион усуллардан кенг фойдаланишни талаб қилади.

Интерфаол усул ёки янги педтехнология билан дарс ўтаман деб кўпинча шунақа ҳолатларга ҳам дуч келамизки, ўқитувчи 45 минут давомида болаларни кичик гуруҳларга ажратган ҳолда, синф доскасига нисбатан турли ҳолатда ўтиришга мажбур қилишади. Ваҳоланки, 45 минутлик дарс жараёнида улар гуруҳ ишларида 10-15 минут фойдаланишлари мумкин, холос. Тўлиқ дарс давомида бу ҳолатда ўтирган ўқувчининг умуртқаси ривожланишида бузилишлар рўй бериши мумкин. Боланинг доскага қараб тўғри ўтириши ва чап томондан ёруғлик тушишига риоя қилиниши зарур.

Инсоннинг барча мавжудотлардан юксак жихати - унинг фикрлаш қобилиятидир. Зотан, инсонлар бир-бирлари билан ўзига хос ўй-хаёллари, мушоҳадалари, фикр юритишлари, мустақил фикрлаш қобилияти билан ажралиб турадилар. Шунинг учун ҳам инсон фикрини тарбия қилиш муҳим саналади. Абдулла Авлонийнинг асарларида фикр тарбиясига оид қуйидагича талқин берилган: «Фикр тарбияси энг керакли, кўп замонлардан бери тақдир қилинуб келган, муаллимларнинг диққатларига суялган, виждонларига юкланган муқаддас бир вазифадур. Фикр инсоннинг шарофатлик, ғайратлик бўлишига сабаб бўладур. Бу тарбия муаллимларнинг ёрдамига сўнг даража муҳтождурки, фикрнинг қуввати, зийнати, кенглиги муаллимнинг тарбиясига боғлиқдир».

Дарҳақиқат, жамиятда хилма-хил фикрлаш муҳитини вужудга келтиришда мустақил, танқидий фикрловчи шахсларнинг ўрни бекиёсдир. Дунёга янги кўз билан қарайдиган баркамол инсонни шакллантириш, унинг натижасида мустақил фикрловчи, ижодий изланувчи, кучли иродали, ғоявий эътиқодли, маънавияти юксак, пок виждонли шахсни камол топтириш, буюк келажакимиз пойдеворини қурувчи ва юксалтирувчи мутахассис кадрларни тайёрлаш республикамиз педагоглари олдида турган энг муҳим ва масъулиятли вазифадир. Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, бугунги кунда барчамиздан фақат битта нарса талаб этилади, юртимиз тинчлиги, Ватанимиз тараққиёти, халқимиз фаровонлиги учун келажак авлодга мазмунли ва чуқур таълим ҳамда тўғри тарбия беришдир.

Фойдаланилган адабиётлар :

1. Интернет материаллари.



INGLIZ TILI DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

*Shosaidova Dilnoza Abduqahhorovna
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, dars, rasmlar, pedagogik texnologiyalar, o‘quvchi, guruh.

Ta’lim jarayonida o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanish o‘quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlarini hisobga olish bugungi kunning asosiy talabidir.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganish jarayoni sinf o‘quvchilarini guruhlarga ajratish tashkil etilganda samaraliroq bo‘ladi. Chunki bu o‘quvchiga dars jarayonida guruhlarda zaruratdan kelib chiqqan holda turli yondashish, takrorlashga ko‘proq e’tibor berish imkonini beradi. O‘tiladigan darslar bir qator ta’limiy-tarbiyaviy maqsadlarni o‘zida mujassamlashtirdigan bo‘ladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun o‘qituvchi qator mashqlardan foydalanishi mumkin.

Rasmlar ham ingliz tili darslarida til o‘rgatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilar uchta guruhga bo‘linadi. Bu o‘quvchilarga turli xil kartochkalar tarqatish orqali amalga oshiriladi. Masalan, mevalar rasmi chizilgan kartochkalar tarqatiladi. Bir xil mevalar rasmini olgan o‘quvchilar 1 ta guruhda, har bir guruhda to‘rt nafardan ishtirokchi ishtirok etadi. Ularga bittadan rasm beriladi va guruhdagi har bir ishtirokchi rasmda aks ettirilgan narsalarni inglizcha ifodalab yozib boradi. Faraz qilaylik biror bir rasmda sinfxona tasvirlangan.

1-o‘quvchi	2-o‘quvchi	3-o‘quvchi	4-o‘quvchi
Window	a map	Blackboard	a picture
a door	a bookshelf	a table	a table
a flowers	a desk	a chair	a book
	a book	classroom	a pen

O‘quvchilar sinfxonadagi bor jihozlarning inglizcha yozishadi. Bu birinchi bosqich bo‘lib, unga ikki daqiqa vaqt beriladi. O‘qituvchi guruhlar yozgan so‘zlarni tinglaydi. Har bir guruh o‘quvchilari yozgan so‘zlarning miqdoriga qarab, guruhlarni baholab boradi. Agar guruh ishtirokchilari rasmda tasvirlab yozgan so‘zlarida bir xillik holatlari uchrab qolsa, bunday holatlarda so‘zlar hisobiga olinmaydi va baholanmaydi.

Ikkinchi bosqichda guruh a’zolari o‘zlari yozgan so‘zlari orqali matn tuzishadi. Masalan, this is our classroom. Our classroom is large and light. There are a lot of maps, flags in our classroom. There are 8 desks and chairs. There are a lot of books on the shelves.

Ikkinchi bosqich jarayoniga 3 daqiqa vaqt beriladi. O‘qituvchi har bir guruhning yozma matnini belgilaydi.

Uchinchi bosqichda matn tuzishda yo‘l qo‘yilgan xatolar ustida ishlanadi. Bunda guruhlar yozgan matnlarni bir-birlari bilan almashishadi va guruhlar bir-birlarining yo‘l qo‘ygan xatolarini topadilar. Albatta, o‘qituvchi ham guruhlar yo‘l qo‘ygan xatolarni eslab qolishga to‘g‘ri keladi. Shu sababli o‘qituvchi sinfxonani aylanib yurar ekan, ularni o‘zida qayd qilib borishi zarur. Mashq oxirida qayd etib qo‘yilgan ba’zi odatiy yoki muhim xatolarni o‘qituvchi baytib o‘tishi lozim. O‘quvchilarni juftlik yoki guruh ishlari davomida shovqin solmasdan va xushmuomalalik bilan gapirishga hamda vazifani bajarandan so‘ng qo‘shimcha vazifa olishga tayyor turishga o‘rgatish kerak. Agar mashqni bajarishdan oldin aniq ko‘rsatmalar berilsa, o‘quvchilar vazifani adashmasdan va ortiqcha shovqinlarsiz bajara oladilar.

Rasmlarga munosabat mashqini bajarish yuzasidan xulosa shuki, bunday mashqdan foydalanish o‘quvchilarning tekshirish, og‘zaki, tasvirlash, muhokama qilish, fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bir-biriga do‘stona munosabatda bo‘lish, birgalikda faoliyat yuritish muhiti yaratiladi. Bu mashqni bajarish rivojlantiruvchi maqsadga erishish uchun imkon ham beradi, ya’ni o‘quvchining fikrlash, tasavvur qilish, diqqat, e’tibor, xotira ko‘nikmalarini rivojlantiradi, mustahkamlaydi.



Darsni bundanda samaraliroq o‘tish uchun turli xil pedagogik mashqlardan foydalanish zarur. Bu mashqlarni bajarish jarayonida so‘zlarni ona tilida aytib, ingliz tiliga tarjima qilish talab qilinadi.

“**Menga ayt-chi?**” mashqni bu usul o‘quvchilarning so‘z boyligi fikrlash, tarjima qila olish malakalarini muntazam ravishda rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu mashqda o‘quvchilar darsda doira shaklida yig‘ilishadi, o‘qituvchi qo‘liga ko‘ptokni oladi, har bir o‘quvchiga o‘tilgan mavzu asosida so‘zlardan aytadi. Masalan, “maktab” so‘zi aytilib o‘qituvchi o‘quvchiga ko‘ptokni otadi. O‘quvchi ko‘ptokni ilib olib, chaqqonlik bilan “school” deb javob qaytarishi lozim. Shu tariqa o‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘ptokni navbatma-navbat otadi.

Bu mashq hozir javoblikka o‘rgatish bilan birga jismoniy tetiklashtirishga, shaxsiy qo‘ruq va vaziyatni yumshatishga yordam beradi. Bunday mashqlardan faqat darsning boshlanishida foydalanilmay, sinf kayfiyatini yoki ishlash sur‘atini o‘zgartirish uchun ham foydalanish kerak. Shuningdek, bu mashqni savol tarzida ham olib borish mumkin.

Masalan, o‘qituvchining “where are you from?” (sen qayerliksan) savoliga o‘quvchi chaqqonlik bilan “I am Uzbekistan” deb javob qaytarishi lozim.

Ba’zi hollarda o‘quvchi so‘zlarni ayta olmasligi yoki savolga javob bera olmasligi mumkin. Javob bera olmagan o‘quvchi bu mashqni tark etish oldidan ingliz tilida she’r yoki ashula aytib davradan chiqib ketadi.

Ushbu turdagi mashqlar o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quvchilarda chaqqonlik, diqqat e’tibor ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘tilgan mavzu yuzasidan, yangi so‘z hamda iboralarni qanday darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlash va baholash mumkin.

Ikkinchi bosqichni bajarishdan oldin o‘qituvchi grammatik materiallar ustida ishlashni maqsad qilib olishi kerak. Masalan, o‘qituvchi gap bo‘laklari to‘g‘risida ma’lumot beradi:

Har bir gap bo‘laklari qanday so‘roqqa javob berishini ta’kidlab o‘tadi va gap tuzish formulasini doskaga yozib qo‘yadi. Ega+kesim+to‘diruvchi+aniqlovchi+hol bunda guruhning har bir ishtirokchisi orqasiga so‘zlar yoki tinish belgilari yozilgan kartochkalar yopishtiriladi. So‘ng o‘quvchilar gaplashmasdan, imo-ishora orqali grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuza olishlari kerak. Buning uchun o‘quvchi bemalol harakat qila oladigan katta sinfxona kerak. Bu mashqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Har bir guruhda 5-6 nafar ishtirokchi bo‘lishi mumkin.

Masalan,

1	2	3	4	5
Of	He	fond	sports	Is

To‘g‘ri natija: he is fond of sports (2,5,3,1,4) shaklida bo‘ladi.

Uchinchi bosqichda har bir guruh tuzgan gaplarni tahlil qilib, tarjima qilishadi.

Mazkur mashq noverbal muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi va guruh vazifasini bajarish asosida o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash va ishonch bilan bog‘liq munosabatlar yuzaga keladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘qituvchining vazifasi nafaqat bolalarga bilim yetkazish, balki o‘zlashtirishlariga, o‘rganishlariga yordam berishdir. Bu borada, har bir pedagog yangi pedagogik texnologiyalarni va metodikalarni qo‘llagan holda o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

- 1.Bo‘ronov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. 1996-yil.
2. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. 1996-yil.
3. Temirov Y, Suyarova N. Chet tili o‘qitish metodikasi. Qarshi 2009-yil.



MASOFAVIY TA'LIM – BILIM OLISHNING ENG OSON VA QULAY USULIDIR

*Shukurova Nargiza Buriyevna,
Navoiy viloyat Karmana tumani
22-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Siz ushbu maqolada masofaviy ta'limning mohiyati, uning afzalliklari va kamchiliklari, masofadan o'qitish bugungi kunning talabi ekanligi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'limning shakllari, online ta'lim, masofadan o'qitish.

Mustaqil vatanimiz tomonidan yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol inson sifatida tarbiyalash va ta'lim olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, katta umid va ishonch bildirilmoqda. Shunday ekan, o'qituvchi hozirgi sinovli kunlarda ham bor e'tibori va kuchi bilan o'quvchilarning har tomonlama yetuk, zukko va bilimdon bo'lishlari uchun harakat qilmog'i lozim.

Ta'limning har xil shakllari, har birining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud, ya'ni o'rganishning yagona to'g'ri usuli yo'q. Ammo deyarli hamma narsa axborot texnologiyasi yo'lidan ketayotgan dunyoda masofaviy ta'lim birinchi marta eng yaxshi usul bo'lishi mumkin.

Shuni aytish mumkinki, masofaviy ta'lim, bizning bugungi yosh avlodlarimiz uchun eng yaxshi yagona va to'g'ri yo'l bo'lishi mumkin. Masofaviy ta'limda ta'lim oluvchi va o'qituvchi fazoviy bir –biridan ajralgan holda doimiy muloqatda bo'ladilar. Masofaviy ta'lim - masofaviy o'qitishga asoslangan ta'lim. Masofadan turib o'qish majburan tiqishtirilgan tizim emas, balki insonning ongli, aniq maqsadga yo'naltirilgan tanlovidir.

Mamlakatimizda masofali ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'pchilik masofali ta'lim bu shunchaki bizga ma'lum sirtqi ta'limning yangi shakli deb hisoblaydilar. Ma'lum darajada bu shunday: haqiqatda ham inson uyidan chiqmasdan o'qishi mumkin. Lekin bir sharti bor: buning uchun standart dastur bilan zamonaviy kompyuteri bo'lishi kerak. Ushbudasturning mazmuni aynan masofali ta'lim va zamonaviy texnika hamda texnologiya bir – biridan ajralmasligidan iborat.

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning maqsad va vazifalari bosqichma – bosqich ro'yobga chiqarilishida zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlarning roli muhim ahamiyat kasb etishi hammaga ayondir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning to'liq amalga oshishidan ko'zlangan maqsadlarning naqadar ezgu ekanini inobatga olsak, bugungi kunga kelib o'qitish tizimlarining har bir jabhasida ilg'or texnologiyalardan foydalanish zarurati alohida dolzarblik kasb etayotganini sezish qiyin emas. Hammamiz guvohimizki, kundalik hayotimiz va istiqbolimiz ravnaqi uchun muhim ehtiyoj sanalmish tom ma'nodagi ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining jalb etilishi tobora oldingi o'ringa chiqib bormoqda. Buni ko'plab maxsus ta'lim muassasalari, akademik litseylar kasb–hunar kollejlari va yetakchi oliy o'quv yurtlari hamda akademiyalar misolida ko'rish mumkin.

Masofali ta'lim g'oyasida aynan ta'lim an'anaviy turlarida qabul qilingan “o'quvchilarning bilimga intilishlaridan” “bilimlarni o'quvchilarga qarab harakatlanishi” juda muhim. Dastavval masofali ta'lim oily ta'limga ega insonlarning malakalarini oshirishlari uchun mo'ljallangan edi. Hozirgi kunda yanada kuchliroq texnikalar paydo bo'lishi bilan masofali ta'lim imkoniyatlari kengaymoqda.

Masofaviy ta'limga axborot texnologiyalari joriy qilishning qator afzalliklari:

- yashash joyidan turib, o'qish imkoniyati - chekka qishloqlarda yashovchilarda katta shaharlarga borib, xohlagan maktablarida o'qish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. masofaviy ta'lim texnologiyalari ularga o'z shahridan ketmasdan turib, o'qish imkoniyatini yaratib beradi.

- o'qish va ishni barobar olib borish - o'qituvchilar ishdan ajralmagan holda ta'lim berish imkoniga ega bo'ladilar.

- sifatli texnologiyalar - o'quvchi sifatli o'quv materiallari yordamida o'qitilishi, o'qituvchi bilan muloqat qilishi va o'z uchun individual o'quv rejasini tuzishi mumkin.

- baholashning xolisligi - masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali bilim sifatining doimiy nazorati, natijalarning baholanishini ko'zda tutadi.



Bundan tashqari, masofaviy ta'limda o'quvchilar tinglash orqali juda ham yaxshi o'rganadilar. Joriy mavzu uchun tayyorlangan video ma'ruza va uni ixtiyoriy vaqtda ko'rish imkoniyati, ko'zlangan maqsadga erishishda eng to'g'ri yo'l bo'la oladi, shubhasiz. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning juda ko'p ijobiy tomonlari mavjud.

Masofaviy ta'lim samarali ekanligining asosiy sababi, o'quvchining jismoniy qobiliyatlarini boshqa o'quvchilarga mavhumligidir. Ko'pincha o'quvchilar boshqa sinfdoshlaridan hijolat chekadi va qo'rqanlari uchun savol berishdan tashvishda bo'ladilar. Bunda masofaviy ta'lim juda qo'l keladi va har bir o'quvchida savol so'rash imkoniyati bo'ladi ya'ni ular hech qanday to'siqlarga duch kelmaydi. Bu esa o'quvchilar erkin va ishonch ega bo'lgan holda dars olib borishi va o'tilayotgan mavzuni shoshilmay o'ylab olishlari mumkin. Eng asosiysi onlayn ta'limda o'quvchilar dam olish kunlarida ham o'qishlari mumkin. O'z navbatida, masofaviy ta'lim ham o'quvchiga bir qancha vazifalar yuklaydi.

Lekin, buning asosiy yechimi ularning vaqtni to'g'ri boshqarishida bo'ladi. Ya'ni, vaqtni boshqarish va maktab topshiriqlari ustida ishlash, har bir vazifani bajarish, sustkashlik qilmaslik kabilarning asosiy yechimi o'quvchi kundalik hayotidagi vaqtning to'g'ri muvozanatidadir.

Pirovardida, masofaviy ta'limning jamiyatga bo'lgan ijobiy ta'siri salbiy ta'sirlardan ustun turadi. Shunday ekan, barchamiz bir jamoa bo'lib, faqat yoshlarni har tomonlama yetuk inson bo'lishi uchun sitqi dildan xizmat qilaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Ta'lim – tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – T: O'zPFITI 2015 – 160 s.

2. J.G'.Yo'ldoshev. "O'zbekiston respublikasi talimi-taraqqiyot yo'lida" Toshkent "O'qituvchi" 1994 y. [5]



TEXNOLIGIYA FANIDAN TO‘GARAKLARNI TASHKIL QILISH.

*Tosheva Moxira Farmonovna. O‘qituvchi
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
12- umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Moxira1976tosheva@gmail.ru. 91 338-45-02*

Annotatsiya: Ushbu maqola texnologiya fanidan to‘garaklarni zamon talablari asosida tashkil qilishga qaratilgan. Texnologiya faniga yangidan kiritilgan “Mexatronika va robototexnika” bo‘limlarining ahamiyati, ularni tashkil qilishda to‘garaklarning o‘rni, STEAM ta’limi asosida to‘garaklarni tashkil qilish haqida.

Kalit so‘zlar: Mexatronika, robototexnika, to‘garak, zamonaviy kasblar, dasturlash.

Texnologiya ta’limining muhim jihati shundaki, texnologiya ta’limi barcha fanlarda o‘quvchilarning egallagan bilimlarini amalda ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, texnologiya fanining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga kasblar haqida to‘liq ma’lumot berish va ularni kasb- hunarga yo‘naltirish hisoblanadi. ”Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi”ning ishlab chiqilishi texnologiya darsi dasturiga tub burilish bo‘ldi. Bunda sinflar kesimida dasturlarning uzluksizligi ta’minlanganligi, “Mexatronika, robototexnika” bo‘limlarining kiritilishi juda muhimligi bilan ajralib turadi. Texnologiya faniga yangidan kiritilgan “Mexatronika va robototexnika” bo‘limlari o‘quvchi yoshlarni kelajak hayotga tarbiyalashda, zamonaviy kasblarni egallashlarida muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilar robototexnikani o‘rganish orqali turli dasturlash tillarini o‘rganadilar. Robot yasash jarayonida o‘quvchilar boshqa qator fanlardan egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llaydilar. Uni dasturlashda esa informatika fanidan egallagan bilimlarini namoyon qiladilar, boshqa dasturlash tillarini ham o‘rganishlariga to‘g‘ri keladi. Hozirda ijtimoiy tarmoqlarsiz insonning hayotini tasavvur qilish qiyin. O‘quvchilarimiz “One Million Uzbek Coders” loyihasida ishtirok etib, ”Coursera” kurslarida ta’lim olib, IT sohasida ham ko‘pgina yutuqlarga ega bo‘lmoqdalar. Innovatsion texnologiyalar jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Maktab o‘quvchilarini hozirda dasturlash, modellashtirish, dizayn-loyihalash, robototexnika, robot dizayni sohalari qiziqitirmoqda. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEM ta’limi dasturining asosini tashkil etadi. Bunda o‘quvchi bilim va izlanishlari asosida loyihalash ishlarini bajarishi kerak bo‘ladi. Amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, amaliyotda foydalanish, konstruksiyalash, texnik ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga qaratiladi.

O‘quvchilarga “Mexatronika, robototexnika” ga oid bilimlarni berish, STEAM dasturini amalga oshirish vazifalarini to‘garak mashg‘ulotlarida amalga oshirish mumkin. To‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishda quyidagi jihatlarni e‘tiborga olish kerak:

1. Tanlash erkinligi (O‘quvchiga kichik bo‘lsa ham tanlash erkinligini berishimiz kerak. Masalan, ularga bir biror narsani yasash vazifasini berib yasash uchun materialni (yog‘och, karton, fomeks, tunuka) tanlash imkonini berishimiz mumkin.

2. Bajarish uchun qadamlar. Berilgan vazifani bajarishda o‘quvchining qo‘ygan qadamlarini tanlash imkonini beramiz. Bunda o‘quvchi o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini tuyadi va o‘zi mustaqil harakat qilib, qobiliyatlarini namoyon qiladi.

3. Kutilmagan vaziyatlar. Amaliy ish davrida kutilmagan vaziyatlarning bo‘lishi ham muhim. Masalan, tayyorlanadigan buyum uchun ketadigan xom ashyoni aniqlash vahokazo.

4. Ta’limda ochiqlik bo‘lishi ham muhim. Bunda berilgan topshiriq (hammaga bir xil) bo‘yicha bajarilgan mashqlarni hamma ko‘rib turadi, o‘quvchilar bir- birlariga ko‘maklashadilar, xatolari bo‘lsa tuzatadilar, bir- birlariga yordam beradilar.

Texnologiya fanidan to‘garaklarni tashkil qilish muhim masala. Shunday ekan, to‘garaklarni an’anaviy bo‘lib qolgan mavzularda emas, balki, zamonaviy talab darajasidagi mavzularda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Innovatsion texnologiyalar : nazariya va amaliyot”(Toshkent 2011)
2. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi



BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQ KO'NIKMALARINI O'STIRISH

*Xamidova Nilufar Anvarovna
Qo'qon shahar 36-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
e-mail: nilufar@mail.ru*

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga savod o'rgatish hamda nutq ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida olib boriladigan amaliy ishlar yuzasidan fikrlar yoritilgan

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, savodxonlik, til, nutq, nutq o'stirish

Ta'limning yangi mazmuni o'quvchilarning har tomonlama kamol topishiga, ularni faollashtirishga qaratilgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xat-savodga o'rgatish, lug'atni boyitish nutqlarini rivojlantirish orqali boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishga erishmoq lozim. Xat savod o'rgatish ta'limning muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'quvchilarga to'g'ri o'qish, chiroyli yozish hamda o'qiganlarini so'zlab berish o'rgatiladi. Nutqni gaplarga, gapni so'zlarga, so'zni bo'ginlarga ajratish, tovushlarni eshitib va talaffuz qilib bir-biridan farqlash, so'zda tovushlarning birin-ketinligiga e'tibor berishni ham bilib olishlari ta'minlanadi. Bolalarning nutqni o'stirishda kesma harflar bilan ishlashga o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida bolalar bog'inlar tuzishga tez o'rganadilar. Ochiq va yopiq bo'ginlarni turli ko'rinishdan tuzilgan gaplar tuzishni ham mashq qiladilar. Kichik matnlarni ovoz chiqarib bo'ginlab, ongli to'g'ri va ravon o'qishda o'rganadilar. O'quvchi avval ichida bo'ginlab o'qish, so'ng ovoz chiqarib so'zni butunicha aytish yozuv bilan uzviy bog'lab olib boriladi. Bu usul bolalarning og'zaki va yozma nutqning baravar rivojlantirishga yordam beradi. O'qish darslarida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. Xat savod o'rgatish davrida bolalarni bosma harflar bilan yozma harflarning o'xshash tomonlarini farqlab bosma harflarni yozma ravishda ko'chirib yozishga ham o'rgatish foydalidir. Chunki ular ko'pincha bosma harflarni aralashtirib yozib qo'yadilar. Shunday paytda ular e'tiborini yozuv namunalariga jalb qilish, yozuvlarini to'g'ri va chiroyli bo'lishiga erishmoq lozim. Bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish ishlari ham bu davrning asosiy vazifalaridan biridir. O'quvchilarni yozuvga o'rgatishda dastlab yozilishi talaffuziga mos keladigan so'zlar tanlanadi. Bolalarni yozuvga o'rgatishda so'z tarkibidagi harflarning to'g'ri va aniq yozilishi hamda qo'shilishiga daftarlarni ozoda tutishga bolalar e'tibori tortiladi. Bu davrdagi darslarni maqsadga muvofiq tashkil etish o'quvchilar bilimining kelgusida pishiq- puxta bo'lishiga mustahkam zamin yaratadi. Savod o'rgatish ishlarini to'g'ri tashkil qilish uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- ta'limning didaktik jihatlariga e'tibor berib, uni so'nggi yutuqlar bilan to'ldirib borish;
- o'quvchilarning yosh va fiziologik jihatlariga e'tibor berish;
- ularni mustaqil faoliyatni rivojlantirish usullarini keng qo'llash;
- o'qish va yozishning uzviyligiga e'tibor berish;
- alifbo va unga qo'shimcha materiallardan ijodiy foydalanish;

Maktabda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish uchun kurash barcha o'qituvchilarning ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifasi sanaladi. O'quvchilar nutqini o'stirish ularga o'z xalqining adabiy tilini o'rgatish demakdir. Adabiy til esa normaghtirilgan qonun-qoidali til. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni ana shu adabiy til-da so'zlashga odatlantira borish kerak. O'qituvchining nutqni o'stirish jarayoni bola maktabga 1-qadam qo'ygan kundan boshlanadi. Nutq ko'nikmalari izchil ravishda olib borilgan amaliy ishlar natijasidagina hosil bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi grammatikaning har bir bo'limiga oid mashg'ulotda o'tilgan mavzu asosida o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini o'stirishga e'tibor berishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni matnni to'g'ri, ifodali, ravon talaffuz etishiga katta e'tibor berishi kerak. Bu ko'nikmaga dastavval nutqning ixcham, sodda va ravon mazmundor bo'lishi kiradi. Shuning uchun har bir grammatika va imlo darsida nutq o'stirishi o'qituvchining diqqat markazida turishi, o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish va so'z boyligini kengaytirish birinchi darajali vazifa qilib qo'yilishi shart. Savod o'rgatish jarayonida bir turdagi mashg'ulotlar uzoq davom etsa o'quvchilar tez charchab qoladi. Shuni hisobga olib, mashg'ulotlarning turi va usullarini o'zgartirib turish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, dastlabki mashg'ulotlar



ta'sirchanlik va mo'jizakorlik jihatidan yuksak darajada bo'lishi kerak. Chunki bolalar yozish va o'qishdek aqliy faoliyatga birdaniga kirisha olmaydilar. Savod ta'limning adabiy til meyorlariga rioya qilgan holda olib borilishi qisqa va lo'nda, ta'sirchan va tabiiy, ravon nutq egallanishi uchun zamin yaratadi. O'quvchilarning nutqini mukammal rivojlantirish uchun o'qituvchi ko'p izlanishi, bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lmoq'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Q, Nazarov K, Yo'ldosheva Sh. “Savod o'rgatish metodikasi” T.”O'qituvchi” 1996.
2. Ro'ziboyeva O'. “Boshlang'ich sinf o'quvchilari unli va undosh tovushlarni o'rganish bilan og'zaki nutqni o'stirish” T. 1996.
3. Qosimova K. “Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi” T.”O'qituvchi” 1985.



MILLIY TARBIYANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA AJDODLAR MEROSINING O'RNI.

*Xolmuxamedova Nilufar Abduraximjonovna
Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi
49-maktabning tarbiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy ma'naviyatimiz rivojiga xissa qo'shgan ajdodlarimiz va ularning ma'naviy merosi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Milliy ma'naviyat, ma'naviy meros, ko'hna tarixiy yodgorliklar, qadriyat, an'ana.

Har qanday milliy ma'naviyatni o'sha millatning tarixi, o'ziga xo'surf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu borada ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Milliy ma'naviyatimiz ildizlari qayerdan boshlanishi, uni aniqlash uchun qaysi manbalarga tayanish, uning asoslarini qayerdan qidirish kerakligini Birinchi prezidentimiz Islom Karimov qator kitoblarida, jumladan, "Yuksak ma'naviyat – yengilams kuch" asarida aniq ko'rsatib berilgan. Unga ko'ra, asosiy manba buyuk ajdodlarimiz merosidir. Demak, buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros – milliy ma'naviyatimizning o'q ildizi hisoblanadi.

Xalqimiz qadimgi davrdagi ma'naviy hayoti – dunyoqarashi, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odat va qadriyatlari, g'oyalari, diniy qarashlari haqida ma'lumot beruvchi qadimiy kitob "Avesto" hisoblanadi.

Avesto kitobi orqali biz milliy ma'naviyatimizning ildizi qayerga borib taqalishini, u kecha yoki undan oldingi kun yaratilmagani, balki ming – ming yillik tarixga ega ekanini bilib olamiz. Ayniqsa, aynan shu kitob bizning ajdodlarimiz allaqachonlardan oq ezgulik sari intilib yashaganini asoslovchi manbadir. Misol uchun, "Avesto"ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli saboqlar bor. Ana shunday fikrlar, ya'ni bunyodkorlikka xizmat qiluvchi niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'li mustahkam hayotiy asosga ega ekani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Milliy ma'naviyatimizning ildizlaridan yana biri insonni odil va haqq'oy bo'lishga, o'z yurtini, oilasi qo'rg'onini qo'riqlashga, do'stu yorini, or-nomusini, ota-bobolarining muqaddas qadamjolarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o'rgatadigan, bizga vatanarvarlik fazilatlaridan saboq beradigan asar "Alpomish" dostonidir.

Islom dini ta'limoti bo'yicha Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba – hadislarda ham insoniy fazilatlar ham keng targ'ib etiladi. Insoniylik sha'niga dog' tushiradigan razil illatlar qoralanadi: "Bir – biringiz bilan salomlashib yuringlar. Shunda o'rtalaringda mehru-muhabbat uyg'onur", "Mo'minlarning afzali xulq – atvori yaxshilaridir", "...mo'min yolg'on so'zlamaydi" yoki "Rasululloh (s.a.v) biror ish aytsalar, tushunarli bo'lishi uchun uch bor qaytarardilar. Salom bersalar, uch marta salom berardilar" kabi hadislar kishining qalbini, ong – shuurini yoritadi, ezgulikka chaqiradi.

Jahon tan olgan ulug' allomalarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, buyuk tasavvuf pirlari Xakim at-Termiziy, Abduholiq G'ijdivoniy, Bahouddin Naqshband, Shahobiddin Suhravardiy va Najmiddin Kubro kabi siymolarning millatimiz va ma'naviyatimiz takomiliga qo'shgan xizmatlari, matematika va astronomiya singari aniq fanlar; meditsina, minerologiya kabi tabiiy fanlar; logika, filologiya va jamiyatshunoslik fanlari sohalarida jahon ilmi rivojiga barakali ta'sir ko'rsatgan qomusiy allomalar Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa shu kabi ma'rifatparvar ajdodlarimiz nafaqat milliy ma'naviyatimiz, balki jahon ma'naviyati rivojiga hissa qo'shgan allomayu adiblardir.

Misol tariqasida, Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" va boshqa qator asarlarida axloqiy masalalarni siyosat sohasiga oid masalalar bilan bog'liq holda tahlil etadi. Farobiy nazarda tutgan "fozil shahar aholisi" aslida aksar aholisi yuksak ma'naviyat va demak, yuksak ahloq egasi bo'lgan jamiyat bo'lib, zamonaviy tilda biz buni fuqarolik jamiyati deb atamoqdamiz. Ayniqsa,



demokratik davlatda barcha qarorlar ko'pchilik ovoz bilan hal qilinishi nazarda tutilsa, millat ma'naviyatiga e'tibor naqadar jiddiy masala ekani yanada yorqin ko'rinadi.

Buyuk bobokolonimiz sohibqiron Amir Temurning "Tuzuklar"i ham milliy ma'naviyatimizning yuksalishiga benazir hissa qo'shgan shubhasiz. Unda sohibqiron qadrlagan, hayotda o'zi amal qiluvchi va atrofdagi barcha insonlarga tavsiya etgan insoniy fazilatlar haqida nodir fikrlar bitilgan. "Temur tuzuklari"da ezgu fazilatli shaxslarni qadrlash bilan birgalikda, illatlarni kasb qilgan insonlarni tartibga chaqirilgani va agar uddalab bo'lmasa, jazo qo'llangani yozilgan.

Sohibqiron Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da "Azmi qat'iy, tadbirkor, xushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir", degan hayotiy xulosaga kelganini hamda o'z tajribasiga tayanib, beshta fazilat sohiblarini atrofiga to'plab, maqsadlariga erishganini ta'kidlaydi. Demak yuqoridagi fikrdan ham ko'rinib turibdiki, inson ma'naviyatini susaytiruvchi loqaydlik illati juda qattiq qoralangan.

Haqiqatdan ham, Amir Temur ochko'z, ziqna, yovuz va nafsi yomonlarni yoqtirmagan. "Qaysi bir sipohiy tuz haqi va vafodorlikni unutib, - deyiladi Temur tuzuklarida, - xizmat paytida o'z sohibidan yuz o'girib, xuzurimga kelgan bo'lsa, unday odamni o'zimga eng yomon dushman deb bildim. Chunonchi, To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda uning amirlari menga turli xil xabar va shikoyatlar yozib, o'z hukmdori, ya'ni mening dushmanim bo'lmish To'xtamishxon bergan tuz haqini unutmadi, vafodorlik va haq – huquqni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, xuzurimga panoh izlab kelganlari uchun ularni la'natladim, o'zimga "bular o'z xojasiga vafo qilmagach, menga qilarmidi" deb o'yladim". Mana shu fikrlar ham Amir Temur yashagan davrdagi milliy ma'naviyatimizning nechog'li yuksak darajada bo'lganini ko'rsatib turibdi.

Milliy ma'naviyatimizning saqlanib qolishi, yuksalishi va bugungi darajaga yetib kelishida jadidlar deb atalmish marifatparvar bobolarimizning ham o'rni beqiyos. Marifatparvar pedagog Abdulla Avloniy ahloq-odob, inson ma'naviyati haqida "Turkiy Guliston yohud axloq" nomli yirik asar yozib qoldirgan. Unda tarbiya haqida quyidagi jumlar keltirilgan: "Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayirdadurgan qilib yaratmishdur. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila bo'lur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, go'zal xulqlarga odatlanub katta bo'lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo'lib chiqur. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulib o'ssa, Allohdan qo'rqmaydurgon, shariatga amal qilmaydurgon, nasihatni qulog'iga olmaydurg'on, har xil buzuq ishlarni qiladurgon, nodon, johil bir rasvoyi odam bo'lib qolur deb" o'z asarida aytib o'tgan va insonlarni ma'naviyatli, axloqli, tartibli, odobli bo'lishga chorlagan.

Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, ajdodlarimizning bizga qoldirgan merosida yuksak ma'naviyatlik, odoblilik, sahovatpeshalik, ko'ngli ochiqlilik ulug'langan. Biz ularga amal qilsak va kundalik hayotimizda, ishimizda, o'qishimizda, kishilar bilan muomala jarayonida ularni qo'llasak, yuksak insoniy fazilatlariga ega bo'lamiz. Zero, yuksak ma'naviyatli, axloqli inson hech qachon tuban ishlarni amalga oshirmaydi va bunday binsonlardan uning atrofidagilar va jamiyat mamnun bo'lib yashaydi hamda bunday insonlar jamiyati yuksak pog'onlarga ko'tarilsa ko'tariladiki, pastlikka, tubanlikka yuz tutmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. M.Quronov, Sh.To'rayev, I.Daminov, O.Bozorov. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. T.: 2017

2. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. T.: O'qituvchi. 1992.



XALQ OG‘ZAKI IJODINING BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARI MA’NAVIY TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI VA ROLI.

*Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi
36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Xudoyberdiyeva Malika Raximovna*

Annotatsiya; Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: doston, qo‘shiq, ertak, o‘quvchi, tez aytish.

Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligida sog‘lom avlodni tarbiyalash borasida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Yosh avlodning barkamolligi uning ma’naviy kamolotiga ham ko‘p jihatidan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan bola tarbiyasi milliy, ma’naviy, ruhiy jihatdan yondashishni talab etadi. Xalq og‘zaki ijodi xalq badiiy kamoloti va ma’naviy boyligining bitmas – tunganmas xazinasidir. Xalq og‘zaki ijodi turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog‘langan. Xalq donoligi shu mehnat jarayonining turli va o‘ziga xos shart-sharoitlariga muvofiq ravishda bolalar uchun ham ajoyib ertaklar, qo‘shiqlar, topishmoqlar, maqollar yaratgan. Ularni bolalar juda sevib tinglaydilar va o‘qiydilar. Vatanimizning yuksalishi va taraqqiyoti kelajak avlodni ma’naviy sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalashga bog‘liqdir. Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotidagina emas, balki ma’naviy yuksalishni ham taqozo etadi.

Ertaklar bolalar hayotida ham didaktik ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ertaklarda mo‘jiza yoki sarguzasht ma’lum voqea- hodisalarni hayot bilan bog‘lab, haqiqat, to‘g‘rilik, ozodlik, odamiylik, oliyjanoblik, g‘oyalarini targ‘ib etadi. Shuning uchun ertaklar bolalarni o‘ziga ko‘proq jalb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ertaklar yordamida ma’naviy tarbiya va go‘zal insoniy tuyg‘ular shakllanadi. Xalq og‘zaki ijodi mehnat va mehnat ahlini hamisha ulug‘lab, unga mehr- muhabbat bilan qarashga, do‘stlikni qadrlash o‘rgatib kelgan.

Tez aytishlar- bolalarning xotirasi tafakkurini takomillashtiradi. Bu janr xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos turi hisoblanadi. Tez aytishlar bolalarda aqliy o‘tkirlik va zukkolikni tarbiyalaydi. Tez aytishlarni takrorlash natijasida bolalardagi nutqiy nuqsonlar kamchiliklar tuzatiladi, nutqi ravon bo‘ladi.

Topishmoqlar aqliy faoliyatni yuksaltiradi. Topishmoqda bir – biriga o‘xshash ikki predmetdan jumboq yasali, ikkinchisiga xos o‘xshash belgilar asosida uni topishga mo‘ljallangan shery yoki nasriy topshiriq bayon etilgan. Topishmoqlar bolalar aqli, ongi va taffakurini o‘stiruvchi eng asosiy o‘yin turi hisoblanadi. Topishmoqlarda xalqimizning turmush madaniyati urf-odatlar voqea hodisalar inson va uni o‘rab olgan olam o‘xshatishlar taqqoslashlar savollar vositasida ifodalanadi. Topishmoq, avvalo, aqlni chiniqtiradigab ayniqsa bollalarni yoshlikdan mantiqiy fikrlashga undaydigan tarbiya vositasidir. Topishmoqlar kishining tassavuri va tafakkurini o‘stiradi ayniqsa, bolalarni topog‘on bo‘lishga va hozirjavollikka o‘rgatadi. Qoshiqlar bola tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Qoshiq lirikaning eng qadimgi shakllaridan biri bolib kuylashga mo‘ljallangan bir necha bandli she‘rdan iboratdir. Qo‘shiqlar kuy-ohang bilan aytiladi. Ba‘zan qo‘shiq o‘yim bilan birga ijro etiladi. Qo‘shiqlar bollalarda go‘zal estetik ruhni shakllantiradi.

Xalq og‘zaki ijodining bir qismi bo‘lmish maqollar asrlar davomida misqolab to‘plangan, ne-ne sinovlardan o‘tgan, insonlarga hamisha madad bo‘lib kelgan noyob xazinadir. Maqol ibratli so‘zdir. Shunday sozki gapga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin ta’sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqiga har doim hamroh bo‘ladi. Maqollar ota-bobolarimizning ko‘rgan kechirganlari asosida yuzaga keladi. Darslarda maqollardan foydalanish mavzuni tez va mustahkamm o‘zlashtirishga ko‘maklashadi. Maqol bolalar ruhiyatiga tez tasir qiladi va uni tog‘ri yo‘ga yo‘naltirishda ijobiy omil boladi. “Qunt bilan o‘rgan hunar hunardan rizqing unar”, “Ilmsiz bir yashar ilmli ming yashar” kabi maqollarning mazmunini sharhlab o‘quvchilarga tushintirilsa ularning ilmga bolgan qiziqishi ortadi. Maqollar o‘quvchilarga dostlik vatanga muhabbat, mehnatsevarlik ilm, hunar, o‘rganishga intilish, botirlik, saxovat, adolat, kattalarga hurmat, sammiylik kabi xislatlarni shakllantiradi va o‘stiradi. Barkamol avlodni bilimli, aqlli har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash masalasi



mustaqil O‘zbekistonimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Yoshlarimizni buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar qilib tarbiyalashda bizga milliy ruhda yaratilgan xalq og‘zaki ijodi ; ertak, qo‘shiq, topishmaqol va tez aytishlarning o‘rni va roli beqiyosdir. Xalq og‘zaki ijodi ruhida yog‘rulgan asarlar bolalarni hamisha olg;a intilishga chaqiradi hayotni chuqur anglash va sevishga yordam beradi. Bollalarning hayoti davomida ularning doimiy hamrohiga aylanadi.

Biz boshlang‘ich sinfda bolalarning dunyoqarashini shakllantirar ekanmiz shuni unutmashligimiz lozimki, milliy urf-odat va ananalar ruhida tarbiyalangan bola vataniga xalqiga sadoqatli inson bo‘lib ulg‘ayadi. Shunday ekan, bilimli, dono, yetuk fazilatli, barkamol insonni tarbiyalar ekanmiz bizga xalqimiz yaratgan xalq og‘zaki ijodi dasturi amal bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek xalq maqollari
2. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish. O‘quv metodik qo‘llama
3. Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING AHAMIYATI

*Xujayeva Muxarram Idrisovna
Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani
142- sonli IDUMning I toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi*

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning bilim darajasini oshirish, tafakkurini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bois, ta'limni boshlang'ich sinflarda tashkil etishda turli didaktik o'yinlardan qo'llash va dars jarayonlarini qiziqarli va hayajonli qilib tashkil etishga dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Shu bois, ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarini didaktik o'yinlar orqali mantiqiy fikrlashga o'rgatishning ahamiyati to'g'risida.

Kalit so'zlar: tafakkur, didaktik to'yinlar, "Biz turistlarmiz" didaktik o'yini, xarita.

Tafakkur bilish jarayoni sifatida – analiz, sintez va umumlashtirish bo'lib, ularning yordamida inson masalani qo'yadi va yechadi (shartlarini va talablarini qismlarga ajratadi, bir-biriga mos qo'yadi, izlanadigan obyektни aniqlaydi). Tafakkurning shaxs aspekti eng avvalo motivni va inson qobiliyatini tashkil qiladi (ya'ni yechiladigan masalaga nisbatan munosabatini, boshqa insonlarga nisbatan bo'lgan munosabatini va boshqalar; tafakkur faoliyati va uning aqliy qobiliyatlari nimalarda namoyon bo'lishi va shakllanishi).

Tafakkurning protsessual va dinamik aspektlari operatsional aspektiga aynan mos emas. Birinchisi ikkinchisiga nisbatan kengroq bo'lib, uni o'z tarkibiga zaruriy komponent sifatida qo'shadi. Har qanday intellektual amallar, aqliy harakatlar yoki shunday amallar tizimi o'zining shakllanishini va tadbirini o'z tarkibida saqlamaydi. Faqatgina faol tafakkur jarayonidagina, qaralayotgan aniq muammoda inson ta'limning zaruriy shartlarini va mos aqliy harakatlar funksiyalarini va amallarni ochadi. Tafakkurni amallar tug'dirmaydi, balki tafakkur jarayoni amallarni hosil qiladi.

Tafakkur jarayon sifatida (izlanish va muhim yangilikni kashf etish) shakllanuvchi hisoblanadi. Bu nafaqat intellektual amallarini tashqaridan tayyor holda kiritilmasligini, balki tafakkur motivi ham shu jarayonda shakllanishini bildiradi.

Kichik maktab yoshida bolalar didaktik o'yinlarni (syujetli, predmetli, musoboqali) rohatlanib o'ynashadi. Ularda faoliyatning quyidagi elementlari mavjud: o'yinli masala, o'yinli motivlar, masalalarni o'quv faoliyati bilan bog'liq yechimlari. Natijada o'quvchilar o'yin mazmuniga ko'ra yangi bilimlarga ega bo'lishadi. O'quv-biluv masalalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'yilishidan farq qilgan holda, didaktik o'yinda u bolaning o'zini o'yinli masalasi sifatida nomoyon bo'ladi. Uni yechish usullari esa o'quv-biluv faoliyatiga tegishli hisoblanadi.

Buni quyidagi misolda qarab chiqamiz. O'quvchilar "Biz turistlarmiz" nomli didaktik o'yinni o'ynashadi. Uning ma'nosi shundan iboratki, bolalarni turistlar guruhining marshrut yo'lini xaritada belgilashga o'rgatish. Uni to'g'ri belgilagan har bir o'quvchi turist belgisini oladi. O'quvchilarning o'z oldilariga qo'yadigan masala – turistlar o'yinini o'ynash. O'yin motivi – turist belgisini olish uchun to'g'ri marshrutni tanlash. Bunday o'yin shu bilan tavsiflanadiki, uning faollik shakli kattalar tomonidan aniqlanadi va o'yin qoidalari ko'rinishida bolalar oldiga qo'yiladi. "Biz turistlarmiz" o'yinining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: "Marshrutni aytayotgan o'qituvchini diqqat bilan eshiting va uni o'z xaritada joylashtiring. U xaritada ko'rsatilgandan so'ng, uni namunadagi bilan solishtiring".

Shuni qayd etishimiz lozimki, o'yinda va undan keyin o'yin motivlarida bilishga qarab siljish ro'y berishi mumkin. Masalan, "Biz turistlarmiz" o'yinidan keyin o'quvchilar ko'plab savollar bilan o'qituvchiga va boshqa katta yoshdagilarga murojaat qila boshlashdi, kitoblardan mos ma'lumotlarni izlasha boshlashdi, ya'ni ularda o'yin sifatida taqim etilgan masala o'quv masalasiga aylandi. Bolalar hodisalar doirasidagi ma'lumotlar bilan chegaralanib qolmasdan, o'yin faoliyati bilan bog'liq yangi tushunchalarni egallashga (kompas, topografik belgilar va boshqalarni) faol harakat qilishadi. To'plangan bilimlar tizimlashtirilib, kichik maktab yoshidagi bolalar ta'limga nisbatan o'z faoliyatlarini qayta moslashtirishadi. Endi u nafaqat o'yinlar nuqtai-nazaridan, balki o'yin davomida paydo bo'lib, rivojlangan o'quv-biluv qiziqishlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Demak, didaktik o'yinlar bolalar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish



uchun qulay bo'lgan shart-sharoitni paydo qiladi va bilish uchun qiziqishni rivojlanishiga ko'maklashadi.

Eng yaxshi didaktik o'yinlar mustaqil ta'lim olish prinsipida tuzilgan, ya'ni, shunday tuzilganki, ularning o'zi o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga qarab yo'naltiradi. Ma'lumki, ta'lim olish ikkita komponentni o'zida jamlaydi: kerakli ma'lumotni to'plash va to'g'ri yechimni qabul qilish. Bu komponentlar o'quvchilarda didaktik tajribani ta'minlaydi. Lekin, tajribaga ega bo'lish ko'p vaqtni talab qiladi. O'quvchilarda "bunday tajribaga ega bo'lish"ni ko'paytirish, ularni mustaqil ravishda bu ko'nikmalarga ega bo'lish mashqlariga o'rgatishdan iboratdir. Bunga psixologik tavsifdagi rivojlantiruvchi o'yinlarni kiritish mumkin: krossvordlar, viktorinalar, boshqotirmalar, rebuslar, kriptogrammalar va boshqalar.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda predmetga nisbatan qiziqishni uyg'otadi, har bir o'quvchini individual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi, bilish faolligini tarbiyalaydi. Didaktik o'yinning muhimligi, u bolalar tomonidan qanday reaksiya qilinishi bilan emas, balki u yoki bu masalani yechish har bir o'quvchi uchun tadbqiq qilinishining samaraliligi bilan aniqlanadi.

Didaktik o'yinlarning natijaviyligi, birinchidan, ulardan tizimli ravishda foydalanishga, ikkinchidan, o'yinlar dasturining oddiy didaktik mashqlar bilan birgalikda maqsad sari yo'naltirilganligiga bog'liq. Masalan, bilish faolligini rivojlantirish muammosini hal etishda, o'quvchining mustaqil tafakkurini rivojlantirish asosiy masala deb hisoblanishi zarur.

Demak, kichik maktab yoshida, o'yinlardan bolalarning o'quv va mehnat faoliyatini yengillashtiruvchi va tashkil etuvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. Ta'lim jarayonida o'yin elementlari o'quvchilarda ijobiy emotsiyalarni yuzaga keltirib, ularning faolligini oshiradi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar, o'yin tavsifiga ega, mehnatga taalluqli topshiriqlarni qiziqish bilan bajaradilar. O'yin faoliyati bolalarni ruhiy hayotining barcha tomonlarini shakllanishida, masalani qo'yilishida va harakatlanish usullarini tanlashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1998. B. 20-29.
2. Burxonov Sh., Xudoyorov U. Matematika 3-sinf. "Sharq" nashriyoti. 2014. 206-b.
3. Bikbayeva N.U., Yangibayeva E., Girfanova K.M. Matematika 4-sinf. "O'qituvchi" nashriyoti. 2013, 206-bet.
4. www.ziyonet.uz



TUPROQ TARKIBI.
(3-sinf tabiatshunoslik fanidan dars ishlanma)

Xujayeva Muxarram Idrisovna
Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani
142- sonli IDUMning I toifali boshlang‘ich
sinf o‘qituvchisi, o‘quv ishlari bo‘yicha
direktor o‘rinbosari, Xalq ta‘limi a‘lochisi,
903466044, muharramxojaeva@gmail.com



Dars ishlanmasiga qisqacha annotatsiya: Ushbu dars ishlanmasi Mirzo Ulug‘bek xalq ta‘limi bo‘limiga qarashli 142-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim maktabining 3-“A” sinf o‘qituvchisi Xujayeva Muxarram Idrisovna tomonidan tayyorlangan bo‘lib, undan 3-sinf o‘qituvchilari va amaliyotchi talabalar ijodiy yondashgan holda foydalanishlari mumkin. Dars ishlanmasi 30 nafar 3-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Ishlanmada tabiatshunoslik fanining hayot bilan chambarchas bog‘liqligi berilgan. Yoritilgan mavzuni o‘quvchilarga yetkazishda turli rasmlar, qiziqarli ma‘lumotlar, ta‘limning rivojlantiruvchi, faollashtiruvchi, shaxsga yo‘naltiruvchi texnologiyalaridan foydalanilgan. Mavzuni tushuntirishda hayotiy misollarni, fanlararo bog‘lanishni (o‘qish, matematika, odobnoma) ko‘rish mumkin. Bu mavzuni ochib beruvchi slaydlar, animatsiyalar, videolavhalardan foydalaniladi. Dars ishlanmasining texnologik xaritasiga, vaqt taqsimotiga alohida e‘tibor berilgan.

Fan: Tabiatshunoslik

Sinf: 3

Darsning texnologik xaritasi

Mavzu: Tuproq tarkibi			
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: tuproq, chirindi, minerallar, mikroorganizm, bakteriya, zamburug‘, mikroob, unumdorlik. Soat soni: 1 soat			
Mavzuning qisqacha ta‘rifi: tuproq va uning hosil bo‘lishi, tarkibi, tuproq unumdorligini oshirish haqida o‘rgatiladi.			
O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:			
Darsning metodi: ma‘ruza, tushuntirish, savol-javob, muammoli izlanish, didaktik mashq			
Darsning jihozi: “Dars – muqaddas”, “O‘rgan-o‘rgat” va “Yaxshi muallim – sifatli ta‘lim” tavsialari, multimedia materiallari, slaydlar, amaliy ish uchun kerak bo‘ladigan asboblari, rasmlar, 3- sinf darsligi Toshkent-2019 yil.			
Darsning turi: yangi bilim beruvchi			
Nazorat: o‘quvchilarning darsga qatnashishini nazoratga olish.			
Baholash: o‘quvchilarning javoblari va yutuqlari uchun rag‘batlantirish.			
Darsning maqsad va vazifalari			
Darsning maqsadlari:			
a) ta‘limiy: o‘quvchilarga tuproq tarkibi, hosil bo‘lishi, unumdorligi va ahamiyati haqida ma‘lumot berish; T.K.: 2 mavzuga doir ma‘lumotlarni kompyuter va boshqa manbalardan izlab topib, ulardan samarali foydalana olish.			
b) tarbiyaviy: o‘quvchilarni ona zaminni, tabiatni, atrofimizdagi barcha borliqni muhofaza qilish, ularga g‘amxo‘r bo‘lishga o‘rgatish; T.K.5: yer, zamin, tuproq, turar joyini qadrlash; T.K.:6 tabiiy boyliklarni, o‘simliklar hayotida tuproqning ahamiyati, mikroblar ko‘payishini oldini olishda tuproqning ahamiyati haqida aytib bera oladi.			
c) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning tuproq tarkibi, uning hosil bo‘lishi, unumdorligini oshirish, atrofimizdagi olam mavjudlari, tabiat in‘omlari haqidagi malaka, ko‘nikmalarini rivojlantirish, tabiat haqidagi bilimlarini boyitish. F.K.: 1 tuproqning tarkibida havo, suv, o‘simlik va hayvon chirindilari, gil, qum va minerallar mavjudligi, tuproq hosil bo‘lishi, tuproq unumdorligini oshirish omillar va insonlar uchun ahamiyatini aytib bera oladi.			
Kutilayotgan natija			
Mashg‘ulot oxirida o‘quvchilar ona zaminimiz bo‘lgan tuproqning tarkibida havo, suv, o‘simlik va hayvon chirindilari, gil, qum va minerallar mavjudligi, tuproq hosil bo‘lishi, tuproq unumdorligini oshirish omillari, o‘simliklar hayotida tuproqning ahamiyati, mikroblar ko‘payishini oldini olishda tuproqning ahamiyati haqida o‘rganadilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajarilgan ish mazmuni	Metod	Vaqt
I. Tashkiliy qism:	-Salomlashish, navbatchi axborotini tinglash, ob-havo o‘zgarishlari va tabiat hodisalari haqida suhbat tashkil etish. - Sinf xonasi va o‘quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish.	Savol-javob	2 daqiqqa



II. O‘tilgan mavzu va uyuq vazifani so‘rash:	- Dars davomida rioya qilish lozim bo‘lgan qoidalarni belgilash, dars shiorini ishlab chiqish. - O‘tilgan mavzu asosida savol- topshiriqlar berish va bilimlarini mustahkamlash, baholash.	Munozara Menyu usuli	2 daqiqa 4 daqiqa
III. Yangi mavzu bayoni:	- O‘quvchilarga topishmoq berib, mavzuga kirish suhbatini tashkil etish. - Slaydlar asosida yangi mavzuni tushuntirish. - Darslik va rasmlar bilan ishlash. - Multimedia materiallarini namoyish qilish. - Dam olish daqiqasi. - Amaliy ish bajariladi va slaydlar asosida xulosa qilinadi.	Suhbat Ma’ruza usuli Savol-javob Kichik guruhda ishlash, ma’ruza	3 daqiqa 4 daqiqa 4 daqiqa 4 daqiqa 1 daqiqa 6 daqiqa
IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:	-“Bu juda qiziq” sahifasida mavzu mos qiziqarli ma’lumotlar beriladi va o‘quvchilardan shu turdagi ma’lumotlar so‘raladi. O‘quvchilarni kichik guruhga bo‘lib, tuproq tarkibida nimalar borligi va o‘simliklar tuproqdan nimalarni olishini klaster usulida daftarlariga yozdiriladi. -Yangi mavzu bo‘yicha yopiq test savollari ekran orqali namoyish etiladi yoki o‘qituvchi test savollarni o‘qib beradi.	Suhbat munozara mustaqil ish usuli	5 daqiqa 4 daqiqa 2 daqiqa
V. Darsni yakunlash va o‘quvchilar bilimni baholash:	- O‘tilgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilimlarini umumlashtirish, darsni xulosalovchi qisqa savol-javob tashkil etiladi. Har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildirishi nazorat qilinadi. Dars davomida faol ishtirok etgan o‘quvchilar baholanadi va ballari e‘lon qilinadi.	B.B.B. Savol-javob	3 daqiqa
VI. Uyuq vazifani tushuntirish:	42-47 betlarni o‘qib, savollarga javob yozish. O‘simliklar haqida ma’lumotlar to‘plash.	tushuntirish	1 daqiqa

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

O‘quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish. Ob-havo o‘zgarishlari va navbatchi axborotini tinglash. Tabiat hodisalari haqida suhbat tashkil etish.

II. O‘tilgan mavzu va uyuq vazifani so‘rash:

Qator boshliqlari o‘ganilgan mavzu va berilgan uyuq vazifaning bajarilishi haqida ma’lumot beradilar. O‘quvchilarni faollashtiruvchi “Menyu” usulidan foydalanib, barg ko‘rinishida qirg‘ilgan qog‘ozlarga o‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar yozilgan bo‘ladi. Guruh a‘zolari topshiriqlarni olib, maxsus qog‘ozga yopishtiradilar va javob berishga tayyorlanadi. Guruh a‘zolari topshiriqlarni



chiqadi.

6-slayd. Tuproq tarkibida chirindi bor.

4. Kuydirilgan tuproqni stakandagi suvga soling va uni aralashtiring. Birozdan keyin loyqalangan suv tinadi. Bunda qum va gilning ikki qatlamga ajralib qolganini ko'ramiz.

7-slayd. Tuproq tarkibida gil va qum bor.

5. Stakan tubiga cho'kkan gil va qum ustidagi suvdan bir qoshiq oling va uni quruq yoqilg'i yordamida qizdiring. Bunda qoshiqdagi suv bug'lanib, qoshiqda minerallar qoladi.

8-slayd. Tuproq tarkibida minerallar bor.

Tuproqning unumdorligi va ahamiyati haqida o'quvchilarga ma'ruza usuli yordamida ma'lumot beriladi. O'simlik ko'chati ozuqa yetarli bo'lmagan tuproqda o'smaydi. Tuproq tarkibidagi chirindi va minerallar o'simliklar uchun ozuqa hisoblanadi. Bular o'g'it deyiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'quvchilarga mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. "Bu juda qiziq" mashqi. Berilgan ma'lumotlarga qo'shimchalar so'raladi.

1) Har 1 kv.m yerda 80 tagacha yomg'ir chuvalchangi yashaydi.

2) 1sm tuproq → 250-300 yilda

20 sm tuproq → 5 - 6 ming yilda

O'quvchilarni kichik guruhga bo'lib, tuproq tarkibida nimalar borligi va o'simliklar tuproqdan nimalarni olishini klaster usulida daftaringizga yozing.

Mustahkamlovchi yopiq test savollari ekran orqali ko'rsatiladi, javoblarini belgilang.

1. Bakteriyalar ko'zga ko'rinmaydigan nihoyatda _____ jonzotlardir. (mayda)

2. Tuproqda chuvalchang, _____, _____, _____, ko'rsich-qon kabilar ham hayot kechiradi. (chumoli, kaltakesak, ilon, yumronqoziq)

3. O'simliklar dastlab _____ paydo bo'lgan. (suvda)

4. Tuproq tarkibida _____, _____, _____, _____ va _____ bor. (havo, suv, chirindi, mineral, gil va qum)

5. Demak, jonli tabiat _____ yashay olmas ekan. (tuproqsiz)

6. O'txo'r hayvonlar _____ bilan oziqlanadi. (o'simliklar)

O'quvchilarning test javoblarini o'qituvchi to'g'ri javoblarni e'lon qilish usuli bilan tekshirib, baholanadi, rag'batlantiriladi.

V. Darsni yakunlash va o'quvchilarning bilimlarini baholash:

O'tilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimlari umumlashtiriladi, darsni xulosalovchi qisqa savol-javob tashkil etiladi. Dars davomida faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi va ballari e'lon qilinadi.

VI. Uyga vazifani tushuntirish:

45-49 betlarni o'qib, savollarga javob yozish. O'simliklar haqida ma'lumotlar to'plash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Abdurazzoqovanning "Tabiatshunoslik darslarida interfaol usullardan foydalanish" 2006 yil.

2. R. Mirzayevning "Hayvonot olamiga sayohat" kitobi 2004 yil.

3. A. Nigmatovning "Inson va tuproq" kitobi.

4. "O'simliklar olamiga sayohat" kitobi.

5. 3-sinf Tabiatshunoslik darsligi 2019 yil.

6. Dunyo bo'ylab telekanali, gazetalar, jurnal



СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ И КОММУНИКАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

*Абдулхаков Шербой Абдурахимович,
Учитель русского языка и литературы школы №7,
г.Наваи, Зарафшан*

Аннотация: В данной статье рассматриваются информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), их классификация и характеристики, так как создание и развитие информационного общества предполагает их широкое применение в образовании. Приведены материалы, отражающие формы, методы и приёмы использования ИКТ, способствующих повышению эффективности обучения русскому языку и культуре речи.

Ключевые слова: информационные и коммуникационные технологии, ИКТ- компетенция, образовательный проект.

Сейчас в школах произошло существенное укрепление материальной базы в плане информационно - компьютерного оснащения, появились мультимедийные проекторы, экраны, веб-камеры, новые компьютеры, интерактивные доски, цифровой Интернет.

Использование ИКТ в образовании является одним из значимых направлений развития информационного общества. Учащиеся должны уметь самостоятельно находить информацию, анализировать, обобщать и передавать её другим, осваивать новые технологии. Большую роль в этом может и должно сыграть активное применение ИКТ в учебном процессе, поскольку, как показывает практика:

- использование ИКТ способствует повышению качества знаний учащихся, уровню воспитанности, общему и специальному развитию детей;

Использование ИКТ в образовании является одним из значимых направлений развития информационного общества. Учащиеся должны уметь самостоятельно находить информацию, анализировать, обобщать и передавать её другим, осваивать новые технологии. Большую роль в этом может и должно сыграть активное применение ИКТ в учебном процессе, поскольку, как показывает практика:

- использование ИКТ способствует повышению качества знаний учащихся, уровню воспитанности, общему и специальному развитию детей;

- использование ИКТ позволяет оптимально расходовать силы и средства педагогов и детей для достижения устойчивых положительных результатов обучения, воспитания развития;

- использование ИКТ позволяет добиваться стабильности результатов учебно-воспитательного процесса;

- ИКТ позволяет организовать новые формы, методы обучения и воспитания.

Учитель всегда должен помнить о том, что центром внимания на уроке является не сама презентация, как бы красиво она не была выполнена и показана, а формы и методы обучения предмету с использованием той самой презентации. Главным в работе педагога является результат - хорошие знания ученика, которые могут быть получены, в том числе и путем правильного подбора форм и методов обучения. Не стоит проводить уроки с применением

ИКТ постоянно, но в то же время ученики должны чувствовать, что такие уроки проводятся в системе.

Технология опыта

В процессе обучения можно использовать электронные учебники. Эти учебники позволяют облегчить усвоение обширного материала за счёт комплексного воздействия видеоряда и звука, а также посредством чисто компьютерных возможностей: диалога с учеником, автоматизированного контроля усвоения пройденного материала. Учебники снабжены обширным справочным материалом: персоналиями, подробной хронологией, терминологическим словарем, анимированными картами, иллюстрациями (редкие фотографии, плакаты, картины, рисунки, схемы, диаграммы); кинохрониками, документами, уникальными фонограммами. Они являются одновременно учебником, рабочей тетрадью, хрестоматией, справочником и учебным видеофильмом.



Преимущество электронных учебников заключается в следующем:

1. В электронных учебниках иллюстративное изложение изучаемого материала делает учебный процесс разнообразным.

2. Учебный материал излагается в доступной форме.

3. Анимированные схемы и презентации помогают лучше разобраться в большом объёме информации, изучить отдельные аспекты в наглядной форме, что способствует и лучшему запоминанию.

4. Подборка интерактивных тестов даёт возможность проверить знания учащихся на основе объективной автоматизированной оценки.

II. Очень полезно использовать на уроках в процессе объяснения и закрепления нового материала презентации. Презентация составляется в той форме, которая кажется учителю наиболее эффективной, есть возможность составить ее дифференцированно для каждого класса с учетом его особенностей. Их можно накапливать, постепенно дорабатывать и в итоге собрать банк по всем основным темам. В школе участвуют в этом процессе, составляя презентации по пройденным темам, демонстрируя их классу.

У учащихся, активно работающих с компьютером, формируется более высокий уровень самообразовательных навыков, умений ориентироваться в бурном потоке информации, умение выделять главное, обобщать, делать выводы. Использование ИКТ на уроках в школе является одним из важных средств формирования информационных компетенций учащихся. Они учатся ее добывать, анализировать, осуществлять отбор, что и является составляющими частями информационной компетентности.

Ученики создают авторские презентации, защищают свои рефераты и исследовательские работы с использованием компьютера.

Результаты использования ИКТ на уроках у учащихся это повышение интереса к предмету. Ученики хорошо делают тесты, участвуют и побеждают на предметных олимпиадах, успешно участвуют в конкурсах. Анализ по проблеме применения информационной технологии в процессе обучения показал, что важным методическим принципом применения компьютерных программ является их совместимость с традиционными формами обучения.

При планировании уроков необходимо найти оптимальное сочетание таких программ с другими (традиционными) средствами обучения. Применение компьютерных технологий на уроках, позволяет говорить о повышении познавательной активности учащихся, учебной мотивации и, в целом, формировании информационной компетентности учащихся

Использованная литература

1. Беляков Е.В. Понятие информационно-коммуникационных технологий и их роль в образовательном процессе //Литература в школе. – 2008.-№ 3.- С. 28- 31.

2. Мочалова Н.А. Использование компьютера на уроках русского языка и литературы // Русский язык в школе. – 2007.- № 4.-С. 15-17.

3. Поташник М.М. Требования к современному уроку. М.: Центр педагогического образования, 2008 г.

4. Информационные технологии в образовании И.Г.Захарова М. изд.центр «Академия» 2005.192 с.



EVRISTIK TA'LIM METODI

*Баходирова Малохат Усмоналиевна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
27-сонли умумий урта таълим
мактабининг математика фани уқитувчиси*

Annotatsiya; maqolada matematika fanini o'qitishda evristik ta'lim metodi haqida va u tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: evristika, matematika, fan, dastur, ta'lim, metod.

«Evrastika» degan so'zning ma'nosi savol-javobga asosan topaman demakdir. Evristik metod bilan o'qitish maktabdarda asosan, XIX asr boshlaridan boshlab qo'lanila boshlandi.

Atoqli pedagog-matematik S.I.Shoxor-Trotskiy o'zining «Геометрия на задачах» nomli kitobida bunday yozadi: «Geometrik mashg'ulotlar o'quvchilarga qiziqarli bo'lishi uchun, bu mashg'ulotlardagi har bir masala yoki topshiriq so'zma-so'z quruq yodlash uchun emas, balki ularning aqliy faoliyatlarini ishga soladigan xarakterda bo'lishi kerak. Amerikalik olim D.Poya o'zining «Как решать задачу» nomli kitobida evristik ta'lim metodini bunday tushuntiradi: «Evrastikaning maqsadi — yangiliklarga olib boruvchi metod va qoidalami izlash demakdir». U evristik metod mohiyatini quyidagidek izchillikda tuzilgan reja orqali amalga oshirishni tavsiya qiladi:

1. Masalaning qo'yilishini tushunish.
2. Masalani yechish rejasini tuzish.
3. Tuzilgan rejasini amalga oshirish.
4. Orqaga nazar tashlash (hosil qilingan yechimni tekshirish).

Bu rejani amalga oshirish jarayonida o'quvchilar quyidagi savollarga javob topadilar:

1. Masalada nimalar noma'lum?
2. Masalada nimalar ma'lum?
3. Masalaning sharti nimalardan iborat?
4. Ilgari shunga o'xshash masala yechilganmi?

5. Agar shunga o'xshash masala yechilgan bo'lsa, undan foydalanib qo'yilayotgan masalani yecha olamizmi? Albatta, yuqoridagi reja-sxema o'quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatlarini shakllantiradi, ammo bu reja-sxema o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi birdan-bir yo'l bo'la olmaydi. Matematik-metodist V.V. Repev evristik metod orqali o'qitishni bunday ta'riflaydi: «Bu metodning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi tomonidan sinf o'quvchilari uchun o'tiladigan mavzu materialining mazmuni muammo qilib qo'yiladi, so'ngra maqsadga tomon yo'naltiruvchi savollar sistemasini o'quvchilarga berish orqali qo'yilgan muammoni hal qilinadi. Endi quyidagi masalani evristik metod bilan yechamiz. Masala. Oralaridagi masofa 60 km boigan A nuqtadan li nuqtaga bir vaqtda ikki velosipedchi jo'nadi. Ular bir vaqtda B punktga kclishlari kerak cdi. Birinchi velosipedchi esa har soatda 2 km kam yurgani uchun bir soat kech keldi. Har bir velosipedchi soatiga necha km yurgan?

0 'qituvchi. Masalaning shartlari qanday? Hilda nimalar berilgan? Masala shartida qanday kattaliklar qatnashmoqda? 0 'quvchilar. A va B punktlar orasidagi masofa 60 km ekani berilgan. Velosipedchilarning tezliklari orasidagi vaana shu masofalarini bosib o'tishlari uchun ketgan vaqtlar orasidagi farqlar berilgan. Bu masala shartida harakat, masofa va vaqt kabi kattaliklar berilgan. 0 'qituvchi. Masalada nimani topish kerak? 0 'quvchilar. Masalada har qaysi velosi ped-chining tezligini topish so'ralmoqda. 0 'qituvchi. Tezliklarni topish uchun qanday formulalardan foydalaniladi? 0 'quvchilar. Bizga fizika kursidan ma'lum bo'lgan $5 = \sqrt{t}$, $и = \sim$ formulalardan foydalaniladi. Adabiyotlar:

1. Колягин Ю. Н. va boshqalar Metodika преподавания математики в средней школе. Общая методика. М., «Просвещение», 1988.



МАТЕМАТИКА ДАРSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM

*Бозорова Дилфуза Махмудовна
Наманган вилояти поп туманидаги
56 -сонли умумий урта таълим
мактабининг математика фани уқитувчиси*

Annotatsiya: maqolada matematika darslaridagi muammoli ta'lim tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: matematika, maktab, ta'lim, metodika, madaniy hayot.

Umumta'lim maktablari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi muhim o'zgarishlarga hamisha o'z munosabatini bildirib keldi. Jamiyat taraqqiyotining har bir davri uchun ta'lim nazariyasi rivojining ma'lum bir mazmuni mos keladi. Boshqacha aytganda, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichiga mos ravishda o'qitish dasturlarining mazmuni, tarbiya prinsiplari, o'quv-tarbiya jarayonim tashkil qilishning forma va metodlari hamda ta'lim muddatlari mos keladi.

Pedagogika kursidan ma'lumki, ta'lim metodini aniqlashtirish jarayoni o'quvchi bilan o'qituvchining o'zaro munosabatlari prinsipidan kelib chiqadi, bunda o'qituvchi o'quvchilarga bilimlarni bayon qilishi, ana shu bilimlarga erishishdagi o'quvchilarning shaxsiy faoliyatlarini uyushtirishi hamda tushuntiriladigan mavzu materialini o'qituvchining o'zi qanday bayon qilish nuqtayi nazaridan yondashiladi. Og'zaki ko'rsatmalik ta'lim jarayonida o'quvchilar o'qituvchining tushuntirishi orqali bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar hamda ularni amalda qo'llash malakalari hosil bo'ladi. Asta-sekin umumta'lim maktablarining mazmuni tubdan o'zgartirildi, ya'ni ta'limni maktabning maqsad va vazifalariga mos keladigan yangi, ancha takomillashgan izohli-illyustrativ metodi vujudga keltirildi. Izohli-illyustrativ ta'limda o'rganilayotgan obyekt mohiyati izohlanadi, hayotiy dalillar bilan bog'lanadi hamda o'qituvchining ana shu o'rganilayotgan obyektga nisbatan ko'rsatadigan misol va xilma-xil ko'rgazmali qurollari orqali tasdiqlovchi xulosasi bilan yakunlanadi. Izohli-illyustrativ ta'limda o'qituvchi dalillarni o'zi bayon qilib beradi, o'zi ularni tahlil qiladi va yangi tushunchalarning mohiyatini tushuntiradi, ya'ni teorema, qoida va qonunlarni o'zi ta'riflaydi. Izohli-illyustrativ ta'lim metodi umumta'limiy maktablarimizda qo'llanish darajasiga nisbatan an'anaga aylandi va hozirda ham qo'llanilmoqda. Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida izohli-illyustrativ ta'lim metodi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ularni o'rganilayotgan mavzu materialini puxta bilishlariga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantira olmaydi hamda fanga bo'lgan qiziqishlarini yuqori darajada shakllantira olmaydi. Shuning uchun ham 1960-yilning boshlaridan boshlab, maktablarimizda ta'lim jarayonini jadallashtirish g'oyasi keng tarqalib, ta'limning yangi metodi

- muammoli ta'lim metodi vujudga kela boshladi. Ta'lim metodlarining turini aniqlash o'quv jarayonini tashkil qilish prinsiplarini o'ziga emas, balki aqliy faoliyat xarakteriga ham bog'liqdir, bu esa o'z navbatida fikrlashning reproduktiv va produktiv turlarini o'zaro qo'shib olib borish bilan belgilanadi. Izohli-illyustrativ ta'lim jarayonida barcha bilimlar, ko'nikmalar va malakalar o'zlashtirishning reproduktiv metodi asosida amalga oshiriladi, ya'ni o'quvchilar fanning tayyor natijalarini, tayyor faoliyat usulini o'zlashtiradilar, bu esa ularda xotira va reproduktiv fikrlash malakalarini shakllantiradi. Faqatgina produktiv ijodiy fikrlash malakalari o'rganilgan nazariy mavzu materialiga bog'liq bo'lgan masala yoki misollarni yechish davomida egallanadi, xolos. Biroq reproduktiv fikrlash natijasida to'plangan ma'lum hajmdagi bilim va malakalar o'quvchilarning mustaqil bilish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham ta'limning jadallashtirish g'oyasini har xil yo'nalishlari turli olimlar (M.A. Bankov, M.A. Danilov, M. Maxmutov, Yu.K. Babanskiy va boshqalar) tomonidan eksperiment qilinib ko'rildi va nazariy jihatidan isbotlandi.

Adabiyotlar:

1. Икрамов Дж.И. «Математическая культура школьника». Т., «O'qituvchi», 1981.



АЛГОРИТМ ПОСТРОЕНИЯ УЧЕБНОГО ЗАНЯТИЯ В СИСТЕМЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Буранова Фарида
Учитель русского языка и литературы
СШУИОП №1 г. Навои
Телефон: +998 9 0501 1 284

Аннотация: в статье подробно рассматривается каждый этап алгоритма построения урока при компетентностном подходе, даются рекомендации при его составлении.

Ключевые слова: компетенции, алгоритм, целеполагание, проектирование, формы организации, методы и приемы, способ контроля усвоения.

Урок с точки зрения компетентностного подхода - форма организации обучения с целью развития и саморазвития у обучающихся основных компетенций. Чем доступнее объясняется материал, тем больше знаний получает учащийся, тем, соответственно, выше его образование. Рассмотрим алгоритм построения учебного занятия в данном подходе.

На 1-м этапе –целеполагании - определяется место учебного занятия, устанавливаются цели и основные задачи. Педагог организует ситуацию постановки, понимания и принятия цели учащимися как собственной учебной задачи. Ученик сам ставит цель или участвует в постановке цели.

Учащийся должен понимать, что все, что он сегодня делал на уроке можно перенести на другой объект и изучать его тем же способом, что и означает развитие умений.

Целеполагание строится по технологии SMART.

2-й этап включает в себя проектирование. Здесь происходит разделение содержания учебного процесса на главные компетенции: теория –понятия, процессы, личности, факты и т.п.; практика –умения и навыки, отрабатываемые при изучении конкретной темы, практическое и результативное применение полученных знаний к заданным ситуациям; воспитание –нравственные ценности, восприятие, формирование которых возможно на основе материала урока. Устанавливаем связи между этапами формирования компетенции, предполагаем формы предъявления этапов, при которых формируются компетенции.

3-й этап –выбор формы организации учебно-познавательного процесса. Компетентностный подход направлен на создание учебно-познавательной деятельности посредством имитирования разнообразных ситуаций во всевозможных сферах жизнедеятельности учащегося. При данном подходе отдается предпочтение творческому уроку, основная задача которого в отличие от традиционного урока – организовать продуктивную деятельность.

4-й этап состоит из подбора методов и приемов обучения.

- методы активного обучения (деловые игры, ролевые игры, дискуссии и т.д.);
- метод проблемного обучения (беседа, проблемная лекция, проблемный семинар);
- методы активизации творческого мышления (например, мозговой штурм);
- модернизированные традиционные методы обучения;
- методы взаимообучения (коллективного, группового и парного обучения).

На финальном, 5-м этапе (рефлексии) педагог подбирает способ контроля усвоения (первичный, промежуточный, итоговый) компетенции. Ученику предлагается оценить результаты своей деятельности и выбранных способов процесса через отношение, эмоции, чувства; соотнести собственную цель урока с полученным результатом, (самоконтроль); сравнить полученный результат с эталоном (самооценку).

Следуя данному алгоритму, у учащихся формируются навыки самоконтроля и самооценки. Возникает мотивация на дальнейшую учебную работу, на самореализацию через творческую и практическую деятельность, удовлетворение собственных познавательных интересов.

Таким образом, можно составить следующие советы педагогу в составлении алгоритма построения урока:

1. Методы и формы обучения должны быть подчинены не учебному содержанию, а использоваться как самостоятельные средства достижения определенных педагогических целей.



2. При составлении плана урока необходимо продумывать, какими приёмами воспользоваться, чтобы задания имели не только учебное, но и жизненное обоснование, и чтобы учащиеся знали, зачем мы изучаем ту или иную тему.

3. Пытаться уходить от общепринятых конструкций и методов учебной работы, таких как слово учителя, вопросно - ответная беседа, информирующая беседа, и др.

4. Включать в занятие задания и упражнения на развитие коммуникативной, информационной, литературоведческой компетенций; дискуссии, характеризующиеся различными точками зрения по изучаемым вопросам, сопоставлением их, поиском истинной точки зрения.

5. Обучать через открытие, развивать личность.

Следует помнить, что педагог лишь ведёт учащегося по пути субъективного открытия, он управляет проблемно-поисковой или исследовательской деятельностью учащегося. Ученик испытывает радость от преодоленной трудности учения, будь то: задача, пример, правило, закон, теорема или самостоятельно выведенное понятие.

Список используемой литературы:

1. Зимняя И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.



FIZIKANI FANLAR BILAN BOG‘LAB O‘QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Киргизова Муяссархон Махаммаджонова
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим мактабининг
физика фани уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqola fizikani fanlar bilan bog‘lab o‘qitishning pedagogic asoslari haqidadir.

Kalit so‘zlar: fizika, fan, o‘qitish, pedagogika, ehtiyoj, qonun.

Aniq fanlarning ibtidosi, ya’ni dastlabki paydo bo‘lgani fizika hisoblanadi. U ijtimoiy-hayotiy zaruriyat sababli falsafadan ajralib chiqdi. Buning boisi hayotda fizik ilmga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi va bu fan o‘rganadigan bilimlar ko‘lamining kengaya borishi edi. Chunki, hayot hamma vaqt taraqqiy etishda va rivojlanishdadir.

Fizika dastlab, o‘z tarkibiga ilmi nujumni ham qamrab olgan bo‘lsa-da, insoniyatning koinot sirlarini bilishga qiziqishining ortib borishi uning tarkibidan astronomiya fanining ajrab chiqishiga, mamlakatlar, xududlar, joylar, binolar sathini o‘lchashga ehtiyojning ortib borishi esa geologiya, geografiya fanlarining ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi. Huddi shuningdek, davrlar o‘tishi bilan kimyo, zoologiya, biologiya fanlari ham hayotiy ehtiyojlarning ortib borishi sababli fizika tarkibidan ajralib o‘zlari alohida yo‘nalishda ilmiy tadqiqot olib bordi. O‘tgan asrlarimizda ro‘y bergan ijtimoiy tarixiy muhit sababli fan va texnika, ishlab chiqarish, ayniqsa harbiy texnika rivojlanishi o‘ta jadallashib ketganligi bois, bu fanlar ham o‘z navbatida tarkiblaridan yangi-yangi fanlar ajralib chiqishini taqozo qildi. O‘z navbatida fizika, mexanika, molekulyar fizika, elektrodinamika, optika, atom va yadro fizikasi kabi tarkibiy qismlarga bo‘linib ketdi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida fanlar aro aloqadorlikning dolzarbligi, ularning ta’lim samaradorligiga qo‘shadigan hissasi ijtimoiy, tabiiy, texnik va amaliy bilimlarning birlashishi yaqqol ifodalangan va har bir fanning zamonaviy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Ilmiy bilimlarning turli sohalarda bo‘lsa-da, o‘zaro uyg‘unlashib borishi, bir-birini taqozo etishi har bir fan bo‘yicha ta’lim beruvchi mutaxassis o‘qituvchi oldiga yangi-yangi talablar qo‘yadi. Turli fanlarning bir-biriga bo‘lgan aloqalari, ularning kuchli yoki kuchsiz darajada bir-biri bilan bog‘lanishi, o‘qitish jarayonida bir-birini taqozo etishi integratsiyalashuv jarayonlari ta’siri ostida yuzaga keladigan fanning rivojlanishiga oid zamonaviy tendensiyalarni o‘qitish mazmunida ochib berish metodi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday tendensiyalar elementlari hali unchalik yetarlicha to‘liq bo‘lmasa-da, o‘z ifodasini topib bermoqda. Fizik tushunchalarga tayanish fizik bilimlarning yangi-yangi qirralarini ochib beradi, shu bilan birga bir vaqtning o‘zida fizik bilimlar ham umumlashgan mazmunga ega bo‘la boradi. Fanlarning bir-biri bilan bo‘lgan bunday aloqadorligi hisobiga o‘quv predmeti o‘quvchilar uchun faqat bilimlar tizimigina emas, balki metodlar tizimi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Demak, fanlararo aloqadorlik o‘quv mavzulari mazmunini har tomonlama, atroflicha ochib berish uchun zarurdir. Fanlarning bir-biriga bog‘liqlik qoidalarini aniqlash va uni o‘quv jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llash quyidagi yutuqlarga erishishimiz uchun sabab bo‘ladi: 1) Har bir fanning o‘quv mavzulari bo‘yicha fanlararo bog‘lanishining hajmini real aniqlash hamda unga sub’ektiv yondoshish ehtimolini pasaytirish; 2) Har bir fanning muhim g‘oyalarini ochib berishda ko‘mak beradigan, ular bilan kuchli darajada bog‘langan fanlarning asosiy mazmuniga o‘quvchilar e’tiborini qaratish; 3) Fanlar o‘quv mazmunining murakkablashib borishiga parallel ravishda ular o‘rtasidagi bog‘lanishning ham mustahkamlana borishini turli didaktik vositalarni qo‘llagan holda, bunday bog‘liqlikni kuchaytirish maqsadida tashkiliy ishlarni amalga oshirish; 4) Har bir fan o‘quv predmetlarining turli vositalari yordamida, ularning bog‘liqlik va uzviy birligi, to‘g‘risida bilim olinishiga qiziqishni shakllantirish; 5) O‘qituvchi va o‘quvchilar hamda o‘quvchilarnig o‘zaro ijodiy hamkorlik qilishlariga erishish; 6) Hozirgi zamon dunyoqarashi hamda uning muammolari va masalalarini o‘qitilayotgan fan va u bilan bog‘liq fanlar aloqadorligi nuqtai-nazaridan hamda hayot bilan aloqadorlik asosida o‘rganish. Fizika fanini o‘qitish jarayonida ma’lum darajada qolgan aniq fanlar, ijtimoiy-gumanitar, shuningdek amaliy fanlarga ham murojaat qilinadi. Bu esa fizika faoliyatlarining qaysi biri dars jarayonida qo‘llanilayotganligiga bog‘liq. Masalan: Musiqa fanining tovushlar mavzusida fizika faniga, ya’ni tovushning havo tebranishi ekanligi, u



jismlarning harakati yoki bir-biriga to‘qnashishi natijasida hosil bo‘lishi, tovushlarning yo‘g‘on yoki ingichka bo‘lishi ma’lum vaqt davomidagi tebranishlar soniga, ya’ni ma’lum bir soniya vaqt davomida tebranishlar soni qancha ko‘p bo‘lsa tovush shuncha ingichka, qanchalik kam bo‘lsa tovush shu darajada yo‘g‘on bo‘lar ekan. Bundan tashqari tovushlarning qattiq yoki sekin bo‘lishi tebranish amplitudasiga, ya’ni tebranish kengligiga bog‘liq ekan. Tebranish kengligi qanchalik bo‘lsa tovushning qattqlik darajasi ham o‘sha darajada bo‘lar ekan. Shuningdek, tovush balandligini fizik asbob kamerton yordamida aniqlanar ekan. Kamerton ma’lum soniyada aniq tebranishlar sonini belgilar va musiqada ma’lum bir tovush balandligini belgilar ekan. Qo‘lda tayoqcha bilan urib chalinadigan kamerton bir soniyada 440 marta tebranish berar va bu musiqada 1-oktava lya tovushining balandligi ekan. Lekin, hozirgi davrda puflab chalinuvchi kamertonlar ham ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu kamertonda musiqaning bir oktava oralig‘idagi tovushining ham balandligini aniqlash mumkin. Bunday kamertonlarning qulaylik tomoni, unda juda ko‘p torlari bo‘lgan fortepiano, royal, chang kabi cholg‘u sozlarini sozlash imkoniyati kengroqdir. Bundan tashqari musiqada fizik asboblardan Melstel metronomi ishlatiladi. Bu asbob fizik olim Melstel tomonidan kashf etilgan bo‘lib, piramida shaklida yasalgan va soat kabi burab dam solinadi. Uning o‘ng va chapga harakatlanuvchi mayatnigi bo‘lib, unga maxsus posangi tosh o‘rnatilgan. Toshni qanchalik pastga tomon siljitilsa, mayatnikning harakati shu darajada tezlasha boradi. Metronom korpusiga maxsus shkala o‘rnatilgan bo‘lib, bu shkala bo‘laklarga bo‘lingan. Agar mayatnik toshini minutga 80 marta tebranishi lozim bo‘lsa 80 belgisi qo‘yilgan shkalaga to‘g‘rilab qo‘yiladi. Melstel metronomida ijro etilayotgan musiqiy asar tezligi aniqlanadi va tartibga solinadi, ya’ni uning ijro davomida tezlashib ketishiga yoki sekinlashib qolishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Adabiyotlar:

1. Р.Б.Бекжонов. Физика.–Т.: 1995 й.
- 2.. Ф.М.Дягилёв. Из истории физики и ее творцов.–М.: 1990 г.



SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR: TAVSIFI, XILLARI, AHAMIYATI, TASHKIL ETISH

Курбанбоева Санамжон

*Урганч шаҳар халқ таълими булимининг
табиий фанлар йуналиши буйича методист
+998907260673*

Annotatsiya: ushbu maqolada biologiya darslarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati va tavsifi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: biologiya, tabiiy fanlar, mavzu, botanika, o'qituvchi, fan.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida biologiya o'quv dasturidan o'rin olgan mavzularni kengaytirish va to'ldirish maqsadiga yo'g'rilgan darsdan tashqari o'tkaziladigan ixtiyoriy o'qitish shaklidir. O'quvchilarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqishlari va bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlari, mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash, o'qishni unumli jismoniy va aqliy mehnat bilan uzviy bog'lash maqsadida biologiya fanidan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkaziladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turlari bir-biri bilan uzviy bog'langan, bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. Ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar ularning xohish, istagi, ehtiyoji va qiziqishlari hisobga olingan holda biologiya o'quv xonasida, tirik tabiat burchagida, maktab tajriba maydonida, informatika xonasida, jamoa va fermer xo'jaligi dalalarida o'tkazilishi mumkin.

Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning qo'shimcha o'quv adabiyotlarini o'rganish, ijodiy izlanishlarini tashkil etish, sinov - tajriba maydonlarida muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, ma'ruzalar va ko'rgazmali materiallarni tayyorlash kabilarga bag'ishlanadi. ulardan birini tanlab oladi va o'qituvchi bilan hamkorlikda tuzilgan reja asosida ish olib boradi. Biologiya o'qituvchisi olib borilayotgan ishlar va ularning natijalarini nazorat qilib boradi.

“Odam va uning salomatligi” o'quv fani bo'yicha ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, uni amaliyotga qo'llash, kasbga yo'llash, tajriba va kuzatishlar o'tkazish, mantiqiy, mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mashg'ulotlarda o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun sog'lom turmush tarzi, turli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, sport va jismoniy mashqlarning inson salomatligiga ta'siri haqidagi ilmiy-ommabop nashrlar, “Sihat-salomatlik”, “Fan va turmush” va boshqa jurnal sahifalarida chop etilgan maqolalar, odam organizmining tuzilishi bo'yicha tayyorlangan multimedia, inson salomatligi ensiklopediyalarini o'rganish tavsiya etiladi. O'quvchilarning o'z salomatliklarini asrash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida muayyan mavzularda kuzatishlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Jumladan, o'quvchilarga “Sport va jismoniy mashqlarning odam organlar sistemasiga ta'sirini o'rganish” bo'yicha kuzatish o'tkazish tavsiya etiladi. Biologiyadan tashkil etiladigan to'garak umumiy nom “Yosh biologlar” deb ataladi va o'quvchilarning o'rganayotgan o'quv fani, yoshlik va psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hisobga olingan holda 6- sinflarda “Yosh botaniklar”, 7-sinfda “Yosh zoologlar”, 8-sinfda “Yosh fiziologlar” va 9-sinflarda “Yosh biologlar” to'garagi tashkil etiladi.

Adabiyotlar:

1. Mavlonov O, Toshmanov N. Zoologiya darslari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya o'qituvchilari uchun o'quv-metodik qo'llanma. (7-sinf) “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent-2012 y.

2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015



FIZIKANI BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LAB O‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Маматова Севара Абдумалик кизи
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим
мактабининг физика фани уқитувчиси*

Annotatsiya: maqolada fizikaning boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘qitishning nazariy asoslari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: fizika, fanlar, bog‘liqlik, aniq fanlar, dastur, jarayon

Fanlarning bir-biriga bog‘liqligi nuqtai nazaridan qaralganda har bir yo‘nalishdagi fanlar avvalo o‘z guruhidagi fanlarga ko‘proq bog‘liqdir. Chunki ular bejiz yo‘nalishlarga bo‘linmagan. Lekin, shuni ham aytish lozimki bir yo‘nalishda bo‘lgan fanlarning barchasi ham bir-biriga bog‘liqlik nuqtai nazaridan shu fanning boshqa yo‘nalishdagi fanlar bilan bog‘liqlik darajasidan kuchli emas. Masalan, aniq fanlar yo‘nalishdagi fizika fani bilan kimyo fanini taqqoslaydigan bo‘lsak, har ikkala fan ham moddaning eng kichik zarralari bo‘lmish atomlardan boshlab o‘rganadi, lekin shunga qaramay bu fanlarning bir-biriga bog‘liqlik darajasi kam. Yoki, amaliy fanlar bo‘lmish tasviriy san‘at va musiqa bir yo‘nalishda bo‘lishidan va har ikkalasi ham san‘atning turlari bo‘lishidan qat‘iy nazar bir-biriga bog‘liqlik darajasi kamdir. Demak, fanlarning bir-biriga bog‘liqlik darajasini ikki turga, ya‘ni kuchli bog‘liqlik va kuchsiz bog‘liqlik darajalariga bo‘lish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak matematika, fizika, falsafa, tarix va mantiq fanlari barcha yo‘nalishdagi fanlar bilan kuchli darajada bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Qolgan fanlar esa bir-biri bilan u yoki bu darajada bog‘liqdir. Qaysi fanlarning bir-biriga bog‘liqlik darajasi kuchli bo‘lsa, bu fanlarni o‘qitish jarayonida ushbu fanlarga murojat ko‘proq qilinadi. Fizika fanini o‘qitish ham xuddi shunday matematika, tarix, falsafa, mantiq, til va adabiyot, jismoniy tarbiya fanlari bilan kuchli darajada bog‘liq bo‘lib, fizika fanlarini o‘qitish jarayonida ushbu fanlarga qo‘proq murojaat qilinadi. Shu sababli fizika fani o‘qituvchisi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan fanlarni yaxshi bilishi, ushbu fanlar taraqqiyotida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va 10 yangiliklardan xabardor bo‘lishi zarur. Aks holda o‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha talabalarga to‘laqonli bilim bera olmaydi. Masalan: Sobiq tuzim davrida bizni o‘z yurtimiz millatimiz, qadriyatlarimiz tarixini o‘rganishimizga yo‘l bermadilar. Buyuk ajdodlarimiz bo‘lmish Jaloliddin Manguberdi, Muso al Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr al-Farobiy, Ismoil Buxoriy, At-Termiziy, Boxovuddin Naqshbandiy, Abulqosim Mahmud az-Zamahshariy, Paxlavon Mahmud, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilarning hayot yo‘llaridan juda kam xabardor edik, ularning ayrimlarini umuman bilmas edik. Istiqlof sharofati bilan ularning qadriyatlarini tiklandi. Qadim shaharlarimizning yoshi aniqlanmoqda. Demak tarix fanlarida tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bunday o‘zgarish va yangiliklardan bexabar biror fan o‘qituvchisi tarix fani bilan bog‘liq mavzularni o‘quvchi yoshlarga to‘laqonli yetkazib berishi amri maholdir. Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarida yuz berayotgan ijtimoiy rivojlanish barcha millat, barcha davlat, shu jumladan O‘zbekiston xalqini ham taraqqiyotdan ortda qolmasligini taqazo etadi. Zero hozirgi davrda mamlakatlar nufuzini faqatgina harbiy qudrat belgilamaydi, balki har bir mamlakat ma‘naviy hayoti, madaniyati, ishlab chiqarish salohiyati va sporti ham belgilaydi. Shunday ekan ta‘lim tizimi hodimlari bu narsani yaxshi bilishi va bu narsa doim ularning diqqat markazida turishi hamda mamlakat nufuzini, obro‘ini va boshqa mamlakatlar oldidagi mavqeini oshirish uchun har bir ta‘lim xodimi chora izlamog‘i va hissa qo‘shmog‘i kerak. Ta‘lim tizimida esa, bunga tinmay ijodiy izlanish, o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga milliy g‘urur, chuqur bilim, izlanuvchanlik va ijodkorlik fazilatlarini singdira borishi kerak. Shuni ham aytish lozimki, o‘rta asrlarda yashab ijod etgan olimlarimiz faqatgina bir fan sohasida izlanmay, ular dunyoviy ilm sirlarini ochish uchun ko‘plab sohalarda ilmiy ishlar olib borganlar

Adabiyotlar:

1. Р.Б.Бекжонов. Физика.–Т.: 1995 й.
2. Ф.М.Дягилёв. Из истории физики и ее творцов.–М.: 1990 г.



ОНА ТИЛИДАН О‘ҚУВ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ETISH VA O‘TKAZISH SHAKLLARI

*Мирзакобулова Мукаддас Низамовна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
7-сонли умумий урта таълим мактабининг
она тили ва адабиети фани уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tilidan o‘quv shlarini tashkil etish va o‘tkazish shakllari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar; ona tili, mahorat, davlat tili, o‘quv ishlari, asar.

Davlat tilidan, ya’ni ona tilidan o‘quvchilarga bilim, malaka, asosan, dars jarayonida beriladi. Bundan tashqari, o‘quvchi o‘zi mustaqil o‘qib-o‘rganishi ham mumkin. Lekin ona tili o‘qitishning eng samarali va unumli shakli dars bo‘lib, bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi bir necha o‘quvchi bilan ishlaydi va ma’lum bir mavzu bo‘yicha ma’lumot beradi. Odatda, katta mahorat bilan yozilgan asar o‘quvchini zavqlantiradi. Ta’sirli o‘tilgan dars ham o‘quvchiga ijobiy ta’sir qiladi. Shu ma’noda ta’sirli o‘tilgan darsni yaxshi badiiy asarga ham o‘xshatiladi.

Dars o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatining ko‘zgu sidir. Ona tili darslarida yuqori natijaga erishish uchun ham mo‘ljallangan materialni ilmiy jihatdan yuksak saviyada o‘tish, ham o‘quvchilarni uyushtira bilish, ham ularning faolligini oshirish kerak. Shunga ko‘ra har bir dars oldiga shunday talablar qo‘yiladi:

- a) o‘qituvchining rahbarligi; b) o‘quvchiga ta’lim va tarbiya berish;
- v) o‘quv ishlarini o‘quvchilarning yoshiga qarab tashkil etish;
- g) to‘g‘ri o‘qish, to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri yozish malakasini oshirish.

Har bir darsning saviyasi o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlay olish mahoratiga bog‘liq.

1. Ona tilidan yangi bilimlar berish darsi.
2. O‘tilganlarni musahkamlash darsi.
3. Bilim va malakalarni tekshirish darsi.
4. Olingan bilimlarni umumlashtirish-takrorlash darsi.

Ona tili darslarini shu tarzda 4 ga bo‘lish shartli. Chunki har bir dars faqat bilim berish yoki faqat takrorlashlarni ko‘zda tutmaydi. Dars shakli deganda u yoki bu fandan o‘quv ishini uyushtirish va o‘tkazish shakli tushuniladi. O‘quv ishini tashkil etishda “o‘quvchi - o‘quv material - o‘qituvchi” munosabatlari muhim o‘rin egallaydi. O‘qituvchi ta’lim jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi sanaladi. U o‘quvchi faoliyatini tashkil etadi, uning bilim olishi, bu bilimlarning ko‘nikma hamda malakaga aylanishiga rahbarlik qiladi. O‘quv material o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘zaro bog‘laydi, o‘qituvchining vazifasi buning materialni eng oson va qulay yo‘l bilan o‘quvchiga berish, o‘quvchining vazifasi esa uni oson va

qulay yo‘l bilan qabul qilish hamda amaliy faoliyatda tadbiiq etishdan iboratdir. Ona tilidan o‘quvchilarni zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishning shakllari ko‘p. Dars - o‘quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli. Bundan tashqari, fakultativ mashg‘ulotlar, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, o‘quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash, mustaqil ish, matbuot va ommaviy axborot vositalari, sayohatlar o‘quv ishlarini tashkil etishning muhim shakllari sanaladi. Ona tili darslari-o‘quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli. O‘quvchi ona tilidan zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni asosan dars orqali oladi. Dars - bir xil sinfdagi o‘quvchilar bilan qat’iy jadval asosida o‘tkaziladigan mashg‘ulot turi. “Dars” va “mashg‘ulot” tushunchalari garchand bir - biriga yaqin bo‘lsa-da, ammo ular bir ma’noni ifodalamaydi. Mashg‘ulot-darsga qaraganda keng tushuncha. Agar dars belgilangan qat’iy jadval asosida va qat’iy vaqt ichida o‘tkazilsa, mashg‘ulot dars bilan bir qatorda o‘quvchilar bilan birga yoki yakkama - yakka holda o‘tkaziladigan ta’limiy ishlarni ham o‘z ichiga oladi. Maktab tarixida sinf - dars o‘qitishning ishonchli va qulay usuli bo‘lib, u davr sinovlaridan o‘tgan va o‘zini to‘la oqlagan. Bu usulning qulayligi shundaki, o‘quvchilar jamoa bo‘lib o‘qiydilar va bir vaqtning o‘zida sinfdagi barcha o‘quvchilarni zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish imkoniyati tug‘iladi. Ona tili darsi o‘quvchilarni nutq ko‘nikmalari bilan qurollantirishning asosiy vositasidir. Darsga ajratilgan vaqt 45 daqiqani tashkil etadi. Ona tili darslari oldiga muayyan talablar qo‘yiladi. Bu talablar ona tili darsining maqsadiga bog‘liq. Ma’lumki, boshqa o‘quv fanlari singari ona tili mashg‘ulotlari ham ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni ko‘zlaydi. Darsning



ta’limiy maqsadi o’rganilayotgan til hodisasi yuzasidan o’quvchilarda puxta bilim, ko’nikma va malakalar hosil qilish, uni amaliy nutqiy faoliyatda qo’llash kabilarni talab etsa, tarbiyaviy maqsad shu til hodisasi orqali bolalarda milliy tilga muhabbat, uni puxta egallashga kuchli ishtiyoq, milliy qadriyatlar, an’analar, urf - odatlar ruhida tarbiyalashni asosiy talab darajasiga ko’taradi. Rivojlantiruvchi maqsad o’quvchilarni mustaqil xulosalar chiqarish, yuzaga kelgan o’quv qiyinchiliklarini mustaqil ravishda yengish, o’zida qatilylik, o’z nuqtai nazarini himoya qilishga o’rgatishni talab qiladi. Ona tili darslarining tarkibiy qismlari. Ona tili darslari quyidagi o’zicha mustaqil qismlardan tashkil topgan: takrorlash, yangi bilim berish, bilimlarni ko’nikma va malakaga aylantirish, o’rganilganlarni mustahkamlash va darsni xulosalash, uyga vazifaberish. Bularning har biri muayyan vazifani bajaradi va o’ziga xos mazmunga ega. Tashkiliy qism o’quvchilarni darsga tayyorlaydi, ularda ishlash, ijodiy faoliyat ko’rsatish ishtiyoqini yuzaga keltiradi. Darsning bu qismi uyushqoqlik bilan juda qisqa muddatda tashkil etilishi lozim. Aks holda, darsga ajratilgan vaqtning zoye ketishiga olib keladi va o’quvchiko’zlangan maqsaddan uzoqlashtiradi.

Uy vazifasini tekshirish berilgan topshiriqning bajarilish sifati, egallangan bilim, ko’nikma va malakalarning puxtalik darajasini aniqlash maqsadida o’tkaziladi. O’qiguvchilar ish amaliyotidaba’zan uy vazifasini tekshirish o’tgan darsni va oldin o’rganilgan til materiallarini takrorlashgaaylanib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktik-uslubiy masalalari. Toshkent, “Tafakkur”, 1998 yil.

2. Yangi pedagogik texnologiyalarning yo’nalishlari, muammolari va yechimlari. Toshkent, 1999 yil.



ҚИШ ФАСЛИДА БОЛАЛАР САЛОМАТЛИГИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ПАРВАРИШИ

Нафиса Раджабова

Бухоро вилояти Олот тумани

28-мактаб она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Телефон +998 99 7126162

Аннотация: Қиш келиши билан ёш оналар учун ташвишлар ҳам ортади. Айниқса, чақалоқли оналар бу мавсумда уйда бола билан ўтиришдан зерикашади, сайрлар камлиги, ҳавонинг совуқлиги имкониятларни чеклайди. Бунинг устига шамоллаш хавфи ҳам ортади. Қуйида қишда гўдак парвариши билан боғлиқ маслаҳатларни бериб ўтамыз.

Калит сўзлар: болалар, оилавий парвариш, ижтимоий тарбия, саломатлик, таомланиш, қиш фаслида иммунитет.

Қишда ҳам сайр қилиш, ўйнаш мумкин, албатта. Фақат айрим қоидаларга риоя қилган ҳолда. Кузатувлар иссиқ кийинган гўдаклар тез-тез касал бўлишини кўрсатмоқда. Мутахассисларнинг таъкидлашича, юра оладиган болаларнинг ўта даражада иссиқ кийиниши хавфлидир. Гап шундаки, ҳаракатланишнинг ўзи инсон танасини иситади ва болага етти қават иссиқ кийим кийдиришнинг ҳеч қандай зарурати йўқ. Агар гўдак шу алфозда кийинтирилса, унинг организмида иссиқлик алмашинуви бузилади ва бунинг натижасида у ўта даражада қизиб кетади. Бунда оддийгина шабада ҳам боланинг шамоллаши учун етарли бўлиши мумкин.

Табиийки, туғилганига бир неча кун бўлган гўдакда сайр қилиш вақти чегараланган бўлиши керак (айниқса ҳарорат 10 °С дан паст бўлган пайтда). Аммо туғилганига бир ой бўлган гўдак билан бемалол, бир неча соатлаб сайр қилиш мумкин. Тиббиёт ходимларининг қайд этишича, гўдак ҳаётининг биринчи йилида сайр қилдириш учун энг чегараланган ҳаво ҳарорати – минус 15 °С ҳисобланади, совуқ ҳавонинг хавфли “йўлдошлари” эса юқори намлик ва шамол саналади. Мутахассислар, болалар сайрга чиқишдан олдин яхши овқатланиб олишса, совуқни ўзларига юқтиришмайди, деб таъкидлашади. Бундай ҳолатда энг яхши овқат углеводларга ва ёғларга бой бўлган таомдир.

Бола сайр чоғи совуқ қотганини англаб етишингиз билан уни тезроқ уйга олиб киринг. Уйда уни иситувчи процедураларни бажариш керак бўлади. Улар томирларни кенгайтирувчи таъсир кўрсатади ва қон айланишини тезлаштиради, организмнинг химоя кучлари эса ошади. Демак, иложи борича тезроқ оёқларни иситамиз!

Бунинг учун тоғорани сода билан ювинг ва унга 1-2 ош қошиқ қуруқ хантал (горчица) солиб, устига сув қуйинг (ҳарорати 37 °С дан паст бўлмаслиги керак). Хантал эриб кетганидан кейин фарзандингиздан оёқларини тоғорага солишини илтимос қилинг. 2-3 дақиқадан сўнг бола оёқларини тоғорадан чиқариб олиши керак, сиз эса унга яна иссиқроқ сув қуйинг. Бундай процедуранинг умумий давомийлиги 10-15 дақиқа. Шундан сўнг гўдакнинг оёқларига иссиқ пайпоқ кийдиринг.

Эвкалипт, маврак (шалфей) барглари ёки қарағай муртаклари (1 ош қошиғи 1 стакан қайнаб турган сувга дамланади), оққарағай (пихта), чой дарахтининг эфир мойлари (2-3 томчи) – буғли ингаляция учун ажойиб воситалар ҳисобланади. Дамламанинг зарур миқдорини ингаляторга қуйинг. Стулга ўтиринг ва фарзандингизни тиззангизга ўтказинг. Биргаликда шифобахш буғдан нафас олинг. Айтгандай, бу процедурани уйда махсус мослама бўлмаган тақдирда ҳам ўтказиш мумкин. Фарзандингиз ухлаётган пайтда каравотнинг ёнига гиёҳлар дамламаси солинган тоғорачани қўйиб қўйинг. Каттароқ ёшдаги бола учун эса кенгроқ идишни тайёрланг. Ингаляцияни қандай усулда бажаришингиздан қатъи назар, бола қуйиб қолмаслигини (у буғга яқинроқ келмасин) ва қайноқ дамламани тўқиб юбормаслигини назорат қилинг.

Қўл билан олдинга қараб ҳаракатлар мушакларни бўшаштиради, қон айланишини ва тўқималарнинг озикланишини яхшилайдди. Бундан ташқари, улар ажойиб тарзда иситади ва нафас олиш йўллари касалликларининг олдини олади. Олдинга боланинг орқасини ва кўкрак қисмини пахмоқ қўлқоп билан ишқаланг. Кейин иситувчи сурмадорини суриг. Буларнинг ҳаммасини кечкурун ухлашдан олдин қилган маъқул. Аммо пижамани кийди-



ришдан олдин теридаги ортикча ёғни қоғоз сочиқ билан артиб ташланг. Шунда кийимда ёғли доғлар қолмайди.

Малина, калина, клюква, брусника С витаминига бой мевалар бўлиб, улар организмнинг химоя кучларини оширади. Шундай экан, қишга ғамлаб кўйилган мураббо, жем ва шунчаки шакар билан майдаланган меваларни олинг. Қайнатилган илиқ сувли чашкага шакар билан майдаланган меваларни солинг ва ҳаммасини яхшилаб аралаштиринг. Икки дақиқа турсин. Кейин уни докадан ўтказинг ва лимоннинг бир бўлагини солишни ҳам унутманг. Чақалоқларга болалар озиқ-овқатлари туркумига кирувчи махсус чойларни харид қилган маъкул. Унинг ўраида ушбу махсулот истеъмоли мўлжалланган боланинг ёши кўрсатилиши шарт.

Қиш фаслида кўёшга кам чиққан гўдакда Д витамини етишмовчилиги натижасида рахит кузатилиши кўп учрайди. Бунинг олдини олиш учун педиатр билан маслаҳатлашиб унга Д витамини суюқ дорисини беришингиз мумкин. Гўдак уни баҳорнинг ўрталаригача ичса бўлади. Гўдакни совуқ ҳавода кўчага олиб чиқишдан аввал бурун қисмига вирусга қарши маз суриб олишни унутманг. Уйда гўдак учун энг мақбул ҳарорат деб 22 даража белгиланган. Агар ҳарорат пасайиб кетса қўшимча электрли иссиқлик батареяларини ишлатишга тўғри келади.

Болани қишда ҳам албатта чўмилтириш керак. Бу унинг чиқинишига ёрдам беради. Чўмилтиришдан аввал ваннани иситиб олинг. Сув ўта қайноқ бўлмаслиги керак. Бола тоғорачада 10 дақиқа туриши етарли. Сўнгра уни пахмоқ сочиққа ўраб яхшилаб қуритинг. Дарҳол елвизакка олиб чиқманг, бир муддат ваннада олиб ўтиринг.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Сафар Муҳаммад, «Болалар саломатлиги» китоби, 2015 йил
2. Нигора Раҳимова, Феруза Қувонова, Она ва бола китоби, 2019 йил
3. Шоанвар ШОМАНСУРОВ, Тошкент врачлар малакасини ошириш институтининг “Болалар асаб касалликлари” кафедраси профессори. “Болаларда уйку бузилиши”, <http://sihat-salomatlik.zn.uz> сайти.
4. “ОНА ВА БОЛА САЛОМАТЛИГИ ДОИМИЙ ЭЪТИБОРДА” <http://navoiy.uz/navoiy/799-ona-va-bola-salomatligi-doimiy-etiborda.html> сайти.



МАТННИ ЎҚИШ ВА УНИ ТУШУНИШ ДАРАЖАСИНИ АНИҚЛАШ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ (PIRLS)

*Ниязметова Дилдора Базарбоевна
Урганч шаҳар халқ таълими бўлимининг
бошланғич таълим методикаси фани
йўналиши бўйича методист*

Аннотация: мақола матнни ўқиш ва уни тушуниш даражасини аниқлаш бўйича халқаро тадқиқот методлари (PIRLS) ва уларнинг ахамияти ҳақида.

Калит сузлар: матнни ўқиш, тушуниш, халқаро тадқиқот методлари, (PIRLS)

“Ўқиш саводхонлиги” атамаси ўқиш тезлигини текширишни эмас, балки “саводли ўқиш”ни англатади. Унга кўра, ўқувчи мантиқларни тушуниши, уларнинг мазмунини мушоҳада қилиши ва баҳолаш олиши, ўз фикрини баён эта олиши зарур. Ўқувчиларга турли матнлар тақдим этилади: бадиий асарлардан парчалар, биографиялар, шахсий хатлар, ҳужжатлар, газета ва журналлардаги мақолалар, йўриқномалар, реклама эълонлари, географик карталар ва б. Уларда ахборот турли кўринишларда акс этади: диаграмма, расм, харита, жадвал, чизма ва ҳ.к. PIRLS - бу турли таълим тизимига эга бўлган давлатларда китобхонлик сифати мониторингини тадқиқ қилишдир. Турли давлатлардаги бошланғич синф ўқувчиларининг ўқиш сифати ва матнни тушуниш даражасини, шунингдек, ҳар хил давлатлар таълим тизимидаги ўзгаришларни таққослаш ва намоён қилиш имконини берувчи тадқиқот методларидир.

PIRLS тадқиқотлари 2001 йилдан бошлаб беш йил оралиғида бошланғич таълим миқёсида ўтказиб келинмоқда. У халқаро тадқиқотлар орасида юқори ўринга эга. Бу дастурга кирувчи давлатларнинг сони йилдан йилга ортиб бормоқда. 2001 йилдан бошлаб 4 марта ўтказилди. Охириги PIRLS тадқиқотлари 2016 йилда ўтказилди. Шу давргача 35 дан 50 гача бўлган давлатлар иштирок этишди. PIRLS тадқиқотлари доирасида турли таълим тизимига эга бўлган давлатларнинг 4-синф битувчиларининг ўқиш сифати ва ўқилган матнни тушуниш даражаси ўрганилади. Бу тадқиқотларга 4-синф ўқувчиларининг танланиши шу билан эътиборлики, айнан ўқишнинг тўртинчи йилида ўқувчилар ўқишнинг юқори даражасига эга бўлиши, уларнинг кейинги таълимда билимни эгаллаш қобилиятини шакллантириш ва шу орқали ҳозирги замонга муваффақиятли мослашувига ёрдам беради. Тадқиқот жараёнида дарсда ўқувчилар томонидан энг кўп қўлланиладиган ўқишнинг қуйидаги икки тури ўрганилади:

1. Адабий китобхонлик малакасини эгаллаш мақсадидаги ўқиш.
2. Мазмунни тушуниш ва амалда фойдаланиш мақсадидаги ўқиш.

Бадиий ва илмий-оммабоп матнларни ўқишда ўқиш кўникмаларининг қуйидаги тўрт гуруҳи баҳоланади:

1. Аниқ кўринишда берилган маълумотни топа олиш.
2. Хулосаларни шакллантириш.
3. Маълумотларни умумлаштира олиш.
4. Матннинг мазмуни, тил хусусияти, тузилишини таҳлил қилиш ва баҳолаш олиш.

Ўқувчилар матнни ўқишлари ва саволларга жавоб беришлари лозим. Бунда баъзи топшириқлар тавсия этилган вариантлардан бирини танлашни назарда тутса, бошқалари эса мустақил жавоб беришни талаб этади. Тадқиқотда бошланғич синф битирувчилари иштирок этади. Айнан шу даврда ўқувчиларнинг ўқиш ва матн устида ишлаш малакалари шу даражада ривожланадики, бу юқори синфлардаги таълимнинг самарали бўлишига замин яратади. Турли мамлакатларнинг мактаб дастурлари бир-биридан тубдан фарқ қилиши ҳаммага аён. Шунинг учун турли давлатлардан олинган натижалар ўзаро таққослана оладиган даражада бўлишини таъминлаш бундай тадқиқот ўтказувчи ташкилотчиларнинг муҳим вазифаларидан биридир. Масалан, кўпчилик давлатларда болалар 6 ёшдан мактабда ўқишни бошлашади. Аммо Англия ва Янги Зеландияда таълим 5 ёшдан бошланади. Шунинг учун, лойиҳада 4-синфдан эмас 5-синфдан ўқувчилар иштирок этишади. Ўқиш ва матнни тушуниш сифати текшириладиган ўқувчиларнинг ёши 10,5 ёшни ташкил этади. Шарқ мамлакатларида болалар 7 ёшдан ўқишни бошлагани учун улардан 10,7-10,9 ёшда-



ги ўқувчилар тадқиқотда иштирок этишади. PIRLS-2001 ўтказилган биринчи тадқиқотда Россия давлати 35 мамлакатлар ичида 16-ўринни эгаллаган. 2017 йилнинг охирида PIRLS-2016 йилнинг охириги тадқиқотлар натижаси эълон қилинди. Унда Россия давлати биринчи ўринни эгаллади. Матнни ўқиш ва уни тушуниш даражасини аниқлаш бўйича топшириқлардан намуналар. 4-синф. 1-топшириқ. Ўқиш техникасини текшириш. (sehrli er-tak) 1-топшириқ. 1-вазифа. Эртақ матнини секин, ярим овозда ўқиб чиқинг. Ўқитувчининг ишораси билан ўқиётган жойингизни белгилаб қўйинг. 2-топшириқ. 1-вазифа. Матннинг бу қисмида сеҳрли халқ эртагининг қандай хусусиятларини учратиш мумкин: а) сеҳргарлик ишлари *б) сеҳрли буюмнинг мавжудлиги в) сеҳргарнинг ҳаракатлари

2-вазифа. Матндан сизнинг олдинги жавобларингизни тасдиқловчи гапларни белгилаб чиқинг. (– Сен менга маймунжон бердинг, мен сенга бирон нарса совға қиламан. Мана сенга хурмача, сен фақат шуни айтишинг керак: Бир, икки, уч, хурмачада шавла пиш.)

3-вазифа. Бошқа эртақларда ҳам қаҳрамони сеҳрли буюмга эга бўлган шунга ўхшаш воқеалар учрайдими? Қайси эртақларда? Жавобингизни ёзинг. («Ур тўқмоқ!», «Уч оғайни ботирлар» эртақлари).

Адабиётлар:

1. Q. Abdullayeva, S. Rahmonbekova. „Ona tili darslari“ 1 (1 -sinf o‘qituvchilari uchun qo‘llanma). - T.: 1999.
2. Q. Abdullayeva va boshq. Savod o‘rgatish metodikasi. - T.: „O‘qituvchi“, 1996.



ТЕКСТ КАК ДИДАКТИЧЕСКИЙ МАТЕРИАЛ ПРИ ОБУЧЕНИИ МЕЖКУЛЬТУРНОМУ ДИАЛОГУ

*Хамроева Шахноза Латифовна учитель русского
языка и литературы школы №5 Навоийской
области Кизилтепинского района
телефон: +998913350708.nasiba.rizaeva.@mail.ru*

Аннотация: В данной статье рассматривается текст как дидактический материал при обучении межкультурному диалогу.

Ключевые слова: межкультурный диалог, дидактический материал, текст

Основная цель обучения русскому языку в современных учебных программах определяется как «обучение учащихся умению свободно общаться на русском языке». Для получения такого результата необходимо заботиться о формировании и развитии коммуникативной компетентности учащихся по всем основным видам речевой деятельности, ориентируясь на различные учебные тексты.

Одна из главных задач применения текстов в процессе обучения русскому языку состоит в том, чтобы не только дать знания учащимся, но и пробудить личностный мотив, привить интерес к тексту и формировать навыки текстообразования, тем самым развить стремление к речевому самосовершенствованию. В связи с этим в современной методике уточняются цели применения учебных текстов на уроках, совершенствуются формы работы с текстами. Одновременно изменились и требования к тексту и формы работы с ним на уроках.

Современная жизнь ставит перед учеником новые цели: свободное владение языком, умение общаться с различными людьми в различных ситуациях, испытывая при этом чувство комфорта, уверенности в себе. Текст стал предметом активного внимания методистов со второй половины XX века. В новом поколении учебников по русскому языку текст является обязательной дидактической единицей учебного материала. Текст в методике преподавания русского языка используется как предмет обучения, а также как средство обучения иным языковым единицам: словам, предложениям, сложным синтаксическим целым, которые изучаются в структуре текста и усваиваются как важные компоненты речи.

Текст является дидактической единицей. В методике работа над текстом осуществляется на основе речеведческих понятий, которые усваиваются в виде умений производить учебные действия с этими понятиями и правилами. Текст - это не просто дидактическая единица, но универсальная дидактическая единица, позволяющая слить воедино два важнейших направления: познание системы формально-языковых средств языка и познание норм и правил общения. Неоценима роль текста в обучении всем, без исключения, видам речевой деятельности. Связный текст выражает законченную мысль, дает материал для речевой практики, позволяет показать источник информации, словарь, все виды речевой деятельности, решает обучающие и воспитывающие цели занятия.

В идеале каждое занятие русского языка должно включать в себя работу с текстом. Такая работа совместима с любой программой по русскому языку. Каждая синтаксическая тема, каждое явление языка должно изучаться на материале текстов: теория проверяется на практике, обучающиеся видят, как правила и законы синтаксиса реализуются на практике, то есть в тексте.

Один и тот же текст можно использовать неоднократно, каждый раз отыскивая в нем что-то новое. Тексты по их содержанию можно рассмотреть как: 1) указание - разъяснение значения слова путем перечисления предметов, явлений, называемых этим словом; 2) описание - выделение внешних признаков предмета, явления, события; 3) характеристика - раскрытие наиболее выдающихся признаков предметов, явлений; 4) пояснение - раскрытие какой-либо части понятия с определенной целью; 5) сравнение - пояснение одного понятия другим, более знакомым, ясным.

Текст выполняет все учебные функции: дидактическую, познавательную, обучающую, развивающую, коммуникативную. Кроме этого, при работе с текстом происходит формирование языковой и речевой компетенций. Цель работы с текстом на уроках русского языка – постижение закономерностей построения, знакомство со стилистическими, фонетическими



ми, морфологическими, синтаксическими и орфографическими ресурсами языка. Эти цели достигаются в процессе использования следующих видов деятельности: нахождение границ предложений в тексте; Основными свойствами, определяющими цельность текста (и, соответственно, связность речевого высказывания), являются тематическое, смысловое и структурное единство, композиционное построение грамматическая связность.

Таким образом, можно сделать вывод, что работа с текстом на уроках является не целью, а средством для развития связной речи у школьников. Воспроизведение, трансформация и информационная переработка текста имеют и самостоятельную ценность, и вспомогательную ценность как ступень формирования умения создавать собственные тексты. Текст при обучении школьников связной речи выступает в качестве основной дидактической единицы, так как он позволяет слить воедино два важнейших направления: познание системы формально-языковых средств языка и познание норм и правил общения. Именно в тексте все единицы: языка представлены в естественной ситуации, в естественном положении и окружении. Использование на уроках русского языка комплексного анализа текста приближает к конечной цели обучения русскому языку - добиться высокого уровня практической грамотности, языковой и речевой компетентности и духовно-нравственного развития учащихся. В ходе такой работы, осуществляемой на занятиях русского языка, обогащается словарный запас обучающихся, формируются навыки построения связной речи, умения высказывать свое мнение, рассуждать, вести вопросно-ответную беседу на русском языке.

Использованная литература:

1. Рахманин Л.В. «Стилистика деловой речи».- М: «Просвещение», 2018 г.
2. Актуальные вопросы современной русистики.- М., 2018 г.
3. Анализ художественного произведения.- Томск, 2016 г.
4. О педагогических технологиях.- «Учитель Узбекистана», 2015 г.



РОЛЬ ОБЩЕНИЯ В МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Эркабаев Иномжон Шавкатович
Психолог юридического техникума

Аннотация: В этой статье обсуждается важность, роль, культура межличностного общения и отношения в жизни человека.

Ключевые слова. общение, отношение, личность, культура, интерактивность, депрессия

Коммуникация является важным условием жизнедеятельности человека. Именно посредством коммуникации у людей появляется возможность совместного действия для освоения ими природы и удовлетворения своих индивидуальных потребностей. В процессе коммуникации формируются определенные образы и модели поведения человека, которые впоследствии входят во внутренний мир человека. Способности мышления, анализа и оценки окружающего мира и своего образа формируются в процессе коммуникации. Подробно исследовавший данную проблему, польский психолог Е.Мелибурда утверждает, что коммуникация в межличностных отношениях для нас очень важна.

Из-за того что коммуникация это очень сложный процесс, ей трудно дать точное определение. Поэтому сущность понятия коммуникации обычно определяется акцентированием на его некоторые аспекты. А) коммуникация – это процесс установления связи исходящее из потребности совместной деятельности, а также его развитие. Б) коммуникация – это взаимовлияние субъектов через систему знаков.

В учебнике «Общая психология», вышедшей под редакцией А.В.Петровского, коммуникация определяется как процесс, состоящий из обмена информацией, взаимодействия и взаимопонимания между двумя и более лицами.

А в учебном пособии «Общая психология», изданном под авторством М.Г.Давлетшина, говорится, что коммуникация – это взаимодействие, состоящее из обмена информацией по получению знаний и носящий аффективный оценочный характер между двумя и более лицами.

В кратком толковом словаре «Психология», изданного под руководством М.Г.Давлетшина, коммуникации дается следующее определение: коммуникация – это влияние двух или более человек друг на друга.

В учебном пособии «Психология семьи», изданного под редакцией Г.Б.Шоумарова, коммуникация между людьми и её общие закономерности считаются самым важным условием взаимоотношений между ними в различных сферах жизнедеятельности человека. Ум, воля, чувства, культура, воспитание, вежливость человека – все это те черты, которые сформировались под воздействием коммуникации.

По вышеизложенным определениям понятию коммуникации можно дать следующее краткое определение, что это процесс взаимодействия не менее двух лиц, когда происходит обмен информацией, устанавливается и развивается отношение.

Понятие общение должно различаться от понятия коммуникация. Коммуникация означает обмен информацией между живой и неживой природой. Обмен сигналами между животными, обращение человека с техническими средствами – все это может рассматриваться как пример коммуникации. Общение может осуществляться только между людьми. Значение общения в жизни человека бесценно. Человеческий ребенок именно в процессе общения и отношения с другими становится личностью. Через общение человек усваивает социальный опыт и культуру. Если новорожденный ребенок лишается возможности общаться с другими, то он никогда не сможет превратиться в личность, то есть он отстает в психическом развитии. Поэтому, психическое формирование человека начинается с общения.

Человеческое общество не может существовать без общения. Именно общение формирует общество индивидов, функционирующее в сотрудничестве. Для составления плана совместной деятельности и его реализации должно производиться общение между индивидами. Посредством общения организуется и осуществляется совместная деятельность. В этом отрезке времени на протяжении деятельности между людьми формируются все



новые отношения и связи.

То, что общение в жизни человека имеет большое значение, можно увидеть в следующих примерах:

1-пример. В 1938 году Ричард Бард по своему желанию на 6 месяцев остался один среди ледников Антарктиды. С одной стороны ему были интересны результаты опыта, с другой, он хотел немного отдохнуть от суеты повседневной жизни. Впоследствии этот период своей жизни он вспоминает так, в течение этого периода, когда я жил здесь, каждое движение, каждая работа начали казаться бессмысленной, бесцельной, нелогической. Несмотря на то, что я не боялся опасности, я начал опасаться, чтобы меня не придавило крышей. Регулярность питания нарушился, перестал следить за собой.

2-пример. Было время, когда в Америке во всех пунктах питания быстро шла автоматизация. Но через некоторое время хозяева этих ресторанов начали обанкрочиваться. Оказывается, что люди заходили сюда не только закусить, но и для того, чтобы найти собеседника.

Из этого видно, что люди постоянно испытывают потребность в общении, и они пытаются удовлетворить эту потребность. Сегодня, как и все сферы, быстрыми темпами развивается психология и его отрасли. Имеются тесты, методики и тренинги по диагностике общительности личности и коррекции их результатов. В целях определения степени общительности среди студентов был проведен тест по «Определению общительности личности» и проанализированы их результаты.

«Отрицательные свойства»

Цель: создание условий для самовыражения личности, формирование у него уверенности в себе.

Участники располагаются в форме круга.

Психолог: как вы думаете, какое свойство мешает человеку начать общение, найти свое место в межличностных отношениях? Перечислите среди них 3 основных и серьезных свойств.

Происходит обсуждение с группой. Высказанные мысли записываются на экране. После того, как все члены группы выскажут свое мнение, положение подробно анализируется.

Например, застенчивость, агрессия, низкая самооценка.

После этого прочитывается отрицательное свойство, делается попытка найти его положительные стороны в определенных ситуациях. Здесь каждый участник, не повторяя другого, перечисляет положительную черту отрицательного свойства.

Застенчивость – это знак воспитанности, помогает скрыть отрицательные стороны человека. (Максим Галкин).

Агрессия – это способ защиты себя и свое мнение. У таких людей потребности обычно удовлетворяются. (Майк Тайсон)

Низкая самооценка – они, не удовлетворяясь самим собой, всегда стремятся идти вперед, стараются использовать свои другие возможности. (Амир Темур, Наполеон)

Список использованной литературы

1. Ф.Л.Хайдаров, Н.Л.Халелова «Общая психология»
2. Г.Б.Шоумаров, И.О.Хайдаров «Психология семьи»



BIOLOGIYA FANINI O‘QITISH SHAKLLARINING UMUMIY TAVSIFI

*Юсупова Мурибатхон Собиржоновна
Наманган вилояти Уйчи туманидаги
31-сонли умумий урта таълим мактабининг
биология фани уқитувчиси*

Annotatsiya: ushbu maqolada biologiyani o‘qitish shakllarining umumiy tavsifi berilgan va tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: biologiya, o‘qitish shakllari, o‘quvchi, botanika, fan, jarayon

O‘qitish jarayoni deganda, o‘quvchilarning muayyan o‘quv materialini o‘zlashtirish, bilish usullarini egallashga qaratilgan o‘quv-bilish faoliyati va o‘qituvchining mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik faoliyati orqali o‘zaro hamkorlikda o‘quv maqsadlariga erishiladigan jarayon tushuniladi.

O‘qitish jarayoni tashkil etiladigan va boshqariladigan jarayon ekan, u qanday shakllarda tashkil etiladi degan savol tug‘iladi? Didaktika va biologiya o‘qitish metodikasiga oid manbalarda o‘qitish jarayoni va uning shakllariga turlicha ta’rif berilgan. Jumladan, didakt olim YU.K.Babanskiy fikricha, o‘qitishni tashkil etish shakllari ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar bilan individual yoki yalpi o‘qitishning nisbati, o‘quv-bilish faoliyatining faollik darajasi, hamkorlikda tashkil etilgan o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati va o‘qituvchining rahbarlik roli, pedagogik faoliyatining me’yorini belgilaydi.

B.P.Esipov tomonidan chop etilgan “Основы didaktiki” kitobida o‘quv ishlarini tashkil etish shakllari o‘quvchilarning bilish faoliyati turlarining ketma-ketligi, o‘qituvchining mazkur faoliyatni boshqarish usullari, mashg‘ulotlarning mazmuni, tarkibi va vaqtini belgilaydi deb uqtirilgan. N.M.Verzilin, V.M.Korsunskaya ta’rifi bo‘yicha o‘qitish jarayonini tashkil etish shakllari – o‘qituvchi tomonidan tarbiyalovchi ta’lim jarayonida foydalaniladigan turli sharoit (biologiya o‘quv xonasi, ekskursiya, tirik tabiat burchagi, tabiat)da o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish tushuniladi. O‘quvchilar tomonidan biologiya o‘quv fani dasturlari va DTS bilan me’yorlangan muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish jarayoni o‘qitishning turli shakllaridan foydalanishni taqozo etadi.

Biologiya o‘qitish metodikasida o‘qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllari belgilangan. Ularga dastur talablarini amalga oshiradigan o‘qitishning asosiy shakli bo‘lgan dars, unga bog‘liq holda ekskursiyalar, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va ixtiyoriy ravishda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar kiradi. Mazkur o‘qitish shakllari birgalikda biologiya o‘qitish shakllari tizimini tashkil etadi. O‘qitishning asosiy shakli bo‘lgan – dars, ularni bog‘lovchi vazifasini bajaradi va o‘qitishda etakchi o‘rinni egallaydi. Dars, ekskursiyalar, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar birgalikda biologiyani o‘qitishdan ko‘zda tutilgan umumiy o‘quv maqsadlariga erishishni ta’minlaydi, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish, olingan natijalarni tahlil qilishga xizmat qiladi. O‘qitishni tashkil etish tizimining tarkibiy qismlari bo‘lgan dars, ekskursiya, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning har biri biologik ta’lim oldiga qo‘yilgan umumiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan alohida o‘z ulushi mavjud. Mazkur ulushni xususiy maqsadlar ham deyish mumkin.

O‘qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllarida ta’lim mazmuni, maqsadi, vazifasiga bog‘liq holda muayyan metod va vositalardan foydalaniladi. SHu sababli o‘qituvchi tomonidan o‘qitish shakllarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi, ya’ni ta’lim mazmuni, mazkur shakllarning maqsadi, vazifasi, ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni, ularning xususiy maqsadlariga mosligi e’tiborga olinishi lozim. Masalan, o‘rganiladigan mavzu kattalashtiruvchi asboblar yoki laboratoriya jihozlari bilan bog‘liq, shuningdek, anatomik mazmun, fiziologik jarayonlar, nazariya, g‘oya, tushunchalar, qonunlar, masala echish o‘rganiladigan bo‘lsa, unda albatta o‘qitishning asosiy shakli bo‘lgan darsni tanlash zarur. Agar ta’lim mazmuni o‘simlik yoki hayvonot dunyosining xilma-xilligi, turli ekologik muhit sharoitiga moslashishini o‘rganishni talab etsa, bu holda ekskursiya tashkil etilishi yoki videofilmlar namoyish qilish maqsadga muvofiq. Ekologik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirishda dars bilan bir qatorda, darsdan



va sinfdan tashqari ishlar ham muhim o‘rin tutadi. Kuzatish o‘tkazish va tajriba qo‘yishda uy ishlari, darsdan va sinfdan tashqari ishlar muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchi tomonidan o‘qitish shakllarini to‘g‘ri tanlashda biologiya o‘quv xonasining jihozlanishi va o‘quv-moddiy texnika bazasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi o‘qitish shakllarining maqsadi va vazifalarini to‘g‘ri anglagan holda, mazkur jarayondan tasviriy, tabiiy va tarqatma materiallar tayyorlash orqali ko‘rgazmalilikni amalga oshirishni ko‘zda tutishi lozim. Shunday qilib, biologiyani o‘qitish shakllari: dars, ekskursiya, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar muayyan tizimni hosil qilib, ular o‘quvchilarda belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish, bilish faoliyati usullarini egallash va o‘qitish samaradorligini orttirishga xizmat qiladi. nini beradi.

Biologiyani o‘qitishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur o‘qitish shakli ixtiyoriy bo‘lib, o‘quvchilarning biologiya o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishi, olamni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning uch turi mavjud: yakka tartibda individual tarzda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar; guruhlarda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar; ommaviy tarzda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar.

Adabiyotlar:

1. Mavlonov O, Toshmanov N. Zoologiya darslari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya o‘qituvchilari uchun o‘quv-metodik qo‘llanma. (7-sinf) “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent-2012 y.

2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015



ФОРМЫ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ

*Якубова Гуллола Низамиддиновна,
Учитель начального обучения
средней общеобразовательной
школы № 13 г. Навоий*

Ключевые слова: дидактический материал, краеведческий аспект, вопросы правописания, фрагментарность помещаемых материалов.

Классный уголок русского языка

Это форма работы строится полностью в соответствии с программой и учебником, помогая школьникам лучше освоить новую тему. Он функционирует в процессе изучения всей темы и даёт дополнительную информацию об интересующем нас языковом явлении, предлагает различные занимательные упражнения, помогает ученикам заглянуть за страницы учебника.

По содержанию материалы уголка охватывают все направления программы (теоретический аспект, вопросы правописания, культуры речи, стилистики), по характеру заданий упражнения иногда совпадают с предлагаемыми в учебнике, а не редко имеют повышенную трудность, преподносятся в виде познавательных задач. Принимая во внимание линии, намеченные учебником, учитель подбирает дидактический материал для уголка с учётом предъявляемых к нему требований, которые выдерживаются на уроках. Это – показ любопытного, интересного в самих фактах языка, предпочтение связных текстов отдельным примерам, постепенное усложнение заданий и т.п.

Уголок русского языка как форма внеклассной работы имеет право и на некоторые свои особенности, например: осуществление разнообразных межпредметных связей, отражение краеведческого аспекта, событий последнего времени (местный колорит и «сиюминутность» содержания), учёт конкретной обстановки (особенностей местного говора, типичных ошибок учащихся, направленности их интересов и др.), более развёрнутый, чем это позволяет урок и учебник, справочный материал, практические советы учителя, направленные на лучшее осмысление и запоминание изучаемого, наличие в уголке юмористическо-игрового раздела, связанного, естественно, с содержанием представленной в уголке темы.

Разумеется, надо иметь в виду, что уголок русского языка – лишь вспомогательное средство, поэтому в нём допустима фрагментарность помещаемых материалов: полнота упражнений к одним разделам темы и отсутствие к другим, усиление или ослабление того или иного раздела темы и т.п. Одним из основных требований к работе уголка является сменность его содержания: это не газета, а постоянно обновляющаяся, чутко реагирующая на изучение нового и синхронно с ним действующая форма внеклассной работы.

Уголок имеет определённое своеобразие и в сравнении с другими формами внеурочных занятий: к его содержанию ученики могут возвращаться неоднократно; он не торопит с ответом, а даёт возможность перечитать нужное ещё раз, не спеша подумать и найти правильное решение; он позволяет решать задачи не в одиночку, а группами, не мешает спорить, обсуждать; он может предложить наиболее понравившееся или вызвавшее споры упражнение ещё раз и не возражает против новых, предлагаемых детьми материалов; он располагает таким сильным средством, как наглядное преподнесение материала: выделение необходимого цветом, шрифтами, использование рисунков, схем, таблиц и т.п.

Оформляют уголок по-разному. Одни предпочитают формы небольшого стенда в виде развернутой книги или древнерусского свитка. Другие пользуются деревянной решёткой (приблизительные размеры: 100*70), позволяющей легко размещать на ней аккуратно написанные на плотных листах альбомного формата упражнения, задания и пр.



Изучение школьниками новой темы похоже на открытие ими незнакомого места на полной загадок земле, именуемой Русский Язык.

Уголок может быть оформлен и как путеводитель по новому пункту, где внимательный хозяин и знаток своей страны – учитель в материалах – буклетах привлекает внимание ступивших на эту землю к наиболее нужному, важному и интересному. Он не сторонний наблюдатель, бесстрастно обновляющий содержание уголка, а человек, крайне заинтересованный в том, чтобы это содержание остановило внимание учеников, заставило задуматься, обогатило их.



НОВЕЛЛАДА БАДИИЙ ПСИХОЛОГИЗМ

*Дильфуза Камалова,
Ўзбекистон Республикаси
Фанлар академияси Қорақалпоғистон
бўлими Қорақалпоқ гуманитар
фанлар илмий-тадқиқот институти докторанти
+998(99)958-90-07
dilkamalova@mail.ru*

Аннотация: Мазкур мақолада новелла жанрига ва унинг хусусиятларига тўхталган. Соҳа тадқиқотчиларининг жанр юзасидан билдирган фикрлари ва бадиий психологизм масалалари таҳлил қилинган. Шулардан келиб чиққан ҳолда қорақалпоқ адабиётидаги новелла жанридаги асарлар ҳар томонлама ўрганилиб чиқилган.

Калит сўзлар: Новелла; жанр; психологизм; адабиёт; ёзувчи; ижод; намуна; ҳикоя; ҳодиса; инсон; воқеа; тадқиқот; хусусият.

Сўзнинг ҳар қандай бадиийлаштирилган шакли, у оғзаки ёки ёзма бўлишидан қатъий назар, инсон маънавий-психологик оламига таъсир ўтказиши жиҳатидан муҳимдир. Бадиий асар тайёр ҳолга келган тақдирда ҳам, ўқувчисини топмағунига қадар, ўзининг етакчи эстетик вазифасини бажара олмайди. Фақат бадиий асарнинг ўқувчи билан бошланган нуқтада у жонланади, таъсирли моҳият касб этади. Худди шу нуқтада бадиий психологизм механизми ишга тушади. Сўзловчи ёки ёзувчи бадиий баёни, тасвир усули, психологик ифодалаш услуби жонланади. Ҳар қандай асарнинг бадиийлиги унда инсоннинг ички кечинмаларини тасвирланишида кўринади. А.Б.Есин: “Психологизм - бу адабиётнинг ўзига хос воситалари кўмагида ҳаёлий (тўқилган) шахс (адабий персонаж) ҳис-туйғу, фикр ва кечинмаларини етарлича тўлиқ, батафсил ва чуқур қилиб тасвирлаш” [1; 18], деган таърифни беради. Л.Я.Гинзбургнинг таъкидлашича, психологизм персонаж ички дунёсининг рационал, соддалаштириб тасвирланиши билан бақамти эмас, балки: “Бадиий психологизм қахрамоннинг ўзини тутишидаги ҳаёлга ҳам келмаган, ногаҳоний, тасодифий қарама-қаршилиқлардан бошланади” [2; 300]. В.В.Компанеец томонидан психологизм тасвир усулидан кўра, муаллиф психологиясини бадиий акс эттириш воситаси деб тушунилади. “Асарда психологик таҳлилнинг пайдо бўлиши, - дея қайд этади В.В.Компанеец, - унинг шакли ва типологияси кўпинча ёзувчи дунёқарашига, мақсадига, истеъдоди ва шахсий фазилатларининг характерига, асардаги вазиятга қарамдир. Айни чоғда, афтидан, психологик таҳлилни онглиликка асосланган эстетик принцип сифатида баҳолай туриб, унинг у ёки бу хусусиятлари сўз рассоми томонидан атай танланганлигини нисбийлаштириш шарт эмас» [3; 47]. Асар қахрамонларининг ички руҳий кечинмалари муаллиф томонидан қанчалик чуқур ва образли очиб берса, унинг ўқувчига таъсири ҳам чуншалик кучли бўлади. Бу борада профессор Й.Солижонов ўз тадқиқотларида XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси ҳақида сўз юритаётиб, монологик ва диалогик нутқ орқали шахс ички оламнинг кашф этилиши асар поэтикасини ифодаловчи восита эканлигига диққат қилади [4; 302].

Бадиий асар психологизми ҳақида фикр юритилганда, аввало, бадиий сўз, жумла, монолог, қахрамонлар ҳис-туйғу, кечинма ва фикрларининг муаллиф томонидан баён қилиниши назарда тутилади. “Сўз тилнинг предмет, ҳодиса, воқелик муносабатлари ва уларнинг хусусиятларини аташ учун хизмат қиладиган асосий структур-семантик яхлитлигини намоён этади. Сўз бирикмаси ҳам предмет, ҳодиса, жараён, сифатларни аниқлаштириш воситаси ҳисобланади» [5; 108].

Қорақалпоқ адабиётида новелла жанри бўйича илк маротаба қалам тебрата бошлаган ва мазкур жанрда узлуксиз ижод қилиб келаётган Алписбой Султанов, Марат Таумуратов, Кенес Смамутов, Ўмирбой Утеўлиевларни алоҳида келтириб ўтиш жоиз. Шунинг билан бирга, Минойхан Жуманазарова, Бозорбой Есмурзаев, Ҳурлиман Утемуратова, Гўлайим Турсинова, Гулнора Ибрагимова каби ёзувчиларнинг ижодида новелла ёзишга бўлган кучли иштиёқ кўзга ташланади. Ушбу ижодкорлар томонидан яратилган новеллаларни таҳлил қилар эканмиз, уларни ўз тажриба ва маҳорати ҳамда услубидан келиб чиққан ҳолда жанр-



нинг ўзига хос хусусиятларини очиб берганлигини кўриш мумкин. Масалан, А.Султановнинг «Новеллалар» (2008) номли китобига киритилган бир қанча асарларида ижтимоий ҳаёт акси қаҳрамонларнинг ички кечинмалари ва тақдирига боғланган ҳолда ёритилган. Муаллифнинг «Оқибат» («Ақибет»), «Ҷазо» («Ҷаза»), «Кўрқитиш» («Қорқитиш»), «Тарбия» (Тәрбия) сингари новеллаларида ижтимоий ҳаётдаги оила, фарзанд тарбияси, ота-она ва жамият ўртасидаги муаммолар акс эттирилган бўлса, «Ёмғирдан сўнг» («Жаўиннан соң»), «Ойли оқшом» («Айлы ақшам»), «Аёл муҳаббати» («Ҳаял муҳаббаты») каби новеллаларида инсонларнинг бир-бирига бўлган меҳр ва садоқати, ишончи тасвирланган. Асар сюжетларида қарама-қаршиликлар, кескин бурилишлар ва қутилмаган ечимнинг берилиши ўқувчида теран тасир қолдиради. Умуман, А.Султанов новеллаларида ижтимоий ҳаётнинг асосий воқеа ва ҳодисалари акс эттирилган. Ёзувчи авваллари ёритилмаган мавзуларни тасвирлаб, ўз қарашларига асосланиб ечим беради.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, бугунги кун қорақалпоқ насрларида ёзувчи маҳорати асардаги сюжетни ривожлантириш, кўчатириш учун ундаги конфликт ва қаҳрамон психологиясини жонлантириб тасвирлашида намоён бўлади. Бундай маҳоратлилик қорақалпоқ адабиётида таниқли ёзувчи М.Таумуратов новеллаларидан яққол кўриш мумкин. Улар жанрий ва бадиий жиҳатдан бир қанча хусусиятларга эга. Ёзувчи биринчидан, новеллаларига мавзу танлашда, иккинчидан, сюжет ва композицияни шакллантиришда, учинчидан эса ғоявий-тематик хусусиятлари билан бошқалардан ажралиб туради. Шунинг билан бирга, муаллиф қаҳрамонларнинг руҳий-психологик ҳолатларини, ички кечинмаларини маҳорат билан тасвирлаш истеъдодига эга. Масалан, унинг «Турмушнинг иккинчи қонуни» («Турмушнинг екинчи нызамы»), «Йўл четидаги кўланка» («Жол шетиндеги көлеңке»), «Жолли» (Жоллы), «Бир тақдирнинг иши бу...» («Бир тәғдирдин иси бул...»), «Ёлғизлик салмоғи» («Жалғызлық салмағы»), «Тирикчиликнинг биринчи формуласи» («Тиришиликтиң биринши формуласы»), «Тақдир йўлларининг кесишмаси» («Тәғдир жолларының кесиспеси») ва бошқа новеллалари ҳаёт ҳақиқатини аниқ тасвирлаши ва инсонларнинг ички кечинмаларини, руҳий ҳолатларини кучли ҳиссиётлар орқали очиб бериши билан ўқувчида ижобий таассурот қолдиради.

Хулоса қилиб айтганда, қорақалпоқ новеллаларда ижтимоий ҳаёт воқеалари ҳикояга қараганда жуда қисқа лаконизмга асосланган бўлиб, унда инсон қалбидаги ички кечинма ва ҳис-туйғулар кўпроқ теран лиризм орқали берилган ва қутилмаган ҳодисалар акс эттирилган. Шунингдек, воқеалар ечими аниқ кўрсатиб берилиши билан алоҳида аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: Книга для учителя. - М.: Просвещение, 1988.
2. Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. - Л.: Советский писатель, 1971.
3. Компанец В.В. Художественный психологизм в советской литературе. (1920-е годы) - Л.: Наука, 1980.
4. Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент: ТАИ, 2002.
5. Белянин В. П. Психоллингвистика. - М.: Флинта, 2003.



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'SHISH, AYIRISH VA BO'LISH AMALI MA'NOSINI IJODIY TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Odilova Nilufar Salimovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
5-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchilari
Telefon : +998(94)254 66 88
shokirova_188 @mail.ru

Annotasiya: O'quvchini har bir topshiriqqa jiddiy yondashib, tirishqoqlik bilan bajarib, undan tegishli xulosalar qilishga o'rgatish.

Kalit so'zlari: viktorinalar, testlar, qo'shish va ayirish, ko'paytirish va bo'lish usullari, masalalar yechish usullari.

Qo'shish va ayirish, ko'paytirish va bo'lish amali ma'nosini ochib berish hamda uni bosqichlab kontsentrlarda bajarilishini o'rgatish. o'quvchilarning og'zaki va yozma hisoblash malakalarini shakllantirish. Qo'shish, ko'paytirish jadvallari hamda ularga mos ayirish va bo'lish hollarini o'rgatish. Og'zaki hisoblash texnologiyalari. Yozma hisoblash algoritmini o'rgatish.

Yoshlarda mustaqil fikrlash layoqatini o'stirish ularni hur va ozod vatanning erkin fuqarolari qilib tarbiyalash ko'p jihatdan o'quvchilar nazariy va amaliy tayyorgarligining sifatini yaxshilashga, buning uchun esa ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarni tadbiiq qilish hamda ta'limni kompyuterlashtirishga bog'liq. Bu muammoning o'ta muhimligini uqtirib I.A.Karimov bunday deb yozgan edi: "Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat-ma'rifatli insonning ikki qanotidir".

Boshlang'ich sinflarda matematikadan kompyuterli ijodiy topshiriqlardan foydalanib, mashg'ulotlar o'tilsa, o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligi oshadi, matematika faniga bo'lgan qiziqishi ortadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika darslarining 2-turi turli xildagi mashqlar yordamida bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash darslaridir. Bunday darslarning asosiy qismlari ilgari olingan bilimlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

«Mashqlar, amaliy va mustaqil ishlar bilimlarni mustahkamlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Shu sababli mustahkamlash darslarining tarkibi taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin: 1) Dars maqsadini qo'yish; 2) Uy vazifasini tekshirish va o'rganilgan materialni mashqlar, amaliy, laboratoriya ishlari va mustaqil ishlar yordamida mustahkamlash; 3) Darsni yakunlash va uyga vazifa berish».

O'quvchilar xotirasiga mo'ljallangan mustaqil ishlar ham ko'nikma, malakalarni rivojlantirish omilidir. Ular ham o'quv topshiriqlari vositasida tashkil etiladi. Mustaqil ish to'g'risida quyidagicha bilimlarni qayd etamiz: mustaqil ish ham o'quv topshirig'i asosida o'tkaziladi; mustaqil ishni bajarish talabini o'qituvchi qo'yadi; o'quvchilar o'qituvchi talabiga javob qaytarish uchun o'z faoliyatlarini tashkil etib, boshqarishadi; erishilgan natija o'quvchining shaxsiy- individual xatti-harakati mahsuli sifatida hosil bo'ladi va faoliyatda saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. T: O'zbekiston, 2015.
2. Qomusiy lug'at M.,: 1979. 201-b.
3. Ravshanov O Axborot texnologiyaari afzalliklari // Boshlang'ich ta'lim.—Toshkent, 2008. —№ 6. — B 14-15 - bet.



ТУГАРАКЛАРДА УҚУВЧИЛАРНИНГ МУСТАКИЛ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ КИЛИШ.

*Мусаева Яхшигул Норкуловна.
Самарканд вилоят Иштихон туман
ХТБга қарашли 26-мактаб
она тили ва адабиёт фани уқитувчиси.
Телефон :97.922.65.75
musayeva-yaxshigul@mail.ru*

Аннотация: Мазкур мақола уқувчиларни тугаракларга жалб қилиш тугрисида булиб, топшириларни уқувчиларга бериш усуллари ёритилган.

Калит: Мустакил фаолият, рухан, сифатли бажариш, пухта уйланган, мушоҳада қилиш, тасаввур қилиш

Тўғарак аъзоларининг ҳар куни ўз-ўзидан бирор мустақил иш турини бажаришга ўрганиши зарур. Бунинг учун аввало ўқувчиларни мустақил фаолият рухан тайёрлаш керак. Уларнинг қилаётган ишини қила олишига ва шу ишни сифатли бажаришга ишонч ҳосил қилиш керак.

Мустақил иш турлари қандай бўлиши керак? Аввало иш турлари тўғарак раҳбари томонидан пухта уйланган маълум мақсадга асосланган ва системали бўлиш керак. Бунда ҳар бир ўқувчининг имконияти ҳисобга олинса яхши бўлади.

Ўқувчиларни ақлий тараққий этишнинг шароитларидан бири ўз топшириқларини тўла эслаб қолиб бажаришларидир. Бунда бажариладиган ишнинг мақсадини тушинган, тасаввур қилган ҳолда унинг режасини белгилаш ва иш усулини танлаш, йўл қўйилган хатоларни мустақил топа олиш ва уни тузата билишларига алоҳида эътибор берилади.

Ўқувчиларни топшириқларни тез тўғри бажариши учун уни қулай усулларни танлаш, ишга ижодий ёндашиш, уни ташкил этиш учун доим етакчи саволлар бериб таянч сўзлар тавсия эйтиш фойдалидир. Ўқувчиларда мустақил ишларни сифатли қилиб бажаришда қийинчиликлар пайдо бўлиши табиий. Чунки хали уларни тасаввурлари ёрқин, сўз бойлиги етарли бўлмайди. Ўқувчиларни билим, кўникма ва малакаларга эга бўлиш учун уларнинг сўз бойлигини устириш ва ижодий тафаккурини ривожлантириш, матн яратиш малакасини шакллантириш зарур.

Тажрибалар шуни кўрсатадики, болалар тўғарак раҳбари билан ишласа ишларни тез мушоҳада қиладилар. Бу ҳолга ўрганиб қолмасликлари учун кўпроқ уларни ўзларини мустақил уйлашга давлат этиш керак. Ўқувчиларни эътиборини жалб этиш мақсадида матндаги воқеаларни эслаб нега? нега шундай бўлди? Каби саволларни бериб, уларнинг озгина фикрини маъқуллаб, яна уйласанг топасан, жуда яхши каби сўзлар билан рағбатлантириш керак.

Ўқувчининг овози ёқимли бўлиши, айтиш пайтда матн мазмунига қараб гоҳ қувноқ, гоҳ мунгли, ҳаёжонли бўлиши, гоҳ ғазаб, ундов оҳангида ифода этилиши мақсадга мувофиқдир. Ўқитувчи нутқидан руҳий озика олган болалар гап тузиш жараёнида у ишлатган сўзларни қўллашга ҳаракат қилади.

Тўғаракда ўқувчиларни мустақил фаолиятга ўргатишда қўйидагиларга амал қилиши лозим:

- бериладиган топшириқлар ўқувчиларни имкониятига мос бўлсин, қизиқиш уйғота олсин.

- иш осондан қийинга, соддадан мураккабга қараб йўналса ўқувчига тушинарли бўлади.

- иш бажаришда болаларда ишонч ҳисси уйғотсин, ишга киришишда уларни ўзларида дадиллик сезсин.

- топшириқларни ҳамма бир вақтда бошлаб маълум бир вақтда тугатиш кераклигини эслаб, болаларни иш талабини бажаришга кўниктириш лозим.

- топшириқларни дарснинг турли босқичларида бажариши мумкин.

Тўғаракда ўқувларга расмларга қараб ишро этиш, матнга мос расм чизиш, режа тузиш, саволлар тузиш вазифалар бериш, парчаларни танлаб ўқиш, ҳикояга мос мақоллар танлаш, тест топшириқларини бажариш каби мустақил ишларни топшириш мумкин.



Тўғаракда ўқувчиларга мустақил ишларни бажариши учун алоҳида “Кундалик кўзатиш дафтари” тутишлари мумкин. Улар иншолар ёзиш, расм чизиш, ҳар фаслдаги байрамларни қайд этиш, эртак қаҳрамонларига тавсиф беришлари асарлардаги ўзларига фикр ёки мақолларни ёзиб беришлари мумкин.

Тўғаракларда ўқувчиларнинг луғат бойлигини устиришга сўз ва ибораларнинг мазмунини билишига нутқда, ёзувда ўринли ишлата олишга эришиш ва ўқувчи қалбидаги машъали ёкиб юбориш, уни ижодкорликка мушоҳада қилишга, мустақил фикрлашга ўргатиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Мактабда ташкил этилган тугараклар ва утилган тугаракларнинг дарс таҳлил натижалари.



Самарқанд вилояти Иштихон туманидаги 26-умумий ўрта таълим
мактаби она тили ва адабиёти фани ўқитувчиси Мусаева Яхшигулнинг

Оилада китобхонлик маданиятини
ривожлантириш – жамият тараққиётига
пойдевор қўйишдир мавзусидаги мақоласи

Мавзу: Оилада китобхонлик маданиятини ривожлантириш – жамият
тараққиётига пойдевор қўйишдир.

Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонидан илгари сўрилган 5 ташаббуснинг туртинчи йўналишда белгилаб берилганидек “Ёшларни маънавиятини юксалтириш, уларнинг ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш” ғояси муҳим ҳисобланади. Ёш авлодни билимли бўлишида китобнинг аҳамияти беқиёс экани ҳеч кимга сир эмас. Шуни ҳисобга олган ҳолда китобхонликни ёш авлод онгига сингдириш муҳимдир. Китоб ўқиган инсонда ҳеч қачон ёмонлик, ғазаб, мутхиш фикрлар бўлмайди. Илмли инсон эзгуликни уйлайди. Ўзгаларга яхшилик улашишни истайди. Ёш авлодга замонавий таълим бериш билан бирга уларни умуминсоний ва миллий қадриятлар юксак инсоний фазилатлар руҳида тарбиялаш, онги ва қалбини мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш давлатимизнинг диққат марказида бўлиб келмоқда.

Мустақил Ўзбекистонимизнинг келажаги кўп жихатдан баркамол салоҳиятли авлодни тарбиялашга боғлиқ. Шунга кура давлатимиз ва жамиятимиз учун хизмат қиладиган етук соғлом ҳар томонлама ривожланган авлодни тарбиялашдан иборатдир. Соғлом авлодни тарбиялашда бу етук умуминсоний қадриятларга асосланган маънавий бой ахлоқан етук, интеллектуал ривожланган шахсни тарбиялашга йўналтирилган кенг куламини чора тадбирларни амалга ошириш асосий воситалардан ҳисобланади.

Китобни ўқишга ва унга чексиз ҳурмат кўрсатиш оиладан бошланади. Оилада катта ёш вакиллари бу борада болаларга наъмуна бўлишлари, исбот талаб қилинмайдиган ҳақиқатдир. Китобга ошно бўлган қалбларда ҳеч қачон ёмонлик чикмайди.

Сўз мулкининг султони Алишер Навоий жуда кичик ёшданоқ китобга меҳр қўйишга унинг оиласидаги муҳит сабаб бўлагини яхши биламиз. Зеро китоб ақлни чархлайдиган, ақл булоғини очадиган ва уни илҳомлантирадиган буюк мужизадир.

Болалар китобхонлигини шакллантиришда мактаб ҳамда ота-оналар зиммасига ниҳоятда мураккаб ва масъулиятли вазифа юкланади. Маълумки бола китоб ўқишни билган тақдирдагина китоб унинг маънавий ҳаётида муҳим рол уйнайди. Ҳозирги завон китобхони китоб дунёсини ҳаётдан узилган бир завқланиш воситаси сифатида қабул қилмаслиги керак, балки кўзга ташланмайдиган ёки кўникмага айланган ҳаётни чинаккам хикматлар ҳазинаси эканлигини англаши зурур. Шундагина Ватан келажагини, халқ эртасини илм тараққиёти билан обод этиш мумкинлигини тушинади. “Китоб – билим манбаи” – деган хикматнинг маъноси чиқадиган. Ушбу фикрлар баландпарвоз гаплар эмас жамият олдида эзгу мақсад эканини, миллий дастур ва таълим стандартларидаги ислохатлар эканлигини тасдиқлаб туради. Комил инсонни шакллантиришда китобни боланинг яқин дустига айланиши оиланинг олийжаноблик ва энг мақбул ғамхурлигидир. Фақатгина бола ёшига қараб китобни танлай билиши лозим. Шундагина биз ёш авлодни имон, эътиқодли авлол сифатида Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялашда китобнинг беқиёс раҳномо эканлигини исботлаган бўламиз.

Оилада ота-она, бобо-бувилар болаларга юксак ақл – заковатли, маънавий етук, китобсевар, ибратли бўлсаларгина шу оилада вояга етган фарзанд маънавий дунёси бой, комил инсон сифатида вояга етади.



ДИАГНОСТИК МАДАНИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛИ

Қодирова Халимахон Нурмухаммад қизи
Андижон давлат университети ўқитувчиси
Телефон: +998 97 998 76 48
halima.qodirova@mail.ru

Аннотация: Мақолада диагностика маданиятни шакллантиришга оид соҳа олимларининг ўзаро қарашлари, қарашлардаги ўхшашлик, қарашларнинг йўналишлари ва ундаги фикрлар мутаносиб ва номутаносиблиги назарий жиҳатдан таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: маданият, диагностика, педагогик диагностика, диагностика маданият, назарий таҳлил.

Ўзбекистон Ресубликасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мувофиқ юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш”¹ устувор вазифа сифатида белгиланди. Натижада бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг диагностика маданиятини шакллантириш ҳамда инновацион фаолиятнинг репродуктив, родутив, қисман изланувчи ва креатив даражаларини пухта эгаллашлари учун педагогик шарт-шароитлар ва дидактик имкониятлар яратилди.

Педагогик муаммоларни ҳал қилишда турли хил замонавий ёндашувларнинг хилма-хиллигини инкор қилмасдан биз ўз тадқиқотларимизда педагогик билимлар моҳиятан маданий жиҳатдан изчил, жамият маданиятининг у ёки бу даражасини ривожлантириш позициясига риоя қиламиз. Шу сабабли турли хил педагогик ҳодисаларни ўрганиш маданиятли ёндашишга мурожаат қилишни назарда тутди. Бу И.Ф.Исаев таъкидлаганидек, аввало, маданиятни умумий фалсафий тушунчаси доирасида кўриб чиқилиши керак.

Педагогик таълим муаммоларини ўрганишда ушбу ёндашув касбий фаолиятда ўқитувчи шахсиятининг ижодий жиҳатдан ўзини англашини таъминлайдиган педагогик кадрлар ва технологияларни ривожлантириш учун шароит яратишга қаратилган назарий-услубий қоидалар ва ташкилий-педагогик чора-тадбирлар тўпламидир (Исаев И.Ф. 2002)².

Замонавий маданиятшуносликда учта феноменологик йўналиш қайд этилган. Биринчидан, фалсафий ва антропологик маданиятни инсон табиатининг ифодаси сифатида инсон хусусиятларидан келиб чиқиб талқин қилади. Иккинчидан, инсоният тарихининг пайдо бўлишини, насл яратиш механизмини фалсафий ва тарихий очиб беришни талаб қилади (бу ҳам фаолиятдир). Учинчидан, маданиятни инсон, социологик, табиат, тарих, жамият билан таққослаб кўриб чиқади.

Диагностика маданият – бу ўқитувчи шахсининг ўзига хос (диагностика) касбий фаолияти орқали амалга ошириладиган мураккаб қиймат-семантик, динамик таълим деб тахмин қилсак, диагностика маданиятни иккинчи фаолият йўналиши доирасида ташкил этамиз.

Маданиятнинг фаолият концепцияси уни инсон фаолиятининг ўзига хос усули сифатида ўрганишни назарда тутди. В.М.Межуев “Маданиятни ўрганиш энг муҳим, бу инсон фаолиятининг моҳиятини очиб беришдир. Фаолият ва маданият ўртасидаги боғлиқлик, уни тушунтириш ва ўрганишда дастлабки белгиловчидир” -деб ёзди³.

Ушбу маданият концепцияси вакилларининг асарларини таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, маданият улар томонидан табиатни ва жамиятни ўзгартириш учун ижодий ва конструктив фаолият сифатида тушунилиб, бунинг натижаси моддий ва маънавий кадрларни доимий равишда тўлдириш, инсоният тарихи бойлигини шахсининг ички бойлигига айлантириш, барча муҳим инсон кучларини такомиллаштиришдир.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. LEX.UZ

² Исаев И. Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / - М.: Академия, 2002. 6-с.

³ Межуев В. М. Предмет теории культуры / В. М. Межуев // Проблемы теории культуры. - М., 1977, 57-с.



Иккинчи йўналиш вакиллари (В.М. Межуев ва бошқалар) маданиятнинг шахсий жиҳатларини ўрганадилар; уларнинг диққат марказида шахс фаолият ва мулоқот субъекти сифатида, ижодий фаолиятга эга ва ўзини такомиллаштиришга интилади; маданият - бу шахснинг ўзини ривожлантириш усули-деб қарайди¹.

Маданиятни таркиб топиши натижасида ўқитувчининг диагностик маданиятини шакллантириш масаласида ҳар икки йўналиш вакиллари ўзининг қарашларини аниқ далиллар билан намоён этиши таҳсинга сазовор десак адашмаган бўламыз.

Хулоса қилиб айтганда, соҳа олимларининг ўзаро қарашлари, қарашлардаги ўхшашлик, қарашларнинг йўналишлари ва ундаги фикрлар мутаносиб ва номутаносиблигининг назарий таҳлили диагностик маданиятни шакллантиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. LEX.UZ
2. Исаев И. Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / . - М.: Академия, 2002. 6-с.
3. Межуев В. М. Предмет теории культуры / В. М. Межуев // Проблемы теории культуры. - М., 1977, 57-с.
4. Силяева Е. Г. Теоретические основы формирования профессионально- этической культуры учителя: автореф. дис.... д-ра пед. наук: 13.00.01 / М., 1995. 13- с.
5. Шендрик А. И. Теория культуры: учеб. пособие для вузов / М.: ЮНИТИ-ДАНА. Единство, 2002. 491- с.

¹ Силяева Е. Г. Теоретические основы формирования профессионально- этической культуры учителя: автореф. дис.... д-ра пед. наук: 13.00.01 / М., 1995. 13- с.



ДИАГНОСТИК БИЛИМЛАРГА ДОИР ҚАРАШЛАР

Қодирова Халимахон Нурмухаммад қизи
Андижон давлат университети ўқитувчиси
Телефон: +998 97 998 76 48
halima.qodirova@mail.ru

Аннотация: Мақолада диностик билимларга доир қарашлар диностиканинг умумий назариясига кўра диностика таркибида когнитив жараённинг босқичлари, семантик равишда диностика когнитив жиҳатдан боғлиқлиги юзасидан диностик билимларга доир қарашлар баён этилган.

Калит сўзлар: диностик билим, диностика таркиби, когнитив жараён босқичлари, семантик боғлиқлик.

Жаҳон таълим муассаларида узлуксиз таълимнинг устувор йўналишларини аниқлаш, бўлажак ўқитувчиларининг диностик маданиятини шаллантиришнинг реатив-модулли технологиялари амалиётга жорий этилган. БМТнинг таълим, фан ва маданият масалаларига диор Битимида “Инновацион технологиялар воситасида ўқитишни тубдан яхшилаш”¹ масаласи асосида бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг диностик маданиятини шакллантиришда инновацион таълим методлар татбиқ этилса, таълим йўналишлари стратегиясини белгилаш бўйича йирик лойиҳаларни амалга бўйича тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Диностика тушунчаси ушбу жараённинг моҳиятини очиб беради ва билиш моҳиятига мос келади. Шу билан бирга, бирликда мавжуд бўлган ва маълум бир яхлитликни ташкил этадиган билим жараёни сифатида диностиканинг таркибий қисмлари қуйидагилардан иборат:

- диностика мақсадлари ва вазифалари;
- диностика тамойиллари, диностика объекти ва диностика объекти назарияси;
- диностика мезонлари ва кўрсаткичлари тўплами;
- танланган кўрсаткичлар ва мезонларга асосланиб объект ҳолатини тан оладиган, маълумотларни йиғиш ва қайта ишлаш усуллари тўплами.

Семантик равишда диностика когнитив жараён сифатида қуйидагиларга боғлиқ:

- ташхис қўйилган объектнинг назарий жиҳатдан маълум бўлган маълумотлари ва эмпирик кузатилган ўзига хос ҳолатлари ўзаро боғлиқ бўлиб, кейинчалик эмпирик маълумотларнинг назарий таҳлили ўтказилади;
- бунинг асосида тизимни меъёрий ҳолатга қайтариш учун уни бошқариш учун ҳам, мақбул ишлаш ҳолатида сақлаш учун ҳам тегишли идрок воситаларини танлаш амалга оширилади².

Диностиканинг умумий назариясига кўра диностика таркибида когнитив жараён сифатида қуйидаги босқичлар ажратилади:

- 1) тизимнинг маълум бир вақтнинг ўзида, кичик тизимнинг ҳолати тўғрисида маълумотларни тўплаш;
- 2) тизим, жараён (объект) нинг оптимал ишлашини тавсифловчи тизимнинг асосий параметрлари тўғрисида маълумот олиш;
- 3) маълум бир тизимнинг ҳозирги ҳолати ва унинг мақбул ҳолати ўртасидаги номувофиқлик даражасини аниқлаштиришга олиб келадиган икки ёки ундан ортиқ турдаги маълумотларни таққослаш;
- 4) бошқарув сигналини ишлаб чиқиш, яъни тизимни мақбул ҳолатга келтириш учун зарур ва етарли бўлган субъектнинг таъсири;
- 5) прогноз - агар сиз аралашсангиз, нима бўлишини ва қандайдир аралашув усуллари ёки аралашмаслик билан нима бўлишини олдиндан кўра билиш;

¹ ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари //Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. –Т.: Адолат, 2004. 19-62-Б.

² Давыдова, Л. Н. Формирование у будущих учителей умений педагогического диагностирования: дис.... канд. пед. наук / Л. Н. Давыдова. — Волгоград, 1995. 17-с.



б) амалий воситалардан фойдаланган ҳолда тизимни бошқариш дастурини амалга ошириш¹.

Айтиш жоизки, диагностиканинг ўзига хос хусусиятларини когнитив жараён сифатида кўрсатган ҳолда биз хулоса қилишимиз мумкинки, диагностика умумий назариясини педагогик билимлар шароитида кўриб чиқиш назарий педагогика таркибида “Педагогик диагностика” фанини, педагогик диагностика эса ўқитувчи фаолиятининг таркибидаги ўзига хос тури сифатида педагогик жараённинг барча босқичларида ажратиб кўрсатишга имкон беради.

Педагогик диагностика инсон фаолиятининг бир тури сифатида амалга ошириш учун меъерий талабларга эга эканлиги сабабли у юқорида айтиб ўтилганидек касбий педагогик маданиятнинг махсус турини - диагностик маданиятни белгилаши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. ЮНЕСКО халқаро меъерий ҳужжатлари //Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. –Т.: Адолат, 2004. 19-62–Б.

2. Давыдова, Л. Н. Формирование у будущих учителей умений педагогического диагностирования: дис.... канд. пед. наук / Л. Н. Давыдова. — Волгоград, 1995. 17-с.

3. Силяева Е. Г. Теоретические основы формирования профессионально- этической культуры учителя: автореф. дис.... д-ра пед. наук: 13.00.01 / М., 1995. 13- с.

4. Шендрик А. И. Теория культуры: учеб. пособие для вузов / М.: ЮНИТИ-ДАНА. Единство, 2002. 491- с.

¹ Воробьева, Е. И. Диагностика как вид познавательной деятельности : дис.... канд. филос. наук / Е. И. Воробьева. - Воронеж, 1975, 17-б.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 23-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(10-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000